

**QO‘QON  
UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**3 - S O N  
MAXSUS MAQOLALAR**

**KOKAND  
UNIVERSITY  
HERALD**

**VOLUME 3  
SPECIAL ISSUES**

3/2022

# QO'QON UNIVERSITETI

## XABARNOMASI

### Ilmiy-amaliy jurnali

#### Tahrir kengashi raisi:

Sh.I.Mustafakulov

#### Bosh muharrir:

N.Muradullayev

#### Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

O.Raximberdiyev

#### Tahririyat hay'ati:

1. I.f.d., prof., S. G'ulomov (O'z.R. Fanlar Akademiyasi)
2. DSc., Mark Rozenbaum (AQSH)
3. DSc., I. Yuldashev (Woosong University, J.Koreya)
4. PhD., I. Bobojonov (IAMO, Germaniya)
5. PhD., N. Djanibekov (IAMO, Germaniya)
6. PhD., K. Akramov (IFPRI, AQSH)
7. PhD., N. Yusupov (Woosong University, J.Koreya)
8. DSc., D. Xosilova (University of Wyoming, AQSH)
9. I.f.d., prof., B. Salimov (TDIU)
10. I.f.d., prof., N. Maxmudov (TDIU)
11. I.f.d., prof., U. Gafurov (TDIU)
12. I.f.d., prof., X. Qurbonov (TDIU)
13. I.f.d., prof., R. Xasanov (Iqtisodiyot Vazirligi);
14. I.f.n., dotsent, N. Urmonov (TDIU)
15. F.f.d., prof., Sh. Shaxobidinova (ADU)
16. F.f.d., prof., M. Umarxodjayev (ADU)
17. PhD, dotsent, D. Rustamov (ADU)
18. I.f.n., dotsent, A. Islamov (Qo'qon universiteti)
19. PhD., Sh. Aktamov (Singapur universiteti)
20. I.f.n., dotsent, M. Amonboyev (TDIU)

#### Qo'qon universiteti xabarnomasi

("Вестник Кокандского университета – Kokand University Herald") ilmiy-elektron jurnali Qo'qon universiteti Kengashining qarori-ga asosan tashkil etilib, 2020-yil 10-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi to-monidan №1138 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-1695 ISSN-raqami olingan.

© "Kokand University" – 2022

#### Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri,  
Turkiston ko'chasi, 28 a-uy.

## MUQADDIMA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Zamonaviy maktabgacha ta’lim sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o’rin tutadi”, deb bejiz ta’kidlamagan. Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida maktabgacha ta’limda qamrov darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta’lim texnologiyalarini kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi asosida izchil ishlar amalga oshirilyapti.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim va tarbiya jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan xorij tajribasining nazariy asoslarini o’rganish va amaliyotga joriy qilish ta’lim tizimini yana bir pog’ona rivojlantirishda muhimdir. Qo’qon universiteti “Xabarnomasi”ning maxsus sonida jamlangan Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarining maqolalarida aynan tizimga oid xorij tajribalari va ularni mamlakatimiz ta’lim jarayoniga tatbiq etishning ahamiyati keng yoritilgan.

Joriy to’plamda maktabgacha ta’lim tizimiga oid 15 dan ziyod dolzarb mavzular chuqur tahlil etilgan. Xususan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo’naltirilgan ta’lim dasturlarini amalga oshirish, tarbiyachi-pedagoglar tomonidan qo’llaniladigan interfaol va noan’anaviy uslublar, bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bo’yicha o’sish ko’rsatkichlarini kuzatib borish, shuningdek, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olish, ularni savodga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va maktab ta’limiga sifatli tayyorlash bo’yicha xorijiy zamonaviy tajribalar o’rganilgan. Ulardan samarali foydalanish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, bolalarga o’yinlar orqali ta’lim-tarbiya berish usullari, ilg’or metodlar, bolalar bilan ishlashning o’ziga xos xususiyatlari, katta guruh tarbiyalanuvchilarining nutqini o’stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllashtirishning samarali va interfaol usullari qayd etilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish bo’yicha xorijiy va mamlakatimiz olimlarning nazariy qarashlari jamlangan.

Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimizning qobiliyatini ro’yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko’plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman”.

Ushbu jurnalda jamlangan ilmiy ishlar bolalarga yoshligidan yaxshi ta’lim-tarbiya berish, ularning kelajagi uchun puxta poydevor hozirlash, ta’lim berishning zamonaviy usul va metodlarini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

## Outline/Mundarija:

<b>1.</b>	<b>Mavzuna Abdurahimova</b>	O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari	<b>05-12</b>
<b>2.</b>	<b>Sarvinozbonu Abdusattorova</b>	Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim dasturini qo'llashda interfaol uslublar	<b>13-20</b>
<b>3.</b>	<b>Sevara Abdushukurova</b>	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish	<b>21-26</b>
<b>4.</b>	<b>Iroda Absamatova</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalar inklyuziv ta'limini takomillashtirish yo'nalishlari	<b>27-36</b>
<b>5.</b>	<b>Muslima Aminova</b>	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	<b>37-43</b>
<b>6.</b>	<b>Gulshoda Axmadjonova</b>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot jarayonlarida steam texnologiyasini joriy etish	<b>44-52</b>
<b>7.</b>	<b>Shoxistaxon Boymirzaeva</b>	3-4 yoshli bolalarga didaktik o'yinlar orqali ta'lim berish usullari	<b>53-59</b>
<b>8.</b>	<b>O'g'ilxon Boratova</b>	Maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida savodga tayyorlash	<b>60-65</b>
<b>9.</b>	<b>Zarnigor Quldasheva</b>	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining inklyuziv kompetentsiyasi	<b>66-72</b>
<b>10.</b>	<b>Nozilaxon Mamajonova</b>	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va MTT hamkorligi	<b>73-78</b>
<b>11.</b>	<b>Maxliyo Mamaziyaeva</b>	Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini takomillashtirish istiqbollari	<b>79-83</b>
<b>12.</b>	<b>Mushtaribegim Mamaraximova</b>	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyat bilan tanishtirishda interfaol usullardan foydalanish	<b>84-92</b>
<b>13.</b>	<b>Muxayyoxon Mamasolieva</b>	Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish texnologiyalari	<b>93-99</b>
<b>14.</b>	<b>Madinaxon Mansurova</b>	Rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyat orqali bolalar nutqini takomillashtirish usullari	<b>100-107</b>
<b>15.</b>	<b>Madinabonu Rustamova</b>	Maktabga tayyorlov guruhlarida matematik ta'limni rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari	<b>108-113</b>



## O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISHLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

**Abdurahimova Mavzuna**

*Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 1 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001201">https://doi.org/10.54613/001201</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> Maktabgacha ta'lim, inklyuziv ta'lim, erta bolalik, nuqsonli bolalar, maxsus bog'chalar</p>	<p>Maqolada O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash, ularning alohida ehtiyojlarini to'liq qondirish, ta'lim olish jarayoni uchun yangi usul va vositalarni kiritish, xalqaro tajribalarga asoslangan holda mavjud muammolarga yechim berish masalasi ko'tarilgan. Bundan tashqari maqolada Italiya, Germaniya, Rossiya, AQSh, Xitoy kabi rivojlangan va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyoti chuqur o'rganilgan. Ushbu davlatlar tajribasining O'zbekistonga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan amaliy jihatlari, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning yutuq va kamchiliklari tahlil qilingan.</p>

### KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida nogironligi bo'lgan yoshlarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash va bu orqali ularni sog'lom jamiyat muhitiga ortiqcha ijtimoiy to'siqlarsiz adaptiv moslashishini kafolatlash bu boradagi davlat islohotlarining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Shu ma'noda, jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchi-yoshlarni inklyuziv shart-sharoitlar asosida bosqichma-bosqich umumta'lim muassasalariga jalb etish, ularning huquqiy-ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, alohida e'tiborga muhtojlarni davlat va jamiyat uchun sifatli kadr qilib voyaga yetkazish bu boradagi davlat siyosatining mohiyatini tashkil etadi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish davlat siyosati darajasida ko'tarilmoqda. 2020-yil 13-oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarorida<sup>1</sup> 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi. Ushbu qarorda ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, tajriba-sinov tariqasida shaharlarda va Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan maktablarda inklyuziv ta'lim joriy qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun boshlang'ich tayanch sinflar ochiladi. Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashgan guruhlar tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar oyida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining<sup>2</sup> **66-maqsadida belgilangan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish" uchun** nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Imkoniyati cheklangan fuqarolarning statistikasiga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda imkoniyati

cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish mavzusi naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor ko'rish mumkin. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimiz bo'yicha rasmiy tarzda 710 mingga yaqin imkoniyati cheklangan shaxslar ro'yxatga olingan. Ularning 101 ming nafarini 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar tashkil qiladi<sup>3</sup>.

Ushbu bolalarga munosib turmush sharoitini yaratish, inklyuziv ta'limga jalb qilish hamda qamrov darajasi va hayotdagi faolligini oshirishda qator muammolarga duch kelinmoqda. Ta'lim bilan qamrab olinmagan, uyda o'tirib qolgan, imkoniyati cheklangan bolalar soni sezilarli darajada ortib bormoqda.

Maktablarda inklyuziv ta'lim bilan qamrab olish uchun shart-sharoitlar yetarli emas. 101 ming imkoniyati cheklangan bolalarning 80 ming nafari bemalol maktabga bora oladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida tuzilgan sillabus va darsliklar to'liq mavjud emas. Ularning tuzilishi interaktiv va sodda ko'rinishda bo'lsa, ta'lim sifati va samaradorligi yanada oshgan bo'lar edi.

Shu bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash jarayonida ba'zi bir muammolar ham mavjud, masalan:

- ko'zi ojiz bolalarga ta'lim berish uchun Brayl yozuvidagi notalar bilan ishlay oladigan o'qituvchilarning yetishmasligi;
- ko'zi ojizlar uchun darsliklar yetarli emas;
- darsliklarni tayyorlashda professional mutaxassislarni jalb qilish dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumki, ko'p hollarda imkoniyati cheklangan bolalarning musiqa va san'at maktablarida o'qishga ishtiyoqi baland bo'ladi. Chunki ularda eshitish qobiliyati yaxshi rivojlangan, bundan tashqari, kuylashga ham iste'dodi kuchli bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar, umuman, imkoniyatlar tanlovidan mahrum bo'lgan shaxslarda ichki va tashqi qobiliyatlarni kashf qilishda xorij tajribasi, tadqiqotlar va izlanishlar yaqindan yordam beradi.

Ta'lim olish huquqi barchaga birdek tegishli, xoh u yosh bo'lsin, xoh yoshi katta, xoh sog'lom bo'lsin, xoh nogiron. Bu huquq ko'plab qonunlar bilan ham mustahkamlab qo'yilgan. Bularga:

- "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya (1989-yil);
- "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya (2008-yil);
- Butunjahon ta'lim hamma uchun Deklaratsiyasi (1990-yil);
- YUNESKOning Salamanka bayonoti va harakatlar doirasi (1994-yil);

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5044711>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar oyidagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/>

• Dakar harakatlar doirasi (2000-yil) va yana boshqa ko'plab qonun hujjatlari va normativlar.

Bu kabi qonun hujjatlarining aksariyatiga O'zbekiston ham a'zo.

#### **Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?**

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish;
- mustaqil harakatlanish;
- hamkorlikda ishlash imkoniyati;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi;
- o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ilgari o'ziga sezilmagan imkoniyatlarini seza boshlaydi;
- yotsirash, yakkalanish kabi holatlar yo'qoladi.

#### **Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?**

- O'zlariga o'xshagan tengdoshlari borligini va ularning alohida ehtiyojlarini his qiladilar.

- Tengdoshlariga g'amxo'rlik qilish hissi uyg'onadi.
- Alohida ehtiyojga ega bolalarni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish –insonparvarlik hissi tarbiyalanadi.

- O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga yaxshi munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi.

- Yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaslikka o'rganishadi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

Shuningdek, 2021-2022-o'quv yilida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida majburiy o'rta ta'lim 11 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsanli bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab internatlarda 9 yillik muddatlarda amalga oshiriladi. Shuningdek, ularni kasbga o'qitish kurslari tashkil etilib, bitiruvchilarga sertifikat beriladi.

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishga har tomonlama sharoit yaratilmoqda. Inklyuziv ta'limni butun mamlakat bo'ylab rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bunga amaliy misol bo'ladi<sup>4</sup>.

Hech kimga sir emaski, imkoniyati cheklangan bolalar va balog'at yoshiga yetganlarning jamiyatdagi o'rnini, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati, etnik va jismoniy kelib chiqishi oddiy odamlarga solishtirganda ma'lum bir to'siqlarga ega.

Imkoniyati cheklangan bolalar bu kabi holatlardan psixologik va hayotiy travmalar olishadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat aholisining kambag'allik to'g'risidagi ko'rsatkichining qariyb 62 % i imkoniyati cheklangan aholi hissasiga to'g'ri kelyapti. Ushbu vaziyatni yanada chuqurroq o'rganish uchun Lisa Jordan, Victor Santiago Pineda, Helen Meekosha, David Mugawe, Natasha Graham va Natalia Raileanu<sup>5</sup> kabi tadqiqotchilar imkoniyati cheklangan insonlarning tarixiga nazar soldilar. Olib borilgan so'rovnomalar va izlanishlar natijasida ular bir nechta muammolarni kelib chiqishining asl sababini topdilar.

Kishilik jamiyatida imkoniyati cheklangan insonlar moddiy va ma'naviy holatining qoniqarli darajada emasligi sababi ularning yoshlik chog'idagi intensivligi, ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatsizligi va moddiy texnikaviy ta'minotning mavjud emasligida deb topilgan. Shu sababdan imkoniyati cheklangan insonlarning o'z salohiyatidan unumli foydalanishida, ularning kasbiy va moddiy holatini yaxshilash borasida mamlakatimiz, ta'bir joiz bo'lsa, butun jahon miqyosida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda.

UNICEF (United Nations Children's Fund – Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar fondi) tashkilotining bosh

mutaxassislaridan biri Sruthi Atmakur o'zining "The state of the world's children" deb nomlanadigan kitobida shunday fikrlarni ilgari suradi: "Nogiron bolalar va o'smirlar duch keladigan mahrumlik hissi ularning huquqlari va tenglik tamoyilining buzilishi bo'lib, uning zamirida barcha bolalarning, shu jumladan, jamiyatning eng zaif va yordamga muhtoj bolalarning qadr-qimmatini va huquqlariga g'amxo'rlik yotadi. Boshqalar kabi gullab-yashnash imkoniyati berilganda, nogiron bolalar to'laqonli hayot kechirish va o'z jamoalarining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotiylikligiga hissa qo'shish potensialiga ega"<sup>6</sup>.

Ta'lim olish imkoniyatlarining barcha uchun teng huquqli tarzda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi inklyuziv ta'lim tushunchasi keyingi davrlarda jahon davlatlarida bosqichma-bosqich ravishda rivojlanib bormoqda. Bu o'quv ta'lim shakli nogironligi bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda maxsus sharoitlar asosida bilim olishini ko'zda tutadi. Shu ma'noda, inklyuziv ta'limga nisbatan yondashuvlar xilma-xillik kasb etadi<sup>7</sup>.

Inklyuziv ta'limga nisbatan bo'lgan pedagogik yondashuvlarda bu ta'lim shakli jismoniy nuqsanli mavjud o'quvchilarning bilim olishini, sog'lom fikrli bo'lishini nazarda tutadi. Psixologlarning fikricha esa, inklyuziv ta'lim qo'shimcha ehtiyojli bolalarni ruhan tetik bo'lishga undaydi. Sotsiologlar inklyuziv ta'lim orqali nogironligi bor o'quvchilar sog'lom jamiyat muhitiga moslashadilar, degan fikrni ilgari surishadi. Huquqshunoslar inklyuziv ta'lim borasida so'z yuritishar ekan, uning sub'yektiv huquq ekanligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, bilim va ta'lim olishning formal shaklini tanlash huquqi har bir shaxsning, shuningdek, nogironligi bor o'quvchi yoshlarning ham konstitutsion huquqi sanaladi. O'z navbatida, inklyuziv ta'limning sotsiologik takomillashuvi hamda yuridik mustahkamlanib borishi sohada tizimli faoliyat yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bir qator soha vakillari bu borada quyidagi fikrlarni bildirishadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

O.Akimovning ta'kidlashicha, inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan o'quvchi-yoshlarning shaxsiyati va jismoniy imkoniyatidan qat'i nazar, ularga maxsus sharoitlar asosidagi o'quv jarayonlarini yaratib berishi shart. Umumta'lim maktablari inklyuziv muhit yaratish orqali ta'lim oluvchilarga sifatli ta'lim olish imko niyatini yaratib berishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

S.A.Rubinshteyn, B.G.Ananev birinchi qatorida o'quvchilarning umumiy aqliy rivojlanishini, umumiy intellektini tadqiq qilish bilan shug'ullanishdi. B.G.Ananev o'quvchining o'qish va mehnatdagi erishadigan yutuqlarini tahlil qildi. N.S.Leytes, avvalo aql sifatlarini o'z ichiga oluvchi umumiy aql qobiliyatlarini, o'quvchilarning nazariy va amaliy faoliyatini xarakterlab berdi<sup>8</sup>.

N.M.Nazarova inklyuziv ta'limning maqsadi nogironligi mavjud ta'lim oluvchilarni inklyuziv shart-sharoitlar asosida ijtimoiy hayot va fuqarolik jamiyati qonunlariga moslashtirishdan iboratdir, degan qarashni ilgari suradi. Shuningdek, inklyuziv ta'limni rivojlantirishda huquqshunoslar, sotsiologlar, psixologlar, malakali pedagoglar o'zaro hamkorlikda tizimli faoliyat yuritishlari lozim.

A.I.Jiviskayaning fikr bildirishicha, inklyuziv ta'lim, professional tuzilmalar negizida tashkil etilib, mumta'zam yangilanib borishi talab etiladi. Inklyuziv ta'limga jalb qilinayotgan alohida e'tiborga muhtoj o'quvchilarning qobiliyatlarini his etish, ularning iste'dodlarini o'quv jarayonlari mobaynida namoyon qilish defektologlar va boshqa inklyuziv ta'lim bo'yicha maxsus pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilishi zarur.

N.N.Mixaylovaning inklyuziv ta'lim borasidagi fikriga ko'ra, bu ta'lim shakli turli darajadagi nogironligi bo'lgan shaxslarning

4 Xalq so'zi gazetasi. 25 Fevral 2021 Oy barchin Abdullayeva, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zXDP fraksiyasi a'zosi.

5 "The state of the world's children". Sruthi Atmakur.

6 O'sha yerda.

7 Jamiyat va innovasiyalar – Obshchestvo i innovatsii – Society and innovations Special Issue – 01 (2022) / ISSN 2181-1415.57

8 "Pedagogik diagnostika va korreksiya". Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I. Toshkent 2019. 105 bet.

teng huquqlilik tamoyiliga asosan bilim olishini huquqiy jihatdan ta'minlaydi.

Sh.A. Dusmanovning fikricha, inklyuziv ta'lim – bu nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus ta'limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashtirilgan yordam tizimidir. U umumiy ta'lim tuzilishining muhim qismini tashkil qiladi va hamma uchun birdek ta'lim beruvchi oddiy ta'lim muassasalarida olib boriladi<sup>9</sup>.

D.S. Qaharova inklyuziv ta'limni davlat siyosati darajasidagi masalalardan biri deb ataydi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'limni rivojlantirish muammolari respublika hamda xorijiy olimlar tomonidan atroflicha tahlil qilingan bo'lsada, O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari mavzusi doirasida tadqiqotlarni kengaytirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir soha rivojida ilm-fanning tutgan o'rni beqiyosdir.



Ijtimoiy muhitga moslashuv



Tartibga solish



Ijtimoiy yondashuv



Assotsiatsiyaviy yondashuv



Shaxsga yo'natirilgan yondashuv



Tizimli yondashuv



Korreksion yondashuv



Funksional faollik yondashuvi

### 1-rasm: O'zbekistonda inklyuziv ta'limni tashkil etish xususiyatlari

**Ijtimoiy muhitga moslashuv** – bunda, nogironlarning ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda atrof-muhit hal qiluvchi o'rin egallaydi.

**Tartibga solish** – ushbu yondashuvda ta'lim sohasining tartibga solinishi va boshqarilishi tushuniladi.

**Ijtimoiy yondashuv** nogiron o'quvchilarning jamiyatga integratsiyalashuvini nazarda tutadi.

**Assotsiatsiyaviy yondashuv** inklyuziv ta'limning yakuniy maqsadi nogiron o'quvchi shaxsining moslashuvchan salohiyatini oshirish ekanligini tushunishga asoslanadi.

**Shaxsga yo'natirilgan yondashuv** nogiron o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olishga qaratilgan. Bu yerda dinamika shaxsiy yo'nalishlarning shakllanishini hisobga olish muhimdir. Ya'ni, nogiron o'quvchi ham odatdagi shaxs kabi o'quv jarayonida rivojlanishi, uning shaxsiy yo'nalishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlari o'zgarishini hisobga olish kerak.

**Tizimli yondashuv** sotsiologik yondashuv bilan bog'liq. Ushbu yondashuv jamiyatni turli tizimlar va tuzilmalarning o'zaro ta'sir tizimida ko'rib chiqiladi.

**Korreksion yondashuv** nogiron o'quvchining mavjud kamchiliklarini minimallashtirish yoki tuzatishga, shuningdek, uning ijtimoiy foydaliligi va ijtimoiy samaradorligini oshirishga qaratilgan.

**Funksional-faollik yondashuvi** pedagogik, kommunikativ, interfaol va hokazo faoliyat natijasida har bir fan guruhining (faqat atipik talaba emas) ma'lum funksiyalarini qanday samarali bajarishini aniqlaydi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim nafaqat tipik odamning o'zini anglashiga, balki uning atrofida qilargam ham ta'sir qiladi. Inklyuziv ta'lim ijtimoiy harakatchanlikning asosiy vositasi ekanligini unutmashimiz kerak. Nogironligi bo'lgan shaxs uchun ta'lim ikki

Ya'ni, ta'lim sohasining samaradorligi davlat taraqqiyotining ishonchli kafolati sanaladi. Shu ma'noda, davlat har bir shaxsning chuqur va puxta bilim olishi uchun keng qamrovli imkoniyatlar yaratib beradi.

Xususan, nogironligi bo'lgan insonlarning ta'lim olishi bo'yicha ham hukumat zarur davlat dasturlarini ishlab chiqadi va ularni bosqichma-bosqich amaliyotga kiritadi. Bu kabi davlat dasturlarining amaliyotga tatbiq etilishi jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim olish sifati oshishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, alohida ehtiyojli insonlar uchun ta'lim sohasi ular hayotining muhim sharti sifatida qabul qilinadi.

Biz o'z tadqiqot ishimizda kuzatish, taqqoslash hamda tahlil qilish metodlari va VENN diagrammasidan keng foydalandik. Tadqiqotlarimiz natijasida O'zbekistonda inklyuziv ta'lim metodologiyasi bir qator o'ziga xos xususiyatlar va yondashuvlarga ega ekanligi aniqlandi (1-rasm).

tomonlama rol o'ynaydi - bu nafaqat uning funksional imkoniyatlarini, kasbiy o'sish istiqbollari oshirish, balki yangi ijtimoiy doiraga kirish imkonini beradigan vositalarni taqdim etadi.

Ushbu metodologik taqqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlarida talaygina muammolarning mavjudligi hamda ushbu muammo doirasida inklyuziv ta'lim modelini ishlab chiqish, uning faoliyatini baholash shartlari, mezonlari, ko'rsatkichlarini belgilab beradi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Nogironlik endilikda tibbiy masala emas, balki birinchi navbatda inson huquqlari masalasi, deya qonuniy e'tirof etildi. Shuni ta'kidlash joizki, nogironligi bo'lgan bolalar uchun to'siqlardan xoli va inklyuziv muhitni yaratish orqali ularning to'liq va sifatli ta'lim olishini ta'minlash – bola huquqlarini amalga oshirishning samarali yo'llaridan biridir.

Aynan, biz o'z tadqiqotimizda "Working with disabilities"<sup>10</sup> maqolasida keltirilgan ikki nafar Indoneziyalik bolalarning faoliyatini tahlil qilib, quyidagi natijalarni qo'lga kiritdik.

Tadqiqotimiz qahramoni kasallik tufayli 5 yoshida ko'rib qoldi. 9 yoshida esa uni ota-onasi ko'rlar uchun maxsus maktabga jo'natdi. Maktab uydin 80 km uzoqlikdagi Bandung shahrida joylashgan edi. Dastlab u ota-onasi va yaqinlaridan uzoqdaligi uchun biroz qiynaldi. Keyinchalik esa u bu holatga o'rgandi. Darslarni o'zlashtirish uchun barcha sharoitlar yetarli edi. Adabiyotlar jamlanmasi, yaxshi ustozlar va ahil-inoq jamoa. Sinf xonasining kichikligi va bola soni kamligi uchun o'qituvchilar bolalarga individual tarzda yondashib, dars berar edi.

Maktab jamiyati ko'zi ojizlar va ularga bilim beruvchi ustozlardan tashkil topganligi uchun o'zaro aloqalari yaxshi,

<sup>9</sup> Ismailov B. Inklyuziv ta'lim o'quv jarayonlarining ijtimoiy-huquqiy modellari va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations

<sup>10</sup> Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings 2015.

muhit ular xohlagandek edi. Bolalar aniq va gumanitar fanlardan tashqari jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishar edi. Buning uchun ularga maxsus orientatsiya va harakatchanlik mahorat mashqlari o'tilar edi.

Hammasi judayam yaxshi edi, lekin qahramonimizning ko'zi ojizlar jamiyatini tark etish vaqti yetib kelgan edi. U haqiqiy hayotdagi muammolarni yengishga tayyor emas, jamiyatda ko'zi ojizlar haqida to'laonli to'g'ri tushunchaga ega emas edi.

U ikki yo'lning birini tanlashi lozim edi. Birinchisi, shu qiyinchiliklarga chidab ta'lim olishi, ikkinchisi esa, yana o'sha ko'rlar jamiyatiga qaytish va hayotini faqat ular bilan bog'lash.

Uning bir tanishining ham ko'zi ojiz edi, lekin u 1980-yildan integratsiyalashgan maktabga bordi. Uni atrofdagilar yaxshi kutib olishdi, yordam berishdi, ammo uning ta'lim olishi uchun zarur adabiyotlar yo'q edi. U darslarga muntazam qatnashardi, lekin ustozlar unga darslarni qanday tushuntirishni bilishmas, na metodika, na kitoblar bor edi. So'ngra ota-onasi uni ko'zi ojizlar maktabiga o'tkazishga majbur bo'lishdi<sup>11</sup>.

Bu ikki holatni taqqoslaydigan bo'lsak, integratsiyalashgan hamda maxsus maktab muammoga yetarlicha yechim bo'la olmaydi. Bu holatda barcha sharoitlarni o'zida jamlagan inklyuziv maktab imkoniyati cheklangan bolalar va ularning kelajagi uchun juda zarur.

Yuqorida keltirilgan holat bizning yurtimizda ham minglab topiladi. Bu bitta davlat uchun emas, balki butun jahon uchun hal qilinishi zarur bo'lgan muammo hisoblanadi. Hozirda rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta'lim to'laonli yo'lga qo'yilgan. Biz esa bunga bosqichma-bosqich o'tmoqdamiz. Bu holatda jahon tajribasini o'rganish va ulardan o'zimizga mos bo'lganlarini tanlab, korreksiyalab amaliyotga joriy qilishimiz zarur.

Keling endi samarqandlik Maryamning hayotini ham ko'rib chiqaylik.<sup>12</sup> Samarqandlik o'n olti yashar qiz – Maryamning kollejda o'qishni boshlaganiga bir necha oy bo'lgan edi. Pandemiya muammosiga duch kelgan har bir o'quvchi singari uning yangi o'quv yili ham onlayn darslar va xuddi shu saboqlarga daxldor muammolar bilan boshlandi. U maktabda o'qiydigan singlisi bilan bir noutbuk orqali dars vaqtini baham ko'rishi kerak. Boz ustiga oilaviy qiyinchiliklar tufayli uyda unga doimiy qarovchi, ya'ni darslarini nazorat qilishga vaqt ajrata oladigan kishining o'zi yo'q. Bu muammo nogiron farzand tarbiyalayotgan va ustiga-ustak kam ta'minlangan ko'plab oilalarga tanish holatdir.

Maryamning eshitish qobiliyati zaif. Uning o'quv materiallari video va yozma topshiriqlar shaklida tayyorlangan. Maryam uchun singlisi videodarslarni yozib olsa-da, faqat ovozi ma'lumotlar shaklidagi darslarni tushunish va tahlil qilish imkonsiz. Tabiiyki, bu uning ta'lim olish jarayonidagi ulkan muammo hisoblanadi.

Maryam tahsil olayotgan iqtisodchilar guruhida barcha mavzular yangi. O'qituvchi sinfda mavzularni tushuntirishi bilan izohlanmagan shaklda platformaga tushirilgan yozuvlar yuborishi o'rtasida juda katta farq bor. Demak, mavzuni mustaqil tushunish juda mushkul. Maryamning ukasi va singlisi ham yordam berishga qodir emas, chunki, ular hali yosh, bu borada biror tushunchaga ega emas.

Buning ustiga onlayn darslarning ko'payishi natijasida, shundoq ham immuniteti pastligidan aziyat chekadigan Maryam ko'rish qobiliyati susayishi muammosiga ham duch keldi.

– Qizimning ko'rish qobiliyatidagi muammolar tufayli internet orqali yuboriladigan yozma ishlar vaziyatni yanada qiyinlashtiradi, – deydi Maryamning onasi. – Qizim nogironligi uchun va hissiy ehtiyojlari cheklangani sababli, onlayn ta'lim uning uchun umuman ma'nosiz. Tashqi dunyo bilan bog'lanish imkoniyati pasaygani, har kuni maktabga borish imkoni yo'qligi va terapiya mashg'ulotlari keskin to'xtatilishi mening bolam

singari ko'plab nogiron bolalar ta'limida muammo bo'lyapti. Kunning aksariyat qismida onlayn darslar qarshisida harakatsiz o'tirish bunday bolalar uchun yana boshqa qo'shimcha muammolar vujudga kelishiga ham sabab bo'ladi<sup>13</sup>.

Holatni kuzatib quyidagi fikrlarni ilgari surish mumkin. Maryam o'zi offline tartibda dars mashg'ulotlariga qatnagan paytda ham darslarni hamma kabi o'zlashtirmaydi, ya'ni qiyinchiliklarga duch keladi. Karantin paytida esa u yanada ko'proq qiyinchiliklarga duch keldi. Maryam bilan bir qatorda uning oila a'zolari ham qiynalmoqda. Maryamga vaqt ajratilmagani, ta'lim olishda qiynalayotgani ota-onani bir qiynasa, oiladagi moddiy ahvol va qizining ko'rish qobiliyatining ham pasayishi ularni battar qiynamoqda. Bunga yechim topish esa mushkul holat. Bu kabi yordamga muhtoj kishilarni minglab topish mumkin.

2019-yil holatiga ko'ra, 710 mingga yaqin nogiron fuqarolarning 609 ming nafari 16 yoshdan kattalar va ularning bor-yo'g'i 10 foizi oliy ma'lumotli hisoblanadi. Ko'rinib turganidek, oliy ma'lumotli nogiron fuqarolar juda kam. Biroq kambag'allikni qisqartirishning asosiy shartlaridan biri – oliy ta'lim berish. Bundan tashqari, nogironlar uchun ta'lim yashash quroli sanaladi. Ularda jismoniy mehnat bilan shug'ullanish imkoni kam bo'ladi, shuning uchun sifatli ta'lim olish va oliy ma'lumotli bo'lish orqali daromad topish imkoniga ega bo'lishadi. Oliy ma'lumoti bo'lmagan nogironlar ko'p hollarda uyda o'tirib qolishadi.<sup>14</sup>

Aholi bandligini ta'minlash hozirda ularni kambag'allikdan chiqarishning eng maqbul yo'lidir. Ularning bandligini ta'minlash uchun esa ulardan qaysidir kasb mutaxassisligi uchun diplom yoki hunar egallaganlik to'g'risidagi sertifikat zarur bo'ladi. Ularsiz hech bir ish beruvchi xodimni ishga olmaydi. Bu mehnat kodeksida ham o'z tasdig'ini topgan. Lekin yuqoridagi foizlar buni amalga oshirishga umuman yo'l bermaydi. Nogiron shaxslarning atigi 10 foizigina oliy ma'lumotli, qolgan 90 foizi esa hech qanday diplom va sertifikatga ega emas. Ularning nafaqat oliy, balki o'rta maxsus darajadagi diplomlari ham yo'q. Ularga oz bo'lsada e'tibor va sharoit yaratilsa, sog'lom shaxslardan ko'ra ko'proq natijaga eritishshadi.

Inson tanasida qaysidir organ yoki a'zoning faoliyati bajarilmasa, ya'ni ishlamasu uning kuchi boshqa organ yoki a'zoga beriladi. Masalan, ko'zlari ko'rmaydigan insonlarning sezgi organlari juda kuchli darajada ishlaydi, ya'ni sog'lomlarnikiga qaraganda bir necha barobar kuchli ishlaydi. Ular ta'lim jarayonida ham bizdan ko'p yutuqlarga erishishlari mumkin.

Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, nogiron bolalarning ota-onalaridan 70 foizi o'z jamiyatlarida nogironlikni tushunish va qabul qilish past yoki yetarli emas deb o'ylashgan. Ularning deyarli yarmi bolalarni parvarish qilishda ko'plab qo'llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanishda to'siqlarga duch kelgan.

2007-yilda Buyuk Britaniyada alohida ta'limga muhtoj imkoniyati cheklangan bolalarga qaratilgan yana bir tadqiqotda 55 foiz insonlarga nogironligi tufayli ularga adolatli munosabatda bo'lmaganligi aniqlangan.

Madagaskarda o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ota-onalar orasida ham imkoniyati cheklangan bolalarga ko'maklashish va ularni tarbiyalashdagi usullar haqida bilimlik keng tarqalgan va ota-onalar uyushmalari prezidentlarining 48 foizi imkoniyati cheklanganlik yuqumli, deb noto'g'ri o'ylashgan.

Vetnamda, 2009-yilda Da Nang shahrida o'tkazilgan tadqiqot jamiyatning nogiron bolalar va ularning oilalariga nisbatan umumiy bag'rikeng xatti-harakatlariga qaramay, stigmatizatsiya va kamsitish holatlari davom etayotganini ko'rsatdi.<sup>15</sup>

11 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings 2015.

12 Davr24 – O'zbekiston, Markaziy Osiyo va Dunyo yangiliklari.

13 Davr24 – O'zbekiston, Markiy Osiyo va Dunyo yangiliklari.

14 O'zbekiston Respublikasi Stistika qo'mitasi

15 Ushbu hisobot va qo'shimcha ma'lumotlar quyidagi manzilda mavjud: www.unicef.org/english/sowc2013. "Nuqtai nazar" va "Yaqindan"

bo'limlaridagi insholar ularning mualliflariga tegishli bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi nuqtai nazarini aks ettirishi shart emas. © Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF)



Shunday qilib, yuqoridagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik insonlar nogironlarni jamiyatda ko'rishni va ular bilan birga yaqin munosabatda bo'lishni xohlashmaydi. Atrofdagilar imkoniyati cheklangan insonlarning kasalliklari yuqumli deb hisoblashadi, shuning uchun ham ular bilan ko'p aloqa bog'lashmaydi. Ularni nafaqat inklyuziya haqidagi, balki, imkoniyati cheklangan shaxslar haqidagi bilimlari ham yetarli emas. Ularni to'liq holatda tasavvur qilishga qodir emas.


Italiya va Germaniya ta'lim tizimidagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim berishni VENN diagrammasi misolidagi tahlili:

Yuqoridagi VENN diagrammasi tahlilida ham ko'rinib turibdiki, jahondagi ta'lim tizimi eng rivojlangan ikki davlatda qisman umumiy o'xshashliklar mavjud, ularning asosini tashkil qiluvchi qismlarda o'xshashliklar kuzatilmaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida ikki davlatning asosi ikki xilda. Lekin har ikki davlat maktabgacha ta'lim tizimi ham, inklyuziv ta'lim tizimi ham dunyo bo'yicha tan olingan.

Endi jahondagi imkoniyati cheklangan bolalar va ularning oilalariga ko'rsatiladigan yordamga to'xtalsak. Oilalar

tomonidan qoplanadigan nogironlik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarning hisob-kitoblari Buyuk Britaniyada daromadning 11-69%ini, Avstraliyada 29-37%ini, Irlandiyada 20-37%ini, Vetnamda 9%ini, Bosniya-Gersegovinada esa 14%ini tashkil qiladi. Bu xarajatlarga bevosita xarajatlar (masalan, davolanish, sayohat, reabilitatsiya yoki parvarish bo'yicha yordam) va imkoniyat xarajatlari kiradi, chunki ota-onalar va boshqa oila a'zolari odatda bir yoki bir nechta nogiron bolalarga g'amxo'rlik qilish uchun ishni tark etishlari yoki ish soatlarini qisqartirishlari kerak.<sup>16</sup>

Bu ko'rsatilayotgan yordamlarning foizlari juda ham oz miqdorda. Vaholangki, yordamga eng muhtoj qatlam aynan imkoniyati cheklangan shaxslar hisoblanadi. Bu holat rivojlangan mamlakatlarda atigi shu foizlarni tashkil qilsa, hali rivojlanayotgan va rivojlanishi sust bo'lgan mamlakatlarning aholisi qanday yordam olmoqda, degan savol tug'ilishi tabiiy. Nafaqat jahondagi rivojlanishi sust davlatlar yoki rivojlanayotgan davlatlarda, balki O'zbekistonning o'zida ham bu ko'rsatkichlar qoniqarli darajada emas.



**2-rasm: Italiya va Germaniya ta'lim tizimidagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi VENN diagrammasidagi tahlili**

Tadqiqot davomida mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi **natijalarni** qo'lga kiritdik:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalariga moddiy-texnik va metodik yordam ko'rsatish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga amaliy yordam berish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish ishlari samarali yo'lga qo'yish.

#### **TADQIQOT MUHOKAMASI**

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, bugungi kunda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish borasida qator muammolar mavjud:

- 1) moddiy mablag' muammolari;
- 2) ta'lim muassasalarini inklyuziv ta'limga moslashtirish;
- 3) sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi;
- 4) kambag'allik;

<sup>16</sup> Ushbu hisobot va qo'shimcha ma'lumotlar quyidagi manzilda mavjud: [www.unicef.org/english/sowc](http://www.unicef.org/english/sowc) 2013. "Nuqtai nazar" va "Yaqindan" bo'limlaridagi insholar ularning mualliflariga tegishli bo'lib,

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi nuqtai nazarini aks ettirishi shart emas.

5) imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramligi;

6) kadrlar masalasidagi muammolar.

Haqli ravishda savol tug'iladi. Nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Yuqorida keltirilgan dalillarni hal etib, inklyuziv ta'lim tizimiga o'tishga qanday zaruriyat bor?

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining afzallik jihati juda ko'p bo'lib, ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;

- inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;

- kamsitishlarning oldini oladi;

- inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Masalan, Italiya ta'lim tizimida o'qituvchining vakolatlari va rollari maxsus qonunlar bilan mustahkamlab qo'yilgan. Italiyadagi ta'lim dargohlarida har bitta maxsus sinf uchun 2 ta o'qituvchi biriktiriladi. Ulardan biri asosiy o'qituvchi, biri esa yordamchi o'qituvchi. Asosiy o'qituvchi barchaga birdek dars beradi, yordamchi o'qituvchi esa maxsus bolalarga yordam beradi. Ularning tushunmagan narsalarini tushuntiradi, qiynalgan holatida yordam beradi. Lekin har ikki o'qituvchi sinf va undagi bolalar uchun birdek javobgar hisoblanadi. 2017-2018-yillar hisobiga ko'ra Italiyada 156 000 nafar yordamchi o'qituvchilar mavjud, bu davlat hududidagi jami o'qituvchilarning 17.9 foizini tashkil qiladi.<sup>17</sup>

Italiya ta'lim tizimi nafaqat oldin, balki hozir ham jahonga namuna hisoblanadi. Aynan hozirgi holatni tahlil qiladigan bo'lsak ham, bu fikrimizga dalil bo'la oladi. Maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola tengdoshlariga yetib olishi uchun uning o'ziga alohida e'tibor kerak bo'ladi.

O'qituvchi esa unga alohida e'tibor qaratsa, boshqa bolalarni nazorat qila olmay qoladi. Bolalarga teng e'tibor qaratish uchun yana bir o'qituvchining yordami zarur bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yordamchi tarbiyachini ham mashg'ulot paytida maxsus bolalarga yordam berish uchun jalb qilish zarur deb o'ylayman. Chunki guruhda eng kamida 20 ta bola bo'ladi, shuncha bolaning hammasi sog'lom bo'lganda ham ularga alohida e'tibor kerak bo'ladi. Maxsus ehtiyojli bolalar esa undan ham ko'proq e'tibor talab qiladi. Yordamchi tarbiyachi maxsus bolalarga yordam berishi uchun uning ham inklyuziya va maxsus ta'lim haqida qarashlari va bilimlari bo'lishi lozim. Bolalarning ehtiyojiga qarab yordam berish uchun yordamchi tarbiyachini qayta tayyorlov kurslarida o'qitish lozim, chunki hozirda yordamchi tarbiyachilarning aksariyat qismi o'z sohasining mutaxassislariga emas.

Hozirgi vaqtda Rossiyada 2 milliondan ortiq nogiron bolalar yashaydi va bu barcha bolalarning 8 foizini tashkil qiladi. Bularning 700 ming nafari imkoniyati cheklangan bolalardir. Alohida ehtiyojli bolalar guruhi tarkibi jihatidan heterojendir. Maxsus ta'lim standarti loyihasida unga aniq ta'rif berilgan. Bu bolalarni tarbiyalash va o'qitish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratmasdan ta'lim dasturini o'zlashtira olmaydigan bolalardir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2011-yilda Rossiya Federatsiyasida 35 mingga yaqin bola umuman ta'lim olmagan, 17 ming bola sog'lig'i yomonligi sababli maktabga bormagan. 29 ming bola maktab-internatlarda, haqiqatda ijtimoiy izolyatsiyada, yana 44 ming bola uyda tarbiyalanmoqda.

Bu muammolarni inklyuziv ta'limni rivojlantirish orqali hal etish mumkin. Inklyuzivlikning asosiy g'oyasi "inklyuziv jamiyat" nazariyasiga asoslanadi. Jamiyat va uning institutlari boshqa odamlarni (nogiron, boshqa irq, din, madaniyat) qo'shilishiga yordam beradigan tarzda o'zgarishi kerak.

Tadqiqotchi Panjizoda Hurriyatxon Ziyod qizi Zoxiriy inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab qilinishi haqida fikr yuritgan:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalaridan ajratmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirish<sup>18</sup>.

Endi tadqiqotchi magistrantimizning fikrlarini birma-bir tahlil qilsak:

- ta'lim olish uchun zarur pedagogik va psixologik yordam va korreksion sharoit zarurligi. Bu aynan bizning maktabgacha ta'lim tizimimiz uchun juda zarur hisoblanadi. Chunki ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini – bu maktabgacha ta'lim. Agar bola shu tizimda ta'lim haqida yaxshi taassurotlarga ega bo'lsa, keyin maktabga bo'lgan qiziqish hosil bo'ladi. Ayniqsa, alohida ehtiyojli bolalar tizimdan qoniqsalar bilim olishga qiziqishlari ham ortadi.

- Korreksion sharoit ham albatta, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab yaxshi yo'lga qo'yilishi zarur. Bolalarning kamchiliklari kichik yoshdaliklarida hal qilinsa, kelajakda sog'lom bolalar kabi rivojlanishlari mumkin. Bolalar bilan maktabgacha ta'limda 1 tagina logoped, psixolog va defektolog faoliyat yuritadi. Vaholanki, bog'chada 100 ga yaqin bola tarbiyalanadi. Bolalarga bu kasb egalari xohlagan taqdirida ham to'liq e'tibor qarata olishmaydi. Bolaning kamchiliklari uning tashqi ko'rinishidan bilinihgina qolmaydi. Bolaning kamchiligini bilish uchun u bilan mashg'ulotda ham birga bo'lish va uni kuzatish zarur. Shundaygina korreksion yordam ko'rsatish qoniqarli darajada bo'ladi:

- ta'limdagi tenglik huquqi. Bolalar o'zlari bilan boshqalarni solishtirishga juda ham usta bo'lishadi. Ular sog'lom bola bilan o'zlarini muntazam solishtirib kelishadi. Agar ularga ta'limda tenglik yaratilmasa, alohida ehtiyojli bola sog'lom boladan ortda qolishi tabiiy. Bu esa ularning ruhan cho'kishi va ta'limdan sovlashiga olib keladi. Bu holat maktabgacha ta'limda ham boshlang'ich ta'limda ham birdek kuzatilishi mumkin;

- bolani ta'limga jalb qilishda jamoat va oilaning o'rni. Bu o'rinni hech bir narsa bilan to'ldirib bo'lmasa kerak meningcha. Chunki ta'limga jalb qilinmagan bolaning imkoniyatlari va kamchiliklarini uning oila a'zolaridan bo'lak hech kim yaxshi bilmasa kerak. Ta'lim jarayoniga bolalarni o'zidan-o'zi jalb qilib bo'lmaydi. Ularning ehtiyojiga mos ravishda kerakli jihozlar ta'minlanadi va unga sharoit yaratiladi. Bolaning oila a'zolari bilan birga o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritilishiga bu holat ijobiy natija berishi mumkin;

- alohida ehtiyojli bolalarni oilalaridan ajratmagan holda ta'limga jalb qilish. Bu holat ham yuqoridagilari kabi juda muhim hisoblanadi. Bolalar oilalaridan ajralsalar, tabiiyki, maktabgacha yoshda ham, maktab yoshida ham qiyinchiliklarga duch kelishadi va tushkunlikka tushishadi. Bolalar uchun eng yaqin inson bu ularning ota-onalaridir. Ularning o'rnini hech kim bosa olmaydi.

- Va nihoyat eng so'nggi xulosamiz, alohida ehtiyojli bolalarga jamiyatda do'stona muhitni yaratish, ular haqida atrofdegilar qarashlarini ijobiy tomonga o'zgartirish. Buning uchun jamiyat a'zolari ham alohida ehtiyojli bolalar va ularning hayotlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari zarur. Ularga to'g'ri tushuncha berish esa ta'lim dargohlaridagi ustozlariga va ularning ota-onalariga bog'liq. Qanchalik to'g'ri va to'liq ma'lumot berilsa, dunyoqarash shunchalik yaxshi shakllanadi va

<sup>17</sup> Italiyada inklyuziv ta'lim: tarixiy qadamlar, ijobiy o'zgarishlar va muammolar. Dario Ianes, Heidrun demo va Silvia Dell'Anna

<sup>18</sup> Inklyuziv ta'limda nogiron bolalarni o'qitish va tarbiyalash muammolari. Panjizoda Hurriyatxon Ziyod qizi Zoxiriy.

kamsitilish, ajratish shunchalik kamayadi. Bolalarga atrofdağılardan keladigan reaksiya alohida ta'sir o'tkazadi.

Ko'p odamlar nogironlikni jismoniy nogironlik, masalan, nogironlar aravachasidan foydalanadigan odam deb bilishadi. Ammo hamma nogironlar ham faqatgina jismoniy holat orqali ko'rinmaydi va siz nogiron kimligini har doim ham aniq ayta olmaysiz. Nogironlik jismoniy cheklashlar va aqliy salomatlik, kognitiv yoki intellektual rivojlanish, o'rganish, eshitish yoki ko'rish qobiliyatini buzishni o'z ichiga olishi mumkin. Ular, shuningdek, epilepsiya, moddalarga qaramlik, atrof-muhit sezuvchanligi va ish joyidagi shikastlanishlarni o'z ichiga olishi ham mumkin.

Nogironlik ba'zan faqat jismoniy holatda namoyon bo'ladi, ba'zan esa aqliy. Buni ajratish ba'zan juda katta qiyinchilik tug'dirishi ham mumkin. Chunki ko'rinishida insonni farqlash doimo ham yaxshi natija ko'rsatmasligi mumkin. Shu sababdan nogironlikni aniqlash uchun O'zbekistonda maxsus TPPK (Tibbiy Pedagogik Psixologik Komissiya) komissiyasi tuzilgan va u har 6 oyda yangi tekshiruvlarni amalga oshiradi. Bu komissiya tarkibiga turli xil toifadagi va mutaxassislikdagi vrachlar kiradi. Ularning barchasi oliy toifadagi shifokorlar sanaladi. Ular bolalarni ko'rikdan o'tkazib, sog'ligi haqida ma'lumot berishadi. Agar kasallik aniqlansa, ularga maxsus ko'rsatmalar va hujjatlar taqdim qilinadi.

Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barcha odamlarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan, lekin alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun alohida sharoitlar yaratuvchi mafkuraga asoslanadi. Inklyuziv ta'lim - bu umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, u barcha bolalarning turli ehtiyojlariga moslashish nuqtai nazaridan hamma uchun ta'lim mavjudligini nazarda tutadi, bu alohida ehtiyojli bolalar uchun ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari borasida olib borilgan tadqiqot ishining asosiy xulosa va natijalari quyidagilardan iborat:

1. Inklyuziv ta'lim bolalarga yo'naltirilgan metodologiyani ishlab chiqishga intiladi, u barcha alohida ehtiyojli bolalar turli xil ta'lim ehtiyojlariga ega ekanligini tan oladi va ularni o'qitishda moslashuvchan yondashuvni ishlab chiqishga intiladi.

2. Inklyuziv ta'lim joriy etayotgan o'zgarishlar natijasida o'qitish yanada samaraliroq bo'ladi, unda barcha bolalar (nafaqat alohida ehtiyojli bolalar) foyda ko'radi.

3. Oddiy yoki iqtidorli bolalar bilan alohida ehtiyojli bolalar bir sinfda bo'lishi boshqa bolalarning muvaffaqiyatli o'rganishiga tahdid soladigan yoki xavf tug'diradigan fakt hisoblanmaydi, aksincha, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

4. Alohida ehtiyojli bolalarning sinfda o'quv jarayonini buzishi haqidagi tushuncha asossiz hisoblanadi. Agar ularga inklyuziv muhit yaratib berilsa, bolalar hech qanday qiyinchiliklarsiz va qarshiliklarsiz dars mashg'ulotlarida qatnashishadi.

5. Oddiy va iqtidorli bolalar ta'lim sifatini oshirish va sinfda ishlashning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish orqali ta'limga inklyuziv yondashuvdan foydalanishlari mumkin. Bu bolalarning ta'lim sifatini oshirib beradi.

6. Inklyuziv sinfda oddiy yoki iqtidorli bolalar nogiron sinfdoshlarini hurmat qilish va qadrlashni, nogironlik yoki iqtidor chegarasidan tashqarida nima borligini ko'rish va ijtimoiy stigmalarni farqlashni o'rganadilar.

Shu maqsadda qo'yidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Alohida ehtiyojli bo'lgan ba'zi bolalar yangi ta'lim texnologiyalariga muhtoj. Ehtiyojli bo'lgan ba'zi bolalar uchun ta'lim texnologiyalarini yaratish va o'qituvchilarni metodik ta'minot bilan ta'minlash.

2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish alohida ehtiyojli ba'zi bolalarga qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli ular uchun maxsus yozma yoki audio yo'riqnomalar tayyorlash.

3. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitishni tashkil etish.

4. Bolalar va o'qituvchilar o'rtasida bir-birlaridan o'rganish va muammolarni birgalikda hal etish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Shuni ham aytish kerakki, inklyuziv maktablarning mavjudligi nafaqat nogiron o'quvchilarga, balki odatda rivojlanayotgan bolalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nogiron tengdoshlariga ta'lim olishda faol ishtirok etishiga yordam berish ijtimoiy faoliyat hisoblanib, bu holatda oddiy bolalar o'zlari sezmagani tarzda eng muhim hayotiy saboqlarni olishadi. Bu ijobiy tajriba ijtimoiy ongning o'sishidan, odamlar o'rtasida farqlar yo'qligini anglashdan, o'z-o'zini anglash va o'zini-o'zi qadrlashni rivojlantirishdan, o'z tamoyillarini shakllantirishdan iborat bo'lib, eng muhimi, u samimiy g'amxo'rlik va do'stlik hisoblanadi.<sup>19</sup>

YUNESKOning fikriga ko'ra, "inklyuziya barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini xilma-xilligini aniqlash va ularga javob berish, ta'lim, madaniyat va jamoalarda ko'proq ishtirok etish va ta'limdagi chetlab qo'yishni kamaytirish orqali ko'riladi". Boshqacha qilib aytganda, bu farq va xilma-xillikka asoslangan holda ta'lim berish usulidir.

O'zbekistonning oltita mintaqasida - Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida - tegishli o'quv dasturlari doirasida sifatli maktabgacha ta'limga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Mintaqaviy murabbiylar 2159 nafar maktabgacha pedagoglarga shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim uslublarini o'zlashtirishga yordam berdilar. Ushbu uslubiyot o'rgatilgan 53 maktabgacha ta'lim resurs muassasalarida qamrov bir yil davomida 2841 kishiga ortdi. Bundan tashqari, maqsadli tayyorgarlikdan o'tgan pedagoglar 106 ta qo'shni bolalar bog'chalarida ustozlik qilib kelmoqdalar.<sup>20</sup>

Ta'lim tizimi yuqorida aytib o'tilgan farqlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Har bir jamoaning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha turdagi o'g'il va qiz bolalar uchun mos dasturlar bilan ta'lim berish zarur.

Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim.

Zamonaviy umumiy ta'lim dasturi inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'zgarishlar va shartlarni, ya'ni har bir o'quvchining individualligini qabul qilishni va har bir bolaning alohida ehtiyojlarini qondirishni o'z ichiga olishi kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tajribalardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, O'zbekistonning inklyuziv ta'limi hozirgi holatda yuqori darajada emas, lekin shu yo'nalishda borilsa, albatta, yuqori darajada bo'ladi. Buning uchun bolalarni ijtimoiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash susaytirilmaslik lozim.

19 Bir yilda inklyuziv ta'lim. G'ayrioddiy bolalar uchun oddiy sharoitlar. <https://mywordworld.ru/uz/vremena-goda/inklyuzivnoe-obrazovanie-v-godu-obychnye-usloviya-dlya-neobychnyh-detei/>

20 <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/maktabgacha-talim>

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"da O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. Lex.uz.
2. Abdullayeva SH.A.,Ro'ziyeva D.I. 2019-yil. "Pedagogik diagnostika va korreksiya". Toshkent nashriyoti.
3. Nicolette Granata, Megan Wiebe, Jonathan D. Lane Vanderbilt University, Nashville, TN 37203, USA.
4. Caroline Haddad. Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings 2015. Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization
5. UNICEF - xalqaro bolalarni qo'llab-quvvatlash tashkiloti. [www.unicef.org/english/sowc2013](http://www.unicef.org/english/sowc2013)
6. Dario lanes, Heidrun demo vaSilvia Dell'Anna. Italiyada inklyuziv ta'lim: tarixiy qadamlar, ijobiy o'zgarishlar va muammolar. 2020.
7. UNICEF - xalqaro bolalarni qo'llab-quvvatlash tashkiloti. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/maktabgacha-talim>
8. Shinkareva E.Yu., Malofeev N.N., Kantor V.Z., Javoronkov R., Romanov P., Zaitsev D.V., Antipyeva N.V., Akatov L.I. Inklyuziv ta'limning ijtimoiy jihatlari.
9. Inklyuziv ta'limda nogiron bolalarni o'qitish va tarbiyalash muammolari. Panjizoda Hurriyatxon Ziyod qizi Zoxiriy. (maqola)
10. <https://mywordworld.ru/uz/vremena-goda/inklyuzivnoe-obrazovanie-v-godu-obychnye-usloviya-dlya-neobychnyh-detei/>
11. <https://madreshov.com/uz/inklyuziv-ta%27lim-nima-va-u-nima-uchun-muhim%3F/>
12. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. <https://stat.uz/uz/>
13. "The state of the world's children". Sruthi Atmakur.
14. Инклюзивное образование: перспективы развития в России. Материалы к конференции, Москва, 23-24 июня 2004 г. – 108 с.
15. Инклюзивное образование: проблемы совершенствования образовательной политики и системы: Мат. междунар. конф. 19–20 июня 2008 г. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2008. – 215 с.
16. Савельева Ж.В. Здоровье и болезнь в контексте социологической теории: специфика интерпритаций // Вестник Казан. технол. ун-та. – 2012. – № 22. – С. 202- 206.
17. Нигматов З.Г. Гуманистические основы педагогики. – М.: Высшая школа, 2004. – 400 с.
18. Нигматов З.Г. Международная научно-практическая конференция, посвященной 200-летию педагогического образования в Поволжье. Педагогическое образование в России: прошлое, настоящее, будущее. Казань, 3-5 октября 2012г.
19. Надеева М.И., Надеева Д.Б., Виленский А.А. Гуманизация – ключевой принцип профессионального образования // Вестник Казан. технол. ун-та. – 2012. – №23. – С. 190-192.
20. Сапегин К.В. Образовательная технология «Портфолио» // Директор сельской школы. – 2010. – № 3. – С. 40-59. 10. Инклюзивное образование: методология, практика, технологии: Мат. междунар. научно-практ. конф. (20-22 июня 2011г., Москва). – М.: МГППУ, 2011г. – 244 с.



## BOLA SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM DASTURINI QO'LLASHDA INTERFAOL USLUBLAR

Abdusattorova Sarvinozbonu

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 2 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001202">https://doi.org/10.54613/001202</a></p> <hr/> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Bola shaxsi, rivojlanish indikatori, interfaol usullar, muammoli ta'lim, bilimlar daraxti, fikrlar sintezi, auktsion texnikasi, tarbiyachi mahorati.</p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim dasturini amalga oshirish, tarbiyachi-pedagoglar tomonidan qo'llaniladigan interfaol va noan'anaviy uslublar, bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bo'yicha o'sish ko'rsatkichlarini kuzatib borish, shuningdek, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olish, shaxsiga yo'naltirilgan turli yondashuvlar, pedagoglarning kasbiy mahorati va ta'lim sifatini oshirishga imkon berish tadqiq etildi. Bundan tashqari, tarbiyalanuvchilar o'rtasida ta'lim-tarbiya va yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ulardagi ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalash masalalari atroflicha o'rganildi.</p>

### KIRISH

Bugungi kunda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirish sur'atiga qarab bilim berish kerak, degan fikrga asoslanadi, ya'ni bu jarayon ularning o'quv mashg'ulotlariga ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. An'anaviy o'qitish usullari ko'pincha kerakli natijalarni bermaydi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim o'rganish, bilim olishni qiziqarli va mazmunli qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev **“Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi”**, deb bejiz ta'kidlamagan.

“2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-sonli Farmonining IV “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” bo'limida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta'lim texnologiyalarini kiritish belgilandi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) pedagog xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi qayta ishlab chiqildi<sup>1</sup>.

**2022-yil fevral oyida Namangan shahrida bo'lib o'tgan, Maktabgacha ta'lim vazirligi va Jahon banki hamkorligida “Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishni takomillashtirish” loyihasi doirasida seminar-trening bo'lib o'tdi. Treningda “O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini joriy etish” masalalari atroflicha o'rganilib, davra suhbatlari o'tkazildi. Ushbu trening bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga oluvchi bolaning shaxsiyatiga yo'naltirilgan turli yondashuvlar, pedagog-xodimlarning kasbiy mahorati va ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga qaratildi.**

Bolalarga xos ta'lim tarixi XX asrda Jon Dyui, Jan Piaget, Lev Vygotskiy va Mariya Montessori g'oyalari bilan boshlangan. Olimlar olib borgan izlanishlarning mohiyati ham bola shaxsiga yo'naltirilgan an'anaviy tushuntirishdan qochish va buning o'rniga bolalarni o'quv jarayonining markaziga qo'yishdir, ya'ni, bu jarayonda bolaning intellektual, kognitiv, aqliy, hissiy va ijtimoiy qobiliyatlari bilan birga jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish o'z aksini topadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvda tarbiyachilar bolaga barcha sohalarda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berish uchun “faol ta'lim” jarayoni bilan shug'ullanadilar.

“Interfaol” tushunchasi inglizcha “interact” (“inter” – birgalikda, “faol” harakat qilish) so'zidan olingan bo'lib, u ikkita muhim kategoriyaga bo'linadi:

1. Ta'lim olishda bolaning faol o'rnini belgilash;
2. Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot o'rnatishi uchun zamin yaratishdir.

Interfaol strategiyalarga esa quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- Turli mashg'ulotlar uyushtirganda bolalarni kichik guruhlarga bo'lish;
- Bolalar o'rtasida hamkorlikni talab qiladigan mashg'ulotlardan foydalanish;
- Doira shaklida o'tirib faktlar, xodisalar bilan bo'lishish;
- Biror masalada fikr almashishlaridan oldin vaqt va imkoniyat berish;
- Bir-biridan o'rganish;
- Muammoli vaziyatlarga birgalikda yechim izlash;
- Bolalar bilan mavzuga doir loyihalar ishlab chiqish kabilar misol bo'la oladi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy pedagogika va ta'limning turli xil texnologiyalari, tizimlari va modellari mavjud. Maktabgacha ta'limda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim modeli zamonaviy ta'lim tizimlarining tendensiyasi (yo'nalishi) bo'lib, uning asosiy nazariy xulosalari o'quv amaliyotida keng sinovdan o'tgan.

Shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim odatdagi, an'anaviy, har doim bo'lib kelgan ta'limdan qanday farq qiladi? Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tizimi yangi jarayonni amalga oshiradi, ya'ni avtoritar jarayondan pedagogik jarayonni qurishning shaxsiga yo'naltirilgan modeliga o'tish. Uning vazifasi ham avvalgi yondashuvdan tubdan farq qiladi.

Ma'lumki, bola shaxsining kelajak poydevori uning dastlabki 7 yoshgacha bo'lgan davriga qo'yiladi. Maktabgacha yoshdagi shaxs tarkibiga kiritilmagan komponentlar keyinchalik assimilyatsiya qilinmaydi (modifikatsiya qilinadi) yoki katta qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi va past ishonchlik koeffitsiyenti bilan qayta ishlab chiqariladi (ko'paytiriladi). Agar bu yondashuv usuli qiziqarli shaklda taqdim etilsa va o'rganilayotgan hodisalarga nisbatan bolaning qiziqishlari va kognitiv qobiliyatlari hisobga olinsa bilimlar qiyinchiliksiz egallanadi.

Bu jarayonda tarbiyachi-pedagoglar har bir bolaning rivojlanishi va o'z-o'zini namoyon qila olishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlashi kerak, bu faqat shaxsning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga asoslangan o'qitish yondashuvini strategik rejalashtirish bilan amalga oshadi.

Shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning asosiy maqsadi, **birinchi navbatda**, bolaning shaxsiyatini, uning intellektual va ma'naviy jihatdan shakllanishini, **ikkinchidan**, unga nisbatan insoniy munosabatni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishdir.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent shahri, 2022 yil 28 yanvar, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/docs/-5841063>

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ma'lum xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirishni emas, balki ta'lim jarayoni sub'yektlarining shaxsiy funksiyalarini to'liq namoyon qilish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Pedagogning faoliyat yo'nalishi sifatidagi shaxsiy yondashuvi uning asosiy qadriyat yo'nalishi bo'lib, jamoada har bir bola bilan o'zaro munosabatlarda o'z pozitsiyasini belgilashga yordam beradi.

Shaxsiy yondashuv o'z-o'zini aniqlash va tasdiqlashning shaxsiy va ijtimoiy jihatdan maqbul usullarini amalga oshirishda o'z-o'zini namoyon qilish, anglash qobiliyatini aniqlash, tarbiyachi va bolaga yordam berishni o'z ichiga oladi.<sup>2</sup>

**Barcha pedagogik ko'rsatmalar ikki tamoyilga asoslanadi:** bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish va individual yondashuv asosida ta'limni amalga oshirish. Tarbiyalashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagog tomonidan bolalarning yoshi, jinsi, ta'lim darajasi bilan bog'liq ta'lim vazifalarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Faoliyat shaxsning fazilatlarini, uning manfaatlarini, moyilligini o'rganishga qaratilgan. Shuni hech qachon unutmaslik kerakki, bolaning shaxsiyati har doim individualdir, faqat muayyan shaxsga xos bo'lgan va uni boshqa odamlardan ajratib turadigan jismoniy va psixologik xususiyatlarning noyob kombinatsiyasi mavjuddir.

Bola shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – bu bolalar bog'chasining yangi falsafasi emas. Bu g'oya aslida XIX asrga borib taqaladi, u yerda bolalar bog'chasi "bolalar uchun bog'" ya'ni, har bir bolaning o'ziga xos qiziqishlarini o'rganib, o'z tezligida o'sishi mumkin bo'lgan joy deb hisoblangan. Bu g'oya yillar davomida rivojlanib, bolalarni ijtimoiy, hissiy va kognitiv jihatdan an'anaviy bolalar bog'chasiga tayyorlanmagan deb hisoblaydigan ko'plab otonalar uchun juda mashhur variantga aylandi.

#### **Maktabgacha ta'limda bola shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tarbiyalash:**

- Maktabgacha ta'lim jarayonida muomala mazmuni, muhit, o'zaro munosabatlar uslubi tarbiyalanuvchiga barcha insoniy xislatlarni o'zlashtirish, o'zini inson sifatida anglash, hurmat qilish tuyg'usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

- Pedagogik jarayon o'zgaralarning his-tuyg'ularini his etish, axloqiy me'yorlarga amal qilish, shuningdek, ta'limning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga yordam berishi zarur.

- Pedagogik jarayon tarbiyalanuvchilarda ijodkorlik, ziyaliklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini tarbiyalashi lozim<sup>3</sup>

E.V. Bondarevskaya shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy modelini ishlab chiqdi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy modeli markazida bolani madaniy shaxs sifatida rivojlantirish va tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. E.V. Bondarevskaya, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy modelini shakllantirish, uning paradigma qoidalarini esa quyidagi xususiyatlar bo'yicha tavsiflashni aytib o'tdi:

1-qoida. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mohiyati va maqsadi bilan bog'liq. Ta'kidlash joizki, ta'lim nafaqat bilim, ko'nikma, balki, birinchi navbatda, bolaning shaxsiyatini shakllantirish, o'z "Men"ini namoyon qilish, uning imidjini egallash jarayonidir.

2-qoida. Pedagog tomonidan bolaga munosabatni belgilash. Ushbu munosabatlarning asosi Sh. A. Amonashvili tomonidan aniqlangan shaxsiy-insoniy yondashuvdir. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, ta'lim jarayonida o'qituvchi bolaning o'ziga xosligini, uning manfaatlarini, qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

3-qoida. Inson hosil qiluvchi funksiyalarni belgilaydi. Asosiy inson funksiyasi – insonparvarlik, uning mohiyati bolaning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlab qolish va tiklashdir. Vazifalarning yana biri – ta'lim jarayonida madaniyatni saqlash, uzatish va rivojlantirishga yordam beradigan madaniy shakllanish. Ta'limning keyingi vazifasi sifatida E.V. Bondarevskaya sotsializm funksiyasini taklif qildi. Bu funktsiya shaxsning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishini ta'minlaydi, bu esa jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishga yordam beradi.

4 – qoida bolaning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmunini, jamiyatda mavjudligini belgilaydi.

A.V. Petrovskiyning nazariyasiga ko'ra, ta'limning eskirgan o'quv-intizomiy modelini almashtirish uchun shaxsga yo'naltirilgan model bolalar bilan hamkorlik sharoitida to'la huquqli hamkorlik sifatida yondashishga qaratilgan va ularga nisbatan ta'sir etuvchi yondashuvni inkor etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillari:

1. **O'z-o'zini anglash tamoyili.** Har bir bolada o'z intellektual, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga ehtiyoj bor. Bolalarning tabiiy va ijtimoiy jihatdan qo'lga kiritilgan imkoniyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash muhimdir.

2. **Individuallik tamoyili.** Bolalarning shaxsini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bizning asosiy vazifamizdir. Biz nafaqat bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga, balki uning yanada rivojlanishiga hissa qo'shishga harakat qilishimiz kerak.

3. **Sub'yektivlik tamoyili.** Bolaga guruh va ta'lim maskani hayotiy faoliyatining haqiqiy mavzusi bo'lishiga yordam berish, uning sub'yektiv tajribasini shakllantirish va boyitishga yordam berish kerak.

4. **Tanlash tamoyili.** Pedagogik jihatdan bolaning doimiy tanlov sharoitida yashashi, o'rganishi va o'qitilishi, o'quv jarayonini va guruhdagi hayotni tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda ob'yektiv vakolatlariga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

5. **Ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyili.** Shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat bolaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkonini beradi. Ijodkorlik tufayli bola o'z qobiliyatlarini ochib beradi, shaxsiyatining kuchli tomonlarini o'rganadi.

6. **Ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyili.** Bolaga bo'lgan ishonch, o'z-o'zini boshqarish va tasdiqlash uchun uning intilishlarini qo'llab-quvvatlash ortiqcha talabchanlik va nazoratni, tashqi ta'sirlarni emas, balki ichki motivatsiya bolaning ta'lim va tarbiya muvaffaqiyatini belgilaydi.<sup>4</sup>

#### **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning mohiyati quyidagilardan iborat:**

- har xil turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mavjudligi;

- bolaning shaxs sifatida shakllanishining o'ziga xosligi va shakllanish jarayonini tarbiyaning asosiy qadriyati deb bilish;

- har bir bolaga uning shaxsiy xususiyatlari, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'z rivojlanish yo'lini tanlash huquqini berish.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan modeli ta'lim tizimimizda boladagi kompetensiyaviy layoqatni shakllantirish, unda avvaldan mavjud va tanish bo'lgan ta'lim hamda intizomiy yondashuvni bartaraf etish, pedagoglarning bolalar bilan sheriklik aloqasi ko'nikmalari, ularni qo'llashdagi interfaol uslublar, shuningdek, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni yangi pedagogik texnologiyalar bilan olib borishga qaratilgan. Bola kattalar kabi jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lganligi sababli, uning huquqlarini tan olish pedagogik pozitsiyani "yuqoridan" turib emas, balki bola bilan yonma-yon va birgalikda egallashni anglatadi.

#### **Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning qanday uslublaridan foydalanamiz?**

1). Muloqotning vaziyatga mos shaxsiy turidan foydalanish:

Bu uslub 3-4 yoshli bolalarga xosdir. Chunki ular uchun g'amxo'rlik qiluvchi inson mehribon, yordam berishga va himoya qilishga tayyor bo'lishi muhimdir. Shuning uchun bu yoshdagi bolani xuddi shunday erkalash, quchoqlash, yonma-yon o'tirish kerak. Kattalar va bola o'rtasidagi "yoqimli munosabatlar" muomala jarayonida ishonch va iliqlik, dam olish va tinchlik muhitini yaratadi. Muloqotning shaxsiy turi – har bir bola bilan individual ravishda shaxsiy aloqa o'rnatishga asoslanishi kerak.

2). 4-5 yoshli bolalar uchun:

<sup>2</sup> Личностно-ориентированный подход в дошкольном образовании. Екатерина Носова

<sup>3</sup> <https://fayllar.org/mavzu-shaxsga-yonaltirilgan-yondashuvning-asosiy-tamoyillari.html?page=>

<sup>4</sup> Личностно ориентированный подход к детям в процессе образовательной деятельности. Мороз Наталья

Kattalar qiziqarli va ishonchli ma'lumotlarning asosiy manbasiga aylanganda qo'llaniladi. Bu turdagi vazifa "bilimli odam" obro'siga ega bo'lishdir. Ba'zi bir savolga javobni darhol bilmasik mumkin. Bunday holatda esa bolalar quyidagilarga ishonch hosil qilishlari kerak:

\* savol sizni qiziqtiradi;

\* unga javobni qayerdan va qanday izlashni bilasiz;


\* siz izlanishda qat'iyatlisiz va javob topishni muhim deb hisoblaysiz.

3). Katta maktabgacha yoshda bolalarning hikoyalarini tinglash va bola bilan teng huquqli shaxsiy muloqotga kirishish, baholashdan qochish, shuningdek, hayotdan chin dildan zavqlanish qobiliyatiga ega bo'lish kerak. Bu yoshdagi bolalar o'z yo'lida yopiq bo'lishi mumkin va faqat juda ishonchli odam bilan ochilishi mumkin. Ular o'zlarining his-tuyg'ulari, tajribalari, fikrlari bilan o'rtoqlashadilar.

Bir so'z bilan aytish mumkinki, biz dunyoga bolaning nigohi bilan qarash, uning manfaatlaridan kelib chiqib, individualligini tushunish, muvaffaqiyatidan quvonish, shu orqali pedagog-tarbiyachi va bola o'rtasidagi munosabatlarni shaxsiy asosda qurishni o'rganishimiz kerak.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metod – bu pedagogning bolalar bilan ishlash, bolalarning atrofdagi dunyo haqidagi g'oyalarni shakllantirish usuli, bolalarning nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasidir. Zamonaviy didaktikaning dolzarb muammolaridan biri o'qitish



1-rasm. Interfaol usul turlari<sup>5</sup>

#### "Intellektual xaritalar yoki aql xaritalari" texnikasi (Mind Mapping)

Interfaol usullar va texnologiyalar yuzdan ortiq bo'lib, bolalar bog'chasida ko'pincha o'quv jarayonini tashkil etishda quyidagi interfaol usullardan foydalaniladi:

**Klaster:** Ushbu metod har qanday mavzu haqida erkin va ochiq fikr yuritishga yordam beradigan usuldir. Bu fikrlashning chiziqli bo'lmagan shakli. Klasterlarga bo'linish juda oddiy. Faoliyat jarayonida kalit so'z tasvirlangan rasm osib qo'yiladi va bolalarga bu rasm bilan bog'liq so'zlarni aytib berish taklif etiladi. Ushbu usul guruhda, shuningdek, bir nechta rasmini taklif qiladigan va ular orasidagi bog'liqlikni topadigan har bir bola bilan alohida-alohida o'tkazilishi ham mumkin.

**Aqliy hujum** – g'oyalarni ishlab chiqish, muqobil variantlar va imkoniyatlarni o'ylab topish, kamchiliklarni aniqlash va ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqishning eng yaxshi va mashhur usullaridan biridir. Aqliy hujumning maqsadi: har bir bolaga tanqiddan qo'rqmasdan o'z g'oya va takliflarini bayon etish, fasilitatorga esa ishtirokchilardan kelgan har bir qimmatli g'oyani qamrab olishga harakat qilish imkonini berishdir. Bu g'oyalar har qanday muammoni hal qilish uchun ham, har qanday masala bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish uchun ham kerak.

usullarini tasniflash muammosidir. Hozirgi vaqtda bu masala bo'yicha yagona nuqtai nazar yo'q.

Olimlar ta'lim metodlarini katta va kichik guruhlarga bo'lish turli belgilarga asoslanishi sababli bir qancha tasniflar mavjudligini isbotlashdi.

Tarbiyachining interfaol ta'lim sharoitidagi faoliyatining asosi - bu shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdir. Unga rioya qilishning asosiy talablari:

- insonparvar pedagogik pozitsiya;
- bolaga, uning ishiga qiymat munosabati;
- ta'lim-tarbiyaviy, madaniy-axborot va fan-ta'lim muhitini yaratish;

- ta'lim texnologiyalari metodikasi va asoslari;
- bolalarning individualligini maqsadli rivojlantirish.

Ta'lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. og'zaki usullar (bilimning manbai og'zaki yoki bosma so'zdir);
2. ko'rgazmali usullar (bilimning manbai kuzatilgan narsalar, hodisalar, ko'rgazmali qurollar);
3. amaliy usullar (bolalar amaliy harakatlarni bajarish orqali bilim oladi va ko'nikmalarni rivojlantiradi);
4. o'yin usuli tarbiyaviy harakatni shartli rejaga o'tkazish, bolaning o'yin holatiga to'liq kirishini o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim metodlari - pedagog va bolalarning ta'lim maqsadiga erishishiga qaratilgan o'zaro bog'liqlik faoliyati hisoblanadi.

Aql xaritalari – bu bolalarga g'oyalar oqimini aks ettirish uchun ishlatiladigan ijodiy chiziqli bo'lmagan diagramma bo'lib, tarbiyachi unda hech narsani e'tibordan chetda qoldirmaydi. Aql xaritasi markazidagi mavzu yoki savoldan boshlanib va har bir ishtirokchining fikrlarini kiritish uchun daraxt shoxlarni hosil qilinadi.

#### "KONSEPSUAL XARITALAR" TEXNIKASI

Konsepsual xaritalar bolalarga "umumiy holat"ni ko'rishga va munosabatlarni tasavvur qilishga yordam beradi. Konseptual xaritalar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash uchun qulaydir. Konseptual xaritalar bolalarning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Konsepsual xaritalar axborotning vizual tasviridir. **Ular diagrammalar, grafik organayzerlar, jadvallar, oqim diagrammalar (blok-sxemalar), Venn diagrammalari, vaqt jadvallari yoki T-diagrammalar shaklida bo'lishi** mumkin. Konseptual xaritalar, ayniqsa, vizual o'rganuvchilar uchun foydalidir, garchi ular har qanday turdagi o'rganuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

5 <https://hozir.org/mundarija-kirish-v7.html?page=2>

**"Auksion" texnikasi** - (Oxirgi javob bergan bola g'alaba qozonadi.)

U: - *Lampochkaning xossalarini ayting.*

D: *Nur sochadi!*

- *Shisha va metallardan yasalgan!*

- *Unga bosganingizda eshitiladi!*

- *Shakliga ko'ra nokka o'xshaydi!*

- *Shaffof...*

U: - *Shaffof - bir, shaffof - ikki ...*

D: - *Sinadi!*

U: - *Sinadi - bir, ... va hokazo.*

**Juftlikda ishlash:** Bu metod orqali bolalar bir-birlari bilan muloqot qilishni o'rganadilar, juftlarga birlashadilar va tavsiya etilgan vazifani bajaradilar. Metod hamfikir bo'lib ishlash, birgaliklikda ish olib borish, muntazam ravishda muzokara qilish qobiliyatini yaxshilaydi. Juftlikda ishlash interfaol o'quv jarayonining muloqot paytidagi hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yordam beradi. Juftlikdagi ish namunalari:

- bolalar navbat bila rasmi tasvirlashadi.

- So'zdagi birinchi tovushni aytishadi.

**Mikrofon** - bu bolalarning pedagog bilan birgalikda bir doira tashkil etadigan va bir-biriga taqlid qilingan yoki o'yinchoq mikrofonini topshiradigan ish usuli bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z fikrlarini ma'lum bir mavzu bo'yicha ifodalaydilar, Misol uchun, bola mikrofonni oladi, o'zi haqida bir nechta jumalarda gapiradi va mikrofonni boshqa bolaga uzatadi. Bolalarning barcha so'zlari qabul qilinadi, tasdiqlanadi, lekin muhokama qilinmaydi.

**Kutish** - bu muammoni hal qilishning mumkin bo'lgan variantlarini "taxmin qilish" taklif qilingan bolalar bilan ishlash usuli hisoblanadi. Misol uchun bolalarni barcha kuz faslining oylarini chaqirishga taklif qilish, har bir oydan nima kutayotgani haqida gapirish kerak. Keyin esa bir oy o'rnida o'zini tanishtirish va ular haqida gapirish: "Men kuzning birinchi oyi - sentyabr. Men juda issiq oyman. Men barcha bolalarni yaxshi ko'raman, chunki ular maktabga borishni boshlaydilar». Keyingi bola bu oy haqida gapirishni davom ettiradi (juftlikda ishlash).

**Fikrlar sintezi** - bu bolalar kichik guruhlarga birlashib, muayyan vazifani bajaradigan ish usuli bo'lib, masalan, qog'ozga chizilgan rasm. Bir guruh chizgan rasmini boshqa guruh davom ettiradi va bajarilgan vazifani yakunlaydilar. Faoliyat jarayoni yakunlanganidan so'ng ular tasvirning qandayligi va nima uchun tugatilganligi haqida umumiy hikoya qila olishlari kerak.

**Karusel** - ushbu texnologiya bolalarning juftlikda ishlashlari uchun qo'llaniladi. Interfaol texnologiya, ya'ni "karusel" bolada o'zaro yordam, hamkorlik qobiliyatlari kabi axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantiradi. Buning uchun har bir bola o'zining juftini topib, uning tashqi doirada kim bo'lishi va ichki doirada kim ekanligini bilib olishi kerak. Ichki doira ichida turgan bolalar qattiq ovozsiz deb ataladi va tashqi doirada turgan bolalar yumshoq ovozsiz deb nomlanadi. Bolalar bir-biri bilan faol muloqot qiladilar, qattiq va yumshoq ovozsizlarni aniqlaydilar.

**Munozara** - bu murakkab muammoni jamoaviy muhokama qilish usuli. Muhokamaga ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari tayyorgarlik ko'rishlari va barcha bolalar faol ishtirok etishlari kerak. Muhokamaning oxirida muammoning yoki tavsiyaning yagona jamoaviy yechimi shakllantiriladi. Savollar (vazifalar) beshtadan ortiq taklif qilinishi kerak. Ularni shakllantirish, ilgari aytilmagan muammo haqida turli fikrlarni ifoda etish imkoniyati bo'lishi kerak. Bolalar o'z fikrlarini bildirishni o'rganadilar: "Menimcha", "Mening fikrimcha", "Men roziman, lekin", "Men bunga qo'shilmayman, chunki (sababi keltiriladi).

**"Miya hujumi (miya bo'roni)"** - bu bola va tarbiyachi ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradigan usullardan biridir. Ushbu usul murakkab muammolar yoki masalalarni muhokama qilishda qo'llaniladi. Muammoni hal qilish uchun vaqt ajratiladi (vaqt davomiyligi 10 daqiqagacha bo'lishi mumkin) va bir muncha

vaqt o'tgach, qaror qabul qilish haqida qo'shimcha ma'lumot to'planadi. "Miya hujumi" paytida qolgan barcha bolalar tinglashlari va yagona to'g'ri qaror qabul qilishlari kerak bo'lgan muammolarni hal qilish uchun barcha mumkin bo'lgan (va mumkin bo'lmagan mantiqiy) variantlarni keltirib o'tishlari kerak.<sup>6</sup>

**"Bilimlar daraxti"** - bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan usul hisoblanadi. Bu jarayonda aniq yechimga ega bo'lmagan muammoni tanlash kerak. Masalan, "baxt uchun daraxtga nima kerak?". To'rtburchak ko'rinishida bo'lgan sxemani ko'rib chiqish kerak, ya'ni bu aniqlanadigan muammo bo'lishi kerak, to'g'ri chiziqlar esa uning variantlari hisoblanib, uni hal qilish yo'llari bo'lishi lozim. Doiralarga ya'ni, "barglar" muammoni hal qilish yo'llari hisoblanadi. Muammoni hal qilish: bu kichik guruhlardagi bolalar orqali amalga oshiriladi, masalan, kelebek, qush va shunga o'xshash narsalarni muhokama qilishadi va chizishadi, ularni "qarorlar daraxti" ga joylashtiradilar va o'z tanlovlarini tushuntiradilar.

**Keys texnologiya** - bu haqiqiy yoki xayoliy vaziyatlarga asoslangan qisqa muddatli ta'limni tashkil etishning bir usuli. Keys texnologiyasi turlari:

- Rasm ishi;
- muayyan vaziyatlarni tahlil qilish;
- rollarni ijro etish (rolni loyihalash).

Ko'pincha, bolalar bilan ishlashda "Foto Case" va "Case illustration" texnologiyasidan foydalaniladi. "Case illustration" texnologiyasi ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, u qaror qabul qilish strategiyasini shakllantirishga imkon beradi. Bu orqali bola kelajakda turli xil murakkablikdagi hayotiy vaziyatlarni mustaqil ravishda yengib chiqishi mumkin. Taqdim etilgan texnologiyaning mohiyati muammoli vaziyatni tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu texnologiya quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- modellashirilgan yoki haqiqiy muammoli vaziyatni ko'rsatadigan voqealarga mos keladigan rasm;
- tarbiyachi bu muammoli vaziyatni tasvirlaydi;
- tarbiyachi bolalarni muammoni tahlil qilish va muammoni maqbul hal qilish uchun rag'batlantiruvchi savollarni so'raydi;
- bolalar bahslashadi, o'z fikrlarini bildiradi, tahlil qiladi, natijada ular muammoni to'g'ri hal qilishadi.
- tarbiyachi muammoni to'g'ri hal qilishning fotosuratini ko'rsatadi.<sup>7</sup>

**Shunday qilib, interfaol ta'lim** - pedagogikaning qiziqarli, ijodiy, istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik - pedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda barcha qobiliyatlarini amalga oshirishga yordam beradi. Bevosita ta'lim faoliyatida interfaol texnologiyalardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyat jarayonidagi qiyinchiliklarini yengillashtiradi, ularning faoliyat shakllarini o'zgartirish, mashg'ulot mavzusiga e'tibor qaratish imkonini beradi.

*Ta'lim-tarbiyaviy jarayonda metod turlari:*


1. Nofaol metod - bu pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bir shakli bo'lib, unda pedagog faoliyat kursining asosiy aktyori va boshqaruvchisi, bolalar esa pedagog ko'rsatmalariga rioya qilgan holda nofaol tinglovchilar sifatida ishlaydi.

Tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi aloqa so'rovlar, topshiriqlar, ko'rsatmalar va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'quv materialini o'zlashtirish nuqtai nazaridan passiv usul eng samarasiz deb hisoblanadi, ammo shunga qaramay, u ham ba'zi afzalliklarga ega. Bu tarbiyachi tomonidan mashg'ulotga nisbatan oson tayyorgarlik va cheklangan vaqt oralig'ida nisbatan katta hajmdagi o'quv materialini taqdim etish imkoniyatidir. Ushbu afzalliklarni hisobga olgan holda, ko'plab tarbiyachilar nofaol usulni boshqa usullardan afzal ko'radilar.


6 <https://www.maam.ru/detskijasad/sovremenyje-interaktivnyje-pedagogicheskie-tehnologije-v-rabote-s-detmi-doshkolnogo-vozhrasta..>

7 <https://www.maam.ru/detskijasad/sovremenyje-interaktivnyje-pedagogicheskie-tehnologije-v-rabote-s-detmi-doshkolnogo-vozhrasta>






2-rasm. Pedagog va bolalarning nofaol o'qitish usullari bilan o'zaro ta'siri sxemasi

3-rasm. Pedagog va bolalarning faol o'qitish usullari bilan o'zaro ta'sir sxemasi<sup>8</sup>

2. Faol usul - bu pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakli bo'lib, unda tarbiyachi va bolalar ta'lim faoliyati jarayonida bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lishadi va bu yerda bolalar nofaol tinglovchilar emas, balki faol ishtirokchilardir. Pedagog va bolalar teng huquqlarga ega. Agar nofaol usullar avtoritar o'zaro ta'sir uslubini nazarda tutgan bo'lsa, faol usullar yanada demokratik uslubni anglatadi.

2. Interaktiv (inter - o'zaro, harakat) metod - o'zaro munosabatda bo'lish, suhbat, muloqot holatida bo'lishni anglatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, faol usullardan farqli o'laroq, interfaol usullar bolalarning nafaqat pedagog bilan, balki bir-biri bilan ham kengroq o'zaro munosabatiga va o'quv jarayonida bolalar faolligining ustunligiga qaratilgan. Interfaol usullarda pedagogning o'rnini o'z maqsadlariga erishish uchun bolalar faoliyatining yo'nalishiga qisqartiriladi. Interfaol usullarning an'anaviy usullardan muhim farqi shundaki, bolalar nafaqat o'tilgan materialni mustahkamlaydilar, balki yangilarini ham o'rganadilar.

4-Rasm. Interfaol o'qitish usullari bilan pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sxemasi<sup>9</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar individual bolalarning ta'lim uslublariga mos keladigan bir nechta o'qitish usullaridan foydalanishlari mumkin. Bularga interfaol ta'lim, mazmunga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va bola shaxsiga yo'naltirilgan o'qitish usublari kiradi. Ular quyidagilar:

• **Montessori usuli** - Montessori tizimi 20-asr boshlarida italiyalik o'qituvchi Mariya Montessori tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim tizimidir. Bu ta'lim - individual yondashishdan kelib chiqadi va har bir bolaning ijodiy salohiyati va o'rganish uchun tabiiy motivatsiyasi mavjudligiga asoslanadi. Montessori guruh xonalari mustaqil va murosali munosabatni namoyish etadigan, bolalar uchun qiziqarli o'quv materiallari bilan jihozlangan muhitni tashkil etadi. Rivojlanishning turli jihatlarini - **kognitiv, ijtimoiy, jismoniy va hissiy** jihatdan bolaning erta bolalik ta'limi orqali gullab-yashnashida g'amxo'rlik qilinadi.

• **Reggio Emilia yondashuvi** - bu yondashuvda bolalar qiziquvchan va faol hisoblanadi, ular atrofdagilar tomonidan rag'batlantirilishi va har qanday imkoniyatda kashfiyotlar qilishga undalishi kerak. Ushbu yondashuv pedagoglardan bolalarga turli xil tajriba va imkoniyatlarni, xususan, o'zini namoyon qilish va ijodkorlikni rag'batlantiradigan imkoniyatlarni ochishni talab qiladi.

• **Jarayon to'rtta tamoyilga asoslanadi**, ular: **kompetensiyaviy yondashuvdagi ta'lim, favquloddagi o'quv rejasi, chuqurlashtirilgan loyihalar, hamkorlikdagi o'sish**. O'qitish-o'rganish tushunchalari esa san'at, drama, musiqa va boshqalar kabi bir nechta shakllarda ifodalanishni talab qiladi. Pedagoglar bolalarning o'sishini diqqat bilan kuzatib boradilar, chunki ular o'zlarining o'rganishlari haqida ham fikr yuritadilar.

• **Valdorf Shtayner usuli** - Valdorf Shtayner usuli 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida olim Rudolf Shtayner tomonidan ishlab chiqilgan. Bu ta'limga yaxlit yondashuv bo'lib, unda bolaga an'anaviy fanlar noan'anaviy usullarda o'rgatiladi. Ushbu ta'lim yondashuvi asosan amaliy o'rganish imkoniyatlari va hissiyotlarga asoslangan tajribalarga qaratilgan.

#### TADQIQOT NATIJALARI

Maktabgacha yoshdagi muhim faoliyatlardan biri muloqotdir. Bu shaxsning rivojlanishi uchun zarur shart hisoblanadi. Shu sababli, pedagog va bolaning vazifasi bu faoliyatni maxsus tashkil etish, uning ichida hamkorlik muhiti, o'zaro ishonchni yaratishdir. Muammoni hal qilishning yo'li esa tarbiyachi va bolalar tomonidan interfaol usullardan foydalanish. "Interfaol usullar" konsepsiyasining ma'nosi "uslub" va "interfaol tushunchalaridan iborat. Uslub - pedagogik muammolarni hal qilish uchun pedagog va ishtirokchilarning maqsadli o'zaro ta'siri. "Interaksiya" tushunchasida ikkita atama mavjud: "Inter" - "harakat" - o'rtasida kengaytirilgan faoliyat. Interfaol ta'lim, birinchi navbatda, bolalarning ta'lim muhitiga ta'sir amalga oshiriladigan tajriba sohasi sifatida xizmat qiluvchi ta'lim muhitiga asoslangan muloqot ta'limidir.<sup>10</sup>

8 Muallif chizmasi


9 Muallif chizmasi

10 Интерактивные формы и методы работы с детьми дошкольного возраста. Татьяна Иванова

### SUHBAT METODI TAHLILI


Tadqiqotlar natijasida o'rganilgan suhbat metodi orqali quyidagicha tahliliy xulosaga ega bo'ldik.

Natijalarga ko'ra, tarbiyachi-pedagoglarning aksariyati mashg'ulot jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishar ekan. Bu esa ta'lim jarayonida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, bolalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, bolalarning o'quv mashg'ulotlarini puxta egallashlari, ulardagi mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Pedagog-tarbiyachilar interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, zamonaviy ta'limning to'g'ri yo'nalganlik darajasida ishlash ko'nikmalarini asoslab beradi.




5-rasm. Pedagog-tarbiyachilarning interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari.

Aksariyat ishtirokchilar bu jarayonni tashkil etishda yosh guruhlarining chegarasi mavjud emas, degan fikrni bildirishdi.



6-rasm. Interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish natijalari.


Xulosa qiladigan bo'lsak, mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan metodlardan eng ko'p foydalanilgan va yetarlicha samara beradigani bu – **Aqliy hujum** metodi. Sababi bu jarayonda bolaning bor diqqat-e'tibori va fikri bir nuqtaga jamlangan bo'ladi, natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi va barcha ishtirok etadi; fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi; boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi; mavzuga esa qiziqish uyg'otishi bilan boshqa metod turlaridan ajralib turadi.




7-rasm. Rivojlantiruvchi markazlardan ixtiyoriy foydalanish yutuqlari.

Demak, bolalarga rivojlantiruvchi markazlardan foydalanish imkonini cheklash mutlaqo mumkin emas, chunki bola qiziqishlariga ko'ra markazlarni ixtiyoriy tanlashi lozim. Agarda biz uning ehtiyojlarini majburiy holatda markazlarga yo'naltiradigan bo'lsak, undagi tanlov erkinligi va to'g'ri qaror qabul qilishni chegaralab qo'yamiz.

Chunki bola shaxsini shakllantirish uning ilk yosh davridan boshlanadi va bolaning ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Tarbiyachilar ta'limda har bir yosh davriga xos interfaol ta'limni qo'llash bola shaxsini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlab o'tishdi.



8-rasm. Interfaol ta'limni tashkil etishda AKT vositalarining o'rni.



9-rasm. Interfaol texnologiyalardan foydalanishning kun qismlari bo'yicha tahlili.

Xulosa o'rnida, tarbiyachi-pedagoglar ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkillashtirishda AKTning barcha turlaridan qisman bo'lsa ham foydalanishar ekan. Lekin qolgan turlariga qaraganda **videofilmdan** foydalanish ko'proq samara berishini kuzatdik. Chunki bolalarning qiziqishlari va fikrlash dunyosi rang-barang va xilma-xildir. Uni shakllantirish uchun aynan AKTning videofilm turi yetarlicha samara beradi, ya'ni unda bolaning diqqatini tortadigan **musiqali, qiziqarli namoyishlar, yorqin tasvirlar va harakatlar** ketma-ketligi batafsil yoritilgan bo'ladi.

Natijalarga ko'ra, tarbiyachilarning aksariyati ya'ni 70% dan yuqorisi TRIZ texnologiyasi haqida ma'lumotga umuman ega emas. Agar bu texnologiyani ta'lim jarayoniga olib kiradigan bo'lsak, quyidagicha natijalarga erishishimiz mumkin:

- Bolalarda mustaqil fikr yuritish va o'z nuqtai nazarini himoya qilishga intilish hissi paydo bo'ladi;
- Bolalardagi xulqning stereotiplarini yengish hissi paydo bo'ladi;
- Yangi ma'lumotlarni o'rganish va qabul qilish istagi rivojlanadi;
- So'z erkinligi paydo bo'ladi.

e) Bola dastlab oson vazifalarni yengish, asta-sekin esa qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topishni o'rganadi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda interfaol texnologiyalardan foydalanishni kunning 1-yarmida olib borgan ma'qul, chunki bu paytda bolalar faoliyatini ko'proq ta'limiy maqsadga jalb etish yetarlicha samara beradi, ya'ni bolaning mashg'ulot jarayonida diqqati va tafakkuri bir nuqtaga jamlangan bo'lib, bu jarayonda bolaga ta'sir etish nisbatan oson. Interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va yangi bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tez va sifatli hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar bilimlar bilan rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotdan mashg'ulotning mazmunini chuqurlashtiradi va har bir tarbiyalanuvchi uchun ta'lim olish imkonini sezilarli darajada kengaytiradi.

Interfaol texnologiyalardan foydalanishni har bir mashg'ulotning didaktik vazifalaridan kelib chiqib tanlash kerak. An'anaviy ta'lim shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman uslublar bilan boyitish tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Interfaol ta'limning maqsadlaridan biri - ta'lim oluvchining muvaffaqiyatini, intellektual qobiliyatini his etadigan qulay ta'lim sharoitlarini yaratishdir, ya'ni bu o'quv jarayoni samarali tashkil qilinadi. Interfaol ta'lim samarali muloqotni o'z ichiga oladi, chunki u o'zaro yordam, o'zaro tushunishni talab qiladi va muammolarni birgalikda hal qilishga jalb qiladi.<sup>11</sup>

**Biz MTTlarida quyidagi interfaol usullardan foydalanib, yetarlicha xulosa olamiz:**

1. Individual shakl - har bir bolaning vazifasini mustaqil ravishda bajarishini bildiradi.
2. Juftlik shakli esa birgalikdagi vazifalarni hal qilish uchun ishlatiladi.
3. Guruh yondashuvda bolalar kichik guruhlariga bo'linadi, agar vazifa bir vaqtning o'zida barcha ishtirokchilar tomonidan amalga oshirilsa, bu shakl jamoaviy deb ataladi.

Ta'limning ushbu interfaol shakllari faoliyatning samarali va mazmunli bo'lishiga yordam beradi. Tadqiqotlarda keltirilishicha, olimlar U.N. Nishonaliyev, B.L. Farberman, V.P. Bepalko, M. Ochilov, N.N. Azizxodjayeva, N. Saidahmedov, M.V. Klarin, V.A. Slastenin, S.K. Ismagulova, O'.Tolipov va boshqalarning ta'riflarini umumlashtirgan holda pedagogik texnologiya "Pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini kafolatlay oluvchi hamda tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon loyihasi" deb yuritila boshlandi.

Olimlar olib borgan izlanish natijasida **Interfaol ta'limni yaratish birinchi navbatda, bolalarning ta'lim muhitiga, pedagog va bolaning o'zaro ta'siri amalga oshiriladigan tajriba sohasi sifatida** xizmat qiluvchi ta'lim muhitiga asoslangan muloqot ta'limidir, deya e'tirof etiladi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish, yangi sifat darajasiga o'tish innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqmasdan amalga oshirilmaydi. Innovatsiyalar bolaning shaxsiyatiga, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan yangi usullar, shakllar, vositalar, texnologiyalarni aniqlaydi. Bunga ko'ra, A. M. Matyushkin, T.V. Kudryavtsev, M.I. Maxmutov, I.Ya. Lerner, M.M. Levi va boshqalar faol usullar bo'yicha tadqiqotlar, birinchi navbatda, maktab o'quv materiallarida olib borildi, bu esa maktabgacha ta'limda faol usullarni joriy etishni qiyinlashtiradi, chunki u muayyan moslashishni talab qiladi, degan fikrga kelindi.

Shunday qilib, o'qitishning faol usullarini ishlab chiqish va joriy etish ilmiy bilimlarning turli sohalarida taqdim etilgan va ko'plab pedagoglar va psixologlar tomonidan o'rganilgan, ammo maktabgacha ta'lim sharoitida faol o'qitish usullaridan foydalanish yetarli darajada o'rganilmagan, bu esa ushbu mavzuning dolzarbligini oldindan belgilab beradi.<sup>12</sup>

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim dasturining an'anaviy ta'limdan farqi quyidagicha:**

• Har bir bolaning jamoa bilan hamkorlik munosabatida o'z pozitsiyasini belgilaydi;

• Shaxsiy yondashuv tarbiyalanuvchiga o'z ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, oshkor qilish, o'z-o'zini anglash imkoniyatini beradi;

• Jamoaviy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv jamoa oldida shaxsning ustuvorligini tan olishni anglatadi;

• Pedagogning shaxsiy fazilatlarini ko'rish, uni tushunish va u bilan intellektual, axloqiy, hissiy va ijtimoiy qadriyatlarini almashishni bildiradi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida yangi yondashuv - interfaol ta'lim juda samarali va keng qo'llanilmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, interfaol ta'lim bolalar bilan bevosita ta'lim faoliyati tuzilishiga ta'sir qiladi, uni maxsus tashkil etishni talab qiladi va zarur interfaol ta'lim usullari va uslublarini alohida tanlashni talab qiladi.

Interaktiv ta'lim shaklida bolalarning bilim faoliyatini tashkil etish quyidagi vazifalarni hal qilishga imkon berdi:

• Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirish (tahlil, sintez va boshqalar);

• yoshga mos keladigan intellektual va shaxsiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish;

• bolalarning nutq faoliyatini rivojlantirish;

• muloqot qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish;

• maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo hamkorligiga motivatsion tayyorligini shakllantirish.<sup>13</sup>

Hozirgi kunda pedagoglar oldida turgan global vazifalardan biri davlat tomonidan nazarda tutilgan barcha faoliyatlardan: ta'lim, individual, konstruktiv-tadqiqot, tashkiliy-loyihadan foydalanish orqali bolaning rivojlanishining individual yo'lini ta'minlash.

Jamoaviy ta'limda tizimni tashkil etish ta'limni tashkil etishning guruh turi emas, balki jamoaviy usulda tashkil etiladi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-ma'rifiy faoliyatini tashkil etishga innovatsion yondashuvni ifodalaydi. Innovatsion yondashuvni amalga oshiruvchi tarbiyachi nafaqat yetakchi, balki dominant mavqega ega, "direktorning vazifalarini bajarishi, ya'ni, boshqaruvchi emas, nafaqat tashkilotchi, balki o'quv-tarbiya jarayonida ham ishtirok etadi".

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim sohasida har bir harakat bu bola shaxsi va uning fikri, u bilan olib boriladigan hamkorlik ishlarida o'z aksini topayotgan bo'lib, bu jarayonning yanada samarali olib borilishida interfaol uslublarni to'g'ri qo'llay olish, ta'lim jarayoniga interfaol pedagogik texnologiyalarni joriy etish maktabgacha yoshdagi bolalarning kompleks fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni zamonaviy ta'lim davlat standartlari qo'yg'an vazifalarga muvofiq atrof-muhit bilan o'zaro hamkorlikning konstruktiv usullari va vositalarini egallashga qaratilgan.

Maktabgacha ta'limga bo'lgan zamonaviy talablar pedagoglarni ta'limni rivojlantirishga yo'naltiradi, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun bilim, o'yin, qidiruv va o'quv o'zaro ta'sirining elementlari sintez qilinadigan yangi texnologiyalardan foydalanish zarurligini belgilaydi.

Pedagog-tarbiyachilar muloqot qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish uchun ta'lim jarayonini tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalarni izlashlari kerak. Bular quyidagicha:

1) Ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishda tarbiyachining interfaol usullardan foydalanish texnikasini joriy qilish;

2) MTT pedagog xodimlari va pedagogik jamoa uchun ta'lim jarayonida interfaol usullarni qo'llashga oid seminar-treninglar o'tkazish;

3) Joylarda (oila, ma'xalla, MTT, maktablarda) bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan o'quv chiqishlarini olib borish.

4) Pedagog va bolalarning o'zaro hamkorlikdagi ta'lim muhitida samarali muloqot o'rnatish.

<sup>11</sup> Новая школа: Пространство Возможностей Материалы Центрально азиатской научно - практической конференции Бишкек-2006 г. 320 с.

<sup>12</sup> Использование активных методов в разных блоках образовательного процесса. Борисова Анжела Николаевна

<sup>13</sup> Статья «Интерактивные методы обучения» Булгакова Любовь Анатолиевна

5) Maktabgacha ta'limning metodik ta'minotini interfaol uslublar asosida tarbiyalashga yordam beruvchi o'quv manbalari majmuasi (o'quv va metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar) hamda o'quv materiallari bilan boyitish.

6) Malaka oshirish o'quv-kurslarining muddatini qisqartirish (har yilda 1 marotaba)

Bola mustaqil ravishda turli faoliyatlarda - o'yin, muloqot, bilim va tadqiqot faoliyati, dizayn va boshqalarda tashabbus va mustaqillikni namoyon qilishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, *bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim dasturi ta'limda interfaol usullarni qo'llash* orqali kamol topishida, zamonaviy bilimlarni egallashida, tengdoshlari va ta'lim muhitida o'z o'rni va "Meni"ga ega bo'lishida, uni qo'llashda interfaol uslublar va ularni ishlab chiqish, ta'lim tizimida samarali va natijali qo'llash orqali olib borilgan so'rovnomalar va kuzatuvlar orqali tahlil va tatbiq qilish ishning bajarilganlik darajasi va sifat yondashuvini belgilab beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Maktabgacha pedagogika (o'quv qo'llanma) F.Q. Toshpo'latova, M.A. A'zamova, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi, Maktabgacha tashkilotlar xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish respublika o'quv-metodika markazi. - Toshkent: "Ma'naviyat" 2013, -160 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanov xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: "O'zbekiston", 2017 y.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent shahri, 2022-yil 28 yanvar, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
- Актуальные проблемы дошкольного образования: теория и практика (к 100-летию системы дошкольного образования Республики Башкортостан): материалы Национальной научно- практической конференции, посвященной 100-летию дошкольного образования РБ // ФГБОУ ВО «БГПУ им.М.Акумуллы», 25 сентября 2019 г., г.Уфа / Отв. ред. Шабаева Г.Ф., Боронилова И.Г. – Уфа: Изд-во БГПУ, 2020. – 368 с.
- Новая школа: Пространство Возможностей Материалы Центрально азиатской научно – практической конференции Бишкек-2006 г. 320 с.
- Руководство по развитию критического мышления (Методическое пособие) Ташкент – 2002 г.
- Методические рекомендации к программе воспитания и обучения в детском саду. Москва, Мозаика – Синтез 2005 г.
- Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития: инновационный курс. Изд-во Казанского университета, 1998.
- Асмолов А.Г. Историко-эволюционный подход к пониманию личности: проблемы и перспективы исследования. // Вопросы психологии. - 1986. - № 1.
- Берулава М.Н. Гуманизация образования: направления и перспективы. // Педагогика. - М., 1996.- № 1.
- Бондаревская Е.В. Гуманистическая парадигма личностно-ориентированного образования. // Педагогика. - М., 1997, № 4.
- Газман О. Педагогическая поддержка детей в образовании как инновационная проблема. // Новые ценности образования. - М., - 1995. - № 3.
- Петровский В.А. К пониманию личности в психологии. // Вопросы психологии. - 1981. - № 2.
- Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. - М., 1996.
- Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent - 2019
- Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M. 5. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent "O'qituvchi" 1993 yil
- <https://www.maam.ru/detskijsad/lichnostno-orientirovani-podhod-v-doshkolnom-obrazovani.html>
- <https://www.maam.ru/detskijsad/lichnostno-orientirovani-podhod-k-detjam-v-procese-obrazovatelnoi-dejatelnosti-922300.html>
- <https://nsportal.ru/detskijsad/raznoe/2020/02/26/ispolzovanie-aktivnyh-metodov-v-raznyh-blokah-obrazovatelno>
- <https://www.maam.ru/detskijsad/sovremnye-interaktivnye-pedagogicheskie-tehnologi-v-rabote-s->
- <https://www.maam.ru/detskijsad/interaktivnye-formy-i-metody-raboty-s-detmi-doshkolnogo-vozhra>
- <https://infourok.ru/statya-interaktivnie-metodi-obucheniya-1226114.html>
- <https://fayllar.org/mavzu-shaxsqa-yonaltirilgan-yondashuvning-asosiy-tamoyillari.html?page=7>
- <https://fayllar.org/ilik-va-maktabgacha-yoshdagi-bolalarning-rivojlanishiga-qoyilad.html>



## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH

**Abdushukurova Sevara**

*Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 08-Noyabr, 2022  <b>Tasdiqlandi:</b> 15-Mart, 2022  <b>Jurnal soni:</b> 3  <b>Maqola raqami:</b> 3  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001203">https://doi.org/10.54613/001203</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b>            Kitobxonlik kompetentligi, kitobxonlik madaniyati, qobiliyat, hikoya, ertak, sahnalashtrish, multimediya, illyustratsiyalar.</p>	<p>Maqolada ertaklar vositasida bolalarni kitobxonlikka o'rgatishning turli usul va vositalari, maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga qiziqishlari va ertaklarning bola ongi va dunyoqarashiga ta'siri, bolalarning yoshi va dunyoqarashiga hamda ijodiy fikrlashini rivojlanishiga mo'ljallangan ertaklar va ularni turlarga ajratish borasida tadqiqot ishi olib borilgan.</p>

### KIRISH

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi va faoliyat jarayonida kitobxonlikka mehr uyg'otishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, tafakkur erkinligi va ertaklar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirishga jiddiy yondashdilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyat jarayonida kitobxonlikka mehr uyg'otishga doir tarbiya masalasi keng o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, asosiy maqsadlaridan biri – bolaga maktabgacha yoshida berilgan ta'lim-tarbiya uning butun hayoti davomida muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusning to'rtinchisida tashabbusida “yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish” bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.<sup>1</sup>

Shu o'rinda mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Uning samarali rivoji uzluksiz ravishda ta'lim sohasiga singib borayotgan islohotlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu kabi islohatlardan ko'zda tutilgan maqsad – yosh avlodning tarbiyasiga atroflicha yondashish, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim doirasini kengaytirish, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish hamda maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Ushbu jarayon jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy rivoji borasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining har tomonlama yuksak darajada bo'lishi va alohida e'tibor berish zaruriyatini shakllantirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Respublikamizning kundan-kunga jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallab borishi, rivojlangan davlatlar bilan tenglik tamoyili asosida o'zaro hamkorlikka erishishi, nafaqat ota-onalar, balki maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari zimmasiga bolani yoshiga munosib tarzda tarbiyalash zaruriyatini yuklamoqda. Bu borada “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,

shuningdek, “O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risida Nizom”, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari”, “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi, “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi” kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.<sup>2</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan “Davlat talablari”, “Ilk qadam” o'quv dasturi asosida kitobxonlikka mehr uyg'otish bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, yosh-avlod bizning kelajagimiz, biz ularga qanchalik farovon turmushni yaratar ekanmiz, mamlakatimiz tinch osoyishta bo'ladi. Ayniqsa, bolalarga ajratilgan vaqt matbuot, bolalar kitobi, kitobxonlikka mehr uyg'otish ta'lim-tarbiya berishda juda katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 2017-yil 16-avgustda kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalari uchun “Ilk qadam” o'quv dasturi ishlab chiqildi.<sup>3</sup> “Ilk qadam” o'quv dasturi 2018-yil avgust oyida tasdiqlanib, o'quv yili boshida barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga taqdim etildi. “Ilk qadam” o'quv dasturi asosida ilk bor barcha yosh guruhlarda “Badiiy adabiyot bilan tanishtirish” haftasiga bir soat, bir oyga 4 soat, bir yilga 36 soat rejalashtirilishi jahon maktabgacha ta'lim standartlariga mos kelishi albatta quvonarli.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016 yil 29-dekabrda “2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori murg'ak qalb egalarning ertamizning munosib davomchilari bo'lib kamolga yetishida alohida ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Qarorda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadi ko'rsatib o'tgan.<sup>4</sup>

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbus. To'rtinchi tashabbus “yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish”.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019, 13 may, PQ 4312 son.

3 “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan «Maktabgacha ta'lim to'g'risida» davlat talablari» asosida ishlab chiqilgan). – Toshkent, 2018.

4 Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016 yil 29-dekabrda “2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori

## ADABIYOTLAR TAHLILI

S.Jumaeva va Z.Usmonovalarning tadqiqotlari o'zbek xalq ertaklarida hayvonlar haqidagi ertaklar alohida guruhni tashkil etishini, shuningdek, ertaklar ham talaygina ekanligini yorqin tasdiqlaydi. Ana shu mulohazalarga tayanib, hozircha o'zbek ertaklarining ichki turini farqlab o'rganmoq ma'qul topildi.<sup>5</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka bo'lgan, o'qishga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish muammosi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bolani kitobni sevishga o'rgatish bo'yicha tayyor metodikalar, loyihalar mavjud emas, chunki kitobni o'qish va kitobxonlikka mehr uyg'otish murakkab jarayondir. Ertak turlari V.Ya.Propp sehrli ertaklar; novellistik, ertaklar; kulmunativ ertaklar; hayvonlar haqida hayotiy ertaklar M.Afzalov hayvonlar haqidagi ertaklar; sehrli fantastik ertaklar, hayotiy-satirik ertaklar.

Ertak xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janrdir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlarini, marosimlari asosida paydo bo'lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng oliyanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Shunga asoslangan holda maktabgacha yoshdagi bolaga mo'ljallangan ertak kitoblarda illyustratsiyalar ham bo'lishi kerak. Bunday kitobdagi rasmlar matn bilan teng o'rinni egallaydi, chunki bolaning o'zi o'qimaydi, kitob unga asosan rasm bilan murojaat qiladi.

Kitobdagi illyustratsiyalar katta, uzoqdan yaxshi ko'rinadigan hollarda bolalarga ko'rsatish kerak. Bular: A.Navoiyning "Bir kabutar" shuningdek, o'zbek xalq ertagi "Dono dehqon", "Zumrad va Qimmat", "Sehrli Hassa", "Oltin tarvuz" ertaklari misol bo'la oladi.

Ertaklarni o'qish va aytib berish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibida barcha jarayonlarda tashkil etiladi, bu – o'yinlar va sayrlar, kundalik ishlar va ish bilan bog'liq. Og'zaki xalq badiiy asarlari ro'yxati dastur tomonidan tavsiya etilgan va badiiy so'z kiritilgan faoliyat shakllariga qaraganda ancha xilma-xil bo'lib, tarbiyachining ijodkorligi bilan belgilanadi.

S.Jumaeva va Z.Usmonova Sehrli-fantastik ertaklar hayvonlar haqidagi ertaklar, maishiy-hayotiy ertaklar Bolalar, ertaklarning yaratilishiga ko'ra yana bir ertaklar ham mavjudki, u jahon adabiyoti, xususan, yozma adabiyotining katta qismini tashkil etadi. Kichiktoy bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni esa sodda bo'ladi. Avval eslatib o'tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to'g'risida bo'lgani ma'qul. Maktabgacha va uzluksiz ta'lim jarayonida yosh-avlodga kitobxonlikka mehr uyg'otishga doir tarbiya masalasi keng o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, o'ziga xos pedagogik tizimning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.<sup>6</sup>

O.V.Dibina, O.P.Bolotnikova, A.Yu.Kozlova, Ye.A.Sidyakina S.E.Anfisovalar bolalar bilan ishlashning yaxlit shakllarini barqaror va mantiqan to'liq tuzilma sifatida ko'rib chiqish, bolalarning integratsiyalashgan faoliyatida ta'lim jarayoni sub'ektlarining maqsadga muvofiq o'zaro ta'sirini amalga oshirilishi to'g'risidagi fikrlarni ta'kidlashgan.

Tadqiqotchilar olimlar O.I.Solovyova, V.M.Fedyavskaya, N.S.Karpinskaya va L.M.Gurovich bolalar uchun kitoblarni tanlash mezonlarini ishlab chiqishgan. Maktabgacha yoshdagi har qanday davr adabiy tilni faol o'zlashtirish, nutqning barcha jihatlarini: monolog, dialogik, ekspressiv va boshqalarni shakllantirish va rivojlantirish bilan tavsiflanadi. Agar maktabgacha yoshdagi davrda adabiy rivojlanish imkoniyati qo'ldan chiqarilsa, keyingi davrda adabiy rivojlanish to'ldirilmaydi. Shuning uchun bolalarga o'z vaqtida adabiy ta'lim berish zarur, bunga quyidagilar kiradi: badiiy asarni idrok etish va anglash, badiiy tilda estetik zavqlanish, ertak va hikoyalarning mazmun va shakl birligida idrok etiladi.

S.Ya.Marshakning kitobi kitobxonni insonga nigoh tashlashga, uning ichki dunyosini tushunishga o'rgatadi. Kitob insoniyatni tarbiyalaydi, uning ma'naviy boyish manbaiga aylanadi. Kitobga muhabbatni kuchaytirish, badiiy asarni o'qiyotganda axloqiy idrokni rivojlantirish – bu tarbiyachining asosiy vazifalari hisoblanadi.<sup>7</sup>

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Atoqli bolalar adibi O'zbekiston xalq yozuvchisi Hakim Nazir kitob va kitobxonlik haqida to'xtalib shunday degan edi "Umrin davomida inkor qila olmaydigan haqiqatim shuki, kichiktoylarning to'g'ri yo'lni topib dunyoqarashini shakllantirish, axloq-odobini yo'lga solishda kitobdan-da muhimroq narsa yo'q ekan shuning uchun ham ota-onalarning birinchi vazifasi o'z farzandida kitobga mehr uyg'otishir.

Ertak va hikoyalarning bolalarning ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi va bolalarni asar qahramonlarning xatti-harakatlarini mustaqil baholashga, ularning ayrim ma'naviy sifatlarini (yaxshilik-yomonlik, jasurlik-qo'rqqoqlik)ni tushunishga, ruhiy kechirmalar (xursandchilik, hafachilik)ni his qilishiga o'rgatadi.

Z.A.Gritsenkoning ta'kidlashicha, bolaning kitoblar va badiiy adabiyotlar bilan birinchi tanishuvi u o'qishni o'rganishidan oldin boshlanadi. Bolani o'qish, so'zlar va jummalarni tuzishga o'rgatish – bu usulni o'zlashtirishi kerak degan fikrlarni ilgari suradi.

Z.A.Gritsenko, tinglovchi bolani kitobxon deb hisoblaydi. Ammo kichkina kitobxonning taqdiri kitobni olib, yozuvchi va tinglovchi o'rtasida vositachiga aylanadigan kattalarga bog'liq. Kattalar bolani o'qishga jalb qilishi uchun u o'zi o'qishni yaxshi ko'rishi, adabiyotlarni o'qishdan zavqlanishi kerak. Kattalar uchun badiiy adabiyotni o'qiyotganda, tasvirlangan voqealarning murakkabligini tushunish, ular tomonidan olib borilishi, bundan tashqari, ularning fikrlari, his-tuyg'ulari, hissiyotlari va tajribalarini kichik bolaga yetkazish imkoniyati bo'lishi kerak.<sup>8</sup>

S.Jumaeva va Z.Usmonovalarning tadqiqotlari o'zbek xalq ertaklarida hayvonlar haqidagi ertaklar alohida guruhni tashkil etishini, shuningdek, novellistik ertaklar ham talaygina ekanligini yorqin tasdiqlaydi. Ana shu mulohazalarga tayanib, hozircha o'zbek ertaklarining uch ichki turini farqlab o'rganmoq ma'qul topildi.

Bular quyidagilar:


1. Sehrli-fantastik ertaklar.
2. Hayvonlar haqidagi ertaklar.
3. Maishiy-hayotiy ertaklar.

5 D.M.Maxmudova "Ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlikka mehr uyg'otish". 17-b.

6 M.D.Maxmudova "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limiy faoliyatning tashkil etish texnologiyalari". Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlaril mavzusidagi 3-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi 181 bet. 31-avgust, 2020yil.

7 Shukurova N.B. Xalq og'zaki ijodi maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish vositasi sifatida. "Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: Yangi shakllari va ta'lim mazmuni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari to'plami. 402 b. 13-may, 2020 y.

8 Muminova D. A. Barkamol shaxs tarbiyasida kitobxonlikning o'rnini. NamDU ilmiy axborotnomasi – Nauchniy vestnik NamGU 2019 yil 6-son



**1-rasm. Olimlar tomonidan ertaklarning turlarga ajratilishi<sup>9</sup>**

Eng yaxshi adabiy namunalarda insonparvarlik ruxida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni ximoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qilishini o'z ilmiy risolalarda qayd etgan. Pedagog va psixologlar tomonidan olib borilgan tajribalar natijalariga ko'ra, 1 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar bilan kitob o'qishda samarali bo'lgan vaqt hajmi aniqlangan bo'lib, kitob mutolaasi uchun sarflanayotgan vaqtning shaxsiga xos bo'lgan psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlarga mos kelmasligi zerikish va toliqishga, natijada qiziqish va ehtiyojning pasayishiga olib keladi.

Shu sababli kitob mutolaa qilish jarayonida tarbiyachi va ota-onalar bolalarning psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlariga tayanib ish ko'rishlari zarurligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirgan.

#### O'qib berish metodi

O'qib berish metodi ta'limning og'zaki metodlari turkumiga kiradi, bu metodda badiiy asarni tarbiyachi kitobdan so'zma-so'z o'qib beradi. Asarni o'qib berish tarbiyachidan adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilishni, shoshilmay, so'z va gaplarni aniq, gap ohangi to'xtam, ovoz kuchi sifati, ifodaliligiga rioya qilgan holda o'qishni talab etadi, bolalarning tinglashi, mazmunini tushunib olishi, adabiy asardagi so'zlarni aniq eshittirishga diqqat qilishni ta'minlaydi.

O'qib berish metodi bolalarda tarbiyachining o'qib berishiga xavas, ertak kitobni o'qishga qiziqishini orttiradi, kitobdan foydalanishni o'rganib boradi, ularda badiiy nutq, so'z boyligi ortib boradi.

O'qib berish metodi quyidagi turlarga bo'linadi:

- Audio ertaklar eshittirish.
- Multifilmlar qo'yib berish
- Ertak o'qib berish
- Ertak kitobni qayta o'qib berish
- Ertakni to'liq yoki qisqartirib o'qib berish
- Tanlab o'qib berish, yani ertakning eng muhim o'rinlarini:

ertak qaxramoni, obraz nutqini, uning xususiyatini ifodalovchi qism.

g) Ertak mazmuniga mos bo'lgan rasm, illyustratsiyalar ko'rsatib o'qib berish. Bunda bolalar ertak mazmunini eshittirish va ko'rish orqali tushunib oladilar, ertak mazmunini uzoq vaqt yodda saqlaydilar.

h) O'qib berish metodida tarbiyachi asar muallifining ismi sharifini, ertak nomi, janrini aytib o'qib berish muhimdir. Masalan tarbiyachi mashg'ulotni Alisher Navoiyning "Sher va durroj" hikoyasini yoki Abdulla Avloniyning "Xo'roz ila bo'ri" masalini o'qib beraman deb boshlaydi. O'qib berish metodi bolalarda badiiy asarni o'qish ishtiyogini hikoyada qo'llangan badiiy,

tasviriy vositalarni, so'z va iboralarni eslab qolish va o'z nutqida foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

i) O'qib berish metodi maktabgacha ta'limning barcha bosqichlarida qo'llanadigan metod hisoblanadi, barcha janrdagi badiiy asarlarni o'qib berish mumkin. O'qib berish mashg'uloti quyidagi tartibda tashkil qilinadi:

- Ertak matni o'qib beriladi
- Ertak mazmunini hikoya qilib beriladi
- Ertakdagi ayrim so'z va iboralarning ma'nosi, talaffuzi tushuntiriladi

4. Ertakni qayta o'qib beriladi.

5. Ertak mazmuni bo'yicha tuzilgan savollarga javob beradilar

6. Ertak mazmunini qismlarga ajratilgan yoki to'liq holda bolalar hikoya qiladilar.

Ertaklar olamiga sayoxat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalarda insonparvarlik ruxida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarda mazmunlar va zaiflarni ximoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar.

#### Maktabgacha ta'limda ertak va hikoyalarini o'rgatish metodlari:

Maktabgacha ta'limda ertak va hikoyalarini o'rgatish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ertak va hikoyalarni o'rgatishda eng qulay metodlarni tanlash, uni to'g'ri qo'llashni talab etadi. Chunki har bir asar janri o'ziga xos metod va usullarni talab etadi.

Maktabgacha ta'limda ertak o'qib berish, hikoya qilib berish, yoddan aytish, ertakni sahnalashtirish, teatrlashtirish kabi metodlardan foydalaniladi; maasalan Katta guruhda A. Navoiyning "Bir kabutar" hikoyasi.

Maqsad: A.Navoiyning "Bir kabutar" hikoyasi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish orqali jonzoqlarga mehr uyg'otish.

a) **ta'limiy:** Badiiy asar mazmunini tushunish, hikoya qilib berishga tayyorlash, bolalarning badiiy nutqini shakllantirish:

b) **tarbiyaviy:** bolalarda o'zligini anglash, vatanga muhabbat, unga sodiq farzand bo'lish hissini tarbiyalash, yaxshilik va yomonlikni farqlash, bolalarga erkinlik, ozodlik, Vatan haqida ijobiy his-tuyg'ularini uyg'otish, vatanparvarlikni shakllantirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish.

c) **rivojlantiruvchi:** Bolalar lug'atiga falak, tez uchar gardish, gir-gir, vayrona so'zlarini kiritish;

**Kerakli jihozlar:** qafas, kabutar rasm illyustratsiyalar.

**Faoliyatning borishi:**

9 S.Jumaeva va Z.Usmonovalarning tadqiqotlarida ertaklarning turlarga ajratilgan jadvali

Tarbiyachi bolalar diqqatini jalb qilib, bog'cha atrofida uchib yurgan qushlar, kabutarlarni kuzatishni aytadi, bolalar qush va kabutarlarning bog'cha tomiga, daraxtlarga o'zlari uchun in qurganlarini aniqlaydilar, ularning ovqat izlashi, yashashi, odamlardan qochmasligi erkin uchayotganini bilib oladilar.

1. Tarbiyachi A. Navoiyning "Bir kabutar" hikoyasini hikoya qilib beradi hikoyadagi bolalar uchun qiyin so'zlarni izohlaydi, bolalarga so'zlarni to'g'ri aytishni o'rgatadi, ular ma'nosini tushuntiradi, so'zlarni eslab qolishni aytadi

2. Hikoya yuzasidan suhbat o'tkazadi

3. Tarbiyachi hikoyani qayta so'zlab beradi

4. Hikoya yuzasidan berilgan savollarga javob beradilar

5. Hikoyani qismlarga bo'lib so'zlatiladi, so'ng ikki uchta bola hikoyani to'liq so'zlaydi. Bolalar hikoyani o'rganish jarayonida kabutarni, podshoni tasvirlaydilar, shu asosida ijodiy fikrlaydilar

6. Tarbiyachi hikoya asosida erkin, ozod yashash ona Vatan tushunchasini izohlaydi, bolalar ona vatan haqida she'r aytish bilan ona Vatanga muhabbatni ifoda etadilar

Hikoya yuqoridagi kabi metodda o'rgatish bolalarni ijodiy fikrlashga yordam beradi, ularda ona Vatan, yurtga muhabbat, unga sodiq farzand bo'lish hissini o'stiradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'limda bolalarga ertak va hikoyalarni noan'anaviy metodlarda o'rgatish muhim ahamiyatga egadir. Bunda, ayniqsa, didaktik o'yin, qo'g'irchoq teatri, sahnalashtirish, adabiy kechalar tashkil etish bolalarda qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, ertak va hikoya, multfilm, videofilm, teleko'rsatuv orqali o'rgatish ham maktabgacha ta'limda qo'llaniladi, bolalarning ertak mazmunini oson tushunishi, asar qahramonlarning xususiyatini tez farqlashi, ertak va hikoyaning mazmuni eslab qolishlarini ta'minlaydi. Bolalarda eshitish va ko'rish orqali idrok qilish tarbiyalanadi bu esa bolalarning bilish faoliyatini oshiradi, xotirasini kuchaytiradi, ularning aqliy faolligini oshiradi. Natijada nutqning kommunikativ vazifalari kengayadi, bolalar ertak qahramonlarining nutqini eshitish, tinglash, harakatlarini ko'rish, kuzatish bajarishi orqali erkin ijodiy fikrlashga o'rganadilar.

X.Badalovning "Qip-qizil olma" hikoyasini o'qib berish mashg'ulotini quyidagicha tashkil etildi.

Mavzu: X.Badalov, "Qip-qizil olma"

Metod: o'qib berish

**Mashg'ulotning maqsadi:** Hikoyani o'qib berish orqali uning mazmunini tushunish, savollarga javob berishga o'rgatish. Bolalarni bir-biri bilan ahil, do'st, o'rtoq bo'lishga va hech qachon qizg'anchiq bo'lmaslikka o'rgatish. Ertak va hikoyalarni tinglash orqali kitob o'qishga qiziqtirish.

**Faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi: bolalar, hozir yoz fasli, hamma mevalar pishgan. Mana bu mevaning nomini bilasizlarmi?

**Bolalar:** Olma.

**Tarbiyachi:** Olmaning rangi qanday?

**Bolalar:** Olmaning rangi qizil.

**Tarbiyachi:** to'g'ri, olmaning rangi qip-qizil ekan. Bolalar, quloq solib eshitish. Hozir sizlarga Xamid Badalovning "Qip-qizil olma" hikoyasini o'qib beraman: hikoyani ifodalai o'qib beradi, so'ng tarbiyachi hikoyaning mazmunini so'zlab beradi.

**Tarbiyachi:** hikoyani eshitdingizmi? Tursunoy va Toxira opa - singil ekan-a. Toxiraning tug'ilgan kunida qo'shni bolalar Farhod, Shoira, Nigoralar kelishibdi. Ular bog'chada o'rgangan qo'shiqlarini aytib berishibdi. Ertasi kuni Toxira konfet olib chiqib bollarga ulashibdi. Ular hash- pash deguncha konfetni yeb qo'yishibdi. Vazira nima qilibdi? Ha, Vazira uyidan qizil olma olib chiqib yebdi. Toxira: men ham bitta tishlay degan ekan, u olmasini orqasiga yashiribdi. Shunda Toxiraning opasi Tursunoy uyga kirib, bir tog'oracha olib chiqib bollarga ulashibdi. Vazira sekin kelib olmadan bittasini olibdi-da tishlab yebdi kabi hikoya qilib beradi.


So'ng tarbiyachi bollarga quyidagi savollarni beradi:

- Tursunoyning tug'ilgan kunida bollar nima qilishdi?
- Ertasiga Toxira bolalarga nima ulashdi?
- Konfetni kim hash - pash deguncha yeb qo'yd?
- Vazira uyidan nima olib chiqdi?
- Vazira Toxiraga qizil olmasidan bir tishlashga berdimi?
- Tursunoy tog'orachada nima olib chiqdi?
- Vazira nima qildi?

Tarbiyachi bolalarning javoblarini tuzatadi, to'ldiradi. So'ng bolalar hikoyani bilganicha, tarbiyachining yordamida so'zlab beradilar. Tarbiyachi bolalarga qizg'anchiq bo'lish yomon odat ekanini, Tursunoyning qizg'anchiq emasligini, hamma narsani o'rtqolariga berishini, bolalarning Tursunoydan ibrat olishligini aytadi.

#### TADQIQOT NATIJASI

Garchi maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi va bu borada samaradorlikka erishish yo'llari keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lsa-da, biroq, ertaklar vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlikka mehr uyg'otish metodikasi ilmiy-tadqiqot uchun mavzu sifatida tanlanmaganligi, ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganilmaganligini ko'rsatdi.<sup>1</sup> Yuqoridagi barcha dalillar biz tanlagan maqola mavzusini o'rganish uchun chuqur va puxta tahlil qilish zarurligini tahlil etamiz.




#### 2-rasm Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar uchun "Bir kabutar", "Qip-qizil olma", "Dono dehqon", "Oltin tarvuz", hikoyalarni katta guruh bolalarida tajriba-sinov natijasida kitobxonlik ko'nikmasining shakllanganlik darajasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha kuzatish va tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi natijalarga erishildi. Bunda tarbiyalanuvchilar orasida eng ko'p tanlangan qiziqarli kitob "Bir kabutar" bo'ldi. Bu o'yin bolalarda katta qiziqish uyg'otdi. Tarbiyachi bolalar diqqatini jalb qilib, bog'cha atrofida uchib yurgan qushlar, kabutarlarni kuzatishni aytadi, bolalar qush va kabutarlarning bog'cha tomiga, daraxtlarga o'zlari uchun in qurganlarini aniqlaydilar, ularning ovqat izlashi, yashashi, odamlardan qochmasligi erkin uchayotganini bilib oladilar, va "hayvonlarni uyini tap" o'yini illyustratsiyalardan foydalanildi bilimlarini mustahkamlashga turtki bo'ldi. Qolgan bolalar qiziqishlari va istaklariga binoan "Qip qizil olmalarni top", "Farqini top" o'yinlari ham o'ynaldi, chunki har bir bolaning qiziqishlarini inobatga olish biz tarbiyachilarning burchidir.

10 M.A.Rasulxo'jaeva, S.B.Ermatov. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining badiiy adabiyotni ijro etishdagi asosiy metodlar. "Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish:


Yangi shakllari va ta'lim mazmuni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari to'plami. 245 b. 13-may, 2020 y.





**3-rasm. Ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan bolaga ertak o'qib berish holati (foizda)**

Tarbiyachi va ota onalardan olingan javoblardan shu ma'lum bo'ldiki, tarbiyachilar bolalarga ertak aytish kerak deb hisobladi o'z vazifalarini tushunib yetgan xolda zamon talabidan kelib chiqib ularni ma'naviyatini yuksaltirish dunyo qarashini shakllantirish va shuni aytish kerak uyda va bog'chada kitob burchagini shakllantirish kerak.



**4-rasm Bolalar qanday turdagi ertaklarni o'qib berish lozim deb o'ylaysiz?**


“Bolalar qanday turdagi ertaklarni o'qib berish lozim deb o'ylaysiz?” deb berilgan savolimiz natijalariga ko'ra 44% jahon ertaklarini, 32% o'zbek ertaklarini, 12% esa mualliflik va klassik ertaklarni o'qish ma'qul deb ko'rsatilgan. Zamonaviy ertaklarga esa talab kamligini 1% zamonaviy ertaklar degan javobda ko'rinib turibdi. Demak, bolalarimizda jahon ertaklarini eshitish va uni tasavvur qilishga bo'lgan moyillikni, qiziqishni yuqoriligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa: Chunki jahon ertaklari rang-barang rasmlar bilan nashr etiriladi.

Ota-onalar tomonidan jahon ertaklarini o'qib berilishi avvalo ota-onalarni o'zlarini undan voqif bo'lishini talab etadi. Shu bilan birgalikda milliy o'zbek ertaklarini xorijiy ertaklar bilan taqqoslab tushuntirish borishlari bolani maktabgacha yoshdayoq boshqa xalqlarni hurmat qilishga ular kabi keng kamrovi fikrlashga hizmat qiladi.

MTTda bolalar kitobga qiziqishi uchun qanday kitoblar o'qish tarafdorisiz? so'rovi natijalariga ko'ra, 36% sarguzasht kitoblarni ma'qullashlarini bildirganlar. Bu esa ota-onalarda bolalarini tasavvur va fikrlashlarini, hissiy emosionalligini, xotirasini keng rivojlanishiga e'tibor qaratayotganliklarini anglatadi. Zamonaviy kitoblarni 26% javobda ma'qullashlari esa bugunni holatini bola tez anglaydigan, bola uchun tanish ma'lumotlar bo'lishini xoxlayotganliklarini bildiradi. Vatan

madxini ifodalovchi kitoblarni ma'qullayman degan javoblari esa 14% da keltirilganligi achinarli xol bo'lib, bolaga ilk yoshligidan Vatanini sevadigan uni asraydigan qilib tarbiyalashga e'tibor kam qaratilayotganligini ko'rsatadi.



**5-rasm. Ota-ona va tarbiyachilarning bolalarni kitobga qiziqishtirishdagi ertak turlari<sup>2</sup>**

Demak ota-onalarni bola tarbiyasi va kitobxonlik madaniyati borasidagi ko'nikmalari, bilimlari o'rta darajani tashkil qiladi, bu esa qoniqarli holat, aslida esa ota-onalar yuqori darajada bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari joiz. Lekin biz olib brogan tajriba-sinov ishlarimizda ota-onalarning o'zlari kitob o'qimasliklari aniqlandi. Oilada bu madaniyat shakllanmagan bo'lgani uchun bolani kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ertaklar olamiga jalb qilish pedagog-tarbiyachilar uchun qiyinchilik tug'diradi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Bolalarga ertak va hikoyalarni o'qib berish, kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirish maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi, qisqa mazmuni sodda va yosh hususiyatidriga mos bo'lishi kerak, chunki bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do'stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to'g'risida bo'lgani ma'qul.

#### **Ushbu xulosalarga asoslangan holda tadqiqot jarayonida olingan asosiy natijalar quyidagilardan iborat:**

1. Tajriba sinov natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlikka mehr uygotishga oid pedagogik, ilmiy, psixologik, tarixiy, metodik adabiyotlar organilib, nazariy jihatdan asoslangan va talimiy faoliyat mavzuli rejasining turli xildagi dasturidan foydalanildi.

2. Faoliyat jarayonida ertak mazmuniga mos rasm, korgazmalilik, o'yinchoq, illyustratsiyalardan foydalanishi, stol teatri, qogirchoq teatri va boshqa teatr va sahnalashtirish ishlari olib borildi.

3. Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarda ertaklar vositasida kitobxonlikka mehr uygotishda «Ilk qadam» o'quv dasturi asosida «Ta'limga yetaklovchi ertaklar», «Bolajonlar uchun she'rlar toplami» metodik qollanmalarini multimedia asosida elektron resurslardan foydalanildi.

4. Ertak va hikoyalar bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qildi, u bola nutqni rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

5. Tadqiqot asoslangan ertaklar, “Men yoqtirgan she'r” va “Tasvirdagi ertak” kabi innovatsion texnologiyalarning takomillashtirilishi ulardan maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda kutilgan natijalarga

erishish mumkinligi isbotlandi, jarayonida “Ko‘p qismli asar”, “Ertak (hikoya, she‘r)ni yakunla”, “Savollarga

1. Bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo‘lishi, avval eslatib o‘tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali atrof-olam nima ekanligini yaxshi anglamaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do‘stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloqiy va ta‘limiy bo‘lgani ma‘qul.

2. Bola ertak mazmunini o‘zlashtirib olishi uchun, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak

mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda bolalarning til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur.

3. Kitob, tilni rivojlantirish omili sifatida foydalaniladi, shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarga taqdim etiladigan ertak kitoblarimiz rasmi, yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi, hajmi qisqa va mazmuni sodda bo‘lishi lozim.

4. Har bir MTT larida kutubhona burchaklari tashkil qilinishi, bolalarni oyida 2-marta kutubxonalarga sayrga olib chiqishni va kitobxonlik tadbirlari o‘tkazib turilishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. «Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
2. «2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-sonli Qarori.
3. «Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
4. «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. 2018 yil. Toshkent.
6. “Ilk qadam” Maktabgacha ta‘lim muassasasining Davlat dasturi. 2018 yil. Toshkent.
7. Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish/ o‘quv qo‘ll. –T.: O‘zbekiston, 2002.-128B
8. Umarov A. Mutolaa madaniyati (kitob inson uchunmi yoki inson kitob uchunmi?)// Xayot va qonun j.-T.: 2004.- №6.-74-76-B.
9. Alekseevskaya, A.T. Formirovanie chitatel’skogo interesa u doshkol’nikov [Tekst] / A.T. Alekseevskaya. – M. : «Akademiya», 2008. – 188 s.
10. Bolotskaya, S.T. Priobshenie detey k xudojestvennoy literature
11. [Tekst] / S.T. Bolotskaya // Doshkol’noe obrazovanie. – 2008. – № 4.
12. Gritsenko, Z. A. Praktikum po detskoj literature i metodike priobsheniya detey k chteniyu: ucheb.posobie dlya stud. fak. doshk. vospitaniya vyssh. ped. ucheb. zavedeniy [Tekst] / Z. A. Gritsenko. – M. : Akademiya, 2008. –
13. Gerbova V. V. Priobshenie detey k xudojestvennoy literature. Programma i metodicheskie rekomendatsii. – M.: Mozaika – Sintez, 2012. – 72 s.
14. Mirjalolova L.R. «Bola tarbiyasida kitobning o‘rni» XXI asrda bolalar kitobxonligi» mavzusidagi ilmiy konfrentsiya.T. 2016.
15. A‘zamova. D.M. «Yosh avlod-axborot-kutubxona muassasasi misolida» XXI asrda bolalar kitobxonligi» mavzusidagi ilmiy konfrentsiya.T. 2016
16. Qurbonov T. Kitob, kitobxonlik, kutubxona – ma‘naviyatning uch ildizi. Postda O‘zbekiston Respublikasining ichki ishlar vazirligining nashri 15. 04.201
17. Muminova D. A. Barkamol shaxs tarbiyasida kitobxonlikning o‘rni. NamDU ilmiy axborotnomasi – Nauchniy vestnik NamGU 2019 yil 6-son



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

**Absamatova Iroda**

*Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 23-may, 2022-yil  
**Tasdiqlandi:** 26-may, 2022-yil  
**Jurnal soni:** 3  
**Maqola raqami:** 4  
**DOI:** <https://doi.org/10.54613/001204>

### ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari inklyuziv ta'limini rivojlantirish bo'yicha jahon tajribalari: texnologiyalar, metodlar, ilmiy adabiyotlar o'rganilgan. Shuningdek, alohida ta'limga muhtoj maktabgacha yoshdagi bolalarning zaruriy ehtiyojlarini qondirish masalalari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimi inklyuzivligini bosqichma-bosqich takomillashtirishda ota-onalar, mutaxassislarining uzviy hamkorligini ta'minlash hamda pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish bo'yicha xorijiy tajribalar va yurtimizdagi mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda zarur tavsiyalar berilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, ilmiy tahlillar, amaliy tavsiyalar va umumlashgan xulosalar bayon etilgan.

### KALIT SO'ZLAR

inklyuziv ta'lim, individual yondashuv, kognitiv rivojlanish, integratsiya, kasbiy rivojlanish, deinstutitizatsiyalash, ta'lim siyosati, alohida ehtiyoj, segregatsiya, huquqiy tenglik.

### KIRISH

Har bir davlatning istiqboli ta'lim darajasi va sifati bilan belgilanadi. Shu bois O'zbekiston Respublikasida bolalarni ilk yoshdanoq sifatli ta'lim-tarbiya bilan qamrab olish va ularni jamiyatga ijtimoiylashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimiga inklyuziv kirib kelishi ta'lim jarayonidagi tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi desak, mulohaza bo'lmaydi. Shubhasiz, alohida ehtiyojli bola (AEB)larga ta'lim-tarbiya berish muammosi zamonaviy o'zbek jamiyatidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Ularning barcha tengdoshlari bilan bir qatorda umumiy maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya olishiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilmoqda.

Inklyuziya tushunchasi zamonaviy ta'lim tizimiga Madlen Uillning ta'lim siyosatidagi ishlari asosida kiritilgan.<sup>1</sup> Inklyuziv ta'lim tajribasini qo'llagan dastlabki rivojlangan davlatlardan biri Italiyadir. Italiyada inklyuziv ta'lim siyosati 1970-yillardan buyon qo'llaniladi. Shu kunga qadar nogiron va boshqa maxsus ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalarni individuallashtirish va shaxsiylashtirish huquqini kafolatlaydigan qonunchilik amalda bo'lib kelmoqda.<sup>2</sup> Shu jumladan, dunyo miqyosidagi yetakchi davlatlarda ham inklyuziya o'z samarasini bermoqda.

O'zbekistonda ham jismoniy va ruhiy rivojlanishida imkoniyati cheklangan bolalarning teng huquqli sharoitda yashashi, barcha tengdoshlari qatori ijtimoiy jamiyatda faoliyat yuritishi, o'zlarining imkoniyat va qobiliyatini rivojlantirishlariga ko'maklashish maqsadida xalqaro miqyosda keng targ'ibot va tashviqot ishlari amaliyotga joriy qilinib, inklyuziv ta'lim siyosati bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning daslabki yillarida (1992-yil 9-dekabr) BMTning «Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya»si ratifikatsiya qilinib, O'zbekiston Konstitutsiyasida alohida o'rin egallashi inklyuziyaga qo'yilgan ilk qadamlardan biri bo'ldi. Shundan so'ng Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi va UNESCO xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda rivojlanishda turli nuqsonli bo'lgan bolalar bilan ishlash borasida islohotlar amalga oshirila boshlandi. 2007-yilda «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu muhim hujjat ijtimoiy himoyaga muhtoj va alohida ehtiyojli bolalarning huquqlarini kafolatlashda qonuniy asoslardan biri bo'ldi. 2009-yilda esa hukumatimiz «Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyani imzoladi. Shu asosda ularning mehnat qilish, sog'ligini saqlash, ta'lim olish

va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish huquqlari ta'minlandi.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan katta islohotlarning amaliy qadamlaridan yana biri Prezidentimiz tomonidan Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilganligidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi yangi ta'lim vazirligining asosiy vazifalari orasida O'zbekistonda o'zaro raqobatlashuvchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilot (MTT)lari tarmog'ini yaratish hisobiga bolalarning maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olinishini bosqichma-bosqich ta'minlash hamda bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq qilishga e'tibor qaratildi. Shu bilan bir qatorda, maktabgacha yoshdagi AEBlarning ta'lim-tarbiya olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi quyidagi qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi:

2018-yil 30-sentabrdagi «Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori;

2019-yil 8-maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori;

2019-yil 13-maydagi MTT faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi nizomga muvofiq Qo'shma turdagi MTTlarida uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan inklyuziv guruhlar tashkil qilindi va ularga rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab kiritilishi tasdiqlandi.

Quyidagi statistik ma'lumotlar ham masalaning nechog'lik dolzarbligini ifodalaydi: 2020-yil holatiga ko'ra, mamlakatimiz bo'yicha rasmiy tarzda 101 ming nafar 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar ro'yxatga olingan. 101 ming imkoniyati cheklangan bolaning 80 ming nafari bemalol maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki maktabga bora oladi. Ta'kidlash lozimki, nogironligi bo'lgan bolalarning aksariyat qismi, ya'ni 65 ming 869 nafari o'z oilasida ota va onalar qaramog'ida parvarishlanmoqda.<sup>3</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining inklyuziv ta'limini takomillashtirish o'quv jarayoni davomida bolalarga g'amxo'rlik qilish, shuningdek, bilimlar, muhim hayotiy ko'nikmalar, jumladan bolalarning shaxsiy fazilatlarini va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatishni ta'minlaydi. Erta yoshdan inklyuziyani ta'lim tashkilotlarida qo'llash bolalarda mehr-oqibat hissini shakllantirishga

1 «Maxsus va inklyuziv ta'lim» R. Sh. Shomahmudova, 2018-yil 52-bet  
2 Inclusive education in Italy: Historical steps, positive developments, and challenges. Dario lanes ,Heidrun demo, Silvia Dell'Anna

Prospects (2020) 49:249-263 <https://doi.org/10.1007/s11125-020-09509-7>  
3 Ulug'bek Vafoyev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zXDP fraksiyasi a'zosi <https://inlnk.ru/oeKV6g>

ko'maklashadi hamda AEBlar katta bo'lgani sari nuqsonlarini unutib, bor imkoniyatlaridan foydalanadi va rivojlanishga intiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimining pedagogik amaliyotiga inklyuziv ta'limning joriy etilishi uning dolzarbligiga shubha tug'dirmaydi hamda insonparvarlashtirish va demokratlashtirishning xalqaro g'oyalari mos keladi. Shu munosabat bilan "Maktabgacha yoshdagi bolalar inklyuziv ta'limini takomillashtirish" ilmiy tadqiqot mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Ushbu ta'lim tizimi borasida bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Psixolog L.S.Vigotskiy imkoniyati cheklangan bola normal rivojlanayotgan bolalar davrasidan chiqarilmaydigan ta'lim tizimini yaratish zarurligini ta'kidlagan edi. Uning fikricha, maxsus maktab o'zining barcha afzalliklaridan qat'i nazar, asosan bir kamchilik bilan ajralib turadiki, u o'z tarbiyalanuvchisi - ko'r, kar yoki aqli zaif bolani tor jamoaga kiritadi, hamma narsa bolaning nuqsoniga moslashtirilgan, uning e'tiborini o'z nuqsoniga qaratadigan va uni haqiqiy hayotga kiritmaydigan berk dunyoni yaratadi.

Qisqa qilib aytganda, maxsus maktab bolani alohida ajratilgan o'lamdan chiqarish o'rniga, unda o'z qobig'iga yanada kuchliroq o'ralishga eltuvchi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shu tufayli ham L.S.Vigotskiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani tarbiyalashning asosiy vazifalari uni hayotga olib kirish va uning nuqsoni o'rnini boshqa biron-bir yo'l bilan to'ldirishdan iborat, deb hisoblagan. Shunday qilib, L.S.Vigotskiy birlashtirilgan ta'lim g'oyasini birinchilardan bo'lib asoslagan. Keyinchalik uning g'oyasi G'arbiy Yevropa va AQSh maktablarining ish amaliyotida ro'yobga chiqarildi.<sup>4</sup>

Lin Ang, Lasse Lipponen va Sirene Lim May Yin tomonidan so'nggi o'n yil ichida rivojlangan Singapurning erta bolalik davridagi g'amxo'rlik va ta'lim muhitini tanqidiy aks ettirib, ta'limni inklyuzivlik yani ijtimoiy tenglik yo'li sifatida tasavvur qilish va chinakam inklyuziv jamiyat qurish, yosh bolalar hamda oilalarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun siyosat va amaliyotda erta bolalikning rolini yanada rivojlantirish uchun tanqidiy tahlillar olib borilgan.<sup>5</sup>

W. Catherine Cheung, Michaelene M. Ostrosky, Paddy C. Favazza, Melissa Stalega, Hsiu-Wen Yanglar maktabgacha yoshdagi nuqsonli bolalarning yirik va mayda motorika ko'nikmalarini o'rganish va bolalarning sog'lom rivojlanayotgan tengdoshlari bilan jismoniy mashg'ulotlarda qatnashish imkoniyatlarini qanday tashkil etish va yaratish ko'nikmalarini maktabgacha ta'lim mutaxassislariga samarali usullar yordamida amalga oshirish bo'yicha tadqiqot o'tkazgan.<sup>6</sup>

Francis R. Ackah-Jnr, Hyacinth Udah kabi Avstraliya olimlari esa inklyuziyani bolalar ta'limiga qancha erta olib kirilsa, buning samarasi yuqori bo'lishi hamda pedagoglarning inklyuziv kompetentligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib brogan.<sup>7</sup> Italiya olimlari Dario Ianes, Heidrun Demo, Silvia Dell'Anna tomonidan nogironlikning individual-tibbiy modelining maktab amaliyotiga doimiy ta'siri, imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom bolalarga qo'shish uchun imkoniyatlar va qo'shimcha resurslarni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar atroflicha o'rganilgan.<sup>8</sup>

V. D. Eremeyeva va T. P. Xrizmanlarning fikriga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda, ularning psixik funksiyalari faol rivojlanishda davom

etayotganligini hisobga olib, individual tarzda va kichik guruhlariga bo'lib interfaol o'yin metodlaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Chunki o'yin, o'yinchoqlar, ertak va ijodiy faoliyatning boshqa turlari bolalardagi individuallikni juda faol rivojlantiradi. Bu yoshdagi bolalarni o'qitishda sinf-dars shaklidan emas, balki interaktiv o'yin metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.<sup>9</sup>

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim mavzusiga katta e'tibor qaratgan, nogironligi bo'lgan va AEBlarni umumta'lim - inklyuziv ta'lim jarayoniga kiritish uslublarini tatbiq etgan, "Inklyuziv va maxsus ta'lim" uslubiy qo'llanmasi va inklyuziv ta'lim konsepsiyasi muallifi p.f.n. professor R. Sh. Shomaxmudova ilmiy tadqiqotlarida xorijiy tajribalarga tayangan holda integratsiya va inklyuziv ta'lim strategiyasini jahon miqyosida nazariy va amaliy qo'llab-quvvatlashini ochib bergan.<sup>10</sup>

N. Sh. Abdullayevaning maktabgacha ta'limni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga bag'ishlangan dissertatsiyasida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish uchun o'quv dasturlarida bolalarning yoshi, psixologik va intellektual jihatlarini inobatga olish, ta'limni individuallashtirish va differensiyalashga asoslangan texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida yetarli darajada foydalanish, bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodik ta'minotni ishlab chiqish va amalda joriy etish zaruriyatini asoslab berdi.<sup>11</sup>

G. M. Nazirova "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yoshga doir jihatlarini va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati - o'yin. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda esa bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi"<sup>12</sup>, - deya fikr bildirgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI




1-rasm. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari<sup>13</sup>

4 <http://www.hozir.org/1-ijtimoiy-pedagogika-uning-predmeti-va-vazifalari-ijtimoiy-pe.html?page=76>  
 5 Sage journals. November 23, 2020. Critical reflections of early childhood care and education in Singapore to build an inclusive society Lynn Ang, Lasse Lipponen, Sirene Lim May Yin <https://doi.org/10.1177/1478210320971103>  
 6 Early Childhood Education Journal <https://doi.org/10.1007/s10643-021-01295-x>  
 7 "Implementing Inclusive Education In Early Childhood Settings: The Interplay and Impact of Exclusion, Teacher Qualities, and Professional Development in Ghana/Journal of Educational Research & Practice 2021, 2021.11.1.08

8 Inclusive education in Italy: Historical steps, positive developments, and challenges  
 9 Eric R. Kandel. In Search Of Memory The Emergence of a New Science of Mind Copyright, 2006.  
 10 R.Shomahmudova Maxsus va inklyuziv ta'lim 2018-yil  
 11 Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoreferat (PhD) - T., 2019. - B. 22-23.  
 12 Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jaraenlarni takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan.fals dok. (PhD) - T., 2019. - 45 b  
 13 R. Sh. Shomahmudova Maxsus va inklyuziv ta'lim 2018-yil

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining yangi me'yoriy-huquqiy bazasiga muvofiq, inklyuziv ta'lim barcha bolalarning individual imkoniyatlaridan, ta'lim yutuqlaridan, ona tilidan, madaniyatidan qat'iy nazar, istisnosiz ta'lim-tarbiya va rivojlanish imkonini beradigan innovatsion jarayondir. Inklyuzivlikning joriy etilishi ta'limni yanada insonparvarlashtirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning arzon va sifatli ta'lim-tarbiya olish huquqlari tan olinishi, yangi tipdagi professional pedagogik hamjamiyatni shakllantirishni ta'minlaydi. Inklyuziv ta'limning joriy qilinishi quyidagi xalqaro tamoyillarga asoslanadi (1-rasm).

Inklyuziv ta'lim tashkilotlariga imkoniyati cheklangan bolalarning yengil darajasi 2020-yil 13-noyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hujjatlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish hamda ushbu ta'limga muhtoj bolalar tarkibi va inklyuzivlik darajasi batafsil ta'kidlab o'tilgan (2-rasm).



2-rasm: Inklyuziv ta'limga kiritiladigan alohida ehtiyojli bolalar<sup>14</sup>

Shu bilan birga, barcha bolalarni ommaviy ta'lim tizimiga jalb qilish mumkin emas. Inklyuziv ta'lim uchun tavsiya etilmaydigan toifaga og'ir jismoniy va aqliy nuqsonlari bo'lgan bolalar kiradi.

AEBlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga kirganda, uning moslashishi va keyingi ijtimoiylashuvi bilan bog'liq muammolar paydo bo'ladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuvi uning odatiy muhitga qo'shilishida muhim ahamiyatga ega. Biz bilamizki, bunday bolalar ko'pincha ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kiritilganda tengdoshlari bilan ta'lim-tarbiya jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haligacha AEBlar uchun tuzatish va rivojlanish muhitining moslashtirilgan dasturlarining yo'qligi, MTT mutaxassislarining "maxsus" bolalar bilan ishlash tajribasining yetishmasligi kabi holatlar mavjud.


Bu kabi qator muammolardan kelib chiqqan holda muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan inklyuziyani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar: "O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risida"gi qonunining 20-moddasida alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida tahsil olishdagi teng imkoniyatlarni ta'minlashga e'tibor qaratilishi qayd etilgan. Shu asosda jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etildi. 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim

ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

Vazirlar Mahkamasi qaror 15 qabul qilganligi va amaliyotga tadbir etilayotganligi AEBlarning sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi.

Yuqorida berilgan rasm tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak, segregatsiyadan inklyuziyaga ya'ni tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tish muhimligi, bugungi zamonaviy dunyo ta'limida eng samarali tizim inklyuziya ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Segregatsiya rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ajratib ko'rsatishni nazarda tutadi. Integratsiya esa AEBlarni ommaviy ta'lim-tarbiya tashkilotlariga olib kirishni bildirsada, alohida guruhlar tashkil qilinib, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'sha guruhda o'qitilishini ma'qullaydi. Inklyuziv ta'lim sog'lom va alohida ehtiyojli bolalarni bitta guruhda ta'lim-tarbiya olishini nazarda tutadi. Shubhasiz, inklyuziv ta'lim yanada demokratik jamiyat hamda adolatli va sifatli ta'lim tizimini qurishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar inklyuziv ta'limini rivojlantirish nogiron bolalar va ularning ota-onalari (bola oilada yashash va normal rivojlanayotgan tengdoshlar muhitida tarbiyalanish imkoniyati), jamiyat (ijtimoiy segregatsiyani bartaraf etish va ijtimoiy rivojlanish darajasini barqarorlashtirish) hamda davlat (nogiron bolalar uchun qonun bilan mustahkamlangan ta'lim huquqlarini ta'minlash), ya'ni ta'lim xizmatlarining barcha ijtimoiy qatlam guruhlari uchun ochiq bo'lishini ta'minlaydi.



3-rasm. Segregatsiyadan inklyuziyaga o'tish bosqichlari<sup>16</sup>

#### TADVIQOT NATIJALARI

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish uchun turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

#### 1-jadval

#### Yevropa ittifoqi: "O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'lim loyihasi"<sup>17</sup>

907 nafar alohida ta'limga muhtoj bolalar umumta'lim tizimiga qamrab olindi. Loyihadan foydalanayotgan bolalarning umumiy soni 1500 ga yetdi.	27 ta tajriba maktabi va 27 tabolalar bog'chasi jalb etildi.
Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalarning 1350 nafar a'zosi va professor-o'qituvchilari inklyuziv ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'qitildi.	O'zbekiston ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni joriy etish uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha 3 ta o'quv moduli ishlab chiqildi va tasdiqlandi..

14 "Maxsus va inklyuziv ta'lim" R. Sh. Shomahmudova, 2018-yil

15 Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-504471>

16 Inklyuziv ta'limni resurslar bilan ta'minlash <https://cutt.ly/kHfAmM1>

17 Инклюзивное образование для детей с особыми потребностями в Узбекистане <https://inlnk.ru/goNZDO>


Mamlakatimizda 2014-2016-yillardan boshlab Yevropa Ittifoqining texnik ko'magida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'lim" loyihasi doirasida Toshkent, Samarqand, Namangan, Xorazm va Surxondaryo viloyatlarida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Ushbu tadqiqotni takomillashtirish va inklyuziv ta'limning qamrovini yanada kengaytirish uchun o'z tadqiqotimizni amalga oshirdik. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari o'rtasida anketa-so'rovnoma usulidan foydalangan holda joriy holat yuzasidan ma'lumot yig'ishga muvaffaq bo'ldik. Shuningdek, SWOT tahlili yordamida zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonidagi muhim ta'lim turi bo'lgan inklyuziv ta'limning afzalliklari va kamchiliklari, imkoniyatlari hamda to'siqlarini tahlil qilishga erishdik. Ushbu metodlar yordamida inklyuzivlikning qanchalik muhimligi va ta'lim tizimida to'g'ri qo'llash borasida ko'nikmalarga ega bo'ldik. Kuzatish usuli orqali esa pedagoglarning ushbu ta'lim tizimidagi salohiyatlarini baholadik.

Mavzu doirasida Respublika MTTlari pedagoglari o'rtasida AEBlar inklyuziv ta'limini takomillashtirish va masala yuzasidan joriy holatni bilish maqsadida onlayn va oflayn anketa-so'rovnoma tashkil qilindi. Ijtimoiy so'rovnomada 225 respondent ishtirok etdi.

Oflayn so'rovnoma Farg'ona viloyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tinglovchilari hamda Farg'ona viloyati Qo'qon shahar 2-DMTT, 48-DMTT xodimlarida orasida o'tkazildi. Oflayn so'rovnoma ishtirokchilarining 100 nafari tarbiyachi, 25 nafari esa MTT direktorlari. Onlayn so'rovnoma 100 nafar respondentlarni qamrab olgan holda, ijtimoiy tarmoqlarda (facebook: "Maktabgacha ta'lim/Дошкольное образование" guruhi va telegram: "Respublika MTT ilg'or tarbiyachilari" guruhlarida) tashkil qilindi. Ushbu tadqiqotda quyidagi natijalar qayd etildi:


Yuqoridagi rasmdan tarbiyachilarning inklyuziv ta'lim haqida tushunchasi yetarli darajada emasligi ma'lum bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu inklyuziv ta'lim hududlarda keng targ'ib qilinmaganligi va tarbiyachilarning qonuniy xabardorligi past darajada ekanligini bildiradi. Pedagoglarning inklyuziv ta'lim tizimi bo'yicha kasbiy mahoratini oshirish uchun maxsus treninglar tashkil qilinishi, qabul qilingan qator qonuniy hujjatlar bo'yicha rahbariyat tomonidan keng targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislar ta'lim tashkilotlarida inklyuziya bo'yicha savodxonligini oshirish hamda tarbiyachilarni kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.



**6-rasm. Umumiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ehtiyojli bo'lgan bolalar mavjudligi ko'rsatkichi<sup>18</sup>**

Ushbu rasm tahlilidan inklyuziv ta'limga bolalar qamrovi yuqori darajada ekanligi ma'lum bo'ldi. Imkoniyati cheklangan bolalar maxsus internatlarda ta'lim-tarbiya olishi ularni o'z oilasidan uzoqda bo'lishga majbur qiladi. Inklyuziv ta'limni qo'llashning afzalligi shundaki, maxsus ta'lim muassasalari


mavjud bo'lmagan joylarda ham alohida ehtiyojli bolalarning umumiy maktabgacha ta'lim tizimiga to'liq jalb qilinishiga imkoniyat yaratiladi.



**7-rasm. Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim berishda tarbiyachiga mutaxassislar tomonidan beriladigan yordam izohi<sup>19</sup>**

Yuqoridagi rasm tahlili natijasida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan tarbiyachilarga yetakchi mutaxassislar (defektolog, logoped, psixolog, resurs pedagog) maslahat berish orqali yordam berishini 60 % tarbiyachi qayd etgan bo'lsa, 40 % i buni inkor etdi.

Bu muammoning asosiy sababi sifatida mutaxassislar yetishmasligini ko'rsatishimiz mumkin. Rivojlangan davlatlar – Germaniya, Italiya, Singapurda MTT inklyuziv guruhlarida har bir tarbiyachi yonida assistent faoliyat olib boradi. Ular asosiy pedagoglar bilan bir qatorda o'quv muassasasidagi barcha tarbiyalanuvchilarining ta'lim sifati uchun javobgardir. Ushbu assistentlarning mutaxassisligi defektologiya, psixologiya yoki logopediya bo'lishi lozim.<sup>20</sup>



**8-rasm. Alohida ta'limiy ehtiyojli bo'lgan bolalarga o'quv dasturlarining moslashtirilganlik darajasi<sup>21</sup>**

Alohida ta'limiy ehtiyojli bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan dasturlarning yetishmasligi eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limga endigina kirib kelayotganligimiz sababli bunday tizimlar doirasida ilmiy-pedagogik kadrlar va ta'lim tashkilotlarining o'quv-moddiy bazasidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Respublikamizning bir qator olimlari tomonidan inklyuziv ta'lim uchun maxsus "Moslashtirilgan o'quv dasturi" alohida ehtiyojli bor 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ishlab chiqildi.<sup>22</sup> Ushbu dasturda inklyuziv ta'lim tamoyillari, alohida ehtiyojli bolaga qanday yondashish lozimligi; shuningdek

18 Tadqiqot davomida muallifning hisob-kitobi

19 Tadqiqot davomidagi muallif chizmasi

20 "Maxsus va inklyuziv ta'lim" R. Sh. Shomahmudova 2018-yil

21 Tadqiqot davomida muallifning hisob-kitobi

22 "Moslashtirilgan o'quv dasturi" I.V. Groshev A., E. N. Nazarova, E. A. Nekrasova, B. P. Abdullayev, U. T. Muxitdinova 2019.

individuallik va tabaqalashtirilgan yondashuv tamoyillari atroflicha yoritilgan. Shu singari moslashtirilgan o'quv materiallari ko'proq ishlab chiqilishi va rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan o'quv adabiyotlarini milliy tizimga moslab olib kirish inklyuziyaning rivojlanishida muhim sanaladi.

Ushbu rasm tahlilidan ma'lumki guruhdagi bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida yordamga muhtoj tengdoshlariga ko'maklashishi ularida insonparvarlik hissi shakllanayotganligini ko'rsatadi. Bunda pedagoglar streotiplarni qo'llashdan qochishlari va guruhdagi bolalar oldida AEBlarining nuqsonlarini sharhlamasliklari lozim hamda nuqsoni bor bolalarga laqab qo'yish, masxara qilish kabi salbiy munosabatlariga yo'l qo'ymasligi kerak.

Shuningdek, AEBlar bilan ta'lim-tarbiya olayotgan tengdoshlari o'rtasida do'stona munosabatni shakllantirish uchun turli metodlardan foydalangan maqsadga muvofiq.

Masalan: «Kungaboqar» o'yini.

O'yinning maqsadi: bolalar o'rtasida do'stona munosabat muhitini shakllantirish.


O'yin jihozlari: gul bargi shaklida qirqilgan rangli qog'ozlar. Bolalarning har biri uchun tamg'asifat rangli qog'ozdan yasalgan shakllar yoki nakleykalar. Har bir bolaning fotosurati, yelimi.

O'yinning borishi:

1. Bolalar uchun yangi o'yin o'ynalishini ma'lum qilish.
2. Hamma bolalarga o'z shaklini rangli qog'ozdan qirqib olishiga yordam berish.
3. Har bir bola fotosuratining bosh qismini dumaloq tarzda qirqib olib, alohida A4 formatli qog'ozning o'rtasiga yopishtirish.
4. Har bir bola rasmining atrofiga oldindan tayyorlab qirqib olingan gul barglarini xuddi kungaboqar guli kabi aylana qilib yopishtirib chiqish (bunda bolalar faol ishtirok etadilar).
5. "Bolalar, qarang, har biringizning rasmingizni gul ichiga joylashtirdik.

Endi har kuni hammangizning mana shu rasmingizni doskaga ilib qo'yaman. Qolgan bolalar esa agarda rasmi ilingan bola unga biror bir yordam bersa yoki biror bir yaxshilik qilgan bo'lsa o'z tamg'asini uning kungaboqar guli barglariga yopishtirib qo'yib, rahmat aytadi. Biz kun yakunida har bir boladan bu tamg'aning nima uchun yopishtirganligini so'raymiz. O'yinimiz yakunlanganda har bir bolaning kungaboqarida yopishtirilgan tamg'alarni sanaymiz. Qani, kimning kungaboqar guli barglarida tamg'alar ko'p bo'ladi", deyiladi.

Mazkur o'yindan mashg'ulot jarayoni, jismoniy daqiqalar va mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda foydalanish tavsia etiladi.



**10-rasm. Alohida ehtiyoji bo'lgan bolalar inklyuziv guruhda tarbiyalanishi natijasida kognitiv va ijtimoiy rivojlanishi sezilayotganligini aniqlash ko'rsatkichi<sup>23</sup>**

Bu ko'rsatkich inklyuziv ta'limning nechog'lik ijibiyligini ko'rsatdi. Ya'ni, bolaning ijtimoiylashuvi va kognitiv qobiliyatlarining rivojlanishi hamda uning boshqa tengdoshlari qatori ta'lim-tarbiya olishi kelajakda yetuk shaxs bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Shuningdek, inklyuziv ta'lim AEBlarining yolg'izlik iskanjasidan qutulishiga yordam beradi.

Uning psixikasiga ijobiy ta'sir qilib, o'zidagi bor imkoniyatlarni rivojlantirishga intiladi. Yengil darajadagi nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'ayish holatlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilayotgan MTTlari xodimlariga berilgan "Alohida ehtiyojli bolalarga ta'lim-tarbiya berishda qaysi usullardan foydalanish ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam berdi?" – mazmunidagi savolga aksariyat holatda quyidagi javoblar olindi:

1. Individual shug'ullanish;
2. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar;
3. Bolaga motivatsiya berish;
4. Interfaol metodlar;
5. Bolaga sog'lom bolalardan farqli emasligini tushuntirish;
6. Tadbirlar, qiziqarli o'yinlar orqali;
7. Qo'shimcha shug'ullanish;
8. Pedagoglar hamkorlikda ish olib borishi;
9. Mutaxassislar ko'magi;
10. "Menga imkon bering", "Men bajara olaman" metodlari.

Bu javoblardan xulosa qilish mumkinki, inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilayotgan MTTlarda pedagoglarning salohiyati oshib bormoqda.

"Inklyuziv guruhning bola rivojlanishidagi muhim ijobiy jihatlarni sanab o'ting" mazmunidagi savolimizga esa ko'proq berilgan javoblar quyidagicha bo'ldi:

1. Bola o'z tengdoshlari bilan teng huquqda ekanligini angelaydi, jamiyatga kirishuvi osonlashadi;
2. Bolalar bir-birlariga mehr-oqibatli bo'ladi;
3. Bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi;
4. Mashg'ulotlarda ishtiroki kengayadi;
5. Bolaning holatiga e'tibor berish;
6. Kasallik turiga qarab choralar ko'rish;
7. Bola bilan individual ishlash jarayonida uni rag'batlantirish;
8. Sog'lom muhitga moslashadi;
9. Tengdoshlari mashg'ulotlarda ko'maklashadi;
10. Sog'lom bolalar orasida psixologik jihatdan ham o'zidagi nuqsonni unutadi.

Bu anкета savoli orqali respondentlar inklyuziv ta'lim muhitining bola rivojlanishidagi o'rni va ruhiy ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtiruvchi faktorlarini alohida ta'kidlab o'tdilar. Inklyuziv ta'lim bola shaxsining rivojlanishi uchun unga yo'naltirilgan ta'lim ta'sirini ta'minlashi ko'rsatib o'tildi.

"Inklyuziv guruhdagi faoliyatingiz davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aytib o'ting". Ushbu savolimizga olingan javoblar:

1. Mutaxassis yordamiga muhtojligim;
2. Resurs materiallar moslanmaganligi;
3. Boladagi "o'rtoqlarimga nisbatan orqada qolyapman", degan qo'rquvni yengib o'tishiga yordam berishda qiynalغانligim;
4. Ota-onaga to'g'ri tushuncha berish qiyinligi;
5. Bolaning oilaviy muhiti, bola bilan ishlashda uning ruhiyatini bilmaganligim;
6. Texnik jihozlarning yetarli emasligi;
7. Tashkilotga alohida soha mutaxassislari ajratilmaganligi;
8. Maxsus rivojlantiruvchi treninglar orqali muntazam ravishda o'qitilib bormasligimiz natijasida zamonaviy yondashuv usullarini bilmaganligim;
9. Sog'lom bolalarda bulling (masxara qilish) yuzaga kelishini bartaraf etishdagi qiyinchiliklar;
10. Nuqsonli bolalarning ijtimoiylashuvidagi adaptiv davr kechikishining ob'yektiv va sub'yektiv sabablari.

Yuqoridagi javoblar mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, aksariyat mutaxassislarda bolalar bilan ishlash jarayonida kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi, bolalar psixologiyasi va maxsus psixologiya bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli

23 Tadqiqot davomida muallifning hisob-kitobi

emasligi faoliyati davomida qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Bolalardagi bulling ta'sirining paydo bo'lishi umumiy ijtimoiy muhit buzilishi va ijtimoiy tabaqalanishga sabab bo'lishining oldini olishda har bir bola shaxsining individual xususiyatlari va oiladagi muhitini yaqindan bilgan holda yondashish talab etiladi. Bunda esa tashkilot xodimi ta'lim va oila o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali yo'lga qo'ya olgan bo'lishi, ota-onalar bilan farzandi xulqidagi o'zgarishlarni birgalikda tahlil qilishi lozim bo'ladi.

So'rovnoma ishtirokchilaridan "Inklyuziv guruhda faoliyat olib borishingizda qanday yordam zarur?", deb so'ralganida esa quyidagicha javoblar oldindi:

1. O'quv metodik resurslar kerak;
2. Mutaxassis yordamiga muhtojman (defektologoped, psixolog);
3. Guruhdagi bolalar sonini kamaytish va bolalar bilan alohida ishlash uchun tarbiyachi sonini ko'paytirish kerak;
4. Muntazam ravishda o'quv seminarlar va amaliy treninglar o'tkazish kerak deb hisoblayman;
5. Maxsus MTTlar tiklansin;
6. Zamonaviy didaktik ko'rgazmali materiallar;

7. AEBLarga ta'lim-tarbiya berish uchun yo'riqnoma bilan ta'minlanishi kerak;

8. Motivatsiyani oshirish va faoliyatimizdan mamnun bo'lishimiz uchun moddiy va ma'naviy yordam berilishi;

9. Inklyuziv ta'lim dasturini zamonaviy, innovatsion darajada yanada takomillashtirish.

Jamiyatda nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda. Bundan tashqari nogiron bolaning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlari muntazam ravishda qadrlanmasa, bolalarda o'ziga va qobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Har qanday jamiyatda har bir bola noyob, maxsus ehtiyojli bolalar esa boshqa bolalar singari huquq, ehtiyoj va intilishlarga ega degan dalilni idrok etish zarurati mavjuddir. Ushbu bilimlarni chuqurlashtirish, bu yo'nalishda ish olib borish bola, oila, hamjamiyat darajasida hamma uchun muhimdir. Inklyuziv ta'limning bugungi kundagi holati, uning afzalligi va kamchiliklari qay darajadagi hamda ushbu tizimni takomillashtirish jamiyatda qanchalik imkoniyatlar ochishi yoki bu yo'lda qanday tahdidlarga duch kelishimizni quyidagi SWOT tahlili yordamida tasavvur qilishimiz mumkin (1-jadval).

### 1-jadval

#### MTTlarda inklyuzivlikni qo'llash imkoniyati bo'yicha SWOT tahlili

S - afzalliklari	W - kamchiliklari
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Inklyuziya kamsitilishning oldini oladi;</li> <li>2. Imkoniyati cheklangan bolalarni oddiy bolalar qatoriga qo'shib, sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlari va harakatlarini rivojlantirishi;</li> <li>3. AEBLar ham jamiyatning bir bo'lagi ekanligini his qiladi;</li> <li>4. Erta tashxis orqali boladagi nuqsonni bartaraf etishga erishish mumkin;</li> <li>5. Sog'lom bolalarda AEBLarni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish -insonparvarlik hissi tarbiyalanadi; AEBLar yetarlicha g'amxo'rlik va mutaxassislar diqqat-e'tibori orqali ham kognitiv, ham ruhiy, ham jismoniy rivojlanib boradi.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Jamiyatga inklyuziya tushunchasini singdirish muammosi;</li> <li>2. Mutaxassislar yetishmasligi (logoped, defektolog, psixolog);</li> <li>3. AEBLar sog'lom bolalar tomonidan kamsitilishi;</li> <li>4. AEBLarning hamma mashg'ulotlarda faol qatnasha olmasligi;</li> <li>5. Ota-onalar bilan hamkorlik muammosi;</li> <li>6. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun o'quv dasturlari hali ham moslashtirilmagan;</li> </ol> Infratuzilma (texnik resurs) yetishmasligi.
O - imkoniyatlar	T - tahdidlar
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. AEBLarga o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;</li> <li>2. Bu ta'lim tizimi AEBLarga yaqinlari va tengdoshlari davrasida bo'lishga imkon beradi;</li> <li>3. Hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali dunyoqarashi kengayib, hayotiy tajribasi oshadi;</li> <li>4. Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;</li> <li>5. Yotsirash, yakkalanish kabi stereotiplari yo'qoladi;</li> <li>6. AEBLar bilan ishlashning samarali metodlarini yaratish imkoniyati;</li> </ol> Jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun AEBLar orasidan ham yangi iste'dodlar, g'oyalar egasi tarbiyalanishi mumkin.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Diskriminatsiya yuzaga keladi, hamma bolalar ham nuqsonli bola bilan ta'lim-tarbiya olishni xohlamaydi, ya'ni ularni qabul qila olmaydi;</li> <li>2. Nogiron bolalardagi mavjud muammolarni o'rganish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish, bilim ko'nikmalarni hosil qilish ishlarining bir vaqtning o'zida yonma-yon ravishda olib borilishi qiyin kechishi;</li> <li>3. Ushbu ta'lim o'zini oqlamaso yo'qolib ketishi; Maxsus ta'lim tashkilotiga ehtiyoj kamayishi.</li> </ol>

#### TADQIQOT MUHOKAMASI

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish jarayoni nafaqat davr talabi, balki bolalarning arzon va qulay ta'lim olish huquqlarini to'liq ta'minlash yo'lidagi samarali qadamdir. Inklyuziv amaliyot ta'limning u yoki bu turini olishda teng imkoniyatlar va barcha bolalarning individual xususiyatlari, aqliy va jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar, istinosiz ta'limga moslashishga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. "Inklyuziv ta'lim" konsepsiyasining mazmunini aniqlashning asosiy yondashuvlarini tahlil qilish jarayonida ma'lum bo'ldiki, bu barcha bolalarning maxsus ta'limiy ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligidan qat'iy nazar bilim olishdan teng foydalanish imkoniyatini ta'minlovchi ta'lim jarayonini tashkil etishdir.

Har bir bola boshlang'ich rivojlanish yo'lini aynan maktabgacha yoshda bosib o'tishi sababli, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish va psixologik jarayonlarni


muvofiqlashtirishga qaratilgan muhitni yaratishimiz kerak. Bola psixikasini rivojlantirishning potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, bir tomondan, umumiy ijtimoiy farovonlik, ikkinchi tomondan esa, ta'limga individual va differensial yondashuvni hisobga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil etish bilan bog'liqdir.

Inklyuziv ta'lim bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tuzilmalari va mazmunini qayta takomillashtirib, moslashtirishni talab etadi.

Odatiy ta'lim tizimini ushbu fotosuratga qiyoslash mumkin. Bunda hamma bir xil imtihon topshirishi lozim: "daraxtga chiqish". Ayrim hayvonlar tezda chiqadi, ayrimlari esa hatto quruqlikda yashay olmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimida ham aynan individual ta'lim yondashuvi shu qadar muhimdir. Demak ta'lim samaradorligi va sifatini ta'minlanishda har bir bola shaxsining individual ruhiy jarayonlaridan kelib chiqqan holda yondashilishi, qobiliyatlari turlari e'tiborda tutilishi muhim faktor bo'lib xizmat qiladi.



Bugungi kunda O'zbekistonda turli toifadagi bolalarni umumiy ta'limga o'tkazish qonuniy asosga ega ekanligini aytishimiz mumkin. Afsuski, qonunda ko'rsatilgan ijobiy jihatlarning aksariyati qog'ozda qolmoqda. Ko'pgina ilg'or qonun hujjatlarida bo'lgani kabi, ularni amalga oshirish mexanizmi amalda yo'qligicha qolmoqda.



**12-rasm. Inklyuziv ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatiga ko'ra yondashuv<sup>1</sup>**

Xuddi shu sababdan jamiyatda inklyuziv ta'limga nisbatan noxolis munosabat mavjud. Ba'zi hollarda bu muammo AEBlarni o'qitish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik jihatdan tayyor emasligi bilan bog'liq bo'lib, ularning maxsus qobiliyatlari, o'quv dasturlari, maxsus didaktik, tuzatish va rivojlantiruvchi jihozlarga moslashtirilishini talab qiladi.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalari xodimlari rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim va ijtimoiy integratsiyalashuviga bo'lgan ehtiyojini yanada to'liq qondirish, ijtimoiy-psixologik va tibbiy yordam ko'rsatishning maqbul amalga oshirilishiga xizmat qiladigan yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlanishi kerak. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv guruhlar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlarining yetishmasligi eng katta muammolardan biridir. Shunday qilib, inklyuziv ta'lim muammosi murakkab, munozarali, lekin u haqiqatan ham zaruriy ijtimoiy jarayondir, chunki uni hal qilish juda ko'plab odamlarga manfaat keltiradi.

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Ushbu jarayonda har bitta inklyuziv guruhda faoliyat olib boruvchi pedagoglarga maxsus mutaxassislar (defektolog-logoped, psixolog, surdopedagog, tiflopedagog, tibbiyot xodimi) doimiy ravishda yaqindan ko'mak berishi lozim. Ushbu xodimlar o'z zimmlariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:



**13-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yurituvchi mutaxassis majburiyatlari<sup>2</sup>**

Psixolog metodist bilan hamkorlikda inklyuziv guruh pedagoglarining jismoniy va ruhiy rivojlanishida imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida individual rivojlantiruvchi dasturlar asosida, korreksion yordamni amalga oshirishi, erishilgan yutuqlari va muammolari yuzasidan monitoring o'tkazishi mumkin. Monitoring quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- psixologik diagnostika o'tkazish va tahlil qilish;
- jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan mashg'ulot jarayonida olib borilayotgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarining samaradorligini aniqlash;
- tarbiyachining kasbiy mahoratini aniqlash;
- bolalarning psixologik rivojlanish dinamikasi, xotira, diqqat va tafakkurini aniqlash;
- bilim olish jarayonida bolalarning malaka va ko'nikmalari qay darajada rivojlanishini kompleks ravishda aniqlash.
- Psixologik monitoring quyidagi kriteriyalarga tayangan holda o'tkaziladi:
  - ta'lim-tarbiya faoliyatining qay darajada shakllanganligi;
  - rivojlanish dinamikasi;
  - qiziqish motivatsiyasi;
  - emotsional xususiyati (faolligi, hayajonlanishi, bezovta bo'lish darajasi);
  - mashg'ulot jarayoniga bolaning emotsional holati ta'sirining rivojlanish dinamikasi;
  - shaxsiy sifati (o'z-o'zini baholash);
  - muloqotga kirishishi;
  - tasavvur qilish qobiliyatining rivojlanish darajasi.

Psixologik monitoring o'tkazishda uni amalga oshirish tartibini aniq rejalashtirish lozim. Monitoringni bir nechta bosqichda o'tkazish rejalashtiriladi va har bir bosqichda aniq vazifa belgilanadi. Ushbu jarayonda har bir tarbiyalanuvchining yoshi, imkoniyati, qobiliyati, individual xususiyatlari e'tiborga olinishi lozim. Monitoring o'tkazish jarayonida TPPK (tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya)da ishtirok etuvchi mutaxassislar, psixolog, tibbiyot xodimlari, tarbiyachi, ota-onalar, yordamchi tarbiyachilar, defektologlar va MTT rahbariyatining ishtirok etishlari ham alohida ahamiyat kasb

Ta'lim-tarbiya berishga oid masalalarni hal etish va ularning monitoringini olib borish;

O'ziga xos bo'lgan ta'lim dasturiga muvofiq o'qitishni ta'minlash;

Kutilayotgan natija bolalar erishayotgan yutuqlardan farq qilsa, dastur qismlarini moslashtirish;

Sog'lom va maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlashni bilish;

Bolalarni ta'lim-tarbiya jarayonida ruhan qo'llab-quvvatlash.

etadi.

**Birinchi bosqichda** bolalarning bilim darajasi, qobiliyatini aniqlash bo'yicha anketa-so'rovnoma o'tkazish va uni tahlil qilish.

**Ikkinchi bosqichda** birinchi bosqichda o'tkazilgan so'rovnoma natijasiga asosan keng qamrovli (pedagoglar, ota-onalar va tiflopedagoglar, surdopedagoglar) monitoring o'tkazish.

**Uchinchi bosqichda** olingan ma'lumotlar tahlilini o'rganib chiqish va uning natijalari yuzasidan rahbariyatga yozma ravishda ma'lumot berish, pedagogik kengashga muhokamaga olib chiqish.

**To'rtinchi bosqichda** monitoring natijasi asosida olingan ma'lumotlar va kelgusida ta'limiy-tarbiyaviy va korreksion-

1 Micah Russell "The Education System: "Now Climb That Tree" <https://marquetteeducator.wordpress.com/2012/07/12/climbthattree/>

2 M.P. Xamidova, M.Y. Ayupova "Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi" 2021 y.

pedagogik ishlarni har bir AEBlarning imkoniyatidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishga tavsiyalar berish.

Psixologik monitoring bolalarni shaxsiy xususiyatlari, ta'lim-tarbiya faoliyatining natijalari, bolalarning individual imkoniyatlari, qobiliyati, rivojlanish dinamikasi, o'quv jarayonida mavjud bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash hamda shu asosda har bir AEB bilan individual shug'ullanishni samarali amalga oshirilishda yordam beradi. Umumiy MTTlarida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan qo'shimcha korreksion rivojlantiruvchi ishlarning samaradorligi aynan bu toifadagi bolalarni ta'lim jarayoni va turli tadbirlarda (sport musobaqalari, san'at, musiqa, mehnat, kompyuter musobaqalari va til o'rganishda) ishtirok etishida inklyuziv ta'limning o'рни beqiyosdir.

Bolalarning ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashishi hamda ularga o'rgatilgan bilimlarni amalda qo'llashlari uchun jamoalar umumiy muhit hisoblanadi. Jamoa a'zolariga quyidagilar kiradi:

Oilalarning, tashkilot rahbarlarining va boshqa jamoa a'zolarining MTTni qo'llab-quvvatlashi hamda unda ishtirok etishi barcha bolalarni MTTga olib kelish va ularning muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiya olishlari uchun yordam berishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, ota-onalar bolalariga MTTda berilayotgan ta'lim-tarbiyani qadrlasalar shunda bolalar ham o'zlarining bilim olish imkoniyatlarini qadrlaydilar. Bu ularning o'z tarbiyachilari va tengdoshlariga nisbatan, ayniqsa, kelib chiqishlari va qobiliyatlari turli xil bolalarga bo'lgan hurmatini oshirib borishda hamda o'zlari o'rgangan narsalarni kundalik jamiyaddagi hayotda qo'llashda alohida o'rin egallaydi.

Oilalar bilan muloqotda bo'lish:

Bir yilda uch yoki to'rt marta bolalarning o'rganishini baholash bo'yicha ota-onalar bilan norasmiy suhbatlar uyushtirish zarur. Bolalar bajargan ishlarning namunalari ularga ko'rsatish, har bir bolaning iste'dodi va ijobiy yutuqlariga urg'u berib, ularning yaxshiroq o'rganishi uchun ma'lum bir to'siqlarni yengib o'tishi kerakligi haqida ta'kidlab o'tish joiz. Inklyuziya bo'yicha ota-onalarga tushuntirish ishlarini amalga oshirish, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish lozim.

Ota-onalar yig'ilishida "chetlashtirilganlarni kiritish" nimani anglatishini ularga tushuntirib berish uchun "Arzandalar o'yini" dan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu o'yinda ikki xil rangda bo'lgan, ya'ni qizil va ko'k rangli belgilar tayyorlanib, qatnashuvchilarning kiyimiga skoch yoki to'g'nog'ich yordamida mahkamlanadi. Har bir ishtirokchi bitta belgiga ega bo'lishi shart. Ushbu o'yinda ayrimlar imtiyozlarga ega va ayrimlar esa imtiyozlardan chetlashtirilgan bo'lishi tushuntiriladi.

Qizil belgisi bor kishilarga xonaning oxirida yoki bir tomonida o'tirishlari aytiladi. Shundan so'ng ko'k belgisi bor kishilar bilan yoqimli suhbat olib boriladi. Aksincha qizil belgili guruhdagilarga e'tibor qilinmaydi. Goh-gohida ularga jiddiy nazar bilan qarab qo'yiladi va jim o'tirishlari yoki tipirchilamasliklari yoxud tirjaymasliklari aytiladi. Ko'k belgili guruh bilan 5-10 daqiqagacha shu yo'sinda gaplashishda davom etiladi. Hattoki ko'k belgisi bor shaxsdan qizil belgili guruhga jim bo'lishlarini aytishni so'rash mumkin. O'ninchi daqiqaning oxirida barchadan o'z belgilarini yechib tashlashlari va yana birga o'tirishlari so'raladi. Quyidagi savollar beriladi, - «Ko'k rangli belgiga ega bo'lganda nimani his qildingiz? Qizil rangli belgiga ega bo'lish qanday ekan? Agar siz qizil rangli belgini taqib olgan bo'lsangiz, ko'k rangli belgiga ega bo'lishni xohlarmidingiz? Ko'k rangli belgiga ega bo'lish uchun biror narsa qila oldingizmi? Chetlashtirilganlik nimani anglatdi? Kim chetlashtirdi? Kim eng ko'p jabr (ko'rishi mumkin edi) ko'rdi?».

"Inklyuziv" va "birgalikda o'rganish" deganda nimani nazarda tutishimizni yanada yaxshiroq tushuntirish uchun yuqoridagi topshiriq va savollardan foydalangan ma'qul. "Inklyuziv o'rganishning" afzalliklari pedagoglar va ota-onalar o'rtasida qanday qilib sheriklik asosida yaratilishi mumkinligi ular bilan muhokama qilinishi lozim.

Haqli savol tug'iladi, nima uchun imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimiga jalb etish kerak? Keltirilgan

dalillarni tahlil etib, inklyuziv ta'lim tizimi sharoitida biz bolalarni MTTga moslashtirish, uning qonun-qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish, sog'lom tengdoshlari bilan muloqot qilishdagi muammolariga barham berishimiz mumkin. Natijada bolalarda o'z-o'zini boshqarish va mustaqil xulosalar chiqarish malakalari shakllanadi. Tarbiyalanuvchilar orasida o'zaro tenglik huquqiga egalik hissi uyg'onadi, bir-birlarini kamsitmaydilar va ular orasida do'stona munosabat shakllanadi. Bunday malakalar ularning sog'lom tengdoshlari qatorida jamiyat hayotida o'z o'rnini topib, mustaqil hayot kechirishlariga imkon yaratadi.

#### **Inklyuziv ta'lim quyidagi tamoyillar asosida quriladi:**

**Individual yondashuv tamoyili** - guruhdagi bolalarning har birining individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya shakllari, usullari va vositalarini tanlashni o'z ichiga oladi. Bolani rivojlantirishning individual dasturlari uning funksional holatini tashxislashga asoslanadi va ma'lum bir bola uchun individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi. Individual yondashuv nafaqat bolaning ehtiyojlariga e'tiborni o'z ichiga oladi, balki bolaga o'z shaxsi (MEN)ni anglash imkoniyatini beradi.

#### **Bolaning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash tamoyili.**

"Bolaning mustaqil faoliyati uchun shart-sharoitlarni ta'minlash". Ushbu tamoyilning amalga oshirilishi ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish muammosini hal qiladi. Faoliyat butunlay bolaga g'amxo'rlik qiladigan kattalar tomonida bo'lsa, bolaning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon bermaydi, keyin bolada "o'rganilgan nochorlik" shakllanadi, bu bola tashqi tashabbusni kutgan holda, o'zi passiv bo'lib qoladi. Xuddi shunday holat nogiron bolalarning ota-onalari bilan ham sodir bo'lishi mumkin. Ota-onalar ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun o'z imkoniyatlarini e'tiborsiz qoldirib, davlatdan yordam kutishlari yoki faol ravishda yordam olishlari mumkin.

**Kompleks ravishda yondashuv tamoyili.** Bolalarning individual xususiyatlari xilma-xilligi ta'lim-tarbiya usullari va vositalarini aniqlash hamda ishlab chiqishda har tomonlama kompleks yondashuvni talab qiladi. Mutaxassislar (pedagog, logoped, ijtimoiy pedagog, psixolog, defektolog, rahbariyat ishtirokida) bir guruhda ishlaydi, muntazam ravishda bolalarga tashxis qo'yadi va munozara jarayonida ham ma'lum bir sohaga qaratilgan ta'lim-tarbiya tadbirlari rejasini tuzadi.

**Ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda o'zgaruvchanlik tamoyili.** Turli xil rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan bolalarning inklyuziv guruhiga qo'shilishi o'zgaruvchan rivojlanish muhitining mavjudligi, ya'ni zarur rivojlantiruvchi va didaktik vositalar, o'quv qo'llanmalari, to'siqsiz muhit, o'qitish va tarbiyalashning o'zgaruvchan uslubiy bazasi, tarbiyachining umumiy va maxsus pedagogikada turli xil ish uslub va vositalaridan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi.

Inklyuziv ta'limni shakllantirishning hozirgi bosqichida shu vaqtgacha ishlab chiqilgan integral ta'lim tajribasi va alohida ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlash tajribasiga ega **ixtisoslashtirilgan muassasalarga** tayanish kerak, chunki bu yerda mutaxassislar mavjud. Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlari resurs vazifasini bajarishi lozim. Bu yerda faoliyat olib boruvchi mutaxassislar ommaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglariga o'z tajribalarini o'rgatishi, shuningdek har bir bolaning individual xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'limiy-tarbiyaviy reja va yo'nalish etib borishi lozim. Ushbu muassasalarga inklyuziyada ishtirok etmoqchi bo'lganlar uchun manba (resurs) sifatida qaralishi lozim.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishni boshqarishda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Resurs tahlilini o'tkazish;
2. Inklyuziv ta'limni tashkil etishni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yaratish;
3. Ma'muriy-strategik ishlarni tashkil etish;
4. Xodimlarni boshqarish tizimini tashkillash;
5. Uslubiy xizmat faoliyatini optimallashtirish;

6. Nogiron bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarining korreksion va rivojlanish salohiyatidan foydalangan holda moslashtirish, rivojlantirish va ijtimoiylashtirishni kompleks psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

7. Bolalarning ota-onalari bilan o'zaro munosabatlar tizimini yangilash;

8. Shahar va viloyatdagi fan, ta'lim, tibbiyot va madaniyat tashkilotlari bilan aloqalarni kengaytirish va hamkorlikni mustahkamlash.

Ushbu yondashuv bilan pedagogika umuman o'zgaradi, u nafaqat alohida ehtiyojli bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini normal rivojlanayotgan bolalar kabi rivojlantirishga intilish ma'nosida, balki ta'lim-tarbiya mohiyatini ham o'zgartiradi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim mazmunini yangilashning yetakchi tendensiyasi sifatida inklyuzivlik hozirgi vaqtda o'ta dolzarb muammo hisoblanadi. Bu ob'yektlar va inklyuziya variantlarini oqilona tanlash muammosini hal qilishni nazarda tutadi. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumiy maktabgacha ta'lim tizimida o'qitish pedagoglardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab, inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasini olgan tajribali pedagoglarga inklyuziv guruh tarbiyachisi etib tayinlanishi lozim.

Xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga ko'ra AEBlarni deinstitutionizatsiyalashning joriy qilinishi ulardagi motivatsion faollikning oshishiga ijobiy ta'sir qiladi. Bu, ayniqsa ularning o'z tengqurlari bilan ta'lim-tarbiya muhiti yaratilishi orqali ta'minlanadi. Buning uchun guruhdagi bolalar sonini qisqartirish, mashg'ulot jarayonida soha mutaxassislarining (psixolog, logoped, defektolog, tilfopedagog, surdopedagog) ishtirokini ta'minlash va ota-onalar bilan ta'lim muassasasi o'rtasida uzviy aloqani o'rnatish talab etiladi. Shu bilan birgalikda AEBlar uchun harakatlanish imkoniyatini yaratuvchi qulay sharoitlar va transport xizmatlari joriy qilinishini taqozo etadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sog'lom bolalarni imkoniyati cheklangan bolalarning holatini to'liq perseptiv his qilishga o'rgatish hamda AEBlarning hayotga intiluvchanligi kognitiv imkoniyatlarini o'stirishni ta'minlashdan iborat.

Maktab va maktabgacha inklyuziv ta'lim qachon ushbu jarayonga tayyor bo'ladi?

- inklyuziv ta'lim - tarbiya bosqichini modernizatsiyalashning vazifalaridan biri sifatida belgilansa;

- maktab va maktabgacha sifatli ta'lim tushunchasi doirasida jismoniy va ruhiy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarning ham ishtiroki ta'minlansa;

- oilalar, pedagogik jamoalar, rahbar xodimlar orasida maktab va maktabgacha yoshdagi jismoniy va ruhiy rivojlanishida imkoniyati cheklangan bolalar alohida maxsus ta'limga jalb etilishi kerak, degan fikrlarga barham berilsa;

- Har bir shahar va tuman MTTlaridan biri inklyuziv resurs markazi sifatida belgilansa;

- Ota-onalarning qonuniy xabardorligi oshirilsa.

Jamiyatda har qanday shaxsga uning qiziqishlari, ehtiyojlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim turini tanlash huquqi berilishi kerak. Shubhasiz, jamiyatning tuzilishi qanchalik murakkab bo'lsa, ijtimoiy tabaqalanish va qiyinchiliklar shunchalik katta bo'ladi. Ushbu muammoni ijobiy hal qilmasdan, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlariga tajovuz qilish, ularning qadr-qimmatini mensimaslik va ijtimoiy kamsitish ko'rinishlariga barham bermasdan turib hech bir davlat sivilizatsiyalashgan mamlakatga aylanmaydi.

Maktabgacha alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limini takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilarga asoslanadi:

- erta tashxisni yo'lga qo'yish;

- maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan jamiyatda ijobiy munosabat uyg'otish;

- ota-onalar va hamjamiyatning ishtirokini kuchaytirish;

- o'qitish uchun zarur vosita va asbob-uskunalarining mavjudligini ta'minlash;

- ta'lim muassasalarini jismoniy va ruhiy rivojlanishida kamchiligi bor bolalarga ham imkoniyat yaratishni e'tiborga olgan holda moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash jarayonida islohotlarni amalga oshirish;

- pedagoglarning inklyuziv malakasini oshirish uchun tez-tez seminar-treninglar o'tkazish;

- inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha xalqaro va milliy tajribalarga asoslangan holda, multimedia kutubxonalarini tashkil etish va ularni ommaga targ'ibot qilish;

- har bir umumiy MTTlari tasarrufida inklyuziv ta'limni targ'ibot qilish, o'quv metodik majmualar, dasturlar bilan ta'minlash va joylardagi mahalliy xalq ta'limi organlari bilan o'zaro aloqa o'rnatish, axborotlarni yetkazish vazifasini bajaruvchi pedagoglar, ota-onalar ishtirokida jamoaviy kengash tuzish talab etiladi.

Inklyuziv ta'limning asosiy g'oyasi - bu bolani ta'lim tizimiga kirishga tayyorlash emas, balki ta'lim tizimini ularga (har xil turdagi bolalarga) moslashtirishdir. Shunisi muhimki, inklyuziv ta'lim jamiyatda har bir shaxsni ruhan sog'lom va o'z o'rniga ega, pozitiv fikrlay oladigan bo'lib shakllanishiga kuchli ta'sir qiladi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va intellekt imkoniyatlarini to'la namoyon eta olmaslik muammosining barham topishiga zamin yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomahmudova R. Sh., "Maxsus va inklyuziv ta'lim". 2018-yil
2. "Maktabgacha pedagogika" F. R. Qodirova; Sh. Q. Toshpo'latova; N. M. Kayumova; M. N. A'zamova "Tafakkur nashriyoti" Toshkent - 2019
3. Inclusive education in Italy: Historical steps, positive developments, and challenges. Dario Ianes, Heidrun demo, Silvia Dell'Anna Prospects (2020) 49:249-263 <https://doi.org/10.1007/s11125-020-09509-7>
4. Sage journals. November 23, 2020. Critical reflections of early childhood care and education in Singapore to build an inclusive society Lynn Ang, Lasse Lipponen, Sirene Lim May Yin <https://doi.org/10.1177/1478210320971103>
5. "Inclusive Education in Schools and Early Childhood Settings" Ilektra Spandagou Cathy Little David Evans Michelle L. Bonati
6. Early Childhood Education Journal <https://doi.org/10.1007/s10643-021-01295-x>
7. Journal of Educational Research & Practice 2021, 2021.11.08 "Implementing Inclusive Education In Early Childhood Settings: The Interplay and Impact of Exclusion, Teacher Qualities, and Professional Development in Ghana
8. Inclusive education in Italy: Historical steps, positive developments, and challenges <https://link.springer.com/article/10.1007/s11125-020-09509-7>
9. Eric R. Kandel. In Search Of Memory The Emergence of a New Science of Mind Copyright, 2006.

10. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" R. Sh. Shomahmudova 2018-yil
11. Abdullayeva N.Sh. "Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish": Avtoref. ... ped. fan..fals dok. (PhD) – T., 2019. – B. 22-23.
12. Nazirova G.M. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jaraenlarni takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan..fals dok. (PhD) – T., 2019. – 45 b  
<https://kun.uz/uz/32037018?q=%2F32037018>
13. <https://kun.uz/uz/32037018?q=%2F32037018>
14. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi
15. «Инклюзивное образование» Екатерина Михальчи
16. <https://lex.uz/docs/-5013007>
17. PQ-4860-son 13.10.2020
18. <https://lex.uz/docs/-5044711>
19. "Moslashtirilgan o'quv dasturi" I.V. Groshev, A. E. N. Nazarova, E. A. Nekrasova, B. P. Abdullayev, U. T. Muxitdinova 2019 y.
20. <https://www.gazeta.uz/ru/2020/05/09/education/>
21. <https://marquetteeducator.wordpress.com/2012/07/12/climbthattree/>
22. "Pedagogikaning taraqqiyot tendentsiyalari va innovatsiyalari" TDPU, p.f.n., dots. M.X. Umarova, katta o'qituvchilar A.U. Axmadaliev, A.B.To'raev, M.P. Imomov 2016.
23. Инклюзивное образование для детей с особыми потребностями в Узбекистане <https://inInk.ru/goNZDo>.
24. Теория и практика инклюзивного образования, Лиходедова Л.Н., 2017 г
25. M.P. Xamidova, M.Y. Ayupova "Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi" 2021 y



## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA DIZAYNERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Aminova Muslima

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 5 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001205">https://doi.org/10.54613/001205</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xususan, Rossiya, Finlandiya, Koreya davlatlari tajribalari tahlil etilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning yoshi va jinsiga qarab ijodiy fikrlashga undagan holda aqliy rivojlanishtirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar va usullar, ilg'or xorij tajribasi tahlil etilib, O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari yoritilgan. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirishda xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda tadqiqot ishlari o'rganilib, amaliyotda qo'llash imkoniyati bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim, dizaynerlik, ijodiy rivojlanish, individual qobiliyatlar, "Men" konsepsiyasi, ota-ona hamkorligi, irsiy moyillik</p>	

### KIRISH

"Har qanday ishda ijodkorlikni joriy qilish qobiliyatini tarbiyalash pedagogikaning asoslaridan biri bo'lib qoladi. Agar ijodiy mehnatga bo'lgan ehtiyoj shaxsning ajralmas mulkiga aylanmasa, u holda umumiy farovonlik va ish kunining tobora qisqarishi sharoitida odam to'yish, vayronagarchilik va ruhning falajlanishi xavfi ostida qoladi".

*Daniel Andreev. "Dunyo guli"*

Ijodiy qobiliyatlar maktabgacha yosh davridayoq o'zini namoyon qila boshlaydi va u bolaning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir krsatadi. Maktabgacha yosh davri – bu o'yinlar, o'z-o'zini bilish, izlanish, ijod qilish, rivojlanish davri. Shaxsiy qobiliyat masalasi esa psixologiya, pedagogika fanlarida eng ko'p o'rganiladigan muammolardan biridir. Nafaqat fan doirasida, balki, mamlakat miqyosida ham keng ko'lamdagi islohotlarga asos bo'lmoqda. Bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin. Quyidagi muhim hujjatlar shular jumlasidan:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori;

- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining buyrug'i, "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 3-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi (ro'yxat raqami 3032).<sup>1</sup>

Aytish mumkinki, shaxsning irsiy qobiliyati rivojlanishi masalasi 1960-yillardan boshlab yuqorida keltirilgan fanlar ichida va shu fan doirasida tadqiqot olib boruvchi olimlar tomonidan keng va chuqur o'rganilib kelinmoqda. Zero, iste'dod insonning ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilash, uni kasb-hunarga yo'naltirish va hayotda o'z o'rnini topishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Psixologik va pedagogik ta'limotlarning mohiyatiga ko'ra, har bir shaxs tug'ilgandan keyin u yoki bu faoliyatni tashkil qilish borasida qobiliyatini namoyon qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, irsiy omillar shaxsning muayyan qobiliyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga katta ta'sir qiladi. Biroq, uning keyingi rivojlanishi bevosita ta'lim va tarbiyaning

qanday berilishi, uning samaradorligi, bolaga beriladigan e'tibor va natijalariga bog'liqdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

"Ijod faqat buyuk san'at asarlarini yaratgan daholarning taqdiri emas. Ijod kishi qaerda tasavvur qilsa, birlashtirsa, yangi narsani yaratgan joyda mavjud bo'ladi", deb yozgan edi L.S.Vigotskiy. Vigotskiyning ushbu fikrini hayotimizning har jabhasida ko'rishimiz mumkin. Bolaning hayotida ham xuddi shunday, ya'ni bola ham har kuni ijod qiladi va yangi narsalarni kashf qiladi. Faqat biz uning kashf qilgan narsalarini va ijodini tushunmasdan ba'zan ozor berib qo'yamiz.

V.N.Drujinin, S.Yu.Zalutskaya, Ye.P.Ilin, V.A.Krutetskiy kabi tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, qobiliyatlar o'z navbatida oddiy va murakkab qobiliyatlarga ajratiladi. Oddiy qobiliyatlar – idrok, xotira, tafakkur, tasavvur, irodaning oddiy darajada rivojlanganligining faoliyatda psixik aks etishi bo'lib, u shaxsning voqelik va hodisalarni eng oddiy darajada idrok qilishi, ma'lum voqeliklarni, o'zlashtirilgan boshlang'ich ma'lumotlarni yodda saqlashi, o'zi uchun ma'lum bo'lgan sohalar bo'yicha fikrlashi, tanish bo'lgan holatlar haqida ma'lum jarayonlarni tasavvur qilishi, murakkab bo'lmagan vaziyatlarda o'z irodasini namoyon etishi kabi xislatga egaligini ifodalaydi. Murakkab qobiliyatlar – o'quvchi, talabalarning ta'lim olishga, mutaxassislarining kasbiy faoliyat malakalarini o'zlashtirishga bo'lgan layoqati, zehni hamda umumiy intellektual rivojlanish darajasini namoyon qiladi. "Layoqati jihatidan oddiy yoki murakkab qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga mos kelmagan biror-bir shaxs hech bir faoliyatni bajarishga kirisha olmaydi" 3. Bolalarda oddiy qobiliyatlar ham murakkab qobiliyatlar ham rivojlanadi, lekin biz ularga e'tibor qaratmasak bu qobiliyatlar rivojlanish o'rniga so'nib boradi. Shu sababdan ham bolaning har bir qilgan ishiga o'z munosabatimizni bildirishimiz, avval yutuqlari so'ng kamchiliklariga to'xtalishimiz zarur. Bolaning qilgan ishlariga "noto'g'ri", "xato" deya munosabat bildirishimiz ularning rivojlanayotgan qobiliyatlarini so'ndirishi ham mumkin.

Bolalar bog'chasi amaliyotida tushunchalarning mazmuni ko'pincha chalkashtirib yuboriladi: "grafik faoliyat" (naqsh bilan tikilgan), "ijodiy dizayn" va "bolalar dizayni"ning haqiqiy faoliyati. Tabiiyki, bu cheklovlar shartli, lekin ayni paytda quyidagilarni ta'kidlash kerak: badiiy va didaktik mashg'ulotlardan so'ng bolalar mahsulotlari papkalar va qutilarga solinadi va keyin talab

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017 - 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

"O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida

2 Л.С.Виготский Мишление и речь Москва-1999г  
3 Дружинин Владимир Николаевич Психология обухи способностейИздательство: Питер, 2008 г

qilinmaydi - bu bolalar dizayni emas. Shunday qilib, bolalar ko'rgazmasi (interyer, dekor va ko'ngilochar bayramlar uchun liboslar (masalan, ularning ishtirokida yaratilgan) bolalar dizayni ob'yektlari bo'lishi mumkin (dekorativ va dizayn faoliyati). Shu bilan birga, professional dizayn bolalar dizayni bilan umumiy xususiyatlarga ega, ya'ni vizual faoliyat va dizayn. Bular:

- ijodiy mahsulotning o'ziga xosligi;
- sensorli standartlar tizimi bilan tanishish, modulli dizayn prinsipi asoslari;
- rejani bajarishning birgalikdagi alohida tabiati;
- mavzu va fazoviy-dekorativ xarakterga ega loyiha faoliyati;
- shunga o'xshash materiallar va texnikalardan foydalanish;
- professional va "bolalar" san'atining badiiyligini baholashga umumiy yondashuv;

• o'z-o'zini ta'minlash bolalar ijodiy mahsulotlarining raqobatbardosh emasligi (dizaynerni ekskluziv izlash).<sup>4</sup>

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Men tanlagan metodlardan tashqari dizaynerlikka oid turli metodlardan foydalanib tadqiqotlar o'tkazilgan. O'tkazilgan tadqiqotlarni o'rganish davomida men juda ko'p yangiliklarga duch keldim. Quyida ularning ba'zilari bilan tanishishingiz mumkin.

Amaliy san'at bezaklarini yaratish va dizayn sohasidagi bilimlarini aniqlash borasida bolalarlar orasida test so'rovnoma tashkil etilib, quyidagi natijalar qo'lga kiritildi:<sup>5</sup>

#### 1-jadval

#### Test so'rovnoma natijalarining tahlili.

№	Savollar	O'quvchilar soni	Javoblar			
			Yuqori	O'rta	Past	Juda past
1.	J.P.Gilfordning "Ijtimoiy intellekt" testi	94	19	33	42	-
2.	E.P.Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testi	94	24	29	41	-
3.	"Sinovlar va xatolar metodi"	94	19	38	37	-
4.	"Sinektika" metodi	94	18	34	42	-
5.	"Tasodifiy assotsiatsiyalar"	94	19	36	39	-
	Jami	470	99	170	201	-

Yuqoridagi jadvalda jahondagi mashhur test tizimlaridan foydalanib, bolalarda tajribalar olib borilgan. Bu bilan bolalarning o'zlashtirishi va dizaynerlikka bo'lgan qiziqishlari aniqlangan. Bolalar bog'chasida bolalar uchun eng sevimli mashg'ulot o'yin o'ynash, undan so'ng esa rasm chizish va san'atning boshqa turlari hisoblanadi. Bolalar rasm chizganda butun borliqlari bilan berilib bajarishadi, hatto san'atga qiziqmaydigan bola ham rasm chizsa bor vujudini berib chizadi. Bu esa bolalarning naqadar beg'ubor ekanligini bildiradi. Yuqoridagi testda ham bolalarni kuzatadigan bo'lsak, ularda juda past bo'lgan ko'rsatkich umuman kuzatilmagan. "Tugallanmagan rasmlar" testida esa boshqa testlarga qaraganda ko'proq ijobiy natija kuzatilgan. Bolalarni dizaynerlikka o'rgatishda ham rasm chizish eng oliy o'rinda turadigan mashg'ulot sanaladi.

Yana bir tadqiqotga nazar solsak:

Bolalar bilan ishlashning boshida P. usuli bo'yicha S.P.Gruzdavaeva monitoring o'tkazdi.

Torrens quyidagi vazifalarni o'z ichiga olgan ijodiy fikrlashni aniqlash uchun: "rasmni chizish", "tugallanmagan raqamlar", "takrorlanuvchi raqamlar". Ijodiy vazifa "qanday harakat qilayotganini ko'rsating, deydi". "Uchta rang", "ovozli rol".

Natijalar quyidagilarni ko'rsatdi:

21% yuqori daraja - aniqlik, uzatilgan tasvirning yaxlitligi, namoyishning ifodasi;

33% o'rtacha daraja - faqat ba'zi elementlar "yaxlit emas" lekin juda mazmunli namoyish;

48% past darajasi - tasvir sezilmaydi, hech qanday ifoda yo'q.

Bu tajribada bolalarning ijodiy faoliyati tahlil qilingan va natijalari keltirilgan. Bu tajriba Rossiya federatsiyasining 27-bog'chasida amalga oshirilgan. Bolalarga bog'chada beriladigan ta'lim holati shu foizlarda namoyon bo'lmoqda. Bolalarga dizaynerlikni o'rgatish, umuman olganda ularni san'at bilan tanishtirish darajasi qoniqarli bo'lmaganligi uchun natijalar shuni ko'rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda natijalar shunday bo'lsa bizning rivojlanayotgan yurtimizda natijalar qay darajada ekanini tasavvur qilish qiyin emas.

Agar shaxsning analitik qobiliyati qolgan ikkitasining zarariga juda rivojlangan bo'lsa, u zo'r tanqidchi, lekin ijodkor emas. Sintetik qobiliyat analitik amaliyot bilan qo'llab-quvvatlanmaydi, ko'plab yangi g'oyalarni keltirib chiqaradi, ammo tadqiqot tomonidan tasdiqlanmagan va foydasiz. Qolgan ikkitasiz amaliy qobiliyat yorqin ifodalangan, ammo "yomon" g'oyalarga olib kelishi mumkin. Ijod tafakkurning stereotiplardan va tashqi ta'sirlardan mustaqil bo'lishini talab qiladi.

Sternberg nuqtai nazaridan ijodkorlik oqilona tavakkal qilish qobiliyati, to'siqlarni yengib o'tishga tayyorlik, ichki motivatsiya, noaniqlikka tolerantlik, boshqalarning fikriga qarshilik ko'rsatishni anglatadi.

Ijodkorlik muammosining taniqli mahalliy tadqiqotchisi A.N.Luk taniqli olimlar, ixtirochilar, rassomlar va musiqachilarning tarjimai holiga asoslanib, quyidagi ijodiy qobiliyatlarni sanaydi:

1. Muammoni boshqalar ko'rmaydigan joyda ko'rish;
2. Aqliy operatsiyalarni o'chirish, bir nechta tushunchalarni bittasiga almashtirish va axborot nuqtai nazaridan tobora ko'proq sig'imga ega bo'lgan belgilarni qo'llash;
3. Bir masalani yechishda olingan ko'nikmalarni boshqa masalani yechishda qo'llash;
4. Voqelikni qismlarga ajratmasdan, yaxlit holda idrok etish;
5. Uzoq tushunchalarni osongina bog'lash;
6. Xotiraning kerakli vaqtda kerakli ma'lumotlarni ishlab chiqarish qobiliyati;
7. Fikrlashning moslashuvchanligi;
8. Muammoni tekshirishdan oldin uni hal qilish uchun alternativlardan birini tanlash qobiliyati;
9. Mavjud bilimlar tizimiga yangi idrok etilgan axborotni kiritish imkoniyati;
10. Narsalarni qanday bo'lsa, shunday ko'ra bilish, kuzatilayotgan narsani izohlash orqali olib kelinayotgan narsadan farqlay bilish;
11. G'oyalarni yaratish qulayligi;

<sup>4</sup> <https://minikar.ru/uz/deti/detskii-dizain-v-detskom-sadu-zanyatiya-opyt-raboty-po-dizainerskoi-deyatelnosti-v-dou-organizatsiya-v/>

<sup>5</sup> «Развитие творческих способностей дошкольников в дизайнерской деятельности» Воспитатель МБДОУ «Детский сад №27» Груздева С.П. г. Балахна 2019г.

12. Ijodiy tasavvur;

13. Tafsilotlarni aniqlashtirish, asl g'oyani yaxshilash qobiliyati.<sup>1</sup>

Psixologiya fanlari nomzodlari V.T. Kudryavtsev va V. Sinelnikov keng tarixiy-madaniy materialga (falsafa tarixi, ijtimoiy fanlar, san'at, amaliyotning alohida sohalar) asoslanib, jarayonda shakllangan quyidagi universal ijodiy qobiliyatlarni aniqladilar.

1. Tasavvurning realizmi – shaxsning u haqida aniq tasavvurga ega bo'lishidan va uni qat'iy mantiqiy kategoriyalar tizimiga kiritishidan oldin, integral ob'yektning qandaydir muhim, umumiy tendensiyasi yoki rivojlanish naqshini obrazli tushunish;

2. Qismlardan oldin butunni ko'rish qobiliyati;

3. Ijodiy yechimlarning suprasituatsion-transformativ tabiati, muammoni hal qilishda shunchaki tanlash emas, balki mustaqil ravishda muqobil yaratish qobiliyati;

4. Eksperiment - ob'yektlarning oddiy vaziyatlarda yashiringan mohiyatini eng aniq ochib beradigan sharoitlarni ongli va maqsadli yaratish qobiliyati, shuningdek, ushbu sharoitlarda ob'yektlarning "xulq-atvori" xususiyatlarini kuzatish va tahlil qilish qobiliyati.

O'qituvchi, olim va amaliyotchilar G.S.Altshuller, V.M.Tsurikov, V.V. Mitrofanov, M.S. Gafitulin, M.S. Rubin, M.N. Shusterman TRIZ (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) va TRIZ (ixtirochilik muammolarini hal qilish algoritmi) asosida ijodiy ta'lim dasturlari va usullarini ishlab chiqadi. Shaxsning ijodiy salohiyati quyidagi qobiliyatlardan iborat:

1. Tavakkal qilish qobiliyati;

2. Turlicha fikrlash;

3. Fikrlash va harakatlarda moslashuvchanlik;

4. Fikrlash tezligi;

5. Original g'oyalarni ifodalash va yangilarini ixtiro qilish qobiliyati;

6. Boy tasavvur;

7. Narsa va hodisalarning noaniqligini idrok etish;

8. Yuqori estetik qadriyatlar;

9. Rivojlangan sezgi.

Mashhur amerikalik psixolog D. Gilford 16 ta shunday intellektual qobiliyatlarni aniqlagan. Ular orasida: fikrning ravonligi (vaqt birligida paydo bo'ladigan g'oyalar soni), fikrning moslashuvchanligi (bir fikrdan ikkinchisiga o'tish qobiliyati), o'ziga xoslik (yangi nostandart g'oyalarni yaratish qobiliyati), qiziquvchanlik (dunyodagi muammolarga sezuvchanlik), gipotezani ishlab chiqish qobiliyati, fantastik (rag'batlantiruvchi va reaksiya o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjud bo'lganda javobni haqiqatdan to'liq izolyatsiya qilish), to'liqlik kabilar ham mavjud.

P.Torrens o'z asarlarida ijodkorlik yanada rivojlantirildi. Uning yondashuvi quyidagicha. Ijodkorlikni belgilaydigan qobiliyatlarga quyidagilar kiradi: vazifani bajarish tezligi sifatida baholanadigan qulaylik, ob'yektlarning bir sinfidan ikkinchisiga o'tish soni sifatida baholanadigan moslashuvchanlik va o'ziga xoslik kabi baholanadi. Bunday yondashuvda ijodkorlik mezon natijaning sifatida emas, balki ijodiy mahsuldorlikni faollashtiruvchi xususiyatlar va jarayonlar: ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik va vazifalarni ishlab chiqishda puxtalikdadir. Torrensning fikriga ko'ra, ijodiy yutuqlarning maksimal darajasi omillar triadasining kombinatsiyasi bilan bog'liq: ijodiy qobiliyat, ijodiy muhit va ijodiy motivatsiya.<sup>2</sup>

Psixologiyada ijodiy faoliyat qobiliyatini, birinchi navbatda, fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'lash odatiy holdir. Ijodiy fikrlash assotsiativlik, dialektik va tizimlilik bilan ajralib turadi.

Assotsiativlik – bir qarashda solishtirish mumkin bo'lmagan narsa va hodisalardagi bog'liqlik va o'xshashlikni ko'rish qobiliyati.

Qarama-qarshiliklarni shakllantirish va ularni hal qilish yo'llarini topish dialektik fikrlashga imkon beradi.

Ijodiy fikrlashni shakllantiradigan yana bir sifat – bu izchillik, ya'ni obyekt yoki hodisani yaxlit tizim sifatida ko'rish, har qanday ob'yektni, har qanday muammoni har tomonlama, turli xil bog'lanishlarda idrok etish qobiliyati; hodisalar va rivojlanish qonuniyatlaridagi o'zaro bog'lanishlar birligini ko'ra bilish qobiliyati. Bu fazilatlarining rivojlanishi fikrlashni moslashuvchan, o'ziga xos va samarali qiladi.

Bir qator olimlar ijodiy fikrlashning assotsiatsiyalar bilan bog'lanishiga asoslanib fikrlar yuritishgan. S.Mednik ta'kidlashicha, fikrlash qanchalik ijodiy deb hisoblansa, ular o'rtasida assotsiatsiyalar paydo bo'ladigan g'oyalar qanchalik uzoq bo'lsa, ular o'z navbatida vazifa talablariga javob berishi va foydaliligi bilan ajralib turishi kerak. Assotsiatsiyalarga asoslangan ijodiy yechimlarning yo'llari: sezgi, alohida elementlar (g'oyalar) o'rtasidagi o'xshashlikni topish va ba'zi g'oyalarni boshqalar tomonidan vositachilik qilish deb bilishgan.

Ijodkorlikning tarkibiy qismlaridan biri bu shaxsning qobiliyatidir. Ko'pgina tadqiqotchilar ijodiy xulq-atvorda motivatsiya, qadriyatlar, shaxsning shaxsiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadilar. Motivatsiya ta'sirida ijodkorlik ko'rsatkichlari ortadi. Ijodkor bu motivatsiyalarni yaqinlari va oila a'zolaridan oladi.

K.M. Gurevich, E.M. Borisova ta'kidlashicha, ijodkorlik motivatsiyasi tavakkal qilish istagi, o'z imkoniyatlari chegaralarini sinab ko'rish va o'zini eng yaxshi tarzda namoyon etishga urinish, imkon qadar o'z imkoniyatlariga moslashish, ishlashga intilish sifatida qarashlar mavjudligini ta'kidlaydi. Yangi, g'ayrioddiy faoliyat, faoliyatning yangi usullarini qo'llashda namoyon bo'ladi.

A.M. Matyushkin ijodkorlik uchun muvaffaqiyat motivatsiyasi zarur, deb hisoblaydi. Ya.A. Ponomarev ijodkorlik insonning dunyodan begonalashuvining global irratsional motivatsiyasiga asoslanadi, deb fikr yuritgan. Ijodiy shaxsning motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini u ijodkorlik natijasiga erishishdan qoniqish bilan emas, balki jarayonning o'zida, ijodiy faoliyatga intilishda ko'radi.

Bundan tashqari, aql va ijodkorlik darajasini butunlay boshqacha asosda bog'laydigan maxsus yondashuv mavjud. Ushbu yondashuvga ko'ra, M.A. Volla va N.A. Kogan maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiy xususiyatlari aql va ijodkorlik darajalarining turli kombinatsiyasiga bog'liqdir, deb fikr yuritganlar.

Shaxs shakllanadigan ijtimoiy muhitni hisobga olmaslik mumkin emas. Bundan tashqari, uni faol ravishda shakllantirish kerak. Shu sababli, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi atrof-muhit har bir shaxsning turli darajada mavjud bo'lgan potentsialni amalga oshirish uchun qanday imkoniyatlarni taqdim etishiga bog'liq. Butun muhit ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay bo'lishi kerak. V.N. Drujinin «ijodkorlikning shakllanishi faqat maxsus tashkil etilgan muhitda mumkin», deb ta'kidlaydi. Masalan, M. Volax va N. Kogan qat'iy vaqt chegaralari, raqobat muhiti va javob to'g'riligining yagona mezoniga qarshi chiqishadi. Ularning fikriga ko'ra, ijodkorlikning namoyon bo'lishi uchun sub'yekt topshiriq mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlardan erkin foydalanishi mumkin bo'lgan oddiy hayotiy vaziyatlar, qulay, erkin muhit kerak, deb o'ylashgan.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ijodiy qobiliyatlarni baholashning yagona yondashuvi hali ishlab chiqilmagan. Ularning ta'rifiga yondashuvlardagi farqlarga qaramay, tadqiqotchilar bir ovozdan ijodiy qobiliyatlarining muhim tarkibiy qismlari sifatida ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash fazilatlarini ajratib ko'rsatishadi.

Mezon – bu yangi mahsulot yaratish, shuningdek, shaxsning o'ziga xosligini amalga oshirish, bunda mahsulot yaratish umuman shart emas va hokazo. Deyarli barcha

1 Лук А. Н. Психология творчества / Отв. ред. В. А. Лекторский. — М.: Наука, 1978

2 Э. П. Торренс // Психология: Биографический библиографический словарь / Под ред. Н. Шихи, Э. Дж. Чепмана, У. А. Конроя. СПб.: Евразия, 1999.

yondashuvlar ijodkorlikning shunday muhim farqlovchi xususiyatini ta'kidlaydi.<sup>3</sup>

### TADQIQOT NATIJALARI

Endi yurtimiz maktabgacha ta'lim tizimidagi katta yoshli bolalarga "dizaynerlikni o'rgatish" metodikasi haqida T jadval bilan tanishib chiqamiz.

### 2-jadval

T-jadval metodi<sup>4</sup>

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI
1. Bolalarda ijodiy qobiliyatlar shakllanadi.	1. Bolalarni ko'ngli borgan sari noziklashib boradi.
2. Dunyoni badiiy tasavvur qila olishadi.	2. Hayotdagi qiyinchiliklarga ma'lum bir darajada bardosh berishlari qiyinlashadi.
3. San'at hayotining bir qismiga aylanib boradi.	3. Boshqa fanlarga nisbatan qiziqishlari pasayadi.
4. Ularning badiiy tasavvuri nafislashadi.	4. Aniq va gumanitar fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.
5. Tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi.	

Jadvalni o'z tajribamdan va 2 yil davomida bog'chada o'tkazgan amaliyotimga tayangan holda tuzdim. Katta va tayyorlov guruhidagi bolalarga e'tibor bersak, ular dizaynga va go'zallikka juda o'ch bo'lishadi. Ayniqsa, qiz bolalarda bu holat ko'p kuzatiladi. O'zlariga alohida e'tibor berish, kiyimlariga har xil bezaklar kiritish va mashg'ulotlarda stol ustini ozoda va saranjom qilib turishlari bunga yaqqol misol. Ota-onalarning hatti-harakatlarini bevosita kuzatib borishadi va o'zlari uchun ma'qul, deb topganlarini takrorlashga urinishadi. Agar bu holatda ularga qarshilik yoki keskin "yo'q" javobini bersangiz, bu ularning ruhiyatiga keskin ta'sir qilishi mumkin. Shu sababdan ham bolalarning badiiy va estetik didlarini hurmat qilish, ularda kamchiliklar ko'zga tashlanganda sekin-astalik bilan birgalikda hal qilish tavsiya qilinadi.

1960-yillarning o'rtalariga qadar bolalarning ijodiy ta'limi eng mashhur mavzulardan biri edi. Keyin bu mavzu deyarli e'tiborsiz qoldi va 1990-yillarga qadar qayta ko'tarilmadi. O'quv dasturlari, o'qituvchilarning malakasini oshirish va tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi rasmlarni tahlil qilish, vizual aloqaning mashhur shakllari va madaniyat faqat tadqiqotlardagina ko'rinish boshladi. Bolalar tarbiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu bolalarda ijodkorlik va uni rivojlantirish. Bu bolaning umumiy rivojlanishi va kamolotidagi eng ahamiyatli masaladir. Bolalar tez rivojlanadigan, o'rganadigan va yangi bilimlarini darhol qabul qiladigan davrda ularga to'g'ri yo'l-yo'riq berish va ularni yo'naltirish muhim masala hisoblanadi.

Ushbu "ijodiy ta'lim hamjamiyatining" barcha ishtirokchilari, xususan tarbiyachi, ota-ona, jamoat va o'qituvchilar bolalarni barkamol va ijodiy rivojlantirish g'oyasiga asoslangan tamoyillar va qadriyatlarini birga baham ko'rishlari lozim, bu bolalarning dizaynerlik qobiliyati yaxshi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bolalar maktabgacha yoshda ijodiylikka juda ham qiziqishadi, ular dunyodagi barcha narsa va hodisalarni ijodiy tasavvur qiladilar, yaratadilar, mashq qiladilar, o'zgartiradilar, kashf etadilar, tan oladilar, manipulyatsiya qiladilar va baham ko'radilar, bu esa ijodiy ta'limda samarali ishlash imkonini beradi, lekin dizayn va ijodiy ta'lim masalalari erta bolalik davrida o'quv dasturiga kiritilmagan.

Ma'lumki, ilg'or ijodiy fikrlash qobiliyatlari bolalarni erta bolalik davridagi ta'lim jarayonida, ya'ni maktabgacha ta'limda rag'batlantirgandagina yaxshi natijalarga erishiladi. Badiiy

rivojlanish 2 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan davrda bola rivojlanishining boshqa davriga qaraganda ko'proq sodir bo'ladi. Ushbu to'rt yillik davrda bolalar chizmalardan tasvirlashga va tartibsiz tasvirlardan tashkiliy tasvirga o'tishadi. Bu yillar davomida bolalar tomonidan yaratilgan chizmalar va modellashtirish hayotiylik va yangilik bilan to'ldiriladi, ular o'sib-ulg'aygan sari bu tez sur'atlarda pasayib boradi. Demak, maktabgacha yosh davrida bunga alohida e'tibor qaratilmasa bolada keyinchalik rivojlanish susayib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ta'lim vositalari to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tizimli o'rganish va aniq maqsadlarni shakllantirishga ta'sir qiladi. Binobarin, bolalarga bu imkoniyatlarni ular o'zlarini sinab ko'rishlari va ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin bo'lgan cheksiz erkinlikni ta'minlash uchun moslashuvchan va yaxshi ishlangan dasturlarga ajratish orqali taqdim etilishi kerak. Bolalarning cheksiz tasavvurini, ijodkorligini va qiziqishini bolaning rivojlanishiga mos ravishda yo'naltirish va ularga keng imkoniyatlarni birlashtirishga ko'mak berish juda muhimdir.

Ushbu jarayon davomida bog'cha tarbiyalanuvchilari ijodiy fikrlovchi sifatida o'zlarining qobiliyatlarini rivojlantiradilar va takomillashtiradilar. Ular o'z g'oyalarini ishlab chiqish, ularni tatbiq etib ko'rish, chegaralar, muqobil variantlarni sinab ko'rish, boshqalardan ma'lumot olish va eng muhimi, tajribalari asosida yangi g'oyalarni yaratishni o'rganadilar. Haqiqatda, jarayondagi qadamlar alohida yoki ketma-ket emas. Tasavvur qilish, yaratish, o'ynash, almashish va aks ettirish turli yo'llar bilan uyg'unlashadi. Biroq, asosiy elementlar har doim u yoki bu shaklda mavjud bo'ladi. 20-asrning eng iqtidorli rassomlari va ixtirochilarining ba'zilar o'zlarining muvaffaqiyatlari uchun poydevor qo'yishda bolalar bog'chasidagi tajribalarini muhim, deb baholaydilar.

Ular bolalar bog'chasidagi tajribalarini tasvirlab berishdi. Ya'ni bolalar nima qilishni xohlashlarini tasavvur qilishadi, o'z g'oyalari asosida loyihalar yaratadilar, ijodlari bilan o'ynaydilar, ularni boshqalar bilan baham ko'radilar va o'z tajribalari haqida mulohaza yuritadilar - bularning barchasi ularni yangi narsalar haqida kengroq tasavvur qilishga olib keladi. Shu bois erta bolalik davridagi ta'lim uchun tasviriy san'at o'quv dasturi muhimdir. Bolalarga badiiy faoliyatni boshlash, o'zini namoyon qilish, o'z nuqtai nazarini taqdim etish imkoniyati zarurligini ta'kidlaydi.

Bu bolalarning ob'yektlar va hodisalarni o'ziga xos tarzda tasvirlashi, turli vositalar va usullardan foydalanishi, ularning mahsulotini kuzatish va tavsiflashga qaratilgan. San'at va fanga bo'lgan qiziqish ta'lim tizimining muhim qismi bo'lmagan va texnologik rivojlanishga qaratilgan kompetensiyalarni egallashdan kamroq ahamiyatga ega bo'lgan davrda bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun aniq javoblar va yechimlarni taqdim etish juda muhimdir.

TOBB Iqtisodiyot va texnologiya universiteti, Anqara, Turkiya, Ichki arxitektura va atrof-muhit dizayni bo'limining interyer arxitekturasi talabalari o'rtasida so'rovnomma o'tkazildi. Respondentlar tasodifiy tarzda ikkinchi, o'rta va yuqori sinf o'quvchilari orasidan tanlab olindi. Tadqiqotda qatnashgan 110 nafar o'quvchining 87,5 foizi bolalar bog'chasiga qatnagan. Tadqiqot dizayn ta'limi bolalar bog'chasidan boshlanishi va to'xtovsiz bosqichma-bosqich davom etishi kerakligi haqidagi fikrni isbotladi. Talabalarning yarmidan ko'pi bolalar bog'chasidagi mashg'ulotlardan keyin dizayn bo'yicha hech qanday ma'lumotga ega emasliklarini yoki ahamiyatsiz ekanligini ta'kidladilar; 31,3% bolalar bog'chasidan keyin dizayn bo'yicha ta'lim rivojlanganligini aytdi; o'quvchilarning atigi 7,5 foizi bolalar bog'chasidan keyin ham badiiy, dizayn va ijodiy ta'limni davom ettirganligini ma'lum qildi. Javoblardan oydin bo'lishicha, o'quvchilar bog'chadan so'ng badiiy va dizayn ta'limi davomida o'z ijodiy qobiliyatlarini potensial rivojlantirganliklarini his qilmaganlar. Maktabgacha ta'limdan asosiy dizayn bilimlari

3 <https://shkolyariki.ru/uz/himiya/razvitie-tvorcheskih-sposobnostei-detei-primeneniye-sovremennyh.html>

4 Tadqiqot davomida muallif tahlili



ishlab chiqilishi kerak bo'lgan ushbu davrda dizayn masalalarini ham, unga mos keladigan pedagogik jihatlarini ham hal qilish foydali bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, 6 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabgacha ta'lim faoliyati doirasida estetik zavq va ijodiy yondashuvlarning ko'plab namunalari ko'rsatadilar. Shunga ko'ra, yosh bolalar tarbiyachilari o'z o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha qobiliyatini tarbiyalash uchun moddiy, motivatsiya, tuzilish va psixologik muhitni ta'minlaydilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning o'qituvchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar Rosario, Kollazo (1981) va Tompson (1995) tomonidan o'rganilib, ular maktabgacha yoshdagi yoki bolalar bog'chasidagi tarbiyalanuvchilar badiiy tajribasining sifati, ayniqsa, o'qituvchilarning tajribasi yetarli emasligini aniqladilar.

Biroq, kichik yoshdagi bolalar odatda kutubxonalardan ma'lumot izlay olmaydilar yoki tengdoshlari, o'qituvchilari va ota-onalari bilan mavzularni samarali muhokama qila olmaydilar. Shu sababli, ularning ijodiy faoliyatini yo'naltirish va baholab borish o'qituvchilarga bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, maktabgacha va yoki bolalar bog'chasidagi tarbiyalanuvchilarga maktab sharoitida dizayn materiallari va tadbirlarini ta'minlash butunlay o'qituvchilarga bog'liqdir.

Ota-onalar faollik ko'rsatib, boladagi qobiliyatlarning rivojlanishini tezlashtirishga hissa qo'shishi mumkin. Bolalar bilan o'qib, yozishni o'rgatishi, murakkab maktab vazifalarini birga bajarishi zarur. Bola yuqori darajadagi ongillikni namoyon qilishi, ko'p narsani bilishi, o'qish va hisoblash qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin, ammo uning qobiliyatlari birdek rivojlanmasligi mumkin. Ko'rinish turibdiki, ko'p narsa bola o'zining barcha qobiliyatlarini ishlatib, xotirasiga tayanishi bilan bog'liq, ijodiy vazifalarning haddan tashqari ko'p berilishi uning rivojlanish dinamikasini sekinlashtiradi. Boshlang'ich maktabda bunday bolalar yaxshi o'qiydilar, lekin keyin ular "qat'iy o'rtacha" bo'lishlari mumkin va o'rta maktabda ular ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelishadi.

N.S.Denisenkova va E.A.Klopotovalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, bu bolalarning kognitiv faolligi pasaygan, ular hech narsaga qiziqmaydi. Bolalar nafaqat bir nechta savollarni berishadi, balki hodisalarning mohiyatiga kirib borishga, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga intilmaydilar. Maktabga tayyorgarlik diagnostikasi ham motivatsion tayyorgarlikning deformatsiyasidan dalolat beradi. Ko'pincha bunday maktabgacha yoshdagi bolalar maktabga borishni xohlamaydilar, ularning asosiy maqsadi yangi narsalarni o'rganish emas, balki yaxshi baho olishdir.

Bundan tashqari, shaxsiy muammolar ham mavjud. Bolalar o'zlariga ishonmaydilar, ular kasallik, charchoqni his qilishadi. Birinchi maktab qiyinchiliklariga duch kelgan bola, ko'pincha nevroitik reaktiviyalar va sog'liq muammolariga olib keladigan haqiqiy stressni boshdan kechiradi. Ota-onalarning passiv pozitsiyasi - o'z farzandlarining rivojlanishi bilan shug'ullanishni istamaslik qobiliyatlarining past darajada rivojlanishiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatga ehtiyoj sezmaydilar, ular o'yinda o'zlarini namoyon qilishdan xursand bo'lishadi, bu esa yetarli emas. Ularda kognitiv faollik ham kam rivojlanadi. Sinfda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa, o'z navbatida ularni keyingi rivojlanishdan qaytaradi. Shu bilan birga, agar ota-onalar maktabgacha yoshning qadr-qimmatini tushunsa, bolalarni o'ynashga, chizishga, loyihalashga undasa, bola ijodiy rivojlanishi, hissiy jihatdan qulay his qilishi va maktabda muvaffaqiyatga erishish uchun sezilarli imkoniyatga ega bo'lishi mumkin. Agar ota-onalar bola bilan ishlamasa, lekin ayni paytda u maktab o'quv dasturiga muvofiq o'qish, yozish va o'qishi kerakligini kutsa, bunday bolaning rivojlanish istiqbollari qayg'uli bo'lishi mumkin. U past intellektual faoliyatni namoyish etadi, tasavvuri zaif, kognitiv faolligi past, bundan tashqari, u o'ziga ishonmaydi, maktab unda qo'rquvni keltirib chiqaradi.

Texnologiyalarda qo'llaniladigan uslublarning aksariyati nazariy jihatdan yangi emas, rus maktabi va shaxsning ijodiy

rivojlanishining xorijiy nazariyalari vakillari tadqiqotlarida taqdim etilgan nazariy va uslubiy g'oyalarning uyg'unlashuvidir. E.P. tomonidan shaxs ijodini rivojlantirish muammosini o'rganish alohida e'tiborga loyiqdir. O'qituvchilarning e'tiborini maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy salohiyatini samarali rivojlantiradigan sharoitlarni o'rganishga qaratish kerak.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Hozirda maktabgacha ta'lim muassasalarida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. 1837-yilda birinchi bolalar bog'chasi ochilganidan beri qariyb 200 yil davomida bolalar bog'chasida ertak aytib berish, o'yinchoqlarda nimalarnidir qurish, rasm chizish va birgalikda faoliyat yuritishni o'rganish sifatida namoyon bo'ldi. Biroq, bu holat hozirgi davrga kelib, to'liqroq qilib aytganda, Froebel dizaynerlar uchun mo'ljallangan loyihasini amaliyotga joriy qilgandan beri o'zgaraga boshladi.

Meryem Yalchin bolalar bog'chasi ta'limidan ijodiy dizayn ko'nikmalarining progressiv rivojlanishini kuzatish uchun o'z bog'chasida bolalar bilan turli tajribalarni amalga oshira boshladi. Froebel ishining davomi sifatida Seymur Papertning ta'limga konstruktiv yondashuvini namuna sifatida ko'rish mumkin, bu o'quvchilarni shaxsiy ma'noga ega bo'lgan dizayn tajribalariga jalb qilishga qaratilgan.

Froebel o'zining loyihasini yaratishda 19-asrning boshlarida mavjud bo'lgan materiallar bilan cheklangan. Lekin, biz bugungi ilg'or elektron va raqamli texnologiyalar bilan yangi turdagi qurilish to'plamlarini yaratishimiz mumkin, Froebelning bolalar bog'chasi yondashuvini yanada ilg'or loyihalar ustida ishlaydigan va yanada rivojlangan g'oyalarni o'rganadigan katta yoshdagi o'quvchilar bilan kengaytirishimiz mumkin. Masalan, Mindstorms va Crickets yordamida bolalar dinamik, interfaol konstruksiyalarni yaratishlari, bu jarayonda sezish, qayta aloqa va nazorat bilan bog'liq tushunchalarni o'rganishlari mumkin.

Ijodkorlik erta yoshda shakllantirilishi kerak bo'lgan idrok, tanqidiy va tahliliy nuqtai nazarning asosidir. Fridrix Froebel 1837-yilda dunyodagi birinchi bolalar bog'chasini ochganida bu fikrni tushundi. U o'z bog'chasini qurishda, loyihalash va yaratishda foydalanishi mumkin bo'lgan jismoniy narsalarni (blokklar, harakuklar va plitkalar kabi) bolalarga mos qilib yaratishga harakat qildi. Ushbu ob'yektlar butun dunyoga Froebelning sovg'alari sifatida qoldi.

U 3 D o'lchamlarini o'sha davrlarda tasavvur qildi va buni o'z bog'chasida namoyon etdi. Atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qilish orqali odamlar uning ko'p qirrali xususiyatlari, shuningdek, o'zlarining tanalari va onglari haqida bilishadi, keyinchalik 3 D tasavvurni hosil qila boshlashdi. Bundan tashqari, o'yin orqali bilim, tajriba va ob'yektlarni taqdim etish dizayn ta'limi uchun juda muhimdir. Biroq, bu masalalar professional tarzda qayta ishlanishi va dizayn tamoyillari, kontseptualizatsiya, 2D/3D fazoviy taqsimoti, rang, tekstura va yorug'lik kompozitsiyasi bilan maktabgacha ta'lim o'quv dasturiga yanada kengroq integratsiya qilinishi kerak.

Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy ijod bilan bog'liq bir qancha omillar, masalan, muammolarga sezgirlikni uyg'otish, moslashuvchanlik, ravonlik, o'ziga xoslik va qayta ta'riflash kabilar kuzatildi. O'qituvchilar kamdan-kam hollarda bolalarga o'z g'oyalarni taqdim etish va qo'llash imkoniyatini beradi. Tez-tez taklif qilinadigan mavzular bolalarni nima haqida o'ylashga undashdan ko'ra, allaqachon mavjud bo'lgan narsani tasvirlashni talab qiladi. Ularga mashg'ulot davomida yangiliklarni ko'proq berish va berilgan yangiliklarni qayta takrorlash uchun ham vaqt ajratish zarur. Bu holat yo'lga qo'yilmasa bolalarda o'z tajribalarini ifodalash, noyob shakllarni yaratish yoki kuzatish qobiliyatini yaxshilash imkoniyati yo'qoladi.

Bolalar o'z maqsadlariga erishishlari uchun ularni ijodiy ta'lim jarayonining ba'zi xususiyatlari bilan asta-sekin tanishtirish kerak. Ellis va Morrisonning fikriga ko'ra, turli xil materiallardan foydalanish bolalarga erkin izlanish, o'z g'oyalarni sinab ko'rish va dizayn muammolarini ijodiy tarzda hal

qilish imkonini beradi va shu bilan birga ularning shaxsiy ifodasi, ijodi uchun moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ynoq ijodini badiiy ijod deb hisoblash ham mumkin, ular dizayn va turli xil faoliyatni qadrlash yoki ular bilan shug'ullanishga qodir. San'at, dizayn va fanga qiziqish paydo bo'lgan davrda bolalarning har tomonlama rivojlanishi va shaxsiyatini qo'llab-quvvatlaydigan turli xil ijodiy faoliyat amaliyotlari bo'lishi mumkin.

Shunga mos ravishda, bolalar maktabgacha ta'lim jarayonida qandaydir tarzda ijodiy faoliyatga duch kelishadi. Shunga qaramay, ular dizayn masalalari uchun professional tarzda tuzilgan emas. Keyinchalik, ular odatda san'at yoki dizayn bakalavriat dasturini boshlamaguncha ijodkorlik kam yoki cheklangan an'anaviy ta'lim turini davom ettiradilar.

Biroq, talabalar juda boshqacha fikrlash tarziga moslashishi qiyin. Shu sababli, tadqiqotning ushbu qismi tadqiqot doirasidagi respondentlarning dizayndagi talabalari maktabgacha ta'limga ega bo'lganligini, maktabgacha va bakalavriat akademik hayoti o'rtasidagi ijodiy faoliyat niyatini va natijada talabalarning asosiy dizayn masalalari bo'yicha ishlashini aniqlashga harakat qildi. Shunday qilib, bolalar bog'chasidan bakalavriat dasturiga bo'lgan uzluksiz ijodiy faoliyatning dizayn ta'limiga ta'sirini ko'rib chiqishni tavsiya qilamiz.

Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshda rivojlantirish kerakligi masalasiga to'xtalib o'tish kerak. Psixologlar turli xil atamalarni ishlatishadi. Ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan boshlab rivojlantirish kerak, degan faraz mavjud. Bu gipoteza fiziologiyada o'z tasdig'ini topadi. Bolaning miyasi, ayniqsa tez o'sadi va hayotining birinchi yillarida "pishadi". Bu kamolot, ya'ni miya hujayralari sonining o'sishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlar mavjud tuzilmalar ishining xilma-xilligi va intensivligiga hamda yangilarining shakllanishiga atrof-muhit tomonidan qanchalik rag'batlantirilishiga bog'liq. Bu "pishish" davri tashqi sharoitlarga nisbatan eng yuqori sezuvchanlik va plastika, rivojlanish uchun eng yuqori va eng keng imkoniyatlar davri hisoblanadi.

Bu inson qobiliyatlari rivojlanishining boshlanishi uchun qulay davr. Sharoitlar qanchalik qulay bo'lsa, optimallikka qanchalik yaqin bo'lsa rivojlanish shunchalik muvaffaqiyatli boshlanadi. Agar miyaning yetukligi va uning faoliyatining boshlanishi vaqtiga to'g'ri kelsa va sharoitlar qulay bo'lsa, unda rivojlanish osonlik bilan - mumkin bo'lgan eng yuqori tezlashuv bilan davom etadi. Rivojlanish o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqishi mumkin va bola qobiliyatli, iste'dodli va yorqin bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o'ta izlanuvchan, ularda atrofda dunyoni o'rganishga intilish kata bo'ladi. Ota-onalar va o'qituvchilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir. U hali stereotiplar tomonidan "ezilgan" emas. Maktabgacha yoshdagi bolalik ham ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun sezgir davr hisoblanadi.

Har bir insonning o'ziga xosligi ko'p jihatdan uning qobiliyatlarini belgilaydi. Qobiliyatlar erta bolalikdan shakllana boshlaydi va hayot davomida rivojlanadi. Mashhur bolalar psixologi O.M. Dyachenkoning yozishicha, qobiliyat inson uchun doimiy ahamiyatga ega, ular uning turli faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi va kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni tezda egallashga yordam beradi. Bu qobiliyatlarni rivojlantirishning yuqori darajasi bolaga deyarli har qanday yangi vazifani tezda hal qilish, uning shartlarini aniq ko'rish, munosabatlarni tushunishning muhim jihatlari ajratib ko'rsatish, qayta qurish shartlari orqali yechimlarni topish, yangi

ijodiy mahsulotlar uchun g'oyalar yaratish, o'z fikrini ifoda etish imkonini beradi.

Qobiliyatlarning noyob birikmasi va rivojlanish darajasi ikki omil bilan belgilanadi: moyillik va atrof-muhit ta'siri.

Moyillik – tug'ilish paytida tabiat tomonidan berilgan tananing anatomik va fiziologik xususiyatlari. Bu erda irsiyat muhim rol o'ynaydi.

Atrof-muhit – bu kengroq tushuncha. U biz yashayotgan barcha sharoitlarni o'z ichiga oladi: madaniyat, jamiyat, ekologiya, ta'lim, oila va boshqalar.

Turli yo'nalishdagi olimlar, psixologlar, o'qituvchilar, sotsiologlar va boshqalar bolaning qobiliyatini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy ekologik omillardan biri bu oila ekanligini e'tirof etadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun psixologik-pedagogik faoliyat shakllari va usullari. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini maksimal darajada oshirish, ularni rivojlantirish uchun yangi samarali texnologiyalarni izlash davom etmoqda.

Har yili aqliy faoliyatga qo'yiladigan talablar ortib boradi, mashg'ulot muddati uzayadi, o'zlashtirilgan bilimlar hajmi oshadi, lekin mashg'ulot vaqtini cheksiz ko'paytirish mumkin emas. Qarama-qarshilik yuzaga keladi: aqliy faoliyatga qo'yiladigan talablar doimiy ravishda o'sib bormoqda va olingan bilimlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish, ular asosida yangi narsalarni yaratish qobiliyati ancha past darajada qolmoqda.

Avvalgidek, an'anaviy ta'lim, asosan, tayyor haqiqatlarni o'zlashtirish uchun reproduktiv faoliyatdan foydalanishga asoslanadi va tadqiqot izlanishlari pedagogik jarayonning yordamchi didaktik tuzilmasi bo'lib qoladi. Bunday axborot-reseptiv tayyorgarlik natijasida bola kashfiyotchi xatti-harakatlarning asosiy xususiyatini – qidiruv faolligini yo'qotadi. Va bu ajablanarli emas: bunday ta'lim "taqlid qilish", "takrorlash" va "itokatkorlik"ka asoslangan.

Natijada qiziqish, fikrlash va shuning uchun yaratish qobiliyati yo'qoladi. Bolaning mustaqil ravishda yangi ma'lumotlarni izlash qobiliyati an'anaviy ravishda pedagogikada bolalar xatti-harakatlarining eng muhim xususiyati sifatida qaraladi. Izlanish xulq-atvori bolaning dunyoni idrok etishining asosiy manbalaridan biri bo'lib, kashfiyotchi o'rganish bolaning atrof-muhitni mustaqil o'rganishga bo'lgan tabiiy istagiga asoslanadi.

Tadqiqot ta'limining asosiy maqsadi – madaniyatning har qanday sohasida faoliyatning yangi usullarini mustaqil va ijodiy o'zlashtirish (va qayta qurish) qobiliyatini shakllantirish. Qiyinchilik va qarama-qarshiliklarni osonlik bilan yengish qobiliyati ijodiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, u o'zining fundamental yangiligi va yondashuvning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ta'lim faoliyatini tadqiqot o'qitish usullariga asoslangan holda qurishga urinishlar qadim zamonlardan beri amalga oshirilgan, ammo bu ularning amaliyotda keng qo'llanilishiga olib kelmadi.

Muammo shundaki, bolalar ijodiyotini rivojlantirish mavzusi nazariy jihatdan ko'plab mualliflar tomonidan ochib berilgan, ammo muammoning maktabgacha ta'lim muassasasida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish kabi jihati yetarlicha o'rganilmagan. Maktabgacha pedagogikada tasavvur va bolalar ijodiyotini rivojlantirish bo'yicha yetarli miqdordagi nazariy ishlanmalar mavjud. Biroq, maktabgacha ta'lim mutaxassislari amaliyotida ushbu muammolarni hal qilish yo'llari ilmiy, uslubiy va amaliy ishlanmalar orasida yetarli darajada ifodalanmagan.

Ko'pincha o'qituvchilar ijodiy rivojlanishni amalga oshirish texnologiyasini yetarli darajada bilmasliklari va ijodiy vazifalarni boshqa darajadagi vazifalardan ajrata olmasliklari sababli muammolarga duch kelishadi. Bu barcha istak va sa'y-harakatlarga qaramay, ushbu jarayonning samaradorligi past bo'lishiga olib keladi. Binobarin, pedagog kadrlarni maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishini amalga oshirish texnologiyalariga o'rgatish zarurati tug'iladi. Nazariy va amaliyotda bolaning ijodiy qobiliyatini shakllantirish

muammosiga umumiy yondashuvlar aniqlandi, ular ijodiy fikrlaydigan shaxsni shakllantiradigan maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqiy kechinmalar aslini olganda, doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi» – deb ta'kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darajasi – talantdir. Talant – insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkonini beradi.<sup>5</sup>

Psixologiyaga ko'ra, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron-bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbai, layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Bola musiqaqa layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda, kishiga ta'sir etadigan tashqi omillar yig'indisi tushuniladi. Muhit o'z navbatida – tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalarga bo'linadi. Insondagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlarigina saqlanadi xolos, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti – harakat shakllanmaydi.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish erta bolalikdan, bola kattalar rahbarligida turli xil faoliyat turlarini, shu jumladan badiiy faoliyatni o'zlashtira boshlagan paytdan boshlab amalga oshirilishi kerak. Ijodkorlikni rivojlantirishda katta imkoniyatlar tasviriy faoliyat va birinchi navbatda rasm chizishni o'z ichiga oladi. Bolani hayot va san'atdagi go'zallikni to'g'ri va yetarli darajada qadrlashga o'rgatish, uni yaratish uning ichki dunyosini shunday muhim muhim fazilatlar bilan boyitish demakdir, ularsiz barkamol shaxs mavjud bo'lishi mumkin emas. Insonning go'zallik olamiga, ijod olamiga yo'li oiladan, bog'chalardan

boshlanadi. Shu sababdan ham bolaga, eng avvalo kichik yoshidan e'tibor qaratish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tarbiyachi tomonidan zarur psixologik qulaylik muhitini yaratish, uni o'zi kabi qabul qilish zarurligiga ishonch hosil qilish orqali bolaning ijodiy salohiyatini ochishga asoslanadi. Uning ijodiy qobiliyatiga ishonish va o'zini namoyon qilish uchun sharoit yaratish muhimdir.

Maktabgacha tarbiyachining hissiylik, bola qalbining sezgirligi, uning bilimga intilishida hushyorligi va ta'sirchanligi kabi fazilatlaridan mohirona foydalanib, biz har bir bolaning turli yosh bosqichlarida potensial rivojlanishini imkon qadar rag'batlantirishimiz kerak. Bolalarni "buyuk san'at" bilan imkon qadar erta tanishtirish kerak. Bolaning go'zallik olamiga mustaqil kirib borishi uchun tasviriy san'at tilini bosqichma-bosqich tushunish uchun ushbu yo'lning bosqichlarini: oddiydan murakkabga, xususiydan umumiygacha bo'lgan bosqichlarni belgilash orqali zarur shart-sharoitlarni yaratish kerak. Pedagog sinfda tasviriy san'at tushunchalari va atamaları bilan, hatto kichiklari bilan ham ishlashdan qo'rqmaydi, chunki bolalar quloq bilan idrok etish orqali tezda ko'nikadi va keyin ongli ravishda foydalanadi. O'qituvchi uchun asosiy narsa tushunchalar va atamalarining ma'nosini tushunishdir, bu ularning bolalar xotirasida mustahkam saqlashga imkon beradi.

Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davradir, chunki bu yoshdagi bolalar juda qiziquvchan, atrofdagi dunyoni bilish istagi juda yuqori va ota-onalar qiziquvchanlikni qo'llab-quvvatlab, bolalarni o'rganishni bilishadi. Ilk yoshlarda turli xil faoliyat bolalar tajribasini kengaytirishga yordam beradi. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zarur shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari haqida o'ylash katta yoshdagi bolalarni o'ylashdan ko'ra qulayroq. Maktabgacha bolalik bu ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun ham sezgir davri. Yuqoridagilardan xulosa qilib, biz maktabgacha yosh davri bu – ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar davri, deyishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
3. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida
4. Дружинин Владимир Николаевич Психология общих способностей Издательство: Питер, 2008 г
5. «Развитие творческих способностей дошкольников в дизайнерской деятельности» Воспитатель МБДОУ «Детский сад №27» Груздева С.П. г. Балахна 2019г.
6. Э. П. Торренс // Психология: Биографический библиографический словарь / Под ред. Н. Шихи, Э. Дж. Чепмана, У. А. Конроя. СПб.: Евразия, 1999.
7. www.FORMakademisk.org 1 jild.8, №1, 2015. Ackermann, 2004. Lindström, 2006. Florida, 2002.
8. <https://minikar.ru/uz/deti/detskii-dizain-v-detskom-sadu-zanyatiya-opyt-raboty-po-dizainerskoi-deyatelnosti-v-dou-organizaciya-v/> Vigotskiy, 2004. Fawcett & Hay, 2004. Brosterman, 1997. Fulghum, 1986. Dudek, 1996, 2000. Hirsh, Golinkoff & Eyer, 2003.
9. <https://minikar.ru/uz/goroskopy/formirovanie-tvorcheskih-sposobnostei-doshkolnikov-kak/> Leinonen & Venninen, 2012. Bryant & Hungerford, 1977; Fulghum, 1986;
10. <http://sokl.uef.fi/harkonen/verkot/esiopetus2002.pdf> Göncü, Main & Abel, 2009; Tompson, 1995. Sawyer, 2006.
11. Bolalarning ijodkorlik qobiliyatini loyihalashtirish va ularning rivojlanishini diagnostik tahlil qilish. Xujayeva Nasiba
12. <https://minikar.ru/uz/deti/glava-i-teoreticheskie-osnovy-i-problemy-razvitiya-tvorcheskih-sposobnostei/>

5 Bolalarning ijodkorlik qobiliyatini loyihalashtirish va ularning rivojlanishini diagnostik tahlil qilish. Xujayeva Nasiba



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOT JARAYONLARIDA STEAM TEXNOLOGIYASINI JORIY ETISH

Ahmadjonova Gulshoda

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 3  <b>Maqola raqami:</b> 6  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001206">https://doi.org/10.54613/001206</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mashg'ulotlar jarayonlarida STEAM texnologiyasidan foydalanishning samarali usul va metodlari, ushbu metodning o'ziga xos xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan bo'lib, STEAM metodini maktabgacha ta'lim tizimida joriy etishning ilmiy va uslubiy jihatlari o'rganib chiqilgan. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotlar jarayonida qo'llash yuzasidan tadqiqot ishida yoritib berilgan. Jahon ta'lim tizimida yuqori natijalarni qayd etgan STEAM texnologiyasini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonida qo'llash O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlodni komil shaxs va raqobatbardosh kadr sifatida ulg'aytirish, ularni zamonaviy kasblarning mutaxassisi etib tarbiyalash yo'lida muhim bo'lgan vazifalarni amalga oshirish, muammolarni o'rganish va ularga yechim topishdan iborat tadqiqot jarayoni ochib berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>STEAM, STEM, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, maktabgacha ta'limda texnologiyalar, bolalik davri, maktabgacha ta'lim tashkiloti, MTTda STEAM.</p>	

### KIRISH

Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim va tarbiya jarayonlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, xususan xorij tajribasining nazariy asoslarini o'rganish va amaliyotga joriy qilish ta'lim tizimini yana bir pog'ona rivojlantirishning muhim tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi.

Globalashuv jadallik bilan butun dunyo xalqlarini o'ziga tobora tortmoqda. Bu jarayonda dunyo xalqlarining ijobiy va salbiy urf-odat, yurish-turish, tutilari bilan birgalikda fan-texnika sohasida erishilayotgan yutuqlari ham bir davlatdan ikkinchisiga o'tib tobora ommalashmoqda. Ayniqsa, bugungi XXI – raqamli texnologiyalar asrida globalashuv ilm-fan, texnika sohasining asosiy drayveri bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir sohada bo'lgani kabi yetuk kadrlarga talab ham o'zgarib boryapti. Kelajak avlod kadrlarini tayyorlashda STEAM texnologiyalarini bilish talabi tobora ortib bormoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2011-yildan buyon STEAM – kasblarga bo'lgan talab darajasi 17 % ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8 % ga ortdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda Yevropa, Osiyo, Janubiy va Shimoliy Amerika, Avstraliya kabi dunyoning barcha qit'olari bo'ylab jami 43 ta davlatda ta'lim jarayonlarida STEAM texnologiyasidan foydalaniladi<sup>2</sup>.

Dastlab STEAM Amerika Qo'shma Shtatlarida ishlab chiqilgan. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirish natijasi hisoblanadi.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi - Massachusetts Texnologiya Institutida ishlab chiqilgan. (MIT)<sup>3</sup>. Institutning shiori «Mens et Manus» (Aql va qo'l). Massachusetts texnologiya instituti bolalarga bu tushunchani oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va ba'zi ta'lim muassasalarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi.

Jumladan, STEAM (S – fan, T – texnologiya, E – muhandislik, A – san'at, M – matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv. STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- Muammolarni angelay olish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;

- Dizayn asoslarini tushunish.

Dastavval mutaxassislar maktablar bitiruvchilarining qiziqishlarini inobatga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi. Shundan so'ng STEM tizim sifatida shakllandi. Lekin keyinchalik bu San'at atamasi (art) bilan boyitiladi va endilikda STEAM deb ataladigan texnologiya paydo bo'ldi.

O'qituvchilar ushbu fanlardagi bilimlar kelajakda o'quvchilarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Demak, bolalar o'zlari qiziqqan fanlar orqali yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amaliyotda qo'llashadi.

Agar biz An'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va ulardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash imkoniyatini beradi.

STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press, shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozorida tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berishdir. O'quvchilarga mazkur fanlarni o'qitishda malakali mahalliy o'qituvchilar bilan bir qatorda, xorijlik o'qituvchilar ham hamkorlikda saboq beradilar. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga yollashda mazkur yo'nalishda ko'p yillik tajribaga ega Teachaway (Kanada) va TIC Recruitmentll (Buyuk Britaniya) kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda, xususan O'zbekistonda muhandislar va elektron texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori.

Biz STEAMni ta'limda qo'llash orqali texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan birgalikda tabiiy fanlar bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz, ayniqsa bio va

1 [https://www.wermac.org/steam/steam\\_part2.html](https://www.wermac.org/steam/steam_part2.html)

2 What are the other 43 countries that Steam is available in? <https://steamcommunity.com/discussions/forum/0/135511455873795707/>

3 [https://iaac.net/educational-programmes/masters-programmes/master-in-robotics-and-advanced-construction-mrac/?qclid=EAAlQobChMI0Kil4Izw9wIVfMAYCh2-OLUEAAAYASAAEqLHF\\_D\\_BwE](https://iaac.net/educational-programmes/masters-programmes/master-in-robotics-and-advanced-construction-mrac/?qclid=EAAlQobChMI0Kil4Izw9wIVfMAYCh2-OLUEAAAYASAAEqLHF_D_BwE)

nanotexnologiya mutaxassislarini yetishtirish uchun zarur muhit yaratamiz. Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta'lim va tajribaga ega bo'lishadi.

**Ushbu texnologiya integratsiyalashgan ta'lim hisoblanib, STEAM ta'limi o'quvchilarga nazariyani amalda qanday qo'llashni tushunishga yordam beruvchi, aralash muhitni nazarda tutadigan ta'lim hisoblanadi. Ushbu dastur bo'yicha talabalar, matematika va fizika, tabiiy fanlar va san'at bilan bir qatorda olgan bilimlarni amaliyotda qo'llash va hattoki robotlarini ishlab chiqishlari ham mumkin bo'ladi. Darslarda maxsus texnologik uskunalaridan foydalaniladi.**

Ushbu nazariyada ilk yoshdagi bolalarni Maktab ta'limiga samarali tayyorlashda yordam beruvchi va tarbiyalanuvchilarning rivojlanish jarayonlarini zamonga hamnafas holda olib borishda yordam beruvchi amaliyotni tashkil etish, erta bolalik davrida STEAM ta'limi kabi rivojlanayotgan fanlardan foydalanish orqali bolani aqliy va jismoniy rivojlantirishga yordam beradi.

Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlari asosida vujudga kelgan STEAM texnologiyasining mazmuni barcha rivojlanish sohalarini qamrab oluvchi va o'quvchilarni real hayotga tarbiyalashga asoslangan, muammolarni hal qilishga undaydigan fanlararo ta'lim tizimining o'ziga xos usuli hisoblanadi. Bu texnologiyaning mazmuni barcha rivojlanish sohalarini qamrab oluvchi va bola shaxsini hayotga tarbiyalashda foydalanishga asoslangan holda muammolarni hal qilishga undaydigan fanlararo ta'lim tizimining o'ziga xos usulidir. Yondashuv kuchli bilim malakalarini o'zlashtirish va bolalarni kelajakda zamonaviy sohalariga jalb qilishda yordam berishi maqsad qilingan. Ushbu yondashuv kuchli bilim malakalarini o'zlashtirishga yordam berishi va bolalarni kelajakda zamonaviy sohalariga jalb qilishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqot davomida Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarida mashg'ulot jarayonlarida STEAMning pedagogikaga bo'lgan yondashuvlari kontsepsiyasi, tushunishi va baholashi hamda tarbiyalanuvchilarning STEAM fanlariga bo'lgan qobiliyatlarini aniqlash va vujudga kelgan muammo va kamchiliklarni o'rganishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasida tariflab o'tilganidek: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi". Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan qonunning amaliy tasdig'i sifatida STEAMning maqsadi - o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish hamda ularni fan, texnologiya, muhandislik, matematika va san'at kabi fanlardan olgan bilimlarini samarali qo'llashga o'rgatishdan iborat hisoblanadi va maktabgacha ta'lim tizimida bu texnologiyadan foydalanish, jarayonning muvofiqlashishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shu o'rinda, Maktabgacha Ta'lim Tizimiga qamrab olinayotgan bolalarga sifatli ta'lim berish, ularning kelajakda sifatli kadr qilib tarbiyalash va hozirda rivojlanib borayotgan sohalar – tabiiy fanlar, texnologiyalar, muhandislik, san'at va matematika fanlariga bolalarni ilk yoshidan o'rgatish va ularni zamon talabiga mos kadr qilib ulg'aytirib borish bugunning dolzarb masalaridan biri hisoblanadi. Bu o'rinda Ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar modulidan foydalangan holda kelajak avlodga bilim va malaka berish uchun, eng avvalo qulay muhit yaratish, pedagoglar malakasini oshirish va bu sohada ularga

tajriba ulashish olib borgan tadqiqotimizning maqsadi hisoblanadi.

STEAM amaliyotlarini joriy etishda duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda yordam berishi mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlash turlari, xususan erta yoshdagi bolalarning ota-onasi, pedagog va boshqa soha vakillarining nuqtai nazarini ko'rib chiqadi. Ayniqsa, erta bolalik davrida STEAM yondashuvi bolalarning matematika va aniq fanlarga oid bilimlar asosini yaratishga yordam beradigan vosita sifatida targ'ib qilinmoqda, bunda san'atdan foydalanib, bolalar o'z g'oyalarni ifodalashda turli ijodiy usullardan foydalanishi mumkin<sup>4</sup>.

STEAM bolalarni yangi narsalarni yaratishni o'rganishga undaydi, bunda tanish narsalarni yangicha ko'rish, narsalarni noan'anaviy usullar bilan birlashtirish va mustaqil ravishda erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Global raqobat nuqtai nazaridan, Qo'shma Shtatlar matematika va tabiiy fanlardan bilimlarni egallash bo'yicha oldingi o'rinni egallagan va shu o'rinda ta'limni tashkil etishda urg'uni STEAM texnologiyasiga qaratadi. Bundan tashqari, umummilliy standartlarga asoslangan ta'limga e'tibor, ta'limning barcha sohalarida, shu jumladan kichik yoshdagi bolalar uchun guruhda kuchli e'tiborni talab qiladi<sup>5</sup>.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida texnologiyalarning ortib borayotganligi bilan bir qatorda, maktabgacha ta'lim tizimida tarbiya va ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida san'at, gumanitar fanlar va dizayn sohalarini qamrab oluvchi STEAMni olib kirish zarur. STEAM, ayniqsa bolalar uchun mos bo'lgan ta'lim strategiyalarini konseptsiyalash va amalga oshirish uchun asos yaratadi. Yosh bolalar dunyoni cheksiz imkoniyatlar bilan to'la, deb bilishadi. Bu fikrlash yigirma birinchi asr uchun zarur deb e'tirof etilgan ko'nikmalar va barcha bolalar ayniqsa bo'lajak olimlar, matematiklar va muhandislar uchun muhim. Bundan tashqari, san'at innovatsiyalar uchun zarur bo'lgan ijodkorlikni rag'batlantiradi.

Kelajakdagi mehnat umumdorligi va farovonligi, texnologiya va san'atdagi innovatsion fikrlashni egallashga, shuningdek, fan, muhandislik va matematika fanlarini chuqur tushunishga ulkan imkoniyatlar paydo bo'ladi. Shunday qilib, bolalar STEAM dasturidan kichik yoshdagi bolalarni fan, matematika, muhandislik va texnologiya bo'yicha kashfiyot, rivojlanishga o'rgatishda foydalanishni boshlaydilar.

Ko'proq zamonaviy fanlar texnologiya, muhandislik va matematika xodimlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun boshlang'ich va o'rta sinflarda STEAM o'quv dasturi va pedagogikasini maktab va maktabgacha ta'limda integratsiya qilmoqdalar. STEAM savodxonligi fan, texnologiya, muhandislik va matematikaning zamonaviy jamiyatdagi rolini tushunish, har bir sohadan fundamental tushunchalar bilan tanishish, asosiy dastur malakasi (masalan, yangiliklar hisobotidagi ilmiy yoki muhandislik mazmunini tanqidiy baholash, umumiy texnologiyalarning asosiy muammolarini bartaraf etish va kundalik hayot bilan bog'liq asosiy matematik operatsiyalarni bajarish qobiliyati). Maktablarda STEAM asosida Iqtisodiyot sohalariga o'z hissasini qo'shadigan o'quvchilarni muvaffaqiyatli yetishtirishi mumkin. O'quvchilarning STEAM salohiyatidan to'liq foydalanish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari STEAM ta'limini ratsionalizatsiya qilishlari va o'qitish pedagogikasini takomillashtirishlari kerak.

Muhandislik dizaynini o'rganish - bu bolalardan muammolarni hal qilish uchun kontent bilimlarini qo'llashni talab qiladigan loyihaga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda mavzularni integratsiyalashning bir usuli bo'lgan STEAM pedagogikasining asosi sifatida qaralgan.

2000-yillarning boshidan boshlab Qo'shma Shtatlardagi K-12 tizimi va o'rta ta'limdan keyingi ta'lim samarali o'rganish modeli, sinf amaliyotlari to'plami va ma'lumotlar to'plami sifatida STEAgA tobora ko'proq e'tibor qaratilib kelinmoqda. STEAM dasturining maqsadi o'zining ko'p ko'rinishlarida mustahkam

4 From STEM to STEAM Brain-Compatible Strategies and Lessons That Integrate the Arts Second Edition David A. Sousa Tom Pilecki

5 Myint Swe Khine · Shaljan Aarepattamanni Editors STEAM Education Theory and Practice

ilmiy-matematik asosga ega texnik bilimlarni rivojlantirish va bu tajribadan insoniyatning global farovonligi yo'lida qanday qilib ijodiy foydalanish mumkinligini tushunishdir. PMLA tahririyati ruknida Wai Chi Dimock yozgan maqolasida, gumanistlar tomonidan boshqariladigan STEAM platformasi ham san'at, ham fan uchun keng ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarga insoniy o'lchovni olib kirish orqali u insonparvarlik intilishlarini jismonan shakllantirish uchun ilm-fan kuchidan foydalanganda ham, irq, sinf va madaniyat masalalarini fan uchun mazmunli qiladi. To'plam gumanitar fanlarni fan va texnologiyalar shuningdek, san'at va gumanitar fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni birinchi o'ringa qo'yadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

"Fan bizning atrof-muhitimizni - bizni o'rab turgan dunyo va koinotni hamda undagi barcha narsa va mavjudotlarni, atomlardan tortib ulkan tog'largacha, mayda bakteriyalardan tortib katta kitlargacha tushunishga harakat qilmoqda. Ko'proq o'rganganimizda, biz juda ko'p sirlarni ochamiz. Biz teleskop orqali koinotdan tashqarida nimani ko'rishimiz mumkin va miya sevgini qanday his qiladi va o'ylaydi, bu kabi savollar insoniyatni o'ylantirib kelmoqda"<sup>6</sup> deb ma'lumot beriladi Lise Burke va Professor Robert Winson tomonidan yozilgan, "STEAM Education: Theory and Practice" kitobida. Kitob bolalarga boshlang'ich maktab yoshidan boshlab tabiiy fanlar va texnologiyalar bilan izlanish olib borish va bolaga fanning maqsadini nazariyada qanday o'rgatish haqida tavsiyalar bergan. Alohida mavzular asosida qamrab olingan tabiat, tuproq, suv, koinot, hayvonot olami, ovqatlanish va inson fiziologiyasi, tirik tabiiy va nobodot olami, hashoratlar dunyosi haqidagi bilimlar STEAM texnologiyasida misollar asosida tushuntiradi.

STEAM nazariyasi va amaliyoti: "XXI asrning o'tgan o'n yilliklardagi voqealarni ortda qoldirib, texnologik taraqqiyot va globallashuv tarqalashining o'ziga xos davriga aylandi. Butun dunyo bo'ylab ta'limni rejalashtiruvchilar kelgusi avlod o'quvchilarini texnologiyadan xabardor bo'lishlari va tobora raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarga qiziquvchan bo'lishlari uchun ko'p mehnat qilmoqdalar.

Lekin bu fanlar alohida o'qitilmasligi, balki fanlararo yagona yondashuvga birlashtirilishi kerak. Ushbu yondashuv individual fanlarni bog'laydi va ularni STEM, deb nomlanuvchi yagona obyektga birlashtiradi. Zupros, Kohler va Hallinen (2009) fikriga ko'ra, "**STEM ta'limi - bu qat'iy akademik tushunchalarni real hayot darslari bilan birlashtirgan fanlararo yondashuv bo'lib, o'quvchilar fan, texnologiya, muhandislik va matematikani maktab, jamiyat va boshqalarni bog'laydigan kontekstlarda qo'llaydilar**"<sup>7</sup>. STEM savodxonligi global korxonalarda va shu bilan birga yangi iqtisodiyotda ishlash qobiliyatini rivojlantiruvchi talab hisoblanib bormoqda. STEM o'quv dasturidagi yutuqlar bilan bir qatorda, bolalar ham kelajak jamiyatida yaxshi faoliyat yuritishlari uchun yosh avlod yigirma birinchi asr ko'nikmalari, jumladan, ijodkorlik, innovatsiyalar va tadbirkorlik bilan qurollanishi lozimligini ta'kidlamog'ida.

So'nggi bir necha yil ichida innovatsion iqtisodiyot sohasida intellektual va ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ijodiy sohalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda: kompyuter texnologiyalari, virtual reallik, dizayn, moda, reklama, animatsiya va boshqalar. Butun dunyoda ijodiy industriyalar iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi va yoshlarning ijodiy sohadagi bandligi real sektordagi bandlikdan ortib bormoqda. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar, ya'ni ijodiy va badiiy fanlarni o'quv dasturiga ko'proq kiritish zaruriyatini qo'yimoqda. Ijodiy sohalarida 30 milliondan ortiq ish o'rni yaratilgan Qo'shma Shtatlarda bu ehtiyoj STEM kontsepsiyasining o'zgarishiga olib keldi: fan, texnologiya,

muhandislik va matematika sinteziga beshinchi komponent - San'at qo'shildi. Natijada yangi qisqartma va tushuncha paydo bo'ldi - **STEAM**.

STEAM yondashuvi asosiy e'tiborni loyiha faoliyati, amaliy yo'nalishga va subyektlarolikka qaratadi, lekin asosiy fanlar tartibini o'zgartiradi. O'quv dasturini shakllantirish darajasida, masalan, universitetda STEAM nafaqat muhandislik va tabiiy fanlar STEM fanlarini, balki gumanitar va ijodiy fanlarni ham kiritishni o'z ichiga oladi: adabiyot, dizayn, arxitektura, musiqa, tasviriy san'at.<sup>8</sup>

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

STEM qisqartmasi ta'lim, sanoat va mehnat bozoridagi 4 ta eng istiqbolli yo'nalish - fan, texnologiya, muhandislik va matematika haqida gapirishni osonlashtirish uchun yaratilgan. Kompyuter tizimlarini tahlil qilish, dasturiy ta'minot muhandisligi, tibbiyot va biomedik-muhandislik kabi kasblarda ko'proq ish o'rnlari o'sishi kutilmoqda, shuning uchun kelajakda STEM darajasiga ega bo'lgan bitiruvchilarga talab katta bo'ladi. Ammo, taniqli STEM kurslaridan tashqari, xorijiy universitetlarda: STEMM, STREAM va STEAM dasturlari mavjud. STEMM, STREAM va STEAM bir xil fan, texnologiya, muhandislik va matematika + san'at olamiga tegishli qo'shimcha komponent hisoblanadi.

STEMM - bu 4 ta asosiy fan va musiqa.

STREAM bu 4 ta asosiy fan va qo'shimcha adabiyotlarni o'z ichiga oladi (reading).

STEAM - san'at (Art). Bu turdagi dasturlarning barchasi (tabiiy, muhandislik, aniq fanlarni o'rganish bilan bir qatorda) ijodiy idrokni rivojlantirishga, modellashtirish va badiiy-texnik dizayn asoslarini o'rgatishga qaratilgan.

STEM va STEAM / STEAM / STEMM o'rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM ilmiy tushunchalarga e'tibor qaratadi, boshqa tadqiqot dasturlari ham xuddi shu tushunchalarni o'rganadi, lekin ijodiy yondashgan holda tadqiq etadi.

STEAM amaliyotda joriy etish bo'yicha qanday ustuvor masalalarga e'tibor qaratish kerakligini 2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan «STEAM forward» xalqaro konferensiyasida berilgan bayonoti orqali ko'rishimiz mumkin:

Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish kerak.

- Fan tili ingliz tilidir. Agar ilm-fanni o'rganish va olim bo'lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.

- Qizlar uchun STEAM - ta'lim dasturi foydali hisoblanadi. Ilm-fan sohasidagi qizlar tartibilligi tufayli o'g'il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.

- Ilm-fan quvnoq bo'lishi kerak (Science is fun!) u o'quvchilar uchun qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi kerak.

Yuqoridagi masalalardan ko'rinib turibdiki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi.

Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va o'qishni osonlashtiradi<sup>9</sup>.

STEM va STEAM o'rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan fan va unga tegishli fanlarga zamonaviy yondashuvni anglatadi. STEAM, STEM dasturidagi fanlar bilan birgalikda ijodiy fikrlash va san'atni ham hayotiy vaziyatlarga bog'lab o'qitadi. STEAM "A" - bu gumanitar fanlar, tilshunoslik, ijtimoiy tadqiqotlar, jismoniy san'at, tasviriy san'at va musiqa uchun atama. STEAM o'qitish - bu STEM

6 Myint Swe Khine · Shaljan Aarepattamanniil Editors STEAM Education Theory and Practice

7 Written by Lisa Burke Consultant Professor Robert Winston STEAM Team

8 <https://pedsovet.org/article/stem-i-steam-obrazovanie-ot-doskolnika-do-vypusknika-vuza>

9 <https://zen.yandex.ru/media/id/5a514cfff96b1fef2b36f69/steam-talim-tizimi-nima-5fe5143db590cfd642bf103>

loyihalarida ijodiy fikrlashni qo'llash, san'at orqali bolalarning tasavvur va ijodini uyg'otishdir. San'at obyektlarini o'rganish hamkorlik, muloqot, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, u o'quvchining moslashuvchanligi, mahsuldorligi, mas'uliyati va yangiliklarini oshiradi. Bu ko'nikmalarining barchasi har qanday o'qish sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun zarurdir.

STEM + Art ni joriy etish natijasida o'qitishning yangi usullari paydo bo'ldi. O'qituvchilar loyihalarga grafiklar, chizmalarni qo'llay olishlari kuzatildi. O'quvchilar STEM loyihasi haqida muloqot qilish uchun sahna san'atidan ham foydalanishlari, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatishlari ham mumkin bo'ldi. An'anaga ko'ra, san'at va fan ikki xil o'qish sohasi sifatida qaraladi, lekin STEAM ta'limi bu ikki sohani birlashtirib, texnologiya, robototexnika, sanoat dizayni, muhandislik va boshqalarga fanlararo yondashuvni yaratdi.

### STEAM TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Geymifikatsiya:** o'yin orqali o'rgatish (Gamification: learning through play). STEM ta'lim - ilmiy usullardan, texnik dasturlardan, matematik modellashtirish, muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu o'quvchining innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi. STEM ta'limning afzalliklari:

- fanlar bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integral mashg'ulotlar ilmiy va texnik bilimlarni real hayotda qo'llash;
- tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish;
- o'ziga ishonchni shakllantirish;
- muloqot jarayonida faollashish va jamoada ishlash;
- texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish;
- loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv;
- har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish;
- kasbga erta yo'naltirish;
- bolalarni hayotdagi texnologik yangiliklarga tayyorlash;

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot ham nazariy bilim kabi muhimdir. Ya'ni, o'rganayotganda biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf xonasidagi ta'lim tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam bo'lmaydi. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bu yerda bolalar ko'plab fanlarni muvaffaqiyatli o'rganish uchun miyalaridan va qo'llaridan foydalanishadi. Bilimlarni mustaqil kashf etadilar<sup>10</sup>.

STEAM texnologiyasini o'rganish va tatbiq qilish bilan bog'liq tadqiqotlar jahon miqyosida ulkan yangiliklarni yoritib berish jarayoni turli xil metodlarni o'z ichiga olgan. Xususan Quigle va boshqalar tomonidan foydalanilgan SCALE modeli tadqiqot jarayonlarida muhim ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa, Faiza M. Jamil · Sandra M. Linder Dolores A. Stegelin «Erta yoshdagi bolalarni STEAM texnologiyasida o'qitish «haqidagi maqolasida bir nechta metodlardan (so'rovnoma, suhbat, kuzatish) foydalangan, Kym Simoncini, Michelle Lasenlar o'z maqolalarida «Australiya bolalarini erda yoshdan STEAMga o'rgatish qanchalar muhim», deb nomlangan maqolalarida tashxislash va amaliy qo'llab tahlil qilish orqali o'z nazariyalarini bayon qilganlar.

2014-yilda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Federal Majlisga murojaatida birinchi marta mamlakatda muhandislik ta'limini jahon darajasiga olib chiqish zarurligini ta'kidladi.

Bugungi kunda texnoparklar, oliy o'quv yurtlari qoshida yoki Ta'limni texnik qo'llab-quvvatlash markazlari doirasida o'rta maktab o'quvchilariga yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga

yordam beradigan, ularni ilmiy-texnikaviy yo'nalishda o'qishni davom ettirishga undaydigan STEM markazlari tobora ko'payib bormoqda. Rossiya universitetlarida STEM o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha magistrlik dasturlari paydo bo'lmoqda va qo'shimcha ta'limda va pullik ta'lim xizmatlari segmentida STEM yondashuvidan foydalanish amaliyoti tez sur'atlar bilan kengaymoqda. Darslar jarayonida bolalar jamoalarda qiziqish bilan ishlaydilar, tajriba va tadqiqot o'tkazadilar, robotlar ixtiro qiladilar va yig'adilar, veb-saytlar va multfilmlar yaratadilar<sup>11</sup>.


O'zbekistonda Prezident maktablarida "STEAM" ta'lim dasturi asosida o'qish tashkil qilinishi, 9-11-sinflarda o'quvchilar o'zlarining qiziqishiga qarab ayrim fanlarni tanlash orqali individual bilim olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Chunki Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biri – tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'qitish, o'quvchilarning innovatsion bilimlarni o'zlashtirishi, ularning intellektual, ilmiy-ijodiy salohiyatlarini ochib berish va rivojlantirishdan iborat.<sup>12</sup>

### TADQIQOT VA NATIJALAR

So'rovnoma jarayoni asosan beshta savoldan iborat bo'lib, bunda tizimning ichida bo'lgan har bir qatlam a'zolarining STEAM texnologiyasi haqidagi fikrlari qamrab olindi va so'rovnoma savollari asosida jami 130 dan ortiq ishtirokchining texnologiya haqidagi fikrlari aniqlandi, so'rovnoma texnologiyaning qay darajada ma'lum ekanligi to'g'risidagi savol bilan boshlangan va texnologiya haqida umumiy tushunchalar berilganidan so'ng uning shakli, olib borilishi va bolalarning ta'lim tarbiyasida ko'rsatilishi mumkin bo'lgan yuqori natijalar bilan tanishtirilgandan so'ng fikrlar umumlashtirilgan.


#### 1-savol. Siz STEAM texnologiyasi haqida bilasizmi?

Ushbu savol 57% ko'rsatkich bilan "Yo'q", ya'ni ushbu metod haqida ma'lumotga ega emasman natijasini bergan, 43% ovoz beruvchilar ushbu metoddan xabardor ekanliklari va metodning tarkibiy jihatlari haqida ham batafsil ma'lumotga ega ekanliklarini aytib o'tishgan.



1-rasm. STEAM texnologiyasidan xabardorlik darajasi.

2-savol. STEAM texnologiyasidan foydalanish orqali MTT tizimimizda yuqori natijalarga erishishimiz mumkin deb o'ylaysizmi? Ushbu savol 63% "Ha", 22% "Yo'q" va 15% "Bilmayman" javobini to'plagan.




2-rasm. Texnologiyadan foydalanish darajasi

10 <https://pedsovet.org/article/stem-i-steam-obrazovanie-ot-doskolnika-do-vypusknika-vuza>

11 <https://pedsovet.org/article/stem-i-steam-obrazovanie-ot-doskolnika-do-vypusknika-vuza>


12 3.Nabiyev Farrux Abduraximovich, Murodov Karimjon Qo'chqarovich steam – bu integratsiyalashgan ta'lim texnologiya

**3-savol.** Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda kadrlarning bilimi yetarli deb hisoblaysizmi? “Yo‘q” javobi 78%, “Ha” javobi 10% va nihoyat “Qisman” javobi 12% natija bilan baholandi.



**3-rasm. Kadrlarni xorijiy texnologiyalarni qo‘llashdagi savodxonlik darajasi**

4-savol. Sizing muassasangizda ushbu texnologiya uchun shart-sharoit yetarlimi? Demak navbatdagi savol “Yo‘q” javobi bilan 43% ni, “Ha” javobi bilan 22% ni va “Qisman” javobi bilan 35% ni tashkil qilgan.



**4-rasm. STEAM uchun shart-sharoitlar yaratilganlik darajasi**

5-savol. O‘z muassasangizda ta‘lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirish va jarayonni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashda kerakli shart-sharoit yaratib bera olasizmi?

Ushbu so‘rovnomaning yakuniy qismi bo‘lgan ushbu savolga javob beruvchilarning 32% ini MTT tarbiyachilari, 26% ini MTT direktorlari va 19% ini MTT uslubchilari va qolgan 33% ini MTT da tarbiyalanuvchilarning ota-onalari tashkil qilgan. Savolga javob beruvchi direktorlarning aksariyati ijobiy “ha”, “albatta”, “shubhasiz”, javoblarini berishgan bo‘lsa, tarbiyachilarning nisbatan ko‘p qismi moddiy resurslar qismini ota-onalar bilan birga hal qilish kerak, degan yechimni ko‘rsatishgan. Uslubchilarning yuqori foizi qo‘llaridan kelgan shart-sharoit yaratib berishlari mumkinligini keltirib o‘tishgan. Ota-onalar bilan olib borilgan tadqiqot jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ular o‘z farzandlarining barkamol shaxs bo‘lib tarbiya topishida va sog‘lom avlod sifatida ulg‘ayishida bor moddiy va ma‘naviy imkoniyatlarini ayamasliklarini aytib o‘tishgan.

Demak tadqiqotning ikkinchi asosiy qismi ham bevosita muloqot shakli orqali amalga oshirilgan. Interview olish jarayonida Qo‘qon shahri va Namangan viloyatida jami 100 nafar ishtirokchi qamrab olindi. Savollar tadqiqot mavzusini to‘laqonli ochib berishga qaratilgan bo‘lib, jami 1300 daqiqalik suhbatni tashkil qildi. Savollarning umumiy ko‘lami asosan mavzuning bizning ta‘lim tizimimizda qay darajada faollikka ega ekani bilan

belgilandi. Shuningdek Interview qatnashchilarining pradedurasiga qarab, savollar shakli o‘zgarib borgan.

Demak 1-savol Siz STEAM texnologiyasidan xabardormisiz va yana qanday zamonaviy texnologiyalardan xabardorsiz?

Ushbu savol ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlar bilan suhbatda yoritilgan. MTT direktorlarining aksariyati texnologiyadan xabardor ekanliklari va u bilan bog‘liq yangiliklar ularga xorij tajribasida ma‘lum ekanligini aytib o‘tishgan. Kundalik ish faoliyatida ular duch kelayotgan bunday terminlarning nomi ularga yaxshi tanish bo‘lsada, texnologiyadan o‘z ta‘lim muassasalarida foydalanishda amaliy bilimlarning kamligi va hozirda MTTda mashg‘ulotlar jarayonida metoddan foydalanish u darajada ommalashmaganligini aytib o‘tishgan. Direktorlardan birining javobida bunday texnologiyalar xorijiy tajribalarni milliy ta‘lim tizimimizda yangilik bo‘lishiga qaramasdan ommalashgan metod deb ta‘kidlab o‘tgan bo‘lsa, yana biri MTT direktori metod haqida hech qanday ma‘lumotga ega emasligi va avval STEAM iborasiga duch kelmaganligini aytib o‘tgan.


Savol tarbiyachilar bilan suhbat jarayonida butkul o‘zgacha ko‘rinish kasb etgan bo‘lib, tarbiyachilardan biri ushbu metoddan xabardor ekanligi va mashg‘ulotlar jarayonini integratsiyalashgan tartibda o‘tishi va bu jarayon beshta markazdan foydalangan holda amalga oshirilishini aytib o‘tgan, “ta‘lim tarbiya jarayonida “deb gap boshlagan keyingi tarbiyachi bolalar bilan samarali mashg‘ulot olib borishda xorijiy interfaol usullardan foydalanish samarali usul ekani, lekin shunga qaramasdan STEAM texnologiyasi ularga yaxshi ma‘lum emasligini bildirgan. Foizlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, umumiy javob beruvchilarning (jami 58 nafar) 39,3% qatlam texnologiya haqida eshitganliklarini, 13,4% javob beruvchilarda qisman ma‘lumot borligi, 48,3% javob beruvchilar STEAM haqida ma‘lumotga ega emasliklarini aytib o‘tishdi.

Tadqiqot jarayonida javob beruvchilar umumiy texnologiyalar haqidagi ma‘lumotlari u darajada keng emasligi ma‘lum boldi. MTT xodimlari mashg‘ulot jarayonlarini olib borishda aksariyat sinalgan usullardan foydalanishlarini ma‘lum qilganlar.

Keyingi toifa ta‘lim jarayonlarining yuqori shaklida faoliyat yurutuvchi xodimlar ta‘lim tizimiga kirib kelayotgan xorijiy baholash tizimlari, metod, texnologiyalar haqida qisman ma‘lumot berib o‘tishganligini ko‘rishimiz mumkin.

Keltirilgan misollar interwievda ishtirok etgan umumiy qatnashuvchilarning javoblari ularning aksariyati bir xil turdagi yangiliklardan xabardor ekanliklarini ma‘lum qilishgan. PISSA baholash tizimi haqida ma‘lumot beruvchilar nisbatan yuqori raqamlarni ko‘rsatgan bo‘lib 63% ni tashkil qilgan va ma‘lumotlar umumlashtirilgan holda 5-jadvalda keltirib o‘tilgan.

2-savol STEAM texnologiyasidan foydalanish orqali MTT ta‘lim va tarbiya jarayonida yuqori natijalarga erishish mumkin deb o‘ylaysizmi?




**5-rasm. Pedagoglarning xalqaro ta‘lim texnologiyalardan foydalanilganlik darajasi**

Interview davomida har bir ishtirokchi bilan muloqot jarayonida ularga STEAM texnologiyasi va uni qo‘llash orqali



erishishimiz mumkin bo'lgan natijalar haqida ma'lumot berib o'tilganidan so'ng har bir ishtirokchi mavjud vaziyatga o'z ijobiy javobini bildirgan va aksariyat ta'lim tizimining har bir bo'g'inida faoliyat olib borayotgan xodimlar ushbu usulni qo'llash foydali bo'ladi, degan xulosani berib o'tishgan.

Maktabgacha Ta'lim Vazirligiga qarashli Namangan viloyat Chortoq tumani 8-sonli MTT direktori Shahnoza Vohidova o'z javobida quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: «Bugungi Dunyoning dolzarb rivojlanish jarayonida har bir davlat o'z ichki imkoniyatlarini ishga solgan holda yuksalib bormoqda va bizning Vatanimiz ham har bir sohada yangi yutuqlarga erishmoqda va albatta bu jarayonni jamiyatimizning faol, ilmi va teran fikrlovchi a'zolari tashkil etmoqdalar. Biz esa jarayonni tezlashtirishda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi jarayonini qanchalar zamonaviy va interfaol usulda tashkil etsak, natija biz o'ylagandan ham a'lo darajada bo'ladi.» Ushbu fikrlarni ishtirokchilarning deyarli har birining nutqida uchratishimiz mumkin. Demak, foizlar kesimida ko'rib chiqiladigan bo'lsa 73,8 % ovoz beruvchi ha, albatta, maqullayman, va shunga o'xshash javoblarni berdi. 24,6 % javob beruvchilar esa yuqoridagi fikrlarni ma'qullamasliklarini keltirishgan va o'z fikrlarini turli xildagi misollar bilan yoritib berishgan. Qarshi javob berganlarning aksariyati tarbiyachilar qatlamini tashkil qilgan bo'lib, eng ko'p ko'rsatilgan sabab xorijiy texnologiyalardan foydalanishda kadrlarning bilimi yetarli emasligi va ma'lumotlar ba'zasining kamligini bayon etganlar. Mavzuga befarq bo'lgan 3% ishtirokchi har ikki vaziyat va holatga nisbatan befarq ekanliklarini bildirishgan.



**6-rasm. STEAMni qo'llash ta'lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish darajasi**

3-savol. Bolalarni kreativ fikrlovchi inson sifatida kamol toptirishda qanday ta'lim shaklidan foydalanganimiz ma'qul deb o'ylaysiz?

Tadqiqot jarayonining eng uzoq vaqt davomida yoritilgan qismi ayni ushbu savol bo'ldi, chunki javob beruvchilar umumiy ko'rsatkich bo'yicha MTT direktori, ota-ona, pedagog, boshqa soha vakillari va psixologlarni o'z ichiga oladi. Demak javoblarni quyidagi jadval orqali yoritib o'tamiz:

Demak jadvalda umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, savol doirasida Integratsion yoki Frontal usullardan yoki qaysi ta'lim shakllaridan foydalanishning qulayligi, jarayon va muhitning ta'lim jarayonidagi ta'siri yoritib o'tilgan.

Navbatdagi 4-savol Texnologiyalardan foydalanishda qanday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

Foizlar kesimida ko'rib chiqamiz:

- Seminarlar tashkil etish va uni o'tkazish;
- Omaviy axborot vositalarida maxsus dasturlar tashkil etish;


- Qo'llanma va tarqatma materiallari ishlab chiqish;
- Kadrlar malakasini xorijiy davlatlarda oshirish;
- Ustoz-shogird an'analarini takomillashtirish;
- Malaka oshirish kurslari tashkil qilish;
- Ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish va bolaning

MTT va uy muhitini maqbullashtirish;

- Pedagoglar uchun maxsus IT kurslar tashkil qilish.

Yuqorida berib o'tilgan javoblar tadqiqot davomida har bir javob beruvchining fikrini inobatga olgan holda shakllantirilgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotimiz maqsadi STEAM va boshqa zamonaviy metodlardan foydalanish, ta'lim jarayonida ularni qo'llash yuqoridagi takliflarni inobatga olgan holda amalga oshirilishini ko'rsatib bergan.

Interviewning 5-savoli: "Tadqiqot mavzusi STEAMni qanday maqbul usul orqali MTTda ta'lim va tarbiya jarayoni shakli sifatida qo'llashimiz mumkin?"



**7-rasm. STEAM ni qo'llashni maqbul usuli.**

Berilgan javoblar yana umumlashtirgan holda ko'rsatib o'tilmoqda va tadqiqotning muhokma qismida tadqiqot qatnashchilaridan olingan javoblar batafsil bayon qilingan.

#### TADVIQOT MUHOKAMASI

STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi.

O'quvchi o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida maktabgacha ta'lim milliy madaniyat va mafkura, milliy ruh, madaniyat va qadriyatlarining xazinasini, bolalarda milliy, ijodiy, mustaqil tafakkurni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, ifodalovchi hamda boshqa fanlarni mukammal, puxta o'zlashtirilishiga asos bo'luvchi bo'g'in sifatida qaralib, innovatsion ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu esa MTT metodik faoliyatini tashkil etishda pedagog-tarbiyachilarning tinimsiz izlanishi, o'z faoliyatini uzluksiz takomillashtirib borishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda ham, maktabgacha ta'lim tizimiga doir islohotlar doirasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bolani kichik yoshdan ta'lim olishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu, avvalo, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining faoliyatini tashkil etishda metodik jihatdan isloh qilish, xalqaro ta'lim standartlari asosida pedagog -tarbiyachi faoliyatini metodik jihatdan rivojlantirish, faoliyatni sifati va samaradorligiga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

Chunki ana shundagina bolalarning xalqaro dasturlarda ishtirokini ta'minlash, o'z ovozigacha ega bo'lishiga zamin yaratiladi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida MTT pedagog xodimlarining faoliyatini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlashga erishish bir qator yondashuvlarni taklif etadi. Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Isroil, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lim muassalarida pedagog tarbiyachilar bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda. Kelajakda bugungi bolalarning 65 foizi hozirda hali kashf etilmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta'lim va bilimlarga muhtoj bo'ladi<sup>13</sup>.

STEAM ta'lim taraqqiyotiga e'tibor qaratar ekanmiz AQSH Mehnat statistikasi byurosi bergan statistik ma'lumotlariga binoan quyidagi ma'lumotlarni kuzatishimiz mumkin:

1. STEM ish o'rinlari 8,8% o'sishi prognoz qilinmoqda. 2017 va 2029 yillar oralig'ida STEAM bo'yicha ish o'rinlari soni 8 foizga o'sadi, bu STEAM sohasi bo'lmagan ishlarga qaraganda yuqoriroq natijani ifodalaydi va - hisoblash, muhandislik ilg'or ishlab chiqarishdagi pozitsiyalarda yetakchilik qiladi.

2. Xususan, dasturiy ta'minot ishlab chiqish bandligi 22 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. 2019-2029 yillardagi ish o'rinlari istiqboliga kelsak, dasturiy ta'minotni ishlab chiqishda bandlik 22% o'sishi kutilmoqda.

3. Pyu tadqiqot markazining 2018 yilgi maqolasida bergan bayonotida aytilishicha STEM kasblarida bandlik 1990 yildan beri 79% o'sdi - 9,7 milliondan 17,3 milliongacha.

4. Amerika Qo'shma Shtatlarning ta'lim komissiyasini xabar berishicha STEAM ishlari bo'yicha o'rtacha soatlik ish haqi 38,85 dollarni tashkil qiladi. AQSHdagi boshqa barcha turdagi ish o'rinlari uchun o'rtacha daromad bilan solishtirganda - 19,30 dollar - STEAM bilan bog'liq bo'lgan ishlarga nisbatan ko'proq haq to'lanishini kuzatishimiz mumkin.

5. 2020 yilda STEM kasblarining o'rtacha yillik ish haqi 89 780 dollarni tashkil etdi. Bu STEM bo'lmagan kasblarga qaraganda ikki baravar ko'p, bu yerda o'rtacha yillik ish haqi 40,020 dollarni tashkil etdi.

6. Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi PISAga natijalariga ko'ra, AQSH matematika bo'yicha 64 mamlakat ichida 30-o'rinini, fan bo'yicha 11-o'rinini egalladi.

7. Girlswhocode.org tomonidan xabar qilingan va Milliy Qizlar hamkorlik loyihasi tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarda o'rtacha maktab o'quvchilarining 74 foizi muhandislik, fan va matematika fanlariga qiziqish bildirmoqda va 14,4% talabalar kompyuter fanini mutaxassislik sifatida tanlaydi.

8. 2019-yilda Emerson tomonidan o'tkazilgan STEAM haqida o'tkazilgan so'rovnomada AQSH da 3 nafar ayoldan 2 nafari STEAM asosidagi sohalarida faoliyat olib borishga qiziqish bildirishgan.

9. Computerscience.org orqali berilgan ma'lumotlarda aytilishicha Hozirgi kunda Ayollar informatika fani bakalavrlarining atigi 18% ni tashkil qiladi. Mehnat statistikasi byurosi prognozlariga ko'ra, 2026 yilga kelib, kompyuter fanlari bo'yicha tadqiqot ishlari 19 foizga o'sadi<sup>14</sup>.

Demak statistik ma'lumotlar STEAM texnologiyasini bugungi iqtisodiyot va mehnat bozoriga ham ta'sir o'tkazganligini ko'rsatadi. STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib

borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishda tanqidchi sifatida kerakli texnologiya hisoblanadi va bu jarayon o'yinlar orqali yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda STEAM - ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari - uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, ular fikrlarni to'plashadi va fikr almashadilar.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. Bu yondashuvda bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan ko'prik va yo'llar, samolyotlari va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o'tkazish orqali, har safar ular yangi natijalarga erishishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayt sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o'zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi.

STEAM texnologiyasidan MTT ta'lim tizimida kengroq foydalanish orqali biz bolalarni ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiramiz, ijodkor bolalar esa kelajak bunyodkorlari hisoblanishadi. Agar ijodiy va innovatsion yechimlar hech qachon ishlab chiqilmaganda, dunyo bir joyda turardi. Ijod muammoni hal qilishda mutlaqo yangi va eng muhimi, samarali yondashuvni o'z ichiga olishi kerak. Har bir faoliyat sohasi ijodiy g'oyalarni yaratish va amalga oshirish nuqtai nazaridan o'ziga xos cheklolarga ega. Xuddi shunday, odamlarning ijodiy fikrlash qobiliyati va ehtiyojlari ham har xil. Biz esa bu borada o'z imkoniyatlarimizni to'liq ishga solmayapmiz. Shuning uchun, maxsus texnologiyalar va texnikalar yordamida o'zida mavjud yashirin ijodiy qobiliyatlarni kashf qilish mumkin bo'lgan ijodiy treninglar foydali bo'lishi mumkin va bolalarni kelajagiga ta'sir qiladi.

Demak STEAM ni joriy etish orqali biz nafaqat ta'lim tarbiya jarayoni balkim bolalarning aqliy, jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini ham zamonaviy metodlar asosida shakllantirishimiz mumkin.

Tadqiqot maqsadi ham Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlarining mashg'ulotlar jarayonida nafaqat STEAM balki zamonaviy texnologiyalar, metod va baholash tizimlarini qo'llash uchun yetarli bo'lgan zarur shart sharoit va imkoniyat borligini aniqlashdan iborat hisoblanadi. Tadqiqot davomida foydalanilgan So'rovnoma va Interview metodlarida aniqlangan natijalarning tahlil qiladigan bo'lsak ushbu texnologiyani Ta'lim tizimimizda yuqori ko'rasatkich bilan omalashmaganligini So'rovnoma jarayonida olingan javoblar orqali bilib olishimiz mumkin. Texnologiya haqida ma'lumotga egamisiz deb berilgan savolga bildirilgan fikrlar yangilikning pedagogik jamoalar orasida muhokamaga olingani lekin batafsil tushunchalarning berilmaganligini ko'rsatib bergan.

Pedagogik kadrlarning texnologiyadan foydalanishda tajribaga ega ekanligini aniqlovchi savollardan esa ularning to'laqonli ma'lumotga ega emasliklarini, lekin aksariyat pedogoglarda qiziqish uyg'onganligini ko'rishimiz mumkin. Mashg'ulot jarayonlarida texnologiyadan foydalanib kelayotgan tarbiyachilar esa o'z tajribalarining o'rtoqlashishga hissa qo'sha olishlarini bildirishgan.

Keyingi tahlil esa nafaqat pedagogik jamoa balki boshqa soha vakillari va ota-onalarning fikrlarini ham umumlashtirgan holda STEAM texnologiyasidan foydalanish kelajakda

13 <http://hozir.org/davlat-universitetining-pedagogika-instituti-pedagogika-fakult.html?page=43>

14 <https://www.idtech.com/blog/stem-education-statistics>

bolalarning mustahkam bilim va yuqori aqliy qobiliyatlarga ega bo'lishlarida yordam beradi degan fikrni keltirib chiqardi. Kompyuter dasturlash sohasida faoliyat yurutuvchi xodimlar dizayn malakasiga ega emasliklarini va ularda bu malaka shakllanishi uchun zarur bolgan bilimlar avval yetarlicha o'zlashtirilmaganligini bildirishgan bo'lsa, muhandislik sohasi vakillari ham huddi shunday javobni qayd etishgan, biz STEAM ni joriy etish orqali yuqori natijalarni qayd etishimiz va o'z sohamiz bilan birga bizga kerak bo'lgan qo'shimcha bilimlarni ham bolalarga ularning yosh davrlaridan berib borishimiz mumkin degan fikrlarni aytib o'tishgan.

STEAMni joriy etishda zarur bo'lgan resurslarning yetarli emasligi tadqiqot jarayonining navbatdagi o'rganilgan muammosi hisoblanadi, aksariyat so'rovnomaga qatnashchilarining bergan javoblari fikrimizni isbotlab bergan. Aksariyat MTT rahbarlari bu muammoning yechimi sifatida ota-onalar bilan hamkorlik va MTT faoliyati uchun ajratiluvchi mablag'larni maqsadli sarf etish haqidagi takliflarini bildirishgan. STEAM asosida olib boriluvchi integratsion mashg'ulotlar davomida tabiiy xom ashyolardan foydalanish, bolalarni jonli tabiiyat bilan tanishtirish bilan birga ularda jonli tabiat va tabiiy mahsulotlar haqidagi bilimlarini boyitishga ham yordam berishimiz mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarni olib kirish va ulardan foydalanishda ta'lim muassasasida zarur shart sharoit yaratish asosan direktorning amaldagi vazifasi hisoblanganligi uchun "o'z ta'lim muassasangizda yetarli sharoit yaratib berolasizmi?", Savoliga aksariyat direktorlar ijobiy javob qayd etishgan va jarayonni muvofiqlashtirishda yuqoridagi takliflarni ham bildirib o'tishgan. Javoblarni umumlashtiradigan bo'lsak tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar MTT tashkilotlari pedagoglarining zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalangan holda mashg'ulotlar jarayonini tashkil etishlarida eng avvalo ularning bilim, tajriba va malakalarini shakllantirishimiz kerakligini ko'rsatgan. Bu o'rinda pedagoglar uchun:

**O'quv seminarlari tashkil etish.** Tadqiqot davomida pedagoglardan eng ko'p bildirilgan javob ayni o'quv seminarlari orqali ularni tadqiqot mavzusi doirasidagi yangi bilimlar o'rgatilishini nazarda tutishgan. Shu o'rinda o'quv seminarlari bilan birga ish jarayonidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish kerakligini, har bir pedagog o'zining o'zlashtirgan bilimlarini hamkasblari bilan birga muhokama qilishi, o'quv seminarlaridan so'ng pedagog o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil tarzda loyiha shaklida tayyorlay olishi va uni hamkasblari bilan fikr almashgan holda ko'rib chiqishi Seminarlarni natijasi samaraliroq bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Yangi o'quv qo'llanmalar yaratish, chop etish va tarqatish.** Tadqiqot natijasida ma'lum bo'lgan navbatdagi xulosa STEAM texnologiyasini pedagoglarga tanishtirishda zarur bo'lgan materiallar (kitoblar, o'quv qo'llanmalar, tarqatmali materiallar, video va audio shaklidagi elektron resurslar) ining yetishmasligi bo'lgan. Muammoga yechim sifatida ushbu texnologiyani dastlab xorij tajribasida bo'lgan resurslarini o'rganib chiqish, natijalarini o'rganish ososida ularni milliy ta'lim tizimimizda qo'llash yo'riqnomasini ishlab chiqish. Tadqiqotning keying natijasi esa STEAM texnologiyasining bolalarga o'rgatish bo'yicha qulay bo'lgan elektron programa shaklidagi materiallarini o'zbek tilida yetishmasligi bo'lgan. Muammoni yechim sifatida STEAM texnologiyasi asosida bolalarni aqliy va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan elektron o'yinlar, elektron

mashg'ulotlar elektron platformalar bazasini yaratishda kadrlarni rag'batlantirish kerakligini aniqlangan.

**Xorij tajribasini kuzatish va o'rganish.** STEAM Amerika ta'lim tizimida yaratilgan texnologiya hisoblanadi va bugungi kunda dunyoning 80 dan ortiq davlatlarida shu texnologiya asosida ta'lim faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bizni Maktabgacha ta'lim tizimimizda STEAMni qo'llashda ta'limda yuqori ko'rsatkichlarga erishayotgan davlatlar: Amerika, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Finlandiya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari, Isroil davlatlari ta'lim tizimlarini chuquroq o'rganish, ularni dars va mashg'ulot jarayonlarini tashkil etuvchi davlat dasturlarini ko'rib chiqish va biz uchun yangilik bo'lgan metodlarni o'zlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

STEAM texnologiyasini MTT ga olib kirishda joriy etishni tashkillashtirish jarayonida shunday xulosalarga kelindi. Demak texnologiyani qo'llashni bosqichma-bosqich amalga oshirish bu maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'shimcha yuklamalarsiz maqsadli yondashuv hisoblanadi. Texnologiyani joriy etishdan avval quyidagi elementlarga e'tiborni qaratgan maqul.

1. O'quv dasturlarini ishlab chiqish, ya'ni o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish va bazani nazariy asoslardan mustahkamlash, kadrlarni bilimini oshirish va yetarli yangi bilimlar bilan tanishtirish.
2. Muhit hozirlash va fanlararo bog'liqlikni ta'minlash.
3. Barcha turdagi o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga urg'u qaratish.
4. STEAM loyihalari va dasturlarining dastlabki namunalari o'rganish va misollarini ko'rib chiqish.
5. Bolalarni STEAMda baholash tizimini shakllantirish.
6. San'atning har bir tarmoqlariga oid zarur muhit hozirlash.
7. LEGO orqali muhandislik asoslarini o'rganish.
8. Robototexnika asoslari va elektron ta'limning
9. Raqamli hikoyalar, Mental arifmetika, oson hisoblash usulori orqali matematikaga o'rgatish.

Xalqaro tajribalarda ta'lim sohasini rivojlantiruvchi metodlar va yangi usul va texnologiyalar ko'plab topiladi va bugungi kunda bu bizning maktab va o'rta ta'lim uchun yangilik emas. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish - dars jarayonlarini mazmunli va maqsadli tashkil etishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mashg'ulotlar jarayonini eng so'ngi zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etishda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asosida STEAM texnologiyasini joriy qilish ularni maktabga tayyorlash jarayonini tashkil etish va buning uchun zarur muhit yaratishda zarur hisoblanadi.

Biz farzandlarimizni bilimli va komil inson sifatida ulg'ayishini istar ekanmiz oldimizda turgan eng asosiy vazifa bu - ular uchun yetarli sharoit yaratib berish hisoblanadi. Ana shu vazifan amalga oshirishda eng to'g'ri va ulkan natija ko'rsata oladigan metod va texnologiyalardan foydalanish zarur. Bunda rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning ta'lim amaliyotini kuzatish va o'zimiz uchun foydalani bo'lgan qismlarini o'zlashtirish, yangi loyihalarni yaratish va yaratilishini rag'batlantirish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. David A. Sousa Tom Pilecki. From STEM to STEAM.. Brain-Compatible Strategies and Lessons That Integrate the Arts. Second Edition. 3-7
2. STEAM Education Theory and Practice. Myint Swe Khine Shaljan Areepattamannil. Alfonseca, 22-36.
3. E., Carro, R. M., Martín, E., Ortigosa, A., & Paredes, P. The impact of learning styles on student grouping for collaborative learning: A case study. User Modeling and User Adapted Interaction. 2006, 377-401.

4. Joseph Lathan, Ph. Why STEAM is so Important to 21st Century Education. <https://www.create-learn.us/blog/stem-stats/>
5. Lisa Burke, Robert Winston. THE STEAM Team.
6. Dilyorjon Zoirjon o'g'li Solidjonov. STEAM ta'lim tizimi va unda xoriiy tillarni o'qitish. Qo'qon Universiteti.
7. Grand Challenges for Engineering in the 21st Century. "National Academy of Engineering. Accessed September 3, 2019. <http://www.engineeringchallenges.org/challenges.aspx>
8. The state of STEM education told through. <https://www.idtech.com/blog/stem-education-statistics>
9. <https://zen.yandex.ru/media/id/5a5114cffd96b1fef2b36f69/steam-talim-tizimi-nima-5fe5143db590cfd642bf103>



## 3-4 YOSHLI BOLALARGA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TA'LIM BERISH USULLARI

Boymirzayeva Shoxista

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 7 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001207">https://doi.org/10.54613/001207</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> o'yinlar nazariyasi, maktabgacha kichik yosh, didaktik o'yinlar, rivojlantiruvchi muhit, bilish jarayonlari, intellektual qobiliyat, o'yin elementlari.</p>	<p>Maqolada 3-4 yoshli bolalarga didaktik o'yinlar orqali ta'lim berishning no'anaviy va interaktiv usul va metodlari, bunday o'yinlarning mazmun-mohiyati, pedagogik jarayonda didaktik o'yinlarni qo'llash va bolalarning aqliy rivojlanishidagi ahamiyati tahlil etilib, bolalarga zamonaviy bilim berish hamda maktabgacha ta'lim faoliyatiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil etilgan.</p>

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lim olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'sib kelayotgan bolani faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxs sifatida shakllantiruvchi ilk pog'ona hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bunga dalildir. Maktabgacha ta'lim tashkilot (MTT)larida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etish tarbiyalanuvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarini qiynalmasdan davom ettirishga imkoniyat yaratadi.<sup>1</sup>

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 22-oktyabrda qabul qilingan va 14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun hayotga tatbiq etildi. Mazkur qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoni bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida belgilandi.<sup>2</sup>

2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan qabul qilingan "Ilk qadam" davlat dasturiga ko'ra, maktabgacha ta'limning zamonaviy vazifalari bolaning yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlaridan kelib chiqib, uni har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutadi.<sup>3</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT)da ta'lim faoliyatini tashkil etishning eng muhim tamoyili - o'yin orqali maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish va rivojlantirishdir. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hayotining muhim yetakchi shakli sanaladi. Mustaqil o'yin faoliyati bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, axloqiy-irodaviy fazilatlarining shakllanishi, bolaning ijodiy qirralarining ochilishiga zamin yaratadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan PF-5198-sonli "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni IV bobida adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish vazifalari ustuvor qilib belgilandi. Jumladan, Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish,

maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish va o'yinli ta'lim texnologiyalarini kiritish belgilandi. Bundan tashqari MTT pedagog xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi qayta ishlab chiqildi.<sup>4</sup>

So'nggi yillarda tadqiqotchilar, pedagoglar, psixologlar va shifokorlar didaktik o'yin barcha sohalarida yosh bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun hayotiy muhim element ekanligini isbotlab berishdi. O'yin rivojlanishning yetakchi manbai sifatida optimal rivojlanish uchun juda muhimdir. Bu BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasining 31-moddasida ham belgilangan.

Unda quyidagicha keltirilgan "Bolalar yoshiga mos o'yinlarda ishtirok etish huquqiga ega. Bolalar o'yin kompetensiyalarini egallashlari uchun ularga vaqt, makon, materiallar hamda ota-ona yoki vasiylarning, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali tarbiyachilarning qo'llab-quvvatlashi kerak, deya ta'rif berilgan".<sup>5</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati jarayonini har bir bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishda didaktik o'yinlarning o'rni katta ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim didaktikasi - maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va o'qitish nazariyasi hisoblanib, uning maqsadini belgilaydi, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni maktabdagi o'qishga tayyorlashni ta'minlovchi ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning didaktik o'yin orqali **mantiqiy rivojlanish, kognitiv, aqliy rivojlanish darajasini** bilish mumkin.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Didaktika atamasi grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni o'qitish, o'rgatish ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vaziflari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlarni bayon etiladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor chex pedagogi - 1592-1670-yillarda yashab ijod etgan Ya.A. Komenskiy tomonidan 1657-yilda chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozdi. **Didaktikani Komenskiy "Hammani hamma narsaga**

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 30.09.2017-yildagi PF-5198-son  
2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019-yildagi O'RQ-595-son  
3 "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi Toshkent - 2018 yil, 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan.

4 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". Toshkent shahri, 2022-yil 28-yanvar  
5 "Bola huquqlari to'g'risida konvensiya", BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabr

**o'rgatish san'ati", deb tushuntirdi.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida didaktik o'yinlar katta o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim didaktikasining rivojlanishida maktabgacha pedagogika sohasi bo'yicha olim A.P. Usova (1898-1965) tadqiqotlari, ta'lim prinsiplarining ahamiyati katta bo'ldi. U maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin, ta'lim, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni va xalq amaliy ijodiyoti masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berdi. U maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv jarayonlarning tashkiliy shakllari va metodlarini, bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirishdagi, ularni maktabga tayyorlashdagi ahamiyatini ko'rsatib berdi.<sup>6</sup>

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hayotining muhim va yetakchi shakli sanaladi. Unda ular o'z xohishiga ko'ra birlashadi, mustaqil harakatlanadi, o'z g'oya va istaklarini amalga oshiradi, dunyoni anglaydi. Mustaqil o'yin faoliyati bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, axloqiy-irodaviy fazilatlarining shakllanishi, ijodiy qirralarining ochilishiga zamin yaratadi. MTTda kichik guruhda didaktik o'yinlar bolalar rivojlanishida katta ahamiyatga ega:

- Didaktik o'yin bolalarga quvonch bag'ishlaydi, turli hissiyot va kechinmalar uyg'otadi, bolalar uchun atrofimizdagi voqealarni anglash va ijodiy aks ettirishning qulay shakli hisoblanadi;
- Bolalarning ijtimoiy xulq-atvorining dastlabki ko'nikmalarini egallashga imkon beradi, o'yinda bolalar bilan muloqotda bo'lish va turli munosabatlarga kirishish;
- O'yinda bolalar barcha ko'nikmalaridan foydalanishi nazorat qilinadigan harakat makonini yaratishadilar.<sup>7</sup>



1-rasm. Didaktik o'yinning asosiy elementlari<sup>8</sup>

Didaktik o'yinlar tuzilishiga ko'ra: **vazifa, harakat, qoida, natija va o'yinning xulosasi**, deb yuritiladi va quyidagicha tavsiflanadi.

**Vazifa.** Har bir didaktik o'yinda aniq belgilangan vazifa mavjud bo'lib, u didaktik maqsadning o'ziga bo'ysunadi. Bolalarga shunday vazifalar taklif etiladi, ularni hal qilish uchun ma'lum bir intellektual kuchlanish, aqliy mehnat talab etiladi. O'yinda vazifani bajarib, bola fikrlashini faollashtiradi, xotirani, kuzatishni mashq qiladi. Didaktik o'yinlarning vazifalari bir necha turlarga qisqartiriladi: Ob'yektlarni bir xil, har xil yoki o'xshash xususiyatlariga ko'ra solishtiring va tanlang (bolalar yoshiga qarab vazifa soddadan murakkablashib boradi).

**Harakat.** Har bir didaktik o'yinda vazifa har bir bolaning xatti-harakatini belgilaydigan va tartibga soluvchi va bolalarni yagona jamoaga birlashtiradigan harakat bilan amalga oshiriladi. Bu bolalarning qiziqishini bevosita o'ziga jalb qiladi va ularning o'yinga hissiy munosabatini belgilaydi. **O'yindagi harakat ikkita asosiy shartga javob berishi kerak:**

- topshiriqni bajarishga ishonch hosil qiling va o'yinning tarbiyaviy maqsadini bajarini;
- o'yin oxirigacha qiziqarli va hayajonli tarzda davom ettiring. Demak, o'yindagi harakatlar shu shartlarga javob bergan holda olib borilishi o'yinning xususiyatini belgilab beradi.


Yaxshi tuzilgan didaktik o'yinda bolalar hech narsa o'rganayotganiga shubha qilmasliklari kerak. Bu erda faoliyat ko'p

yoki kamroq darajada o'yinning ta'limiy, didaktik maqsadini yashirishi kerak.

**Qoida** - didaktik o'yindagi faoliyat qat'iy qoidalar bilan bog'liq. Ular bolaning o'yin davomida o'zini qanday tutishi kerakligi, nima qila olishi va qilmasligi kerakligini aniqlaydi. Qoidalarning yoshga mos kelishi va qiziqarli mashg'ulotlarga asoslanishi muhimdir. Bola qoidalarga bajonidil bo'ysunishi uchun qiziqarli bo'lishi kerak.

**Natija, o'yinning yakuni: o'yin natijasi** - muammoni hal qilish va qoidalarni bajarish. Natija ikki nuqtai nazardan baholanadi: **bolalar va tarbiyachi nuqtai nazaridan**. Natijani bolalar nuqtai nazaridan baholashda biz o'yindan bolalarning axloqiy va ma'naviy qoniqishni hisobga olamiz. Didaktik vazifalarni bajarishda bolalar zukkolik, topqirlik, e'tibor, xotirani namoyon etadilar. Bularning barchasi bolalarga ma'naviy qoniqish bag'ishlaydi, ularning o'z kuchiga bo'lgan ishonchini oshiradi, quvonch hissi bilan to'ldiradi. Tarbiyachi uchun topshiriq va belgilangan harakatlar bajarilganligi, ma'lum natijalar keltirgani muhim ahamiyatga ega. Ba'zi didaktik o'yinlarning oxirida siz ishtirokchilarni mukofotlashingiz, bolalarni maqtashingiz yoki ularga o'yinda yetakchi rollarni topshirishingiz kerak.<sup>9</sup>

**Didaktik o'yinlar turlari:** Didaktik o'yinlar ta'lim mazmuni, bolalarning bilish faolligi, o'yin harakatlari va qoidalari, bolalarning tashkil etilishi va munosabatlari, tarbiyachi roli bilan farqlanadi. Maktabgacha pedagogikada barcha didaktik o'yinlarni 3 asosiy turga bo'lish mumkin: **ob'yektlar bilan o'yinlar, stol bosma o'yinlar va so'zli o'yinlar**.



2-rasm. Didaktik o'yinning turlari

**Obyektli o'yinlar:** ular uchun hossalari bo'yicha farqlanadigan narsalarni tanlash kerak: rangi, shakli, o'lchami, maqsadi, ishlatilishi va boshqalar. Ob'yektli o'yin va o'yinchoqlar va haqiqiy narsalardan foydalanadi. Ular bilan o'ynab, bolalar solishtirishni, ob'yektlar orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashni o'rganadilar. Ushbu o'yinlarning ahamiyati shundaki, ular yordamida bolalar ob'yektlarning xususiyatlari: **rangi, hajmi, shakli, sifati** bilan tanishadilar. O'yinlarda taqqoslash, tasniflash va muammolarni hal qilishda ketma-ketlikni o'rnatish uchun vazifalar hal qilinadi. Bolalar yangi bilimlarni o'zlashtirgani sari, o'yinlardagi vazifalar murakkablashadi: bolalar ob'yektini har qanday sifat bo'yicha aniqlashda mashq qiladilar, ob'yektlarni shu xususiyatga (**rang, shakl, sifat, maqsad** va boshqalar) ko'ra birlashtiradi, bu esa bolalar uchun juda muhimdir, mavhum, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

O'yin davomida bolalar qismlardan, ipli narsalardan (to'plar, boncuklar) bir butunni yig'ish, turli shakllardan naqsh solish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Qo'g'irchoqlar bilan o'yinlarda bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Didaktik o'yinlarda turli xil o'yinchoqlar keng qo'llaniladi. Ular rangi, shakli, maqsadi, o'lchami, tayyorlangan materialida aniq

6 F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, "Maktabgacha pedagogika". T-2019-yil 19-21 bet

7 "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinli texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish", T-2022, 7-8 bet

8 F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, "Maktabgacha pedagogika". T-2019-yil

9 Didaktik o'yinlar. "Ularning mazmuni va pedagogik jarayonda qo'llanilishi". Didaktik o'yinlarning turlari, 4 F. Qodirova, SH. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova 2019-yil

ifodalangan bo'ladi. O'yinlarda o'yinchoqlar qanday materialdan yasalganligi, odamlar uchun zarur bo'lgan narsalar haqida bilimlari yaxshilanadi, har xil turlarini bolalar o'z o'yinlarida aks ettiradi. "Bular kimning bolalari?", "Yaproq qaysi daraxtdan?", "Kim yotqizishni afzal ko'radi", kabi didaktik o'yinlarni o'tkazishda tarbiyachi tabiiy materiallardan tayyorlangan (o'simlik urug'lari, barglar, turli xil gullar, toshlar, qobiqlar) o'yinlardan foydalanadi. Tarbiyachi ularni tabiat bilan bevosita aloqada bo'lgan yurish paytida tashkil qiladi: daraxtlar, butalar, gullar, urug'lar, barglar. Bunday o'yinlarda bolalarning atrof-muhit haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, tabiiy muhit, tafakkur jarayonlari shakllanadi (tahlil, sintez, tasnif) va tabiatga muhabbat, unga hurmat tarbiyalanadi.

**Stol o'yinlari** bolalar uchun qiziqarli mashg'ulotdir. Ular turlari bo'yicha xilma-xildir: juft rasmlar, lotto, domino. Ulardan foydalanishda hal qilinadigan rivojlanish vazifalari ham har xil bo'ladi. Bunday o'yindagi eng oddiy vazifa turli xil rasmlar orasida ikkita butunlay bir xil narsalarni topishdir: rangi va uslubini bir xil bo'lgan ikkita shlyapa yoki tashqi ko'rinishida farq qilmaydigan ikkita qo'g'irchoq. Rasmlar bo'yicha tanlash umumiy asos (tasniflash). Bu yerda ba'zi bir umumlashtirish, ob'yektlar orasida aloqani o'rnatish talab qilinadi. Masalan, o'yinda "Bog'da (o'rmonda, bog'da) nima o'sadi?", rasmlarning tarkibi, soni va joylashuvini yodlash. O'yinlar ob'yektlar bilan bir xil tarzda o'ynaladi. Masalan, "Qaysi rasmni yashirganini toping" o'yinida bolalar rasmlarning mazmunini eslab qolishlari, so'ngra qaysi rasm teskari burilganligini aniqlashlari kerak. Ushbu o'yin xotira, yodlash va esda saqlashni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu turdagi o'yinlarning didaktik vazifalari, shuningdek, bolalarning miqdoriy va tartibli hisoblash haqidagi bilimlarini mustahkamlashdan iborat.

**So'z o'yinlari:** so'z o'yinlari o'yinchilarning so'zlari va harakatlariga asoslanadi. Bunday o'yinlarda bolalar ob'yektlar haqidagi mavjud g'oyalarga asoslanib, ular haqidagi bilimlarini chuqurlashtirishni o'rganadilar, chunki bu o'yinlarda ilgari olingan bilimlarni yangi aloqalarda, yangi sharoitlarda qo'llash talab etiladi. Bolalar turli xil aqliy vazifalarni mustaqil ravishda hal qiladilar; ob'yektlarni tavsiflash, ularning xarakterli xususiyatlarini ta'kidlash; tavsif bo'yicha taxmin qilish; o'xshashlik va farq belgilarini topish; ob'yektlarning turli hossalari, belgilariga ko'ra guruhlash va hokazo. So'z o'yinlari bolalarni intellektual mehnatga jalb qilishi tavsiya etiladi. O'yinda fikrlash jarayonining o'zida faolroq davom etadi, bola aqliy mehnat qiyinchiliklarini osonlikcha yengib o'ta olmaydi.

O'yin o'qitish usuliga aylanadi va didaktik shaklni oladi, agar unda didaktik vazifa aniq belgilangan bo'lsa, o'yin qoidalari va harakatlar. Bunday o'yinda tarbiyachi bolalarni qoidalar, o'yin harakatlari bilan tanishtiradi, ularni qanday bajarishni o'rgatadi.<sup>10</sup>

Didaktik o'yin yordamida bola yangi bilimlarga ham ega bo'lishi mumkin: tarbiyachi, tengdoshlari bilan muloqot qilish, o'yinchilarni, ularning bayonotlarini, harakatlarini kuzatish, muxlislik qilish jarayonida bola juda ko'p yangi bilimlarni oladi, o'zi uchun ma'lumot yig'adi. Bu uning rivojlanishida juda muhimdir. O'yinni boshlashdan oldin bolalarda unga qiziqish, o'yinsh istagini uyg'otish kerak. Bunga turli usullar bilan erishiladi: **topishmoqlardan foydalanish, qofiyalarni sanash, kutilmagan hodisalar, qiziqarli savol, o'yinsh uchun g'oya, bolalar oldindan o'ynagan o'yinni eslatish.**

Pedagog o'yinni shunday yo'naltirishi kerakki, u o'zi uchun sezilmas tarzda ta'limning boshqa shakliga - mashg'ulotlarga adashib qolmasligi kerak.

O'yinni muvaffaqiyatli tashkil etishning siri shundaki, tarbiyachi bolalarga o'rgatish bilan birga, o'yinni ularni xursand qiladigan, yaqinlashtiradigan, do'stligini mustahkamlaydigan faoliyat sifatida saqlab qoladi. Bolalar asta-sekin o'yindagi xatti-harakatlari guruhdagidan farqli bo'lishi mumkinligini tushuna boshlaydi.

Maktabgacha yoshda o'yin yetakchi faoliyatga aylanadi, ammo zamonaviy bola, qoida tariqasida, ko'p vaqtini ko'ngilochar o'yinlar bilan o'tkazganligi uchun emas o'yin bolaning ruhiyatida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi.

Haqiqiy o'yin harakati faqat bitta harakat ostida bola boshqasini, bitta ob'yekt ostida boshqasini anglatgandagina sodir bo'ladi. O'yin harakati belgi (ramziy) xususiyatga ega. Aynan o'yinda bola ongining shakllangan belgi funksiyasi eng aniq namoyon bo'ladi. O'yinda uning namoyon bo'lishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'yin o'rnini bosuvchilar ular bilan almashtirilgan narsa kabi harakat qilishlari kerak. Shuning uchun, tanlangan o'rinbosar ob'yektga o'z nomini berish va unga ma'lum xususiyatlarni berishda bola o'rinbosar ob'yektning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga oladi.

Didaktik o'yinlar - bu bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun pedagogika tomonidan maxsus yaratilgan qoidalarga ega o'yinlar turi. Ular bolalarni o'qitishning o'ziga xos muammolarini hal qilishga qaratilgan, lekin ayni paytda o'yin faoliyati ta'lim va rivojlanishga ta'sirini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida o'yin faoliyati hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan (ko'pgina bolalar maktabga o'yinchoqlar olib kelishlari tasodif emas). L.S. Vygotskiyning fikriga ko'ra "maktabgacha yoshidagi o'yin bola bilan doimo hamroh bo'lib maktabda ham davom etadi". Bundan kelib chiqadiki, o'yin faoliyati, o'yin shakllari va usullariga tayanish bolalarni ta'lim ishlariga jalb qilishning muhim va eng munosib usuli hisoblanadi.

V. Zaporjets didaktik o'yinning rolini baholab, shunday deb ta'kidladi: "Biz didaktik o'yin nafaqat individual bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish shakli, balki bolaning har tomonlama rivojlanishiga ham hissa qo'shishini ta'minlashimiz kerak". Boshqa tomondan, ba'zi tarbiyachilar, aksincha, asossiz ravishda didaktik o'yinlarni faqat intellektual, kognitiv aqliy jarayonlarni rivojlantirish vositasi sifatida ko'rib chiqishga moyildirlar. Biroq, didaktik o'yinlar, shuningdek, ta'limning o'yin shakli bo'lib, ta'limning dastlabki bosqichlarida, ya'ni katta maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshida juda faol qo'llaniladi.

Didaktik o'yinlarni boshqarishda uchta bosqichni ajratish kerak: **tayyorgarlik, o'tkazish, natijalarni tahlil qilish.**



### 3-rasm. Didaktik o'yinni boshqarish bosqichlari<sup>11</sup>

1. O'yinga tayyorgarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi: vaqtni (faoliyat vaqtida yoki faoliyatdan keyin), joyini (faoliyat vaqtida) hisobga olgan holda ma'lum bir yosh guruhini tarbiyalash va o'qitish maqsadlariga muvofiq o'yinni tanlash: guruh xonasi, sayrda va hokazo), ishtirokchilar sonini aniqlash (butun guruh, kichik guruh, bitta bola).

2. Agar tarbiyachi o'yinga puxta tayyorgarlik ko'rsa, unda uning o'zini tutishi qiyinchilik tug'dirmaydi. Har qanday didaktik o'yinda ham o'yin qoidalari, ham o'yin harakatlari bo'lishi kerak. Agar ushbu shartlardan biri yetishmayotgan bo'lsa, u didaktik mashqqa aylanadi.

Tarbiyachi o'yin jarayonini nazorat qiladi, o'yin qobiliyatini mustahkamlaydi, qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi, eslatma, qo'shimcha tushuntirish, baholash, savollar, maslahatlar yordamida. Tarbiyachi yetakchi rolini bajaradi, o'yin davomida u o'yin harakatlarini qoidalar bilan bog'laydi.


3. O'yin natijalarini sarhisob qilish uni boshqarishda hal qiluvchi daqiqadir. Tarbiyachi qoidalarga yaxshi rioya qilgan, o'rtoqlariga yordam bergan, faol, halol bo'lganlarni ta'kidlaydi. O'yinni tahlil qilish uni o'tkazishning samarali usullarini,

10 F. Qodirova, SH. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova 2019-yil Maktabgacha pedagogika. T-2019-yil

11 F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, Maktabgacha pedagogika. T-2019-yil

shuningdek, yo'l qo'yilgan xatolarni (nima ishlamadi va nima uchun) aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak.<sup>12</sup>

Didaktik o'quv o'yinida kognitiv vazifalar o'yin vazifalari bilan bog'liq, shuning uchun o'yinni tashkil qilishda mashg'ulotlarda ko'ngilochar elementlarning mavjudligiga alohida e'tibor berilishi kerak: izlanishlar, kutilmagan hodisalar, taxminlar va boshqalar. Agar o'quv jarayonida ular muntazam ravishda didaktik o'yinlardan foydalansalar bolalar, ayniqsa katta maktabgacha yoshdagilar ushbu turdagi o'yinlarni mustaqil ravishda tashkil qilishni boshlaydilar: ular o'yinlarni tanlaydilar, qoidalar va harakatlarning bajarilishini nazorat qiladilar, o'yinchilarning xatti-harakatlarini baholaydilar. Shuning uchun bolalarni har tomonlama tarbiyalashning pedagogik vositalari tizimida didaktik o'yin asosiy o'rinni egallaydi.



4-rasm. O'yin turlarining umumiy guruhlari<sup>13</sup>

S. Makarenko bolalar o'yinlarining rolini shunday tavsiflagan: "O'yin bola hayotida muhim ahamiyatga ega, u kattalar faoliyati, mehnati", deya tariflagan. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O'yin g'oyasi - bu nima o'ynashni belgilab olish: "do'kon", "shifoxona", "uchuvchilar", "bolalar tashkiloti" va shunga o'xshashlar. O'yin mazmuniga, g'oyasiga qarab bolalarning bunday o'yinlari bir necha o'ziga xos guruhlarga bo'linadi. O'yinlarning bunday bo'linishi, albatta shartli bo'lib, bir o'yinda har xil hayotiy voqealar aks etishi ham mumkin. G'oya o'yinning mazmuni, jonli to'qimasi, uning rivojlanishi, o'yin harakatlari, bolalar munosabatlarining har xilligi va o'zaro bog'lanishini belgilab beradi. Jarayonning qiziqarli bo'lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o'yinning mazmuniga bog'liq. O'yinda bola ijro etadigan rol o'yining asosiy o'zagi va tarkibiy qismidir. Bolalar o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi. O'yin bolalarning qiziqarli ermag'ina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog-tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur: o'yin mazmunini ta'lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi, o'yin harakatlariga faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'yinga rahbarlik qilish, o'yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o'yinda xayrixoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.<sup>14</sup>

3-4 yoshli bolalarda didaktik o'yin turlari:

Maktabgacha kichik yoshda bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan asosiy maqsad - bolalarni ranglarni bir-biridan

farqlash va nomini aytishga o'rgatish, har xil o'lchamlar (katta, kichik), shakllarni (sharcha, kubcha) bilishga, ko'rib va eshitib idrok etish, diqqatni, mayda harakatlarni o'stirishga yordam beradi. Masalan, "Juft kartochkalar", "Kattalar va kichiklilar", "Qo'g'irchoqni sayrga olib chiqish uchun kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqni cho'miltiramiz", "Bu nimaning ovozi?", "Xaltachada nima bor?" va shunga o'xshash o'yinlar.

Bundan tashqari, shu guruhda bolalarni musiqa tovushlarini farq qilishga o'rgatish uchun musiqaviy didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi.

Ikkinchi kichik guruhda esa didaktik o'yinlar quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi: bolalarda didaktik o'yinchoqlar bilan yakkama-yakka o'ynash ko'nikmasini rivojlantirish, jamoa o'yinlari tashkil etish; narsalarni faqat bir rangga qarab ajrata olish, katta-kichikligiga qarab farqlash; xalqachalarni va kubchalarni muntazam shaklda terib, ulardan minorachalar yasash; tanish buyumlar tasvirlangan ikki, to'rt burchakli, olti burchakli kesma rasmlardan "Idish-tovoqlarimiz", "O'yinchoqlar" kabilarning tasvirini yig'ish; narsalarni farqlash va nomini to'g'ri aytishga o'rgatish va hokazo. Musiqaviy - didaktik o'yinlarda esa musiqa ovozlarning ba'zi bir xususiyatlarini farq qilishga o'rgatish, qadam va yugurish ritmi ("Kim kelayotir", "Sichqonlar yugurishayotir") ovoz va cholg'u asboblari tembrlarini ("Musiqaviy o'yinchoqni o'ylab top", "Ovozidan bilib ol" ajrata bilishga o'rgatish vazifalari ham hal etiladi.<sup>15</sup>

**Ukunalar:** "Smeshariki" hikoyasi, 5 ta miqdorda rangli rasmlar.

O'yin jarayoni: bolaning oldida hikoya surati bor bo'ladi, masalan, "Umar Gullolaga gullar beradi" va boshqa rasmlar qo'yiladi. Bolada Gullolaga qancha narsalar berganini hisoblash kerak. Misol uchun, bitta baraban, ikkita baraban, uchta baraban, to'rtta baraban, beshta baraban.

Muayyan ovozni avtomatlashtirish uchun ishlaydigan nutq terapevtlari, ushbu o'yinda siz uni avtomatlashtirish uchun tegishli rasmlarni tanlashingiz mumkin. O'yin ikki barobar foydali bo'ladi, chunki u nutqning grammatik tizimini rivojlantirish va bir vaqtning o'zida fonemik eshitishni rivojlantirishga qaratilgan.



5-rasm. Raqam bloklari tasviriy ko'rinishi

Tarbiyachi bolaga qiziqarli usullardan foydalangan holda raqamlangan va rangli bloklar bilan hisoblashni o'rgatishi mumkin. Ushbu faoliyat to'rt yoshli bolalarda yaxshi samara beradi. Hatto o'yinchoq bloklariga raqamlarni yopishtirish orqali avval sotib olgan o'yinchoq bloklaridan foydalanishingiz mumkin, shuningdek, bu sizni yangi o'yinchoq uchun pul sarflashdan xalos qiladi. Agar imkoningiz bo'lsa, blokda raqamga ko'ra katta va kichik o'lchamlarda yaratilgan yangi to'plamni sotib olish samaraliroq.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun raqam bloklari o'yini. Eng kichik blokka 1 raqami yoziladi; eng katta blokka 10 raqami yoziladi. Farzandlaringiz ushbu bloklarni o'lchamlari bo'yicha qurganda, ular bloklarni to'g'ri tartibda saralashadi. Shu tarzda, son qiymatlari bilan ifodalangan miqdor va kattalik tushunchalarini o'rganish bilan birga, raqamlarni samarali

12 F. Qodirova, SH. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, Maktabgacha pedagogika 2019-yil 257-bet

13 F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, "Maktabgacha pedagogika". T-2019-yil 279-bet

14 F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, "Maktabgacha pedagogika" T2019-yil 304-bet

15 Дидактические игры для детей 3-4 лет в детском саду, 29.10.2018 14:24



hisoblashni ham o'rganadilar. Ushbu o'yinchoq turli xil tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rnatish uchun ham samaralidir. Shuning uchun ular matematik intellektni rivojlantirishga yordam beradi. Rangli va raqamlangan bloklar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim faoliyati toifasida juda foydali tanlovdir. Ushbu o'yin qisqa muddatli xotira, taqqoslash va hisoblash qobiliyatlari uchun juda samarali.



### 6-rasm "Keling quyoshni kiyintiramiz" tasviriy ko'rinishi

Bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni, jamoaviy o'yin qobiliyatini rivojlantirish. Rivojlantirishning nozik vositasi – qo'llar. O'yin jarayoni: "Quyosh tabassum qildi". Bolalar quyoshni "ochiq ko'zlar" tasviri bilan qo'yishadi. Kattalar barcha bolalarni aylanada turishga, qo'llarini ushlab, quyoshga va bir-biriga tabassum qilishga taklif qiladi. "Keling, quyoshni kiyintiramiz." Kattalar yoki bolalar stolning o'rtasiga quyosh tasvirini qo'yishadi "ochiq ko'zlar".

Bolalarga "quyoshni kiyintirish" taklif qilinadi, ya'ni asosiy quyoshga qo'llash orqali bola nurlarni aylana shaklida joylashtiradi.

### "Quyosh uxlab qoldi".

Bola quyoshni teskari tomonga aylantiradi, ya'ni "yopiq ko'zlar" tasviri va bolalarni "uyda" nurlar va kamonlarni yashirishni

taklif qiladi ( chiroyli quti). Misol uchun, qizil nur va qizil kamon "uy"da yashiringan. Uyda barcha nurlar va kamon yashiringanida o'yin tugagan hisoblanadi.

### "KLASTER METODI"

Quyida biz Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruhlarida olib boriladigan mashg'ulotlar jarayonida didaktik o'yinlarning usul va vositalarini ko'rib chiqamiz: Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u tarbiyachilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalari o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

"Klaster" metodi aniq ob'yektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning tarbiyalanuvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan "Klaster" metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan tarbiyalanuvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulot jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar va tarbiyalanuvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

3-4 yoshli bolalarga didaktik o'yinlar orqali ta'lim berishda "T" jadvali orqali o'rganish mobaynida uning afzalliklari tarbiyachining o'yin jarayoniga rahbarlik qilishi, bolalarga didaktik o'yin orqali talim berish mobaynida kognitiv, aqliy va jismoniy faoliyati rivojlanishi belgilangan. Kamchiliklarida esa, o'yin orqali bolalar o'rtasida raqobat muhiti shakllanishi, bolaning jismoniy harakatlari sustlashishi ko'rsatildi. Afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi. Bu metod o'zining ijobiy natijasini berdi va yutuqli tomonlari yuqori bo'ldi.

"Ishbop o'yin" metodi - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi. O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi.

### 1-jadval

### 3-4 yoshli bolalarga didaktik o'yinlar orqali ta'lim berish usullari

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI
<ul style="list-style-type: none"> <li>Tarbiyachining o'yin jarayoniga rahbarlik qilish metodikasini egallagan bo'lishi hamda o'yinlarni muvaffaqiyatli o'tkazishi asosiy sharti hisoblanib kelinmoqda.</li> <li>Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, ko'nikmalar va tushunchalar beriladi.</li> <li>O'yinlarda bolalar har tomonlama rivojlanishi, bilish jarayoni, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi.</li> <li>Bolalarga didaktik o'yin orqali talim berish mobaynida kognitiv, aqliy va jismoniy faoliyati rivojlanadi.</li> <li>O'yin o'ynash jarayonida bolaning yirik motorika, mayda motorika, sensomotorikasi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Tarbiyachi bolalarni yangi o'yin bilan tanishtirish jarayonida o'yinning mazmuni va qoidalarini haqida bolalarga tushuncha va ma'lumotlar beriladi. Masalan, bolalar guruh bo'lib o'yin o'ynash orqali chaqqonlik, epchilik, tezkorlik, tengoshlari bilan o'zaro hamkorlik, bolalarni bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati, do'stona munosabat va boshqalar.</li> <li>aqliy va kognitiv qobiliyatlar rivojlanadi - bolalar yangi ma'lumotlarni o'rganadilar, ularni umumlashtiradilar va mustahkamlaydilar, atrofdagi voqelikning turli ob'ektlari, hodisalari, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi bilimlarini kengaytiradilar.</li> <li>Xotira rivojlanadi, barcha turdagi e'tibor, kuzatish, bolalar hukm va xulosalar chiqarishni o'rganadilar; nutq - faol lug'atning to'ldirilishi va uning nutq faoliyatida aktualashuvi mavjud; ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar - bolalar o'zlari va kattalar o'rtasidagi, jonli va jonsiz tabiat ob'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadilar, bolalar hamdard bo'lishni, bir-biriga bo'ysunishni, adolatli bo'lishni, boshqalarga nisbatan e'tiborli bo'lishni o'rganadilar.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>O'yin orqali bolalar o'rtasida raqobat muhiti shakllanadi. Bolaning jismoniy harakatlari sustlashadi.</li> <li>Didaktik o'yin orqali bolalarga individual yondashishning imkoniyati darajasi kamayadi.</li> <li>Bolalar o'yin o'ynash jarayonida aqliy salohiyati pasayadi.</li> </ul>

Maqsad: rivojlanish hissiy idrok, ob'ektlar bilan harakatlar asosida qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni shakllantirish. Vazifalar: bolalarning ranglar va ularning soylari haqidagi g'oyalarni birlashtirish, ob'ektlarni rang bo'yicha guruhlash qobiliyati, ularni bir-biriga qo'llash orqali ob'ektlarni rang bo'yicha taqqoslashni o'rganish, ob'ektlar bilan harakatlar asosida qo'l-ko'zni muvofiqlashtirishni shakllantirish, "bunday" tushunchalar bilan tanishtirish, "bunday emas", "bir xil", "boshqa".

Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zgartirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning

maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgartarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarida shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi.



7-rasm. "Nilufar Gul"

**O'rta guruhda** didaktik o'yinlar orqali bolalar eshitish, ko'rish, sezish a'zolari yordami bilan turli narsalar va ularni yasash uchun ishlatiladigan materialning xossalari bilib olish, narsalarni tashqi ko'rinishiga qarab bir-biriga taqqoslash, guruhlariga ajratishni o'rgatish vazifalari amalga oshiriladi. Yana didaktik o'yin davomida bolalar o'rta qo'yilgan masalani hal etishda sabrmatonati bo'lishga, qiziquvchanlikka, diqqat-e'tiborlilikka odatlantirib boriladi. Musiqaviy-didaktik o'yinlar orqali tovushlarni diqqat bilan tinglab, baland-pastligiga, ritmiga, tembriga, dinamikasiga qarab bir-biridan farq qila olishga o'rgatib boriladi.

**Katta guruhda** didaktik o'yinlar quyidagi vazifalarni hal etishni maqsad qilib qo'yadi: kuzatuvchanlik, narsalarni tekshira bilish, bir-biriga taqqoslay olish, ularning belgilaridagi kichik farqlarni (rangi, shakli, katta-kichikligi, materiallarni seza bilish, narsalarning joylanishidagi o'zgarishlarni) aytib bera olish kabi sensor qobiliyatlarni tarbiyalash; biron hayvon, o'simlik, transport ta'rif-tavsif qilib berilganda, ularning nomini topa bilish malakasini o'stirish, bolalarning umumiy tasavvurini, buyumlarni umumiy belgilariga qarab guruhlariga bo'lish qobiliyatini rivojlantirish, so'z faolligini oshirish va to'ldirish; qismlardan yaxlit narsalar (kubiklar, mozaika va boshqalar yasash malakasini o'stirish).

Musiqaviy didaktik o'yinlar orqali tovushlarni bir-biridan farqlashni o'rgatish, ritmik usulni ajrata olish, ashulalar va cholg'u asboblari ovozinig tembrini farq qilish ("Kim kuylayapti?", "Shiqildoqli childirma"), ovozning dinamikasini ajrata olish ("tez, sekin kuylaymiz") uchun foydalanish kabi vazifalar amalga oshiriladi.

**Maktabga tayyorlov guruhida** didaktik o'yinlar hamma yosh guruhlaridagi kabi alohida o'rin tutadi va bu guruhda didaktik o'yinlar orqali quyidagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi: bolalarda didaktik o'yinlarga qiziqish uyg'otish, har bir narsani bilishga havas, kuzatuvchanlik, diqqat-e'tibor, ziyaraklik, aqliy vazifalarni mustaqil hal qilish malakasini tarbiyalash. Ularga narsalarni turkumlarga bo'lishda yordamlashuvchi o'yinlarni, domino, mozaikaning har xil turlarini, shashka, sakrovchi biryo'lkalarni jumboq o'yinlar, og'zaki o'yinlar ("Dengiz to'liqillanmoqda", "Qora va oq"), ranglarni va ulardagi nozik ayirmalarni bir-biridan farqlashni o'rgatadigan o'yinlar o'tkaziladi.<sup>1</sup>

Musiqaviy-didaktik o'yinlar orqali esa bolalarni tovushlarga diqqat bilan quloq solishga ("Tovushlarni takrorla", "Ikki metalafonni galma-gal chalish" va h.k) ritmik shaklni gavdalantirib berishga ("O'z ritmingni o'yab ol", "Bolalar va filchalar"), dinamik farqlarni bir-biridan ajratishga ("Ovchilar va quyonlar") o'rgatiladi.

Didaktik o'yinda bolalar har doim o'zlarini o'ynayotgandek his etishlari kerak. Narsalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlardan tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning xususiyatlari va bir-biridan farq qiladigan xususiyatlari bilan, ularni ishlatish usullari bilan tanishtirish vositasi sifatida foydalanadi. Bolalarning narsalar, ularning sifati to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash

uchun har xil o'yinchoqlar, suratlar, uy-ro'zg'or buyumlaridan foydalaniladi.

**O'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar.** "Xaltachada nima bor?" o'yinining maqsadi, o'yinchoqlarning nomlari bilan tanishtirish va bu o'yinchoqlar to'g'risida bilimlarni mustahkamlash, tovushlar talaffuzini mashq qildirishdir. "Bu nima?" o'yinida bolalar qo'g'irchoqqa har xil narsalar va ularning ishlatilishi to'g'risida gapirib beradilar. Bunday o'yin guruhda, bog'cha maydonchasida, uxlash xonasida o'tkazilishi mumkin.

Didaktik o'yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi va ular nimaga kerakligi bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu narsalarning shakli, rangi, katta-kichikligi, fazoda tutgan o'rni haqida ham tanishtiradi.

Har bir buyum va o'yinchoq o'zining aniq tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi kerak, o'yinda esa qo'yilgan maqsad narsaning asosiy belgisini ajrata bilishga imkon tug'dirishi lozim. Bunday talabga xalq o'yinlari o'z shaklining aniqligi, rangining tiniqligi bilan ko'proq javob bera oladi.

Bolalarni o'ylashga, aqliy vazifalarni bajarishga undaydigan o'yinlar ham katta ahamiyatga ega. Bolalarning rang haqidagi tushunchalarini mustahkamlash va aniqlash uchun quyidagi o'yinlar o'tkaziladi: sharlarni rangiga qarab to'plash, "Dumaloqni dumalatish", xalqachalarni ipga o'tkazish, "Shu rangdagi dumaloqni dumalatish", "Kimda mana bu rangdagi xalqacha bor", "Kim mana bu rangdagi haltachani topa oladi" va h.k.

Shakl, rang predmetlarning asosiy belgisidir. Shakl to'g'risida tushunchalarni "Xaltachada nima bor?", "Nima o'zgaridi?", "O'yinchoqlar do'koni", "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Bu nima?" va boshqa o'yinlar orqali aniqlash va mustahkamlash mumkin. Qo'g'irchoq bolalarning eng sevimli o'yinchoqlaridan biri. Har bir bolalar bog'chasida didaktik jihozlangan o'yinchoq bo'lishi kerak. Qo'g'irchoq jihozlariga kiyim, ichki kiyim, poyabzal, idish-tovoq, mebel o'yinchoqlar kiradi.

Qo'g'irchoq bilan quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "Qo'g'irchoqni kiyintiramiz", "Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz", "Qo'g'irchoqni mehmon qilamiz", "Qo'g'irchoqlar bayrami", "Qo'g'irchoqning tug'ilgan kuni", "Qo'g'irchoqni uxlatamiz".

O'yinlar topishmoqlar bilan qo'shib olib borilganda qiziqarli o'tadi. Masalan, "Qo'g'irchoqni uxlatamiz" o'yinida qo'g'irchoqqa karovat tayyorlayotganda tarbiyachi "Uzun, yumshoq, yo'l-yo'l" (matras), "Oq, toza, to'rt burchak" (yostiq), "Paxtali issiq..." yoki "junli issiq" (adyol) va boshqa topishmoqlarni aytishi mumkin. Qo'g'irchoqning karovati tayyor bo'lgandan keyin qo'g'irchoqni yotqizib, "alla" aytadi.

Mebellarning nimaga ishlatilishi, o'yinchoqlarning nomini mustahkamlash uchun "Qo'g'irchoqqa xona yasatamiz", "Qo'g'irchoqqa o'yinchoq sovg'a qilamiz" kabi o'yinlarni o'tkazish mumkin.

Tarbiyachi bolalarni narsalar, ularning nomlari, belgi sifatleri, nimaga ishlatilishi bilan tanishtiribgina qolmay, muayyan predmetlar orqali ularni oddiy turlarga ajratishni o'rgatib boradi; ayiq, qo'g'irchoq, quyon-o'yinchoqlar; kastyulka, tarelka, choynak-idish-tovoq.

O'yinlarni narsa va buyumlarning tasvirli rasmlari orqali ham o'tkazish mumkin. Bularga "Bu narsa o'zi to'g'risida nima deydi?" "Kim birinchi bo'lib aytib beradi?" (bolalar diqqatini rivojlantirishga qaratilgan qo'g'irchoq, narsa va ularning shakli, rangi to'g'risida), "Kim bo'ladi?", "Qaysinisi bir xil, qaysinisi har xil?" kabi o'yinlarni ko'rsata bo'ladi.

Bolalarning tabiat to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash uchun "Hidiga qarab top", "Mazasiga qarab top", "Ushlab ko'rib top", "Kim nimani eshityapti" kabi o'yinlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

#### **Kichik yoshdagi bolalar bilan so'zli o'yinlar o'tkazilmaydi!**

Katta va tayyorlov guruhlarida didaktik o'yinlar o'zining mazmun va g'oyasi jihatidan ancha murakkabdir. Bu yoshdagi bolalar bilan buyum va rasmlar bilangina didaktik o'yinlar o'tkazib qolmay, so'zli didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Buyumlar va rasmlar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlarda bolalarning narsalar sifati, xususiyati, nimadan yasalgani, qayerda qilingani, nima uchun kerakligi va hokazolar to'g'risidagi bilimi aniqlanadi

hamda mustahkamlanadi. Sunday o'yinlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: "Nima nimadan yasalgan?" "Guruh xonasiga sayohat", "Ovoziga qarab top" va boshqalar.

Umumlashtirishga o'rgatish bo'yicha turlarga ajratishni o'rgatuvchi o'yinlar katta o'rin egallaydi. "Qaysi fabrikada nima ishlar bajariladi?" "Fabrikada nima ish qilinadi, dalada nima yetishtiriladi?", "Kimga nima kerak?", "Kim nima bilan ishlaydi?", "Qayerda o'sadi?", "Sayohat" (shahar bo'ylab, dalaga maktabga va hokazo), "Pochta" va boshqalar.

Bolalarda dastlabki matematik tasavvurlarni rivojlantiruvchi didaktik o'yinlar ham o'tkaziladi. Masalan, "Kim sanashni biladi?", "Yuramiz, yuramiz, to'xtaymiz", "Bizning kun", "Yil fasllari" va boshqalar.

Bolalar nutqini rivojlantirish uchun quyidagi o'yinlarni o'tkazish mumkin: "So'z qo'sh", "Orkestr", "Mana bu tovushga so'z top", "So'zlardan hikoya tuz" va h.k. Yuqorida sanab o'tilganlar jamoa o'yinlaridir. Bular asosida yana bir qancha o'yinlar topish mumkin.<sup>2</sup>

### TADVIQOT NATIJASI

Kichik guruhdagi bolalarni didaktik o'yinlarga o'rgatish mobaynida "Nilufar guli" va "Ishbop o'yin" metodlaridan foydalanish samarali usul hisoblanadi va quyidagicha izohlanadi:

1. Didaktik o'yinga o'rgatish mobaynida yosh bolalar uchun faol, qiziqarli mashg'ulotlar orqali qobiliyat va o'ziga xos xususiyatlar aniqlashtiriladi;
2. maktabgacha yoshdagi bolalar uchun didaktik o'yin harakatlari ishlab chiqiladi;
3. o'yin bolalarga yangi bilim beradi va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytiradi;
4. bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadi;
5. bolada do'stona munosabatlar tarbiyalanib, jamoa hayoti malakalari, tashkilotchilik qobiliyatlari shakllantiriladi;
6. tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalb qilish, bolalar o'rtasida haqqoniylikka, tengdoshlari o'rtasida javobgarlik hissining boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Didaktik o'yinlarni bu metodlardan foydalanib olib borish bolada ta'lim sifatini oshirish va o'yinga qiziqish, hayotiy vaziyatlarni o'yin orqali hal qilish, ta'limni noan'anaviy o'yin usuli orqali tashkil etishni didaktik tamoyillaridan foydalanishni ko'rsatib beradi.

Didaktik o'yin muammosi xorijiy adabiyotlarda ham ko'rib chiqildi. Bunga misol qilib amerikalik olim U.M. Glasser XX asrning birinchi yarmida didaktik o'yin bo'yicha tadqiqotlarning qisqacha mazmunini tuzib chiqdi.

Bolalar o'yinlarining biologik va psixologik nazariyalarini ko'rib chiqishni umumlashtirib, u o'yinni aniqlash va tasvirlashdagi qiyinchiliklar tufayli ta'limotlarning aksariyati nazariy ishlarga emas, balki empirik bilim - bu shaxsning dunyo bilan o'zaro aloqalarida, ilmiy bilimlarga murojaat qilmasdan to'plagan barcha bilimlari bo'lib, kuzatishlarga qaratilganligini ta'kidladi. Shunga qaramay, quyidagi ta'rif berildi: "Inson o'yini - bu odamlar

o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sharoitlardan tashqarida qayta tiklanadigan faoliyatdir".

O'rganishlardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotida didaktik o'yinlar bolalar bog'chasida ta'limning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, natijalarga ko'ra 3-4 yoshli bolalarda didaktik o'yinlarni olib borishda quyidagicha tahlil qilinadi:

- didaktik o'yinlar bolalar nutqini rivojlantirish;
  - bolalar didaktik o'yinlari hissiyotlarni rivojlantirish;
  - o'yin jarayonida bolalar o'zlarini o'rab turgan narsalarga, kundalik hayotning hodisalariga, tabiatga, o'yinlarga to'g'ri munosabatni shakllantirish;
  - o'yin shaxsning asosiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi;
  - bolaning bilimni chuqurlashtiradi, aqliy tarbiyani rivojlantiradi;
  - o'yinda bola so'z boyligini oshiradi, ham faol, ham passiv, tovushlarni va butun so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni, jummalarni tuzishni, o'z fikrlarini aniq ifoda etishni o'rganadi.
  - tengdoshlar va kattalar bilan bo'lgan munosabatlar, turli xil shaxsiy xususiyatlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
  - didaktik o'yin bolalarda kognitiv jarayonlar va qobiliyatlarni rivojlantiradi, ular aqliy faoliyatning ijtimoiy rivojlangan vositalari va usullarini o'zlashtiradi.
- Didaktik o'yinlarni ulardagi bolalarning nima egallashi va o'ziga jalb etishi nuqtai nazaridan tahlil qilsak, birinchi navbatda bu bolalarning faolligini rag'batlantiradi, ularda qoniqish hissini uyg'otadi. O'yin shaklida yashiringan didaktik vazifa bola tomonidan yanada muvaffaqiyatli hal qilinadi, chunki uning e'tibori birinchi navbatda o'yin harakatini qo'llash va o'yin qoidalarini amalga oshirishga qaratilgan.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizga ma'lumki, didaktik o'yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati hisoblanib, aynan ular orqali bola dunyoni o'rganadi. Didaktik o'yin - bu bolaning ijodiy rivojlanishi asosi, ijodiy qobiliyati va real hayotni o'zaro bog'lash ko'nikmasi rivojlanishi bo'lib xizmat qiladi. O'rganishlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy ehtiyojlari didaktik o'yinda namoyon bo'ladi, bu o'yinda bola o'z qarashlari orqali kattalarga taqlid qilishga intiladi.

O'yin o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, majburlash usullaridan foydalanmasdan, bolaning ijodkorligini rivojlantirishning eng yaxshi va ixtiyoriy usuli hisoblanadi. O'yin paytida bola xohish-istaklarini, fikrlarini, his-tuyg'ularini erkin ifoda etadi va mustaqil harakat qiladi. Didaktik o'yinning asosiy tarkibiy qismlari, o'qitish va tarbiyaviy ta'sirning maqsadlari quyidagicha:

Xulosa o'rnida shuni aytamizki, o'yin faoliyatining eng muhim turi bo'lgan didaktik o'yinlar orqali ta'lim berish usullari bolaning rivojlanishi va tarbiyasida katta rol o'ynaydi. Bolaning shaxsiyatini, uning axloqiy va irodaviy fazilatlarini, dunyoga ta'sir qilish zarurligini shakllantirishning samarali vositasidir. Bu uning ruhiyatida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent shahri, 2022-yil 28-yanvar, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. "Bola huquqlari to'g'risida" konvensiya, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: O'zbekiston, 2017.
4. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida»gi Nizom (T.: 2017).
5. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (T.: 2018).
6. «Ilk qadam» o'quv dasturi (T.: 2018).
7. F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, "Maktabgacha pedagogika", Darslik, "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent-2019
8. <https://daryo.uz/2017/01/31/shavkat-mirziyoyevning-tanqidiy-tahlil-qat'iy-tartib-intizom-va-shaxsiy-javobgarlik-har-bir-rahbar-faoliyatining-kundalik-qoidasi-bolishi-kerak-nomli-kitob>
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bola\\_huquqlari\\_to%CA%BBg%CA%BBrida\\_konvensiya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bola_huquqlari_to%CA%BBg%CA%BBrida_konvensiya)



## MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHIDAGI BOLALARNI ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALAR YORDAMIDA SAVODGA TAYYORLASH

**Boratova O'g'ilxon**

*Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 3  <b>Maqola raqami:</b> 8  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001208">https://doi.org/10.54613/001208</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar savodga tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash masalalari o'rganilgan. Shuningdek, savodga o'rgatishda bolalarning bilim darajasini oshirish yo'llari tahlil etilib, tadqiqot mavzusi bo'yicha dunyoning yetuk olimlarining tadqiqot ishlari o'rganib chiqilgan. Tadqiqot mobaynida soha vakillari o'rtasida so'rovnomma o'tkazildi hamda so'rovnomma natijasiga asosan taklif va xulosalar taqdim etilgan.</p>
KALIT SO'ZLAR	
<p>Maktabgacha ta'lim, axborot texnologiyalari, multimedia texnologiyalari, savodga tayyorlash, tayyorlov guruhi, yozish ko'nikmasi</p>	

### KIRISH

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman"<sup>1</sup>. Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir. Bolaga yoshligidan yaxshi ta'lim-tarbiya berilsa shubhasiz, uning kelajagi uchun puxta poydevor bo'ladi. Takidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta'lim berishning zamonaviy usul va metodlari ishlab chiqilmoqda. Ta'lim berishning bu usullarining amaliyotga tatbiq etilishi dars jarayonini pedagogik texnologiyalar va metodlar bilan chambachas bog'langan holda o'tkazilishiga bog'liq.

Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali kasb egalari bo'lib ulg'ayishlariga zamin yarata olmaymiz. Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi.<sup>2</sup>

So'nggi yigirma yil ichida bolalarning erta savodxonligini oshirish uchun kompyuterga asoslangan dasturlar ishlab chiqilishi kengaymoqda. O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunday dasturlar istiqbolli, chunki bunday yondashuv bolaning ehtiyojlariga javoban moslashtirilgan holda ishlab chiqilgan.<sup>3</sup>

Xususan, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va farmonlarda ham bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorda bolalar tayyorlov guruhlarining o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish masalalari ko'zda tutilgan.<sup>4</sup>

Shuningdek, 2018-yil 30-sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qaror va YUNISEF tashkilotining "Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturi"da MTTlarining ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan.<sup>5</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi" dagi qarori tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish va mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori tasdiqlandi. Qarorga ko'ra, Davlat standartining maqsadi – maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek maktabgacha ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga asoslanganligi, xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanishdan iborat.

Yuqoridagi qaror va farmonlarda belgilangan vazifalarni amaliyotda qo'llash masalasi ilmiy tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi. Bu borada zamon talablaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati mavjud.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar harflar yoki so'zlarni o'qiy olmaydilar, bu esa yozish va o'qishda qiyinchiliklarga olib keladi. Savodxonlik qobiliyati bolalarga o'qishni o'rganishga yordam beradi, bu esa bolalarni maktabda oson va muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi.

Aniqlanishicha, inson eshitish a'zolariga nisbatan ko'rish a'zolari yordamida qabul qilingan ma'lumotni besh marotaba ko'p eslab qolishi mumkin. Sababi - eshitish a'zolariga nisbatan ko'rish

1 Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi  
 2 D. Daulet nazarova Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni. Academic research in educational sciences/ Volume 2 | Issue 9 | 2021/ DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-1108-1113  
 3 Ludo Verhoeven Computer-supported early literacy intervention effects in preschool and kindergarten: A meta-analysis Educational Research Review, Volume 30, June 2020, 100325

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori Huquqiy axborot manbasi : <https://lex.uz/docs/4097076>  
 5 E.M. Rasulov Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.

a'zolaridan olinayotgan ma'lumotlar qayta kodlashtirilmay to'g'ridan-to'g'ri xotiraga o'tadi va saqlanadi. Shuningdek, ta'limning an'anaviy uslublarida ta'lim beruvchi (tarbiyachi) ta'lim jarayonining markazida bo'lib, ta'lim oluvchi (tarbiyalanuvchi) passiv eshituvchi va ishtirokchi bo'lib qoladi. Bu esa bolaning fikrlashi, uning kognitiv faoliyati pasayishiga olib keladi.

Shu ma'noda, S.S.G'ulomov multimedia texnologiyalari yordamida o'tilgan dars jarayonini quyidagicha ta'riflaydi: o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30% ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75 % ga ortadi.<sup>6</sup> Bu esa ta'lim jarayonlarida multimedia texnologiyalarini qo'llash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy axborot texnologiyalari tarkibiga multimedia, matn, grafika, animatsiya, raqamlashtirilgan harakatsiz tasvirlar, video, tovush, nutq kabi ma'lumotlarni kiritish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va namoyish qilish imkonini beradigan texnologiyalar yig'indisi.<sup>7</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy savodga tayyorlash yuzasidan bir qator olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini amalga oshirgan. Jumladan, I.Tixeyevaning "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanmasi orqali maktabgacha ta'limda bolalarning og'zaki nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarini, so'zlash odobini egallashni shakllantirish ko'zda tutiladi.

Marsimkevich "Bolalarni maktab o'qishi uchun tayyorlash" mavzusida savodxonlikka tayyorlash bo'yicha uslubiy qo'llanmasida esa 1-6 yillik savodxonlik shakli taqdim etilgan. Qo'llanmada bolalarning ajoyib shakldagi harflar va tovushlar, ularning xususiyatlari, o'xshashliklari va farqlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishlari va materiallarni bolalar bog'chalari guruhleri, maktabgacha tarbiyachilar bilan ishlashda maktabga tayyorgarlik ko'rish paytida foydalanilishi mumkinligi to'g'risida fikrlar keltirilgan.

Nozim Burgul ta'kidlaganidek, maktabgacha tarbiya davri barcha ta'lim olimlari katta ahamiyat beradigan jarayondir. Biroq, bu jarayonning maqsadini amalga oshirish uchun yaxshi rejalashtirilgan ta'lim dasturlari kerak. Maktabgacha ta'lim davri bolalar bog'chasi, bolalar bog'chasi va qabulxona ta'lim faoliyatini ta'minlaydi. Ta'lim texnologiyalarining har yili o'zgarib borishi tufayli bu sohada o'quv faoliyatida ijobiy farqlar ko'rinishida. Boshqa tomondan, bugungi axborot jamiyatida ta'limni jadallashtirish va ta'lim samaradorligini oshirish uchun ba'zi talablar mavjud.<sup>8</sup>

Mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda no'anaviy va interfaol metodlar tushunchasi haqidagi sohaning ko'zga ko'ringan olimlari T.Samokoto, M.Makarini, T.Talibrant, V.Fevelov, U.Nishonaliev, B.Farberman, N.Saidahmedov, M.Kamoliddinov, B.Vahobjonov, D.Sharipova, T.Usmonxo'jaev, R.Salomonov, X.Meliev, F.Ahmedov va boshqalarning turli qarashlaridan ijodiy foydalanildi.

Tayyorlov yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish bo'yicha o'zbek olimlaridan F.R. Qodirovaning "Nutq o'stirish metodikasi" nomli darsligida bolaning nutqini rivojlantirish va uni savodga tayyorlash to'g'risida ma'lumot keltirib o'tilgan. A.D.Qurbonovanning "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi" o'quv qo'llanmasida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari, shakllari va metodlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qisqa muddatli guruhlarida bolalarni maktabga tayyorlash, "Ilk qadam" davlat dasturi asosida bolalarni savodga

o'rgatish, bolaning maktab ta'limiga tayyorgarligi tahlili, tashxislash usullari, bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar keng yoritilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga o'tkazish ularning savodxonlik darajalarini yaxshilash bo'yicha „Ilm yo'li“ variativ dastur 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha quyidagi vazifalar ko'zda tutilgan.

1-jadval

#### Nutq, o'qish va savodga tayyorlash bo'yicha vazifalar<sup>9</sup>

1	Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo'ladi
2	Lug'atini boyitish
3	Mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish
4	Og'zaki nutqni shakllantirish
5	Ravon nutqni rivojlantirish
6	Sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana olishi

Bu vazifalarni bajarish uchun tayyorlov guruhida yil davomida jami 72 ta mashg'ulot o'tkaziladi. Shulardan 36 tasi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish bo'yicha, 36 tasi savodga tayyorlash bo'yicha bo'ladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi 25-30 daqiqani tashkil etilishi to'g'risida belgilab qo'yilgan.<sup>10</sup>

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, maktabgacha tayyorlov yoshdagi bolalarning savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish ularni maktab ta'limiga tayyorlash juda muhim vazifa hisoblanib, tarbiyachilardan katta mas'uliyat talab qiladi. Chunki, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qishga majburlamaslik kerak. Aks holda bu o'qishga bo'lgan salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun har bir mashg'ulotni pedagogik texnologiyalar yordamida olib borishimiz kerak. Shundaygina biz ko'zlangan natijaga erishamiz.

Albatta, bolada harflar va tovushlarni biron bir rasm yoki aniqroq u tasvirlangan mavzu bilan bog'langanda, ularni o'rganish osonroq bo'ladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar bilan alifboni o'rganish uchun rasmlari bo'lgan harfli kartochkalar ishlatilgan. Bolaga alifboda yozilgan harflarni darhol o'rgatmaslik kerak. Bola tez o'rganishi uchun tovushlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachilar bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda savodxonlikni o'rgatishlari kerak.<sup>11</sup>

5 yoshida bola allaqachon ongli ravishda o'qishga qiziqish bildiradi. U harflardan so'z, so'zdan esa gap tuzilishini tushunadi. Besh yoshli bola mustaqil ravishda, ota-onasining takliflash harflar yasash, plastilindan haykal yasash uchun buyumlardan foydalanishi mumkin. To'rt va besh yoshli bolalar uchun "Biz xatlarni o'rganamiz" maxsus ish kitobi mavjud bo'lib, unga ko'ra ular ota-onalari bilan birgalikda yoki mustaqil ravishda o'qishlari mumkin. Bu yoshda asosiy narsa bolaning to'g'ri va izchil gapirishidir. Buning uchun ota-onalar boladan biror narsani aytib berishni so'rashlari kerak, masalan, bugungi kunda nima qilgani, unga sevimli ertakni aytib berishi va hokazo.

Alifboni o'rganishda 6 yosh yodlash va o'qishni boshlash uchun eng yaxshi davr. Agar bundan oldin bolajon harflarni o'rganishni ohlamasa, ota-onalar ko'p tashvishlanmasliklari kerak. 6 yoshda bola alifboni 3 yoshga qaraganda ancha tezroq o'rganadi. Bolalar uchun alifbo harflarini o'rganish oson bo'lgan juda ko'p turli xil usullar va mashqlar mavjud. Bular maxsus rang

6 G'ulomov S. S., Shermuammedov A. T., Begalov B. A. va informatika metodikasi. – T.: O'zbekiston, 1999. -88 bet

7 P. K. Михайлович ультимедийные технологии как средство повышения эффективности обучения в школе. методика работы на интерактивном оборудовании

8 Nazim Burgul, MustafaYa'gan. The importance and the roles of information technologies in preschool education. Procedia - Social and Behavioral Sciences. Volume 1, Issue 1,2009, Page 2889

9 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2020-yil 27-martdagi 54-son buyrug'iga 1-ilova

10 Anonymous "Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish" Aprel 15, 2018

11 Kliment'eva O.V. Bolalarni savodxonlikka tayyorlash va yozish buzilishining oldini olish. "Bolalik - matbuot" nashriyoti. 2010-yil

berish kitoblari, kompyuter o'yinlari, harflarni kesish, ularni plastilindan yasash kabilardir.

Albatta, bolada bu ko'rsatkichlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, ular pedagogik jarayon ma'sulidir. Shu o'rinda multimedia texnologiyalarni faoliyat jarayonida qo'llashning o'ziga xos afzaliklarini ko'rsatib o'tish joizdir:

1) Har bir mashg'ulotdan ko'zda tutilgan maqsad aniq o'rnatiladi;

2) Mashg'ulot mazmunini saralashda bir tomondan - bolalarning qiziqishlari, ehtiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan - tarbiyachining ijodkorligi, mahorati, uchinchi tomondan - bog'chadagi mavjud shart-sharoitlar hisobga olinadi;

3) ta'lim jarayonini bir butunlikda ko'rib, ta'lim maqsadi, uning mazmuni, bilim berish usullari va vositalari hamda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarni bir doiraga keltiradi.

4) ta'lim natijalarini avvaldan belgilab, ta'lim jarayonini nazorat qilish va baholash kabi qismlarini o'zaro uzviy bog'laydi.

5) bolalarga berilgan bilimlarni yodlab aytib berishga emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonining yakunida aniq bir maqsadga erishishni kafolatlaydi.

6) metodlarni qo'llash samarasi yoki yakuniy natija - bola shaxsini rivojlantirish va maktabga o'qishga tayyorlash ekanligiga tarbiyachi alohida e'tibor qaratishi lozim. Bola tarbiya jarayonining sust, harakatsiz ob'yekti bo'lib qolmasdan, balki faol ishtirokchi sub'yektga aylanishi kerak.

## 2-jadval

### Maktabgacha tayyorlov guruhleri bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish, asosan uch tomonlama amalga oshiriladi.

1	Kompyuter va uning dasturlari yordamida didaktik vositalar tayyorlanadi hamda Internet va masofali ta'lim ashyolaridan foydalaniladi.
2	Kompyuter ishtirokida bevosita dialog metodi asosida bolalarga yangi material o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 6-7 yoshli bola kattalar kabi kompyuterda ishlashga qodir emas. Shuning uchun, MTMlarda yangi materialni o'rganishda bevosita dialog metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu holda kompyuter didaktik vosita manbai rolini o'ynaydi.
3	Bilvosita dialog - virtual axborot muhitida kompyuter bilan dialog asosida multimedia texnologiyasi amalga oshiriladi. Bunda material bolalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, o'tilgan material mustaqil takrorlanadi, mashqlar mustaqil bajariladi, multimediali kompyuter o'yinlari mustaqil amalga oshiriladi va bola mashqlarni, kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, qo'yilgan mashg'ulot maqsadiga erisha oladi. Bu holda multimedia texnologiyasidan foydalanganda kompyuter ta'lim manbai rolini o'ynaydi.

Agar MTMdagi kompyuterlar soni 5-6 dan ortiq bo'lsa, mashg'ulot frontal ravishda, bitta bo'lsa, undan navbatma-navbat foydalanilgan holda o'tkaziladi. Bunday holda taklif etilgan birinchi tarbiyalanuvchi tarbiyachi tomonidan berilgan savolga to'g'ri javob bera olmasa, ikkinchisidan so'raladi. Agar MTMlarda proyektor va ekran (yoki elektron doska) bo'lsa, tarbiyachi mashg'ulotni «kompyuter-elektron doska» usulidan foydalanib olib boradi.<sup>12</sup> Yuqorida ta'kidlanganidek, mashg'ulot davomida tarbiyalanuvchilarning kompyuter oldida 15 daqiqadan ortiq o'tirishi mumkin emasligi e'tiborga olinishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, «Maktabgacha 3-5 yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan Davlat talablari»da ham bolaning kompyuterda shug'ullanishi 15-20 daqiqa etib belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga tayyorlashda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi.

## 3-jadval

### Buyuk Britaniya maktabgacha ta'lim tizimining afzalliklari

1	Ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yo'naltiriladi.
2	O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yin davomida olib borilishi kerak.
3	Tarbiyachining asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo'li bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iborat.
4	Maktabgacha ta'limning maqsadi har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilishdir.

Buyuk Britaniyaning maktabgacha ta'lim tizimini o'rganish bo'yicha Yu.Kvong katta tadqiqot ishlarini olib borgan. U bolalar bog'chalari xodimlari va ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazgan, bolalar bog'chalari faoliyatini kuzatgan. Tadqiqot o'tkazish uchun erkin ravishda 10 ta maktabgacha ta'lim muassasasi tanlanib, ulardan har birining ikki guruhida muntazam besh kunlik uzluksiz kuzatuv olib borilgan. Ingliz bolalar bog'chalar guruhlarida 25 nafardan ortmagan miqdorda bola tarbiyalanadi (tarbiyachilar va bolalar soni birga o'n nisbatda olinadi). Natijalarning ko'rsatishicha, ingliz pedagoglarining 75% i bolalarni ta'lim olishga qiziqirish uchun tashqaridan motivatsiya qilish va mashg'ulot jarayonida pedagogik texnologiyalar qo'llash ma'qul, deb hisoblaydilar (masalan, bolalar o'rtasida musobaqalashish shakllari, o'yin va metodlar). Bunday qarashlar negizida ilmiy asoslangan ma'lumotlar yotadi. Bolalarni savodga tayyorlash jarayonida pedagogik texnologiyalar qo'llashda ularni qiziqishi va erkinligi inobatga olgan holda o'tkazilishi kerak. Bolalar rag'batlanishi uchun o'qishi emas, balki o'rganishni xoxlagani uchun o'qishi kerak.

Ingliz bolalar bog'chasida bolalar uzoq muddat mustaqil shug'ullanadilar, tarbiyachi esa ularni chetdan kuzatib boradi. Umumiy vaqtning faqat 15 foizi pedagog rahbarligida guruh ko'rinishida o'qitishga ajratiladi. Bunday o'qitish rivojlanish darajasi bir-biriga teng bolalardan tuzilgan kichik guruhlarda o'tkaziladi. Shu yo'l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini inobatga olish qoidasi amalga qo'llaniladi.

Deyarli hamma tarbiyachilar bolalarning ham rivojlanishi, ham ruhiy shakllanishi darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy-rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasash usulidan foydalanish kerak, deb hisoblaydilar. Boladagi o'qish va hisoblash kabi ko'nikmalarga alohida ahamiyat beriladi. Bunda 6-7 yoshdagi bolalar rivojlanishining olti yo'nalishidagi aniq ko'nikma va bilimlari belgilanadi: shaxsiyatlik, ijtimoiy-emotsional, kommunikativ, xabardorlik, matematik, jismoniy, ijodiy. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p o'ynashlari kerak, lekin adabiyot va matematikani bilish doirasidagi talablar shunchalik yuqoriki, o'yin uchun vaqt qolmaydi.

Masalan, savodxonlik borasida gap ketganda olti yoshli bolalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- 1 - so'z boshi va oxiridagi tovushlarni aniqlash;
- 2 - tovush va harflarni ajrata bilish;
- 3 - alifbodagi hamma harflarni aytish;
- 4 - oddiy so'zlar va gapni o'qish;
- 5 - o'z ismini yozish;
- 6 - oddiy so'zlarni yozishda fonetik bilimlardan foydalanish.

Bunday maqsadlar yuqori pedagogika yaratilishiga olib keladi. Ulardan har bir mashg'ulot uchun nafaqat pedagog tomonidan aniq harakatlar ketma-ketligi, balki olinadigan natijalarda ham bayon etiladi.

Yaponiyada bolalarni savodga tarbiyalash metodidan quyidagi iborani keltirish mumkin: "bola 5 yoshgacha - qirol, 5 yoshdan 15 yoshgacha - qul, 15 yoshdan keyin barcha bilan teng huquqli inson". Bu iboraning turli talqini boshqa millatlarda ham uchraydi. Albatta bu falsafiy iborani boricha qabul qilish kerak emas.

12 D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018,356-b

## 3 -jadval

## Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimi afzalliklari

1	Bolalarni tarbiyalash usuli bo'yicha ota-onalar o'qitib boriladi, muntazam ravishda ota-onalar majlisi o'tkaziladi.
2	Bo'g'chalarda bola hech qachon jazolanmaydi va unga "yo'q" deyilmaydi.
3	Tarbiyachilarning asosiy vazifasi bolani gapga quloq soladigan, kattalar gapini bo'lmaydigan va hushxulq etib tarbiyalashdir.
4	Maktabgacha ta'limning maqsadi bolalarni o'z fikrini mustaqil bayon etish hamda qaror qabul qilishga o'rgatish.

Yaponiya tarbiyachilari bolalarni tarbiyalashda ularning o'zaro munosabatlarini hisobga oladi. Yaponiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, katta guruhlarda har birining o'z stoli, o'rn, shaxsiy nomi bo'ladi. Guruh nomi bolalar tomonidan har bir guruh a'zosining fikrini hisobga olgan holda belgilanadi. Bu bolalarni o'z fikrini mustaqil bayon etish hamda qaror qabul qilishga o'rgatadi. Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimida bolalarga o'qish va yozish ko'nikmalari o'rgatiladi va mashg'ulot jarayonida har bir bola teng ko'riladi. Agar musobaqalar o'tkazilsa, unda hamma yoki guruh g'alaba qozonadi, lekin hech qanday holatda ma'lum bir bola emas. Ta'lim bilimlari, ko'nikmalarini o'zlashtirish olti yoshdan boshlanadi.

Yuqorida keltirilgan Buyuk Britaniya va Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimi va maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish tajribalarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish, respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga imkon yaratadi. Insonning qobiliyatlari haqiqatan ham ulkan va ularning aksariyati maktabgacha ta'limda shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar qanchalik yangi bilimlarni qabul qilsa va o'zlashtirsa, o'zida ma'lum qobiliyatlarni rivojlantirsa, kelajakda nafaqat maktabda, universitetda, balki hayotda ham o'qishi osonroq bo'ladi.

## TADQIQOT NATIJASI


Savodxonlik ma'lumotlari milliy aholini ro'yxatga olishning rasmiy natijalaridan olinadi va YUNESKO Statistika Instituti tomonidan hisoblangan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Aholini ro'yxatga olish anketalarida savodxonlik masalasini endi kiritmaydigan rivojlangan mamlakatlar uchun savodxonlik darajasi 99% deb taxmin qilinadi. Ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan fuqarolar soni haqidagi ma'lumotlar Statistika instituti tomonidan butun dunyo bo'ylab tegishli davlat organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida umumlashtiriladi.<sup>13</sup>

Ushbu ko'rsatkich, garchi u juda universal bo'lsa-da, bir qator cheklovlarga ega. Xususan, bu ta'lim sifatini o'zida aks ettirmaydi. Shuningdek, u yosh talablari va o'qish davomiyligidagi farqlar tufayli ta'lim olish imkoniyatidagi farqni to'liq ko'rsatmaydi. Mamlakatlarning o'rtacha ta'lim yoki kutilayotgan ta'lim davomiyligi kabi ko'rsatkichlar, ma'lumotlar mavjud emas. Bundan tashqari, ko'rsatkichda chet elda o'qiyotgan talabalar hisobga olinmagan.

Universitetlarning yutuqlari darajasi ular faoliyatining statistik tahlili, tekshirilgan ma'lumotlarning kombinatsiyasi natijalari, shuningdek, xalqaro akademik hamjamiyat vakillari va ish beruvchilarning har yili o'tkaziladigan global ekspert so'rovi natijalariga ko'ra baholanadi. So'rovlar dunyoning aksariyat davlatlaridan o'n minglab olimlarni qamrab oladi.


So'rov o'tkazish uchun ekspertlarni tanlash mezonlari sifatida oliy ta'lim muassasalarida 16 yildan ortiq vaqt davomida ish unumdorligi va iqtibos keltirish, shuningdek, o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatining ilmiy-tadqiqot ishlari, nashr etilgan kamida 50 ta ilmiy maqolaning mavjudligi va boshqa mezonlar

hisoblanadi. So'rovlar davomida ekspertlar olti mingta muassasa orasidan magistratura va doktoranturada o'qishni davom ettirish uchun faqat eng yaxshilarini, ularning fikricha, oliy ta'lim muassasalarini, shuningdek, kuchli universitetlarni tanlaydi. Global so'rov ma'lumotlari loyiha doirasida alohida nashr sifatida chop etiladigan THE World Reputation Rankings asosini tashkil qiladi.



2-rasm. Pedagog-tarbiyachilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish darajasi (foizda)

Yuqoridagi jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, hozirgi paytda pedagoglarning ko'pchiligi zamonamizga mos keladigan pedagoglar deyishgan. Sababi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shart-sharoitlar yetarli bilim olish va malakasini oshirish bo'yicha ko'plab o'quv qo'llanmalar mavjud. Deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari kompyuter va internet tamog'i bilan ta'minlangani tufayli zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati mavjud.



3-rasm Bolalarni savodga tayyorlashda zamonaviy multimedia texnologiyalarining samaradorligi (foizda)

Qatnashchilarning ko'pchilik qismi savodga tayyorlash jarayonida pedagogik texnologiyalarning samarali ekanligini ta'kidladilar. Sababi, multimedia texnologiyalari orqali savodga tayyorlash faoliyati qiziqarli va samarali tarzda bo'ladi. Qatnashchilarning bir qismi tomonidan qoniqarsiz deyilishiga sabab, tarbiyachining bilim, ko'nikma, malakasi yetarlicha emasligi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallash ko'nikmalarini shakllantirishga tegishli shart-sharoitlar yaratish zarur. Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, sog'lom, tetik o'sishiga, aqliy sifatlariga, o'quv dasturining o'zlashtirilishidagi me'yori bajarilishini ta'minlashga, qo'llanmalarining monandligiga bog'liqligini aytishdi. Bu masalalar maktabgacha ta'limda o'z yechimini topishi va o'z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o'stirish kerak. Bola har bir so'z ma'nosini tushuna olishi uni o'z nutqida erkin ifodalay olishi kerak, degan fikrni bildirishdi.

Birinchi navbatda, mashg'ulot jarayonida olingan bilimlarning bolalar tomonidan ongli egallanganligi; tasavvurlarining aniq, tushunchalar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llay olish qobiliyatlari; maktabgacha ta'lim

13 <https://speakfreely.ru/uz/abstracts/desyat-samyh-obrazovannyh-stran-v-mire-s-vysokim-urovнем-gramotnosti-luchshie-strany-dlya-polucheniya-ob/>

yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatiga e'tobor berish kerak, degan javobni bildirishdi;

ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligiga;

uchinchidan, bolaning atrof-dunyoga munosabati, bilimlarni egallash va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchi tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega, deb javob berishdi.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

Savodxonlik - bu murakkab analitik va sintetik faoliyat bo'lib, u aqliy jarayonlarning rivojlanish darajasini va bolaning ularni boshqarish qobiliyatini talab qiladi. Psixologik va lingvistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola hayotining oltinchi yoki yettinchi yili bolaning eng yuqori til qobiliyati, uning "lingvistik qobiliyati" (Chukovskiy, Elkonin, Zeitlin) davri hisoblanadi.<sup>14</sup>

Savodxonlik odatda o'qish va yozish qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Lekin bu ko'rinadigan darajada oddiy emas. O'qish va yozish qobiliyatlari turli madaniyatlar va kontekstlarda farqlanadi va ular ham doimo o'zgarib turadi. O'qish va yozishni bilish - hozirgi voqealardan xabardor bo'lish, samarali muloqot qilish va dunyomizni shakllantirayotgan muammolarni tushunish demakdir. Ma'lumki, o'qish va yozish qobiliyati zamonaviy inson uchun zarur va muhim, chunki bilim o'z-o'zini egallash va rivojlantirish uchun yetakchi omildir<sup>15</sup>.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy mahsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitofon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi<sup>16</sup>

Multimedia - bu matn, ovoz effektlari, yorug'lik, jonlantirilgan figuralar, harakatsiz tasvirlar, videolar va interaktiv kontent shakllarining uyg'unligi bo'lishi mumkin bo'lgan ommaviy axborot vositalarining bir turi. Multimedia bolalarning mustaqilligi, qaror qabul qilish va oldingi bilimlarini mustahkamlash, tanqidiy savodxonlik va o'quvchilarda o'ziga xos son va til tushunchalarini kuchaytiradi. Multimedia talabalarga o'quv jarayonlarida yordam berishda juda muhim rol o'ynaydi.

Multimedia texnologiyalarining turlari:

- Interaktiv doska;
- Interaktiv ovoz berish tizimi;
- Har xil ta'lim dasturlari;
- multimedia ekrani;
- Tarmoq ta'lim dasturlari;
- Simulyatsiya texnologiyalari;
- diagnostika komplekslari.<sup>17</sup>

Yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darsni rejalashtirish orqali o'qituvchi quyidagi didaktik talablarga javob berishi kerak:

- o'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning pedagogik maqsadini aniq belgilash;

- o'quv materiallarini oshkor qilish mantig'i va muayyan o'quv ma'lumotlarini taqdim etishning o'z vaqtida bajarilishi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalaridan darsda qayerda va qachon foydalanishini aniqlang;

- tanlangan axborot texnologiyalari vositasini o'qitishning boshqa texnik vositalari bilan muvofiq o'quv materiallarining, sinfning va yangi axborotni tushuntirishning xususiyatini hisobga oling;

- faoliyat bilan o'rganilayotgan materialning asosiy, tugunli masalalarini tahlil qilish va muhokama qilish;<sup>18</sup>

Nutq o'stirish va savodga tayyorlash mini muhitiga M. Montessori va boshqalarning nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishning turli uslublarini qo'yish mumkin. Hozir maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qishga o'rgatish to'g'risida munozaralar o'tkazishyapti. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi metodik jihatdan ishni to'g'ri tashkil etishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan o'yin faoliyati orqali bolalar harflar bilan o'ynashadi, o'qishga o'rganishadi, so'zlar yozilgan turli tuman kartochkalardan, yirik bosma shriftlar, chiroyli rasmlardan foydalanishadi. M.Montessorining shiori - «Menga o'zim bajarishim uchun yordam ber, men o'zim bajaraman». Tarbiyachi doim mehribon, sabr-toqatli, bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirishi, o'zining shaxsiy namunasi bilan nima qilish va qanday qilish lozimligini ko'rsatishi lozim. U bu yerda ustoz emas, balki voqealarning qatnashchisi sifatida ishtirok etadi: faqat bolalarni qiziqitira olishi lozim. O'zaro bir-birini tushunish, anglash va muhabbat tuyg'usi asosida muloqot olib boriladi. Tabassum, imo-ishora bilan kichkintoyini qo'llab-quvvatlab turadi, ko'proq uni maqtaydi.

Tarbiyachining ichki dunyosi bilan kichkintoyning ichki tuyg'usi o'rtasida mustahkam o'zaro bog'liqlik mavjud, tarbiyachining madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bolaning madaniyat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bunday jarayon davrida tarbiyachi ham, bola ham shakllanadi, bu esa hamma uchun hissiy qulaylik yaratadi, shuningdek, ota-onalarni ham ijod qilishga yo'naltiradi. Ijodiy rivojlantiruvchi muhitning samarasi kichkintoyning umumiy taraqqiyotiga, ijodiy tafakkuriga, mustaqilligiga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitgagina bog'liq emas, balki tarbiyachining bola bilan bo'ladigan muloqotiga, vaziyatga, beriladigan topshiriqlarga, ularni berish usullariga ham bog'liq.

Taniqli psixolog D.Elkonin o'qishning boshlang'ich bosqichini so'zning tovush shaklining grafik tuzilishi (model) bo'yicha qayta yaratish jarayoni, deb hisoblaydi. O'qishni o'rganayotgan bola harflar yoki ularning ismlari bilan emas, balki nutqning tovush tomoni bilan ishlaydi. So'zning tovush shaklini to'g'ri takrorlamay turib, uni tushunib bo'lmaydi. Shu sababli, D. Elkonin juda muhim xulosaga keladi - katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarga o'qish va yozishni o'rgatishga tayyorlash kerak, degan fikrni bildirgan.<sup>19</sup>

Shuningdek, bolalarni savodga tayyorlash bo'yicha Ushinskiyning "Rus tilining dastlabki o'qitish" nomli maqolasida zarur metodik ko'rsatmalar berilgan. Uning fikricha o'qitishning uch vazifasi bor:

1. Bolalarning nutqini o'stirish.
2. Bolalarni o'z tilidan foydalanishga o'rgatish.
3. Tilning mashqini o'zlashtirish.

Bu vazifalar bir vaqtda bajariladi. Bola ona tilini o'zlashtirganda tovush va birikmalarni bilibgina qolmasdan tushunchalar, fikrlar va tuyg'ular badiiy obrazlarni ham o'zlashtiriladi.<sup>20</sup>

Mashhur rus o'qituvchisi P.V. Tyulenev tomonidan erta bolalik rivojlanishi to'g'risida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida, bola o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanmasligiga bolalarni tarbiyalashning eskirgan usullari aybdor, degan xulosaga keldi. Uning xulosasiga ko'ra, aksariyat bolalar ma'lumotlarni eshitgandan ko'ra ko'rib uni his qilsa ko'proq ma'lumot qabul qiladi degan fikrga kelgan.<sup>21</sup> Bu esa

14 Подготовка к обучению грамоте детей дошкольного возраста (материал лекции от 06.05.2020) <https://bspu.by/blog/dubinina/article/lection/podgotovka-k-obucheniyu-gramote-detej-doshkol-nogo-vozrasta-material-lekcii-ot-06-05-2020>

15 what is literacy and why is it important? by Jackson best <https://www.3plearning.com/blog/literacy-important/>

16 Mengliyev SH Multimedia vositalari va ularidan foydalanish Multimedia maqolasi 2014-12-10

17 H. I. Valerievna, Multimedia texnologiyalarini ta'limda qo'llash. zamonaviy ta'limda multimedia texnologiyalari, 02.12.2020

18 P. К. михайлович мультимедийные технологии как средство повышения эффективности обучения в школе. методика работы на интерактивном оборудовании МОУ «Красногорская средняя общеобразовательная школа № 2», Республика Марий Эл <https://peskiadmin.ru/uz/zanyatie-po-obucheniyu-gramote-v-podgotovitelnoi-k-shkole-gruppe.html>

19 "Maktabga tayyorgarlik guruhida savod o'rgatish" dars <https://hozir.org/maruz-2-otm-pedagogika-tarixi-va-pedagogik-mahorat.html?page=14>

21 <https://gigafox.ru/uz/planirovanie/early-development-of-children-from-three-years-methods-of-early-development-of-children/>



ta'lim-tarbiya jarayonlarida pedagogik texnologiyalar qo'llashni taqazo etmoqda.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, maktabgacha tayyorlov guruhlarini bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bolaning xotirasida saqlab qolish qobiliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Multimedia texnologiyalari tarbiyalanuvchilardan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi. Multimedia texnologiyasi yordamida o'tilgan mashg'ulotlar bolalarni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Multimedia texnologiyasi bolani bilish darajasini oshirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi va o'qish qobiliyatini optimallashtirishdiradi, bolaga ko'plab imkoniyatlar yaratadi ularning tegishli ehtiyojlarini kengaytiradi, bundan tashqari, bolalarning qiziqishi ortadi va ularning e'tibori o'qishga jalb qilinadi.

Multimedia texnologiyalari yordamida savodga tayyorlash jarayonlarida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar:

Pedagog-tarbiyachilarning faoliyat jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish uchun o'quv seminarlari, master-klaslar tashkil qilinishi kerak.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish maqsadida "Eng innovatsion pedagog-tarbiyachi" tanlovlari o'tkazilishi kerak.

Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublari, multimedia texnologiyalarining o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Agar tarbiyachi zamon talabiga mos bilim va ko'nikmaga ega bo'lsa, shubhasiz u ta'lim berayotgan tarbiyalanuvchilar ham zamon talabiga mos yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishadi. Biz zamonaviy texnologiyalarning faqat yaxshilikka yog'rilgan tomonidan foydalanib, yosh avlodga ham faqat ijobiy taraflarini ko'rsatib bera olsak, mana bu biz o'ylagan maqsad bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari oldida katta mas'uliyat turibdi. Bu raqamli hayotimizda yosh avlodning ongu-shururi murg'akligidan aniq maqsadlar va yaxshilik bilan boyitilsa, ular ulg'aygan sari hech qanday kuchlar ularning ongini zaharlay olmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.
2. Ibragimov X, U.Yo'ldoshev "Pedagogik psixologiya", O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti, T.,2009-y
3. F.Qodirova „Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" 83-84 bet
4. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariev. "Ona tili o'qitish metodikasi". Darslik. 28 bet
5. Sh.A.Boyjigitov – "Savodxonlik asoslari fanidan o'quv uslubiy qo'llanma" 56 bet.
6. M.Tojjiyev, B.Ziyamuxamedov, M.O'ralova „Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o'quv mashg'ulotlar loyihasi" .73 bet
7. G'ulomov S. S., Shermuhammedov A. T., Begalov B. A. "Informatika metodikasi". – T.: O'zbekiston, 1999. -527 bet.
8. D. Dauletnazarova "Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rnini. Academic research in educational sciences/ Volume 2 | ISSUE 9 | 2021/ DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-1108-11
9. "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yil 30-sentyabr, № 208 (7710) <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-maktabgacha-talim-tizimini-2030-jilgacha-rivozhlantirish-kontsepsiyasi-amalda>
10. Huquqiy axborot manbasi: <https://lex.uz/docs/-5179335>
12. Kliment'eva O.V. "Bolalarni savodxonlikka tayyorlash va yozish buzilishining oldini olish". "Bolalik - matbuot" nashriyoti. 2010-yil
13. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U Eshchonov. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" darslik – Toshkent 2009. 19 b
14. Shunned and Admired: Montessori, Self-Determination, and a Case for Radical School Reform Angeline S. Lillard1 Published online: 26 April 2019
15. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" 2018-yil 3-iyuldagi 3032 qarori.
16. K. Qosimova, S. Matchonov, X.G'ofurova, Sh.Yo'ldosheva, Sh Sariev „Ona tili o'qitish metodikasi" „Nosir" nashriyoti 2009-y 29-32b.



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBİYACHISINING INKLYUZIV KOMPETENSIYASI

Qo'ldosheva Zarnigor

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 3  <b>Maqola raqami:</b> 9  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001209">https://doi.org/10.54613/001209</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Imkoniyati cheklanganlar, kompetensiya, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, jismoniy integratsiya, ijtimoiy integratsiya, funksional integratsiya.</p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining inklyuziv kompetensiyasini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik qarashlar bayon etilgan. Tarbiyachilarda inklyuziv ta'limga oid malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish masalalari xorijiy va o'zbek olimlarining tadqiqotlariga tayangan holda tadqiq etilgan. Shu tadqiqotlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni amalda qo'llashga doir tavsiyalar berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish jarayonida tarbiyachining alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash ko'nikma va malakalarini zamon talablari darajasida qo'llash masalalari atroflicha tahlil qilingan.</p>

### KIRISH

Dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar bevosita maktabgacha ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy etishga dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Har bir tarbiyachining oldida turgan asosiy vazifalardan biri alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni tengdoshlari qatori ta'lim olishiga ko'maklashish va shu bilan bir vaqtda ularning qobiliyatiga qarab individual yondashishi maqsadga muvofiqdir. Inklyuziv ta'lim – jonli jarayon bo'lib, pedagog-xodimlar va ot-onalar tomonidan ta'lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashuv talab etiladi.

Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 1 milliarddan ziyod kishida, ya'ni, dunyo aholisining 15 % da turli darajadagi nogironlik kuzatiladi. Ularning 80 % i rivojlanayotgan davlatlarda yashaydi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston aholisining 2,14 % nogironligi bor shaxslar sifatida qayd etilgan. Nogironlik bo'yicha to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar nogironligi bo'lgan shaxslarni hayotda nogironligi bo'lmagan shaxslar bilan teng holatda ishtirokini ta'minlash uchun muhimdir<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosi ham insonparvarlik g'oyalari asoslangan bo'lib, bu borada imkoniyati cheklangan bolalarga qaratilayotgan e'tibor diqqatga sazovor. Nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatga tez integratsiyalashuvi maktabgacha ta'limda ko'zlangan maqsadning amalga oshirishini ta'minlovchi yo'l hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning vazifasi – bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishni talab etadi. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalarni ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi.

BMT O'zbekistonning 2021-yil 7-iyunda ratifikatsiya qilingan "Nogironlar huquqlari to'risida"gi Konvensiyani amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish masalalari o'z ifodasini topgan.<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni asosida mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini zamon talablari darajasida yanada takomillashtirish, bunday bolalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida:<sup>3</sup>

- inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;
- inklyuziv ta'lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;
- inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish quurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;
- inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy-ijtimoiy muhit shakllantiriladi"<sup>4</sup> - degan ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanayotgan har bir bola o'ziga xos individual yondashuvni talab qiladi va barchasi ta'lim olish, jamiyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonlik namoyon qilish huquqiga ega. Sog'lom bolalar qatorida alohida ehtiyojli bolalarning ham ta'lim-tarbiya olayotganligi bunday bolalarga

1 Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi. <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/uz/home/presscenter/pressreleases/2021/11/approach-and-practical-tools-in-disability-statistics--data-coll.html>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son [qarori](https://lex.uz), <https://lex.uz>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son [qarori](https://lex.uz)/ <https://lex.uz>

4 <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son [qarori](https://lex.uz/)

nisbatan inklyuziv ta'limni tatbiq etish orqali sifatli ta'lim olishlariga zarur shart-sharoitlar yaratish ham yuqoridagi qarorning asosi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ayni paytda maktabgacha ta'lim tizimida alohida ehtiyojli bolalar uchun qulay va xavfsiz muhitni yaratish ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Hamma bolalar turli xil, har bir bola o'ziga xosdir.

Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilar uchun murakkab vazifalardan biri maktabgacha ta'lim tizimini individuallashtirishdir, chunki pedagog ta'lim jarayonida bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rishi lozim.

Har qanday yangilik kabi, inklyuziv ta'limda ham yuqori sifatli natijalarga erishish uchun ta'lim munosabatlari ishtirokchilari tomonidan maxsus malaka va shu bilan birga ijodiy yondashuv talab qilinadi. Avvalo, maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati pedagog-tarbiyachilarning inklyuziv ta'lim muammolarini hal qilishga tayyorgarlik darajasiga, psixolog, pedagog-tarbiyachi-defektologlarning mavjudligiga, shuningdek, ota-onalar va MTT pedagoglari o'rtasidagi hamkorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga bog'liq bo'ladi. Shularni inobatga oladigan bo'lsak, mamlakatimizdagi MTT pedagog-tarbiyachilarining inklyuziv kompetensiyasini takomillashtirish dalzarb muammo hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Imkoniyati cheklangan bolalarga umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya berish MTTlarning ustuvor tamoyillaridan biri hisoblanadi. Umumiy turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogini inklyuziv ta'limda ishlashga tayyorlashning yana bir muhim omili – ularning shaxsiy fazilatlarini ushbu ta'lim talablariga muvofiq tarzda takomillashtirishdan iborat.

To'g'ri, bu ishlar dastlabki davrlarda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi uchun bir qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin, ammo ularning o'z ustilarida ishlashlari va o'z-o'zini rivojlantirishdagi ishlari bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqa xodimlari, xususan, defektolog, psixolog va tibbiy hamshira yaqindan ko'mak berishi lozim bo'ladi. "Ma'lum bir bolani uning imkoniyatlari darajasida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'rgatish zarur.

Bunday ta'lim bolaning individual xususiyatlari va bolaning kasallik darajasiga ko'ra tarbiyachi, pedagog va boshqa mutaxassislarining sabr-toqati, mehr-muhabbati bilan necha kun yoki hafta oyni o'z ichiga oluvchi maxsus tayyorgarlikni talab etadi"<sup>5</sup>- deydi R.Sh.Shomaxmudova.

MTT tarbiyachisining inklyuziv kompetensiyasi borasida dunyoning ko'plab olimlari tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Xorijlik olimlardan N.S. Demakova, A.A. Dmitriev, N.M. Nazarovalar inklyuziv ta'lim tarixi borasidagi tadqiqotlarida ushbu ta'lim dastlab Germaniyada qo'llanilganligi va undagi muvaffaqiyatlar asoslab berilgan bo'lsa, X. Daniels, S. Zemelman, A. Xidlarning tadqiqotlarida ommaviy inklyuziv ta'limni rivojlantirish an'analari va qonuniyatlari haqidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Ushbu yo'nalishning amaliyotga tatbiqi va inklyuziv ta'limni amalga oshirish metod va usullari yuzasidan N.N.Malofeev, N.M.Nazarova, N.D. Shmatkovalarning ilmiy-metodik izlanishlari diqqatga sazovordir. A.D. Barbitova, B.V. Belyavskiy, E.N. Jukovaqalarning ilmiy asarlarida integratsiyaga

asoslangan inklyuziv ta'limning asosiy yo'nalishlari va nogiron bolalar bilan pedagogik munosabatlarni farqlashda individual xususiyatlarni hisobga olgan holda sog'liqni saqlash masalalari hamda inklyuziv ta'lim jarayoni qonun-qoidalarni ishlab chiqilgan<sup>6</sup>. Pastorova, E.E. Petrova, A.S. Suntsovalar inklyuziv ta'limni tashkil etishning umumiy modellari va nogiron bolalarning rivojlanish jarayonini tahlil qilganlar. Tahlil qilayotganda ilmiy ta'limot mazmuniga doir turli modellari L.I.Aksenova, A.V. Butenko, B.V.Puzanovlar tomonidan ham ishlab chiqilgan bo'lib, bu modellarda nogiron bolalarning integratsiyalashuviga yordam berish masalalari tahlil qilingan. M.V.Boguslavskiy, G.B. Kornetova, I.D. Lelchitskiy, Z.I. Ravkinlarning pedagogika tarixiga oid asarlarida hamda S.F. Egorovanning monografiyasida inklyuziv ta'lim tarmoqlari va ularni shakllantirish, rivojlantirish jarayonlari ko'rsatib o'tilgan.

N.N. Malofeevning "O'zgaruvchan dunyoda maxsus ta'lim: Rossiya", Z.G. Nig'matovanning "Inklyuziv ta'lim: tarix, nazariya, texnologiyalar" deb nomlangan tadqiqotlarida umumiy ta'lim jarayoniga inklyuzivlikni joriy etish masalalari tadqiq etilgan.

Rossiyalik olimlardan L.I.Aliksenova, I.M.Bgankova, N.S. Graznaya, I.V.Iskruk, V.V. Korkunov, N.N.Malofev, J.L.M.Shipitsina, N.M.Nazarovalar ta'limga integratsiya va inklyuziya sohasini kiritishga katta hissa qo'shganlar<sup>7</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan: R.Shomaxmudova "Maxsus va inklyuziv ta'lim" asarida ta'lim jaryoniga inklyuziv ta'limni joriy etishda ota-onalar va mahalliy jamoat tashkilotlari hamkorligi masalalarini tadqiq etgan. L.Mo'minovaning "Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga saralash metodikasi" asarida esa maktabgacha va umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limni joriy etishga doir metodlar bayon etilgan. M.Ayupova tomonidan yaratilgan "Logopedik o'yin", "Maktabgacha tarbiya maxsus pedagogikasi" kabi qator darslik va o'quv qo'llanmalarida MTTdagi bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha nazariy-amaliy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-metodik ma'lumotlarni bayon etgan. U.Saidovning tadqiqotlarida nogironligi bor bolalarni ta'limga qamrab olishning evolyutsion nazaryasi ishlab chiqilgan<sup>8</sup>.

#### TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim jarayoniga integratsiya va inklyuziya g'oyalari keng tatbiq etish maktabgacha ta'lim tashkilotlari moddiy bazasi bilan bir qatorda pedagog-tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyaga ham ko'p jihatdan bog'liq. MTT pedagog-tarbiyachilarining inklyuziv kompetensiyasini shakllantirish muammosi bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarni ilmiy-metodik jihatdan qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuzivlik muammosining hozirgi holati va sharoitlarni ko'rib chiqish;
2. Inklyuziv ta'lim mohiyati va tuzilishi bunda MTT pedagog-tarbiyachisi va ota-onalar hamkorligining muhimligi;
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilarida inklyuziv kompetensiyani shakllantirish kasbiy tayyorgarligi ularning kasbiy kompetensiyasini kamol toptirish;
4. OTM va kasb-hunar ta'limi nazariyasining konseptual apparatida "inklyuziv kompetensiya"ni shakllantirish dasturini ishlab chiqish.

5 Shomaxmudova R.Sh. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" Toshkent, 2011-yil. 1 Bob 4-bet.

6 Education for All global monitoring report. Strong foundations: early childhood care and education. Paris, UNESCO, 2007 (<http://unesdoc.unesco.org/images/0014/001477/147794e.pdf>, accessed 5 May 2010).

7 Early Childhood Educ J (2015) 43:127–134 DOI 10.1007/s10643-014-0641-x Speaking Up for African American English: Equity and Inclusion in Early Childhood Settings Margaret Beneke, Gregory A.

8 Shomaxmudova R. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" Toshkent, 2011-yil. L. Mo'minova "Maxsus pedagogika" Toshkent 2021, "Defektologiya" Toshkent 2016-yil Toshkent 2021-yil, M. Ayupova "Logopedik o'yin" Toshkent 2011-yil, "Maktabgacha tarbiya maxsus pedagogikasi" Toshkent 2009 yil

Umumiy tipdagi MTTlarda bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya uchun barcha bolalar qatori imkoniyati cheklangan bolalarga ham jamiyatning to'la huquqli a'zolari sifatida qarash, bolalar o'rtasida o'zaro do'stona munosabat va bir-biriga g'amxo'rlikni shakllantirish lozim bo'ladi.

MTTlarda inklyuziya tamoyillari asosida faoliyat yuritadigan pedagog-tarbiyachilar quyidagi mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi:

- barcha bolalarni tarbiyalash ularning vazifasi ekanligi;
- moslashuvchan qarorlar qabul qilish ta'lim-tarbiya berish va nazorat qilish;

- ta'lim-tarbiyani odatiy o'quv dasturiga muvofiq tarzda tafsilotlarni moslashtirish, shu jumladan, bolalar erishgan yutuqlar kutilganidan farq qilganda ularni rag'batlantirish va ruhlantirish, ko'proq intensiv xizmatlarga muhtoj bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash;

- MTTlardagi inklyuziv ta'lim jarayonida pedagog-tarbiyachi o'z faoliyatini talab darajasida o'zgartirishi orqali imkoniyati cheklangan bolalar bilan muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'zlashtirish talab etiladi.

MTTlarda inklyuziv ta'limni samarali yo'lga qo'yish uchun pedagog-tarbiyachi psixologik va fizioterapiya xizmatlarini ko'rsata olish malakalarini egallashi zarur bo'ladi. Pedagog-tarbiyachi doimiy ravishda logoped, defektolog va shifokorlar hamda ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi talab etiladi.

Inklyuziv ta'lim tamoyilining o'ziga xos xususiyati shundan iborat-ki,

nogiron bolalar ehtiyojlarining xilma-xilligi, xizmatlarning uzluksizligi, shu jumladan, bunday ta'limga mos keladigan eng kam cheklovchi va keng qamrab oluvchi muhit bilan birga maxsus kompetensiya zarurdir.

Bu kompetensiya integratsiya bilan solishtirishdan keyingi bosqichni bildiradi va nogironlar ta'limi haqida bilimga ega bo'lish, bu masala bo'yicha jamoatchilikda ham ijobiy fikrni shakllantirish, shuningdek nogironlarning huquqlarini himoya qilgan holda ta'lim-tarbiyani to'g'ri amalga oshirish uchun institutsional sharoitni yaratadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti sohasiga ham inklyuziv ta'lim kirib borar ekan, eng avvalo, tarbiyachining kompetensiyasiga, ya'ni uning kasbiy mahorati va qobiliyatiga alohida e'tibor berish zarur. Tarbiyachi qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur, degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Eng avvalo, tarbiyachi mahoratli pedagog bo'lishi, mehribon, har bir bolaga bir xil munosabatda bo'lishi, ota-onalar bilan to'g'ri hamkorlikda ishlay olishlari, psixologiya, defektologiya, har qanday ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ishlay olish ko'nikmasi va ular uchun maxsus dasturlar orqali ish olib borishi zarur.

Mutaxassislarning fikricha, inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati – psixologik, pedagogik resurslar, pedagoglarning tajribasi va malakasining ko'pligiga bog'liq. Inklyuziv ta'limda pedagoglarda tolerantlikni rivojlantirish dasturlaridan foydalanish orqali bolalar jamoasida qulay iqlim yaratishga yordam beradigan pedagog va psixologlarni guruh jamoalari bilan ishlashga jalb qilish lozim.

Ota-onalarning ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikni qabul qilishga tayyorligi alohida ehtiyojlariga ega bo'lgan bolaning ta'lim muhitiga va ularning ota-onalarini guruhning umumiy ota-onalar muhitiga kiritish holatini qabul qilishni xohlamaslik. Bu muammoni inklyuziv ta'lim sohasida ota-onalarning xabardorligini oshirish, axborot stendlari, ota-onalar uchun metodik tavsiyalar, mavzuli uchrashuvlar, treninglar tashkil etish orqali hal etish mumkin. Ota-onalar jamoasi bilan ishlash ta'lim-tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilarini o'zaro ijobiy hamkorligiga olib keladi. Ta'lim tashkilotining maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolani qabul qilishga tayyorligi: moddiy texnika, o'quv-texnik binolarni moslashtirish, texnik jihozlarning

mavjudligi va o'quv jarayoniga metodik yordam ko'rsatish bilan yani ta'minoti bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi shug'ullanadi.

Har qanday jadal rivojlanayotgan tizim singari maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim amalga oshirilganda ham bir qator muammolar, ziddiyatlar va savollarga duch kelinishi tabiiy holdir. Ushbu jarayonni tashkil etishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni to'g'ri aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish bilan maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarni umumiy maktabgacha ta'lim muhitiga kiritishning salbiy ko'rinishlarini minimalashtirish mumkin.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy etishning dolzarbligi, shubhasizdir. Bu ta'lim turi ko'plab bolalarga zarur bo'lib, psixologik, pedagogik, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, uni bolaning yashash joyiga imkon qadar yaqinlashtirish, ota-onalarga maslahat yordami ko'rsatish va jamiyatni nogironlarni qabul qilishga tayyorlash imkonini beradi. Alohida ehtiyojli bolalarning odamlar orasiga kirishi uchun korreksion xizmat ko'rsatish, ya'ni ijtimoiy integratsiyani ta'minlash butun tizimining asosiy vazifasidir. Ijtimoiy integratsiya deganda, shaxsning jamiyat hayotiga qo'shilishiga qaratilgan maxsus inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi tushuniladi.

Ta'lim integratsiyasi ijtimoiy integratsiyaning bir qismi bo'lib, odatda sog'lom bolalar bilan birgalikda alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish jarayoni sifatida qaraladi. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolani jamiyatga kiritish uchun tarbiyachilarning ta'lim, tarbiya, ijtimoiylashuv va integratsiya masalalarini yaxshiroq tushunishlari, qulay sharoit yaratish, ular qanday bo'lishidan qat'iy nazar yaxshi hamkorlik qilishlari lozim.

Maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar nafaqat maxsus davolash va qo'llab-quvvatlashga, balki kompensator mexanizmlarni ham qo'shishga, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga va maktabgacha ta'lim tashkilotida muvaffaqiyatga erishishga muhtojdir. Inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va o'qitishni maktabgacha bolalik davridan boshlash kerak, sababi, kelajakda kattalar hayotida unga yordam beradigan muloqot va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda o'z-o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini shakllantirishin zarur.

Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar oddiy bolalarga nisbatan ko'proq do'stona va barqaror muhitga muhtoj. Rivojlanishda muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirgan bola ijtimoiy hayotga moslasha olmaydi, agar uning bolaligi odatdagidan juda farq qiladigan sun'iy ravishda yaratilgan muhitda o'tkazilgan bo'lsa (bola internet maktabida, uyda izolyatsiya qilingan yoki maxsus guruhda o'qiyotgan bo'lsa), jamiyatda yetarli faoliyat yuritish ko'nikmalarini egallay olmaydi.

Ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya uchun maxsus sharoitlar mavjud bo'lsa, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni o'qitishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Inklyuziv ta'limning sakkizta asosiy tamoyili mavjud:

1. Insonning qadri uning qobiliyati va yutuqlariga bog'liq emas.
2. Har bir inson his qilish va o'ylashga qodir.
3. Har bir inson muloqot qilish va eshitish huquqiga ega.
4. Hamma odamlar bir-biriga muhtoj.
5. Haqiqiy ta'lim faqat real munosabatlar kontekstida amalga oshirilishi mumkin.
6. Barcha odamlar o'z tengdoshlarini qo'llab-quvvatlashi va do'stlashishi kerak.
7. Barcha bolalarning individual rivojlanishi uchun ularni qo'llab-quvvatlash zarur.
8. Xilma-xillik inson hayotining barcha jihatlarini kuchaytiradi<sup>9</sup>.

Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyatga to'laqonli qo'shilishini amalga oshirish uchun umumiy turdagi tashkilotda imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvi jarayoni va maktabgacha ta'lim tashkilotning maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitini osonlashtirish uchun maxsus dasturlar zarur. Inklyuziv

ta'lim erta bolalikdan boshlanishi kerak, ya'ni bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish muammolari bo'lgan bolalarni faolroq o'z ichiga oladi. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlarida kerakli muhitni yaratish zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti inklyuziv ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yishda yaxshi tayyorlangan mutaxassislar jamoasining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar, psixologlar, defektolog-logopedlar va musiqa rahbarlarining o'zaro hamkorliklari to'g'ri yo'lga qo'yilsagina bu ta'lim turi muvaffaqiyatga erishadi. Asosiy yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishda dastlabki o'rinni egallaydigan tarbiyachi hisoblanadi. Turli psixofiziologik buzilishlari mavjud bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim guruhlariga bevosita kiritish tashkilotlarning o'zi va maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlari zimmasiga tushadi.

Maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kasbi o'ziga xos bo'lib, u boshqa pedagogik kasblardan farq qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi faqatgina bolalarni kuzatibgina qolmay, tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshiradi hamda ularni doimiy ravishda mashg'ulotlar, hikoyalar, ashulalar orqali tarbiyalaydi. Bu birinchi bo'lib, oiladan boshlanadi.

MTT tarbiyachisi yosh avlodning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik rivojlanishi bo'yicha ishlarni tashkil etadi va olib boradi. Tarbiyachining vazifalariga bolalarning sog'ligini mustahkamlash va ularni mehnat bilan tanishtirish, ta'lim-tarbiya berish, kiradi.

Turli yangiliklarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish, yangi sharoitda o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun pedagog zarur darajadagi kasbiy kompetentlikka, yetarli ovoz va nutq malakasiga, madaniy-axloqiy salohiyatga va yangi ta'lim modeliga muvofiq ishlashga emosional va shaxsiy tayyorlikka ega bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'limni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kiritish g'oyalari joriy etish pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha jiddiy ishlarni talab etadi. Pedagogning kasbiy ko'nikma va malakalarining ahamiyatli jihati shundaki, psixologik-pedagogik korrektsiyalash va ularni takomillashtirish, shuningdek inklyuziv kompetensiya, ya'ni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash ko'nikmasi muhimdir.

Kompetensiya – bu bilim, ko'nikma va malakalarning integral yaxlitligi kasbiy faoliyatni ta'minlovchi ko'nikmalar, qobiliyat shaxsning o'z vakolatlarini amalda qo'llashi hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiya – sohada muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini hal etishda amaliy tajriba, ko'nikma va bilimlar asosida harakat qilishning kasbiy vazifasidir.<sup>10</sup>

Inklyuziv kompetensiya pedagog-tarbiyachining o'z-o'zini rivojlantirishi zarurligini anglashi va bunga tayyorligi, yangi bilimlar, ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishi bilan belgilanadi. Bunday tayyorlik inklyuziv ta'limning asosiy g'oyalari bilan tanishish, maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar, psixologik, uslubiy, amalga oshirilgan jarayonda yuzaga keladigan tashkiliy muammolarni hal qilish va inklyuziv ta'limni maksimal darajada taqdim etish bilan belgilanadi.

MTT pedagog-tarbiyachilarning inklyuziv kompetensiyasi darajasi bevosita maxsus kasbiy kompetensiya hisoblanadi. Bunda pedagog-tarbiyachida ikki xil kompetensiya o'zaro integratsiyalashuvi natijasida inklyuziv ta'lim jarayonida professional vazifalarni bajarish bolalarning turli ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda va imkoniyati cheklangan bolalarni ta'limga jalb qilishni ta'minlash, ta'lim muhiti va uni rivojlantirish uchun sharoit yaratish hamda o'z-o'zini rivojlantirishni talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining inklyuziv kompetensiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi: asosiy tarkib

(motivatsion, ijodiy, va kognitiv kompetensiya) hamda tezkor yordam berish usullarini ham bilishi zarurdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarning inklyuziv kompetensiyasi maxsus kasbiy kompetensiyalar darajasini bildiradi.

Rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun turli xil ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda sog'lom bolalar va nogiron bolalar uchun inklyuziv ta'limni ta'minlash jarayonida pedagog-tarbiyachilarning kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini belgilaydigan integral shaxsiy ta'lim. Inklyuziv kompetensiya o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat.

Motivatsion kompetensiya qiziqishning chuqur shaxsiy tabiati, nogiron bolalarni qamrab olish sharoitida pedagogik faoliyatni amalga oshirishga ijobiy e'tibor qaratish, tengdoshlarning normal rivojlanayotgan muhitida yuksaltirish imkoniyati, rag'batlantirish to'plami bilan tavsiflanadi.

Motivatsion kompetensiya – qadriyatlar, ehtiyojlar, motivlar majmuiga asoslangan qobiliyatdir. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalariga mos keladigan shaxsiy muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bu kompetensiyaning eng muhim jihati pedagog-tarbiyachining shaxsiyatiga bog'liq.

Birinchi, umumiy gumanitar yo'nalish, ikkinchidan, inklyuziv ta'lim sharoitida ta'limni amalga oshirish, turli ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tushunish ahamiyati, nogiron bolalarni inklyuziv sharoitda muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kognitiv kompetensiya - bilim va kognitiv faoliyat tajribasi asosida pedagogik fikrlash qobiliyatidir. Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy vazifalari inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z vaqtida takrorlash, tushunish, qayta ishlash, yodlash va qaror qabul qilish qobiliyati hisoblanadi.

Bundan tashqari inklyuziv ta'limda har bir tarbiyachi birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarurdir.


MTT tarbiyachilarning inklyuziv kompetentlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari menejerlik, refleksivlik, kreativlik, kognitivlik, insonparvarlikka asoslangan innovatsion faoliyatga yo'nalganlik kabi talablar asosida takomillashtirilgan;

Shu tarzda, MTT tarbiyachilarning inklyuziv kompetensiyasi quyidagi tamoyillarga asosan rivojlanib va takomillashib borishi mumkin.

### TADQIQOT NATIJASI


Tadqiqot davomida anketa so'rovnomasi metodi asosida ish olib borildi va mavzu yuzasidan davra suhbatlari, seminar-treninglar o'tkazildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari bilan tajribalar almashildi.

**1-diagramma.**  
**MTTda nogironligi bor bolalar bilan sog'lom bolalarning birga ta'lim olishi ma'lumoti**



<sup>10</sup> <https://goaravetisyan.ru/uz/kompetentnostnyi-podhod-v-sovremen-nom-obrazovanii-kratko-kompetentnostnyi-podhod-kompetentnostnyi>


So'rovnoma natijalaridan ma'lumki, tarbiyachilarda inklyuziv ta'limning imkoniyatlari va natijalari haqidagi ko'nikmalar kamligi tufayli ularning bilim ko'nikma va malakalarini oshirish, inklyuziv ta'lim to'g'risidagi metodik qo'llanmalar bilan ularni ta'minlash MTT tarbiyachilari o'rtasida mavzuga oid konsiliumlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.



**2-rasm. MTTlarda logoped, defektolog va psixologlarning o'zaro hamkorligi**


Bu savollarimizning javoblaridan ko'rish mumkinki, aksariyat MTTlarda logoped, psixolog, defektologlarning o'zaro hamkorligi yo'lga qo'yilmaganligi tufayli tarbiyachilarning nogironligi bor bolalar bilan ishlash ko'nikmasi to'liq shakillanmagan. Muammoni bartaraf etish uchun MTT mudirasi tomonidan tashkilot xodimlarining o'zaro hamkorlikda ishlashi to'g'risida kengash qarori bilan mustahkamlab qo'yish hamda haftaning bir kunida xodimlar o'zaro hamkorlikni amalga oshirish uchun tashkilotda metod kunini joriy qilishi kerak.

**2-diagramma Tarbiyachi-pedagoglarning Inklyuziv ta'lim to'g'risidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni bilish va amalda qo'llay olishi haqida bilim ko'nikmasi foizda**



Biron bir muammoni hal etishdan avval unga oid qonun-qoidalar haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. O'tkazilgan so'rovnoma natijasida inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qonunlarni bilish va xabardor emaslik darajasi deyarli tengligi oydinlashdi. Tadqiqotimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, tarbiyachi-pedagoglarga inklyuziv ta'limning me'yoriy hujjatlari bo'yicha seminar-trening tashkil qilish lozim.


**3-diagramma Tarbiyachilarning ma'lum bir ehtiyojga ega bo'lgan bolalar bilan ishlash ko'nikmalari haqida (foizda)**



Javoblardan ma'lumki, ko'pchilik tarbiyachilar ma'lum bir nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan ish olib bormaganligi bois ular bilan ishlash malakalariga ega emaslar.

Tadqiqotimiz natijasidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, tarbiyachi-pedagoglarda AEMB bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun tarbiyachilar uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqish lozim hamda har 3 oyda malaka oshirish kurslariga jalb qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**4-diagramma MTTlarga inklyuziv ta'limning joriy etilishi va yurtimizga kirib kelishining afzalligi haqida**




MTTlarga ham inklyuziv ta'limning joriy etilish foydali usul hisoblanadi. Sababi ma'lum bir ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning jamiyatga qo'shilishi yoshlikdan shakllanadi va osonlashadi. So'rovnomada ishtirok etgan ko'pchilik tarbiyachilarning fikrlari ham bu borada ijobiy tarafdarga o'zgardi. Tarbiyachi-pedagoglarning inklyuziv ta'lim bo'yicha tasavvurlari rivojlanishi uchun chet el malakasi bilan ularni tanishtirish, zarur hollarda ularni chet davlatlarga (inklyuziv ta'lim rivojlangan) malaka almashish uchun yuborish kerak.

So'rovnomadan ma'lumki, hamma tarbiyachilar kasbiy kompetensiyani o'zlaridan kelib chiqqan holda tushunishdi va bularning barchasi to'g'ri ma'lumotga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi.

Tajriba-sinovlarimiz bo'yicha xulosalar shundan iboratki, MTTlarda faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachilarning ko'pchiligi o'rta-maxsus ma'lumotga ega.

Yana bir muhim tarafi shundaki, tarbiyachilarning 37 nafari, yani 69,8 % i maxsus ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalar bilan ishlamagan va ular bilan qanday ish olib borish haqidagi ko'nikma va malakalarga ega emas.

**5-diagramma**  
Tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi haqida.




Eng achinarlisi, so'rovnomadagi "Sog'lom bolalar bilan ma'lum bir ehtiyojga ega bo'lgan bolalarning birgalikda bilim

olishiga qanday munosabat bildirasiz?" degan savolga tarbiyachilarning 20 nafari, ya'ni 37,7 % qismi "qarshiman", deb javob berganlar. Bundan ko'rinadiki, tarbiyachilar va tashkilot direktorlari uchun alohida seminar-treninglar tashkil etish, malaka oshirish kurslarida o'qitib, ularga inklyuziv ta'lim haqida ma'lumotlar berish, hamda inklyuziv kompetensiyasini takomillashtirish zarur.

So'rovnomaga o'tkazilgan DMTT pedagog-tarbiyachilariga MTTlarda inklyuziv ta'limning joriy etilishi insonparvarlikning muhim ko'rinishi ekanligi, alohida ehtiyojga ega bolalar ham sog'lom tengdoshlari qatorida ta'lim-tarbiya olish huquqiga egaligini tushuntirildi. Guruhlarda inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yishga doir mahorat darslari tashkil qilinib, bu yo'nalishga doir dasturlar taqdim etildi va ularning inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qarashlari ijobiy tomonga o'zgartirildi. Shundan keyin o'tkazgan so'rovnomamiz natijalari quyidagicha bo'ldi: tarbiyachilarning qariyb 87 % MTTlarda inklyuziv ta'limni joriy etishni qo'llab-quvvatladilar. (6-diagramma)

**6-diagramma**  
MTTlarda inklyuziv ta'limni joriy etishni qo'llab-quvvatlashga doir so'rovnomaga (mahorat darslaridan so'ng)



Bundan ko'rinadiki, MTT pedagog-tarbiyachilarida inklyuziv kompetensiyaning shakllanishi ularda inklyuziv ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirgan. Biz buni MTT pedagog-tarbiyachilari faoliyatining quyidagi ko'rinishlarida kuzatdik:

MTT pedagog-tarbiyachilarining inklyuziv kompetensiyasini takomillashtirish barqaror motivatsiya va ta'minlaydigan muayyan shaxsiy fazilatlarini shakllantirish (mehr-muhabbat, tolerantlik, ta'lim-tarbiya jarayoniga diferensial yondashuv) bilan o'zaro integratsiya asosida rivojlantirilgan va kamol toptirilgan; alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish sohalari (jismoniy, ijtimoiy hissiy, nutq, muloqot, o'qish, yozish, bilish jarayonlarining rivojlanishi, ijtimoiy rivojlanish) bo'yicha tayanch kompetensiyalarni (kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish) shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga asoslanganda tarbiyachi faoliyatining inklyuziv kompetensiyasi kognitivlik asosida takomillashtirildi.

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish sohalari (jismoniy, ijtimoiy hissiy, nutq, muloqot, o'qish, yozish, bilish jarayonlarining rivojlanishi, ijtimoiy rivojlanish) bo'yicha tayanch kompetensiyalarni (kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish) shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga asoslanganda tarbiyachi faoliyatining inklyuziv kompetensiyasi kognitivlik asosida takomillashtirildi;

MTT tarbiyachilarining inklyuziv kompetentlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari menejerlik, refleksivlik,

kreativlik, kognitivlik, insonparvarlikka asoslangan innovatsion faoliyatga yo'nalganlik kabi talablar asosida takomillashtirilgan; Shu tarzda, MTT tarbiyachilarining inklyuziv kompetensiyasi quyidagi tamoyillarga asosan rivojlanib va takomillashib borishi mumkinligining guvohi bo'dik. Bunda quyidagilar kuzatildi:

- 1) barqaror motivatsiya va ta'minlaydigan muayyan shaxsiy fazilatlarini shakllantirish;
- 2) pedagog-tarbiyachining ijodiy faoliyati va shaxsiy fazilatlarini aks ettirishi;
- 3) yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarini o'zlashtirishga, shuningdek, nogiron o'quvchilarning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda ijodiy salohiyatini rivojlantirish;
- 4) umumiy pedagogik: insonparvarlik, individuallashtirish, izchillik, hamkorlik, muvaffaqiyat, hodisalar, madaniy muvofiqlik;
- 5) maxsus ta'limning korreksion-kompensator yo'nalishi;
- 6) ta'lim va tarbiyaga faol yondashish, zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limga e'tibor oshirish.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, inklyuziv ta'lim nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun, balki butun ta'lim tizimi uchun ham ta'limni rivojlantirishdagi navbatdagi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash muammosini hal etishning qiyinligi ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy layoqatsizligi, jamiyat hayotida keng ishtirok etadigan bunday bolalarning imkoniyatlarini jamiyatda tushunmaslik bilan murakkablashadi. Shunga asoslanib, MTTda inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan tarbiyachilarining kasbiy kompetentligi darajasini oshirish va nogiron bolalar va ularning

ota-onalar uchun shart-sharoitlarni ishlab chiqish va yaratish lozim.

Tarbiyachi ko'p vaqtini bolalar bilan o'tkazadigan asosiy aktyordir. Uning asosiy ishiga o'quv mashg'ulotlari, bayramlar va ekskursiyalar o'tkazish kiradi. Pedagogik muloqotning har qanday shakli aniq belgilangan maqsadlarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni ta'lim tizimi dastur materialini inklyuziv ta'lim talablari darajasida ishlab chiqishi, muammolarini hal qilishi kerak.

Korreksion va rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni tarbiyachi barcha bolalarning qobiliyat va imkoniyatlarini rivojlantirishga va mavjud kamchiliklarni pedagogik-psixologik metodlar bilan tuzatishga aniq yo'naltirishi kerak.

Tarbiyachining metodlari mashg'ulot muammolarini hal etish uchun asosiy vositadir. Ular mohirona tanlangan bo'lishi lozim. Metod va usullarni shunday birlashtirish, yoki o'zgartirish kerakki, shu bilan birga pedagoglar faoliyati turlarida o'zgarish yuz bersin, toki dominant analizator o'zgarsin, ish vaqtida iloji boricha ko'p analizatorlar - eshitish, ko'rish, motorika, xotira va moddiy idrok jarayonida mantiqiy tafakkur ishtirok etsin.

Albatta, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash, ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Inklyuziv guruhda tarbiyalanuvchilar ayrim sabablarga ko'ra mashg'ulot jarayonini kuzatib borishni istamaydi, shuning uchun ular yordamga muhtoj. Mashg'ulot davomida bolalar holatidan kelib chiqqan holda topshiriqlarni berish tavsiya etiladi. Vazifa qisqa,

aniq bo'lishi, vazifalarni to'liq bajarishga yordam berishi kerak bo'ladi.

Tadqiqot yuzasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi takliflar o'rinalidir:

MTT pedagog-tarbiyachilarida inklyuziv kompetensiyani kamol toptirishga doir davra suhbatlari, uchrashuvlar o'tkazib borish;

MTTning ijtimoiy tarmoqlardagi saytlari va guruhlarida ota-onalar uchun inklyuziv ta'lim haqidagi ommabop ma'lumotlarni joylashtirib borish;

Har bir MTTning o'ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda inklyuziv ta'limni joriy etish va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlash;

inklyuziv ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

inklyuziv ta'limni joriy etgan MTTlarni inklyuziv ta'limga oid o'quv-metodik adabiyotlar bilan boyitib borishga alohida e'tibor qaratish orqali mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimida dolzarb bo'lib turgan inklyuziv ta'limning sifatini oshirish hamda bu jarayonda pedagog-tarbiyachilarining inklyuziv kompetensiyasini zamon talablariga mos tarzda takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D.Qaxxorova "Inklyuziv ta'lim texnologiyalari" 2019. 1bob 15-bet
2. L. Muminova "Maxsus pedagogika" Toshkent 2021 "Defektologiya" Toshkent 2016.
3. M. Ayupova "Defektologiya" Toshkent 2016
4. M. Ayupova "Logopedik o'yin" Toshkent 2011 yil, Maktabgacha tarbiya maxsus pedagogikasi" Toshkent 2009 yil
5. R. Shomaxmudova "Logopedik mashqlar kompleksi" Chashma print 6
6. R Shomaxmudova "Maxsus inklyuziv ta'lim" 2010yil
7. X.M Pulatova "Logopedik ritmika" Ma'ruza Toshkent 2011
8. X.M Pulatova R. Shomaxmudova "Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish tizimi" Toshkent 2018
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
10. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi. <https://www.uz.undp.org/>
11. Education for All global monitoring report. Strong foundations: early childhood care and education. Paris, UNESCO, 2007.
12. Margaret Beneke, Gregory A. Speaking Up for African American English: Equity and Inclusion in Early Childhood Settings Early Childhood Educ J (2015) 43:127-134 DOI 10.1007/s10643-014-0641-x
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori





## IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISHLASHDA OTA-ONA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI HAMKORLIGI

Mamajonova Nozila

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 10 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001210">https://doi.org/10.54613/001210</a></p>	<p>Maqolada imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligi, imkoniyati cheklangan bolalar bilan mashg'ulot olib borishning turli usul va metodlari keltirilgan. Alohida ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kelgusidagi vazifa va majburiyatlari tahlil etilib, xorij tajribasining o'ziga xos usullari o'rganilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>Imkoniyati cheklangan bolalar, xulq-atvor, maktabgacha talim tashkiloti, ota-ona hamkorligi, ijtimoiylashuv.</p>	

### KIRISH

Bilamizki, bugungi kunda har bir insonning, xususan imkoniyati cheklangan bolalarning ham ta'lim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlangan. Oramizda shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma'naviyati yuksak, ruhiyati esa juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha ishlash, ta'lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Hozirgi paytda ularning soni jahon miqosida juda ko'payib bormoqda. Aksariyat hollarda ular kamsitish va "qo'li kaltalik"dan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas'uliyatli ish davlat zimmasiga yuklatiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi 2009-yil 27-fevralda imzolangan, biroq uni ratifikatsiya qilish masalasi hal etilmagan edi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ushbu masala ilgari surilib, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, alohida qonun qabul qilish lozimligi ta'kidlangan.<sup>1</sup>

Qayd etish lozimki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 22-fevral kungi BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish masalalari bo'yicha mintaqaviy kengash tuzish taklifi bildirilgan va O'zbekistonda alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilayotgani ta'kidlangan edi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot yuzasidan xorijiy olimlar tomonidan nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan bo'lib, o'z ishlarida imkoniyati cheklangan bolalar Ajzen I., Ammah J., Arab, M. K., Lytle, R., Beamer A., Yun J., C. Acedo M. R. Amadio<sup>2</sup> va boshqa olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

Rivojlanishida nuqsoni bor bola oilasining alohida muammolari T.A.Bogdanova, G.B.Shoumarov, A.I.Dobrovolskaya, I.Y.Levchenko, I.I.Mamaychuk, V.L.Martinova, G.V.Pyatakova, YE.M.Mastyukova, G.A.Mishina, A.I.Raku, M.M.Semago, I.A.Skvorsova, T.N.Osipenko, A.S.Spivakovskaya, N.B.Shabalina,

A.R.Sharipova, N.N.Shkolnikova, V.V.Yurtaykina boshqalar tadqiqotlarida yoritilgan. Respublikamizda R.Sh.Shomahmudova imkoniyati cheklangan bolalarga tibbiy, texnikaviy yordam ko'rsatish maqsadida chet el investitsiyalarini jalb qilishda o'z hissasini qo'shgan. L.Sh.Nurmuxamedova "Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari" mavzusida tadqiqot ishini olib borgan bo'lib, uning tadqiqoti ota-ona va nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik holatlarini o'rganish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola, agarda u maxsus ta'lim muassasasiga qatnayotgan bo'lsa shaxs sifatida rivojlanishi, ijtimoiy yetukligining muhim shartlaridan biri uning atrofda kattalarning: ota-onalar va pedagoglarning hamkorlikdagi ishidir. Bu ishning samarali bo'lishi va bolaning ijtimoiy rivojlanishiga to'laqonli yordam berishi uchun nima qilish lozim, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda bolaning oilasi hamkorligini qanday tashkil etish kerak va bundan faqatgina pedagoglar emas, balki ko'p jihatdan ota-onalarning qoniqishi - bu masalalar maxsus pedagogika, korreksion pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir.

Shu sababli oiladagi muammolarni bilish va ota-onalarga aqli zaif bolani to'g'ri tarbiyalash tamoyillari va metodlarini o'rgatish kerak. Bularni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti doimo ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borishi zaruriyati kelib chiqadi. Ana shu hamkorlikning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun uni tashkil etish va olib borishning samarali usullari, yo'llarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

### TADVIQOT METODOLOGIYASI

Imkoniyati cheklangan shaxs - bu shaxsiy ehtiyojlarini va ijtimoiy hayot yetishmovchiliklarini qisman yoki to'liq o'zi mustaqil ta'minlay olmaydigan istalgan shaxs. Nogironlik qabul qilingan tasnifnomaga ko'ra organizmdagi domiy buzilishlarga olib keluvchi, hayot faoliyatining cheklanishiga sabab bo'luvchi, alohida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj tug'diruvchi ijtimoiy zaiflik sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda bizning yurtimizda ham bunday shaxslar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Yurtimizda ham imkoniyati cheklangan shaxslarga juda ko'p shart-sharoitlar yaratilmoqda va ularning sog'lom shaxslardan ajralib qolmasliklari uchun qo'llab-

1 <http://www.ombudsman.uz/oz/news/2021/06/12/nogironligi-bolgan---shaxslarga-teng-imkoniyatlar-yaratish-boyicha-ishlar-jadallashtirilishi-lozim-2>  
2 Ajzen, I. (1991). The theory of planned behavior. *Organizational Behavior and Human Decision Processes*, 50(2), 179-211. Ammah, J. O. A., & Hodge, S. R. (2006). Secondary physical education teachers' beliefs and practices in teaching students with severe disabilities: A descriptive analysis. *High School Journal*, 89(2), 40-54. Arab, M. K., & Lytle, R. (2002). Kuwaiti physical educators' attitudes toward teaching individuals with

disabilities. *Chico: ICHPER - SD Journal. California State University. Avramidis, E., & Norwich, B. (2002). Teachers' attitudes towards integration/inclusion: A review of the literature. European Journal of Special Needs Education*, 17(2), 129-147. Beamer, J. A., & Yun, J. (2014). Physical educators' beliefs and self-reported behaviors toward including students with autism spectrum disorder. *Adapted Physical Activity Quarterly*, 31(4), 362-376. Blanco, G. R. (2009). Conceptual framework of inclusive education.

quvvatlanishi ta'minlanmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar har xil kasallik turi bo'yicha, ya'ni:

1. Eshitish (eshitishi zaif, kar).
2. Ko'rish (ko'rish qobiliyati zaif, ko'r);
3. Nutq (turli darajada), aql;
4. Kechikkan psixoverbal rivojlanish (ZPR)
5. Mushak-sklet tizimi;
6. Hissiy-irodaviy soha turlariga bo'linadi.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlar har xil bo'ladi, ularning ba'zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, eshitishda nuqsoni bor bolalar ko'pincha nutq faoliyatida muammolari borligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. Chunki bolaning nutqi eshitish orqali rivojlanadi, bola nutqida og'ir nuqson bo'lsa, ilk yoshda to'g'ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta'sirida uni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson markaziy nerv sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, aqli zaiflik shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq kamaytirish, ko'zga ko'rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin.

Maxsus pedagogika amaliyotida yana shunday toifadagi alohida yordamga muhtoj bolalar bo'lishi kuzatiladi, ulardagi nuqsonni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlikning ayrim turlari, shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rni bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyatida muammosi bo'lgan bolalar esa imo-ishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Korreksion pedagogika fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlari mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

- surdopedagogika (lotincha surdus - kar, gung so'zidan olingan) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;
- tiflopedagogika (yunoncha tiflos - ko'r, so'qir so'zidan olingan) - ko'zi ojiz bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; oligofrenopedagogika (yunoncha oligos - kam, fren - aql), so'zlaridan olingan, - aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan;
- logopediya (yunoncha logos - so'z, padeo - tarbiya so'zlaridan olingan) - og'ir nuqsonlarini o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

Respublikamizning barcha viloyatlarida zamon talablariga muvofiq alohida yordamga muhtoj bolalarning differensial va integratsiyalashgan, inklyuziv ta'limi barcha yo'nalishlar bo'yicha jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Butunjahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi to'g'risidagi Konvensiya, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekistonda kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" kabi va boshqa me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor alohida yordamga muhtoj bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topish huquqlariga egadirlar.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun bugungi kunda inklyuziv ta'lim muhiti juda katta ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim o'zi nima? Biz shu savolga to'xtalib o'tamiz. Inklyuziv ta'lim bu bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdir.

Rivojlanayotgan davlatlar qatorida bizning yurtimizda ham inklyuziv ta'lim muhiti yaratilmoqda, bunga yurtboshimiz tomonidan ko'plab qaror, farmoyishlar qabul qilinmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ularning ta'lim olish huquqini kafolatlash va ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga

yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim muhitini yaratish biz uchun sezilarli darajada o'z foydasini ko'rsatadi. Bunda imkoniyati cheklangan bolalar odatdagi rivojlanayotgan ko'nikmalarni tengdoshlaridan ko'rib, qachon va qanday ishlashni o'rganadilar va ular odatda rivojlanayotgan tengdoshlari bilan do'stlashish imkoniyatiga ega. Ularga o'zlariga va o'zlaridan farq qiladigan boshqalarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatlari beriladi.

Inklyuziya nimani anglatadi? Inklyuziya chaqaloqlar va nogiron bolalarni odatdagi ta'lim sharoitlariga va oilaviy bolalarni parvarish qilish uylari va markazga asoslangan dasturlarga birlashtirishdir. Bundan tashqari, nogiron bolalarni bir xil ta'lim dasturlariga joylashtirish va ularning ota-onalari nogiron bo'lmasa, ishtirok etish uchun tanlaydi. Inklyuziya odatdagi ta'lim sharoitida maxsus ta'lim xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim etadi. Inklyuziya - bu tarbiyachilar va oilalarga yetarli darajada qo'llab-quvvatlash va o'qitish dasturi. Bu ota-onalarning chaqaloqlari, bolalari va kattalar uchun tashvishlari va ustuvorliklarini hal qilishdir.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari:

- ✓ Har bir inson inklyuziv amaliyotdan foyda ko'radi;
- ✓ Inklyuziv ta'lim orqali bola mustaqilroq va o'ziga ishonadigan bo'lib yetishadi;
- ✓ Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ichidagi qo'rquvlari kamayadi;
- ✓ Bolalar tegishli ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganadilar.

Shuningdek, ular g'amxo'rlik va rahm-shafqatni ifoda etish qobiliyatidan xabardor bo'lishadi. Bu ta'lim muhitidan faqatgina bola emas bolaning ota-onalari ham foyda ko'rishadi. Chunki buningi kunda imkoniyati cheklangan bolasi bor ota-onani birinchi tashvishlantirgan masala bolasining tengdoshlaridan ajralib qolayotganligi va ta'lim olishi qiyin bo'layotganligidir. Hozirgi kunda ota-ona bolasi ta'lim olayotgan tashkilotga borib bimalol ta'lim muhitini ko'rish va yordamlashishi mumkin. Ota-onalar va boshqa oila a'zolari bilan qo'shilishdan foyda ko'rishadi, shuningdek ular o'zlari va farzandlari uchun turli xil ijtimoiy vaziyatlarni kengaytiradilar. Ular o'z jamoalaridagi katta oilalar guruhi bilan aloqada bo'lib, qo'rquvlari kamayadi.

Inklyuziv ta'limning vazifalari:

- ta'lim muassasasida ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zarur psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlantirish, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, bolaning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish; imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga muqobil munosabatni shakllantirishdir.

Respublika miqyosida alohida ta'limga muhtoj bolalarni inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari:

1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
3. Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
4. Markazlashtirilmagan bo'lish tamoyili.
5. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili.
6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
7. Malakaviylik tamoyili.


## TADQIQOT NATIJASI

Qo'llanilgan metodlarning maqsadi quyidagilardan iborat: mavjud bo'lgan nazariy va amaliy bilim, tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash natijasida mazkur muammoning yechimini topishga mo'ljallangan. Shuningdek, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligini "SWOT tahlili"ni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

## Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi SWOT tahlili

<b>S</b>	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining kuchli tomonlari.	1. Ta'lim olishi osonlashadi. 2. Tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi muloqot yaxshilanishi. 3. Teng huquqlilik hissini tuyadi. 4. Bolalar ijtimoylashadi. 5. Pedagog qaysi bolaga qanday usul bilan yondashish lozimligini bilishi.
<b>W</b>	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining zaif tomonlari.	1. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida o'rtoqlari tomonidan kamsitilishi mumkin. 2. Tarbiyachi imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda yetarli pedagogik mahoratga ega bo'lmasligi.
<b>O</b>	Hamkorlikning imkoniyatlari.	1. Axloqiy fazilatlar shakllanishi. 2. Ta'lim oladi va boshqa bolalar bilan teng huquqli bo'ladi. 3. Ijtimoiy munosabatlar yaxshilanishida.
<b>T</b>	Hamkorlikning to'siqlari.	Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ularga boshqa bolalarga nisbatan ko'p e'tibor berilishi oqibatida sog'lom bolalar chetda qolishi mumkin. Shuning uchun hamkorlik tartibini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorlik faoliyati bolalarning ta'limiy-tarbiyaviy jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda bola ijobiy xususiyatlarga ega bolishi va hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yish ota-ona va tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog'liq. Pedagog ota-onalarga inklyuziv ta'limni to'g'ri tushuntirishi, har bir bola jamiyat a'zosi ekanligini singdirishi hamda hamkorlikdagi faoliyat orqali barcha bolalarning samarali ta'lim-tarbiya olishiga erishish imkonligini tushuntira olishi lozim (1-rasm).




2-rasm. Imkoniyati cheklangan bola bilan ishlashda ota-ona hamkorligi (foizda)

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona hamkorligi muhimmi, degan savolga 70% "ha", 20% "qisman muhim", 10% esa "ahamiyatsiz", degan javoblarni berishgan. Ota-ona hamkorligi bolaga doimiy ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi, bolaning ular tarafidan qo'llab-quvvatlanishi va mehr-muhabbat bilan tarbiya berilishi bolaning rivojlanishida va har taraflama ilg'or bo'lishida muhim ahamiyat kasb etishi qatnashchilar tarafidan e'tirof etilgan. Demak, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda ota-ona hamkorligi birinchi o'rinda, desak mublag'a bo'lmaydi. Chunki imkoniyati cheklangan bolaning tengdoshlari safiga qo'shilishi, ta'lim olishi, sog'lom muhitda o'sib-ulg'ayishi ota-onaga bog'liqdir (2-rasm).


Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda sizning tashkilotingizda tarbiyachi maharoti yetarlimi, degan savolimizga so'rovnoma qatnashchilari 30% "ha", 40% "yo'q" va 30% "qisman", degan javobni berishdi. Tahlilga ko'ra alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga ta'lim va tarbiya berishda tarbiyachilar maharoti ko'pgina ta'lim tashkilotlarida yetarli emas.

Tarbiyachi imkoniyati cheklangan bola bilan qanday usullarda ishlash ko'nikmasiga ega emas. Bolaning guruhda ta'lim olishi, rivojlanib borishida ko'pgina mas'uliyatli ishlar tarbiyachiga yuklatiladi.




3-rasm. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda MTTda tarbiyachi mahorati (foizda)

Ushbu tadqiqot natijasidan xulosa qilib aytamizki, barcha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi yetarli mahoratga ega bo'lishini ta'minlagan holatda tashkilot tarbiyachilariga seminar-treninglar o'tkazilishi, tarbiyachining kasbiy faolligini oshirishimiz lozim. (3-rasm).




4-rasm. Sog'lom bolalarning imkoniyati cheklangan bolalar bilan bir guruhda tarbiyalanish ahamiyati (foizda)

Sog'lom bolalar imkoniyati cheklangan bolalar bilan bir guruhda tarbiyalanishi yaxshimi, degan savolimizga so'rovnoma qatnashchilari 50% "ha", 30% "yo'q" va 20% "ahamiyatsiz", degan javoblarni berishgan. Xulosada sog'lom bolalar bilan imkoniyati cheklangan bolalar bir guruhda ta'lim olishi so'rovnoma qatnashchilari tomonidan ma'qullangan. Chunki sog'lom bolalar imkoniyati cheklangan bolalar bilan tarbiyalanishi natijasida sog'lom bolalarda tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi, ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish-insonparvarlik hissi tarbiyalanadi. Imkoniyati cheklangan bolada esa tengdoshlari bilan birgalikda ishlashi natijasida tenglik hissi uyg'onadi. (4-rasm).



**5-rasm. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash (foizda)**

Ushbu savolga 40% “ha”, 35% “yo’q” va 25% “ba’zan”, degan javob tanlangan. Natijadan ma’lumki, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda aksariyat pedagoglar “ha” deb javob berishgan, lekin bizda yo’q va ba’zan degan javoblar ham bor. Hali bu ko’rsatkich 100% ha, degan javobga yetgani yo’q, biz bu vaziyatda yuqori darajaga erishish uchun bor imkoniyatlarimizdan foydalanib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun mahallalarda, oilalarda va guruhlarda yordam berish ko’nikmalarini rivojlantirib borishimiz kerak. (5-rasm)




**6-rasm. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda tarbiyachi metodlar qo'llashi (foizda).**

Ushbu savolga so’rovnoma qatnashchilari imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda metodlar tanlashda qaysi xususiyatlariga qaraysiz deyilganda 25% “metodlar shart emas”, 40% “yosh xususiyatlariga qarab” va 35% “qiziqishiga qarab”, degan javoblarni tanlashgan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda metod tanlashda har birining yosh xususiyatlariga qarash kerak. Albatta, bolaning ruhiy va jismoniy tараfdan rivojlanib borishi bolaning yosh xususiyatlariga bog’liq. (6-rasm)


Biz o’tkazgan so’rovnoma natijasiga ham e’tibor qaratadigan bo’lsak, ko’pchilik maktabgacha ta’lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun shart-sharoitlar yaratilmagan yoki tarbiyachi pedagogik mahoratga ega emasligi ko’rsatilib o’tilgan.

Ko’pchilik so’rovnoma qatnashchilari imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim muhimligiga qo’shilishgan. Imkoniyati cheklangan bolasi bor ota-ona mazkur vaziyatdan kelib chiqib, ularda bor qiziqishlarni aniqlab, maktabgacha ta’lim tashkilotiga berishda tarbiyachi bilan doimiy hamkorlikda bo’lishi, maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi tarbiyachilar imkoniyati cheklangan bolalar bilan muloqot qilish, guruhda mashg’ulotlar o’tkazishga pedagogik mahorati bo’lishi va imkoniyatlari cheklangan bolalarning har biri bilan alohida shug’ullanishi, tengdoshlari bilan birdek ta’lim olishiga yetarlicha imkoniyat yaratib berishi kerak. Imkoniyati cheklangan bola tengdoshlaridan ajralmasligi uchun tarbiyachi guruhda sog’lom muhit yaratishi, ya’ni bolalarga imkoniyati cheklangan tengdoshiga qiynaladigan ishlariga yordam berishi va do’stlashishi kabi tushunchalarni o’rgatishi sog’lom bolalar ongiga singdirishi kerak.



**7-rasm. Inklyuziv ta'limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun muhimligi (foizda)**

Inklyuziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun muhimmi, degan savolimizga so’rovnoma qatnashchilaridan 60% “ha”, 25% “yo’q” va 15% “ahamiyatsiz”, degan javoblar berilgan. Bundan inklyuziv ta’lim muhim, degan xulosaga kelindi. Chunki inklyuziv ta’lim sog’lom bolalar bilan imkoniyati cheklangan bolalar uchun sifatli bo’lgan ta’lim hisoblanadi. Chunki bunda har ikkala taraf ham foyda ko’radi. (7-rasm)



**8-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishi uchun kerakli jihozlar bilan jihozlanganligi (foizda)**

Ushbu so’rovnoma javoblarida 30% “ha”, 50% “yo’q” va 20% “qisman”, degan javoblar berilgan. So’rovnoma xulosalaridan ma’lumki, hozirda ta’lim tashkilotlarida imkoniyati cheklanganlar uchun yetarli shart-sharoitlar yo’q (8-rasm).

Bola uchun ota-ona hamkorligi juda ham muhim, ayniqsa, bu imkoniyati cheklangan bola bo’lsa. Bolaning tarbiyalanishida va sog’lom o’sib ulg’ayishida oilaning o’rni beqiyosdir.

Imkoniyati cheklangan bolaning ijtimoiy moslashuv jarayonining mazmuni quyidagi o’zaro bog’liq tarkibiy qismlardan iborat; motivatsion (ehtiyotlar, motivlar, ijtimoiy o’zini-o’zi takomillashtirishga qiziqishlar, ijtimoiy qadriyatlar); bu kabi tushunchalar ota-ona va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi orqali his qildirilib boriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning bog’chaga ko’nikishi, ayniqsa, tarbiyachi va bola uchun atrof-muhitdagi o’rtoqlarini bu muhitga ko’niktirish, qo’llab-quvvatlash va o’zgarishlar tufayli qiyin bo’lishi mumkin. Ushbu maqolaning maqsadi, imkoniyati cheklangan bolalar bog’chasiga o’tish davomida hamkorlikni kuchaytirishdir. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan shug’ullanib, uni qo’llab-quvvatlashda guruhdagi tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilarning o’rni katta. Shuningdek, bolaga g’amxo’rligi, u bilan alohida shug’ullanish uchun ajratgan vaqti bola uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar qo’llab-quvvatlashiga urg’u beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelayotgan bolaning rivojlanishida tengdoshlariga qaraganda kechikishlar bor va qabul qilishi qiyin kechadi. Bunda bolaning

kasallik turiga qarab maktabgacha maxsus tarbiyachisi tomonidan qo'llab-quvvatlash, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-ona hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

### TADQIQOT MUHOKAMASI

So'nggi yillarda jamiyatning nogiron kishiga, ya'ni imkoniyati cheklangan shaxsga munosabati tubdan o'zgarib boshladi, ular jamiyatning teng huquqli va munosib a'zosi, deb tan olindi. Lekin bugungi kunda imkoniyati cheklangan shaxslarning qo'shimcha muammolari bor. Odatda oilada imkoniyati cheklangan bola tug'ilishi bilan ota-ona tashvishga tushadi va moddiy, maishiy, moliyaviy muammolari ko'payadi.

Ushbu vaziyatda ko'pincha bola tengdoshlariga qo'shilmaslik oqibatida o'z qobig'iga o'ralib qolib ketadi. Masalan, bir oilada imkoniyati cheklangan bola tug'lsa, kamdan kam holatlarda ota-ona uni qo'rqmasdan ta'lim tashkilotlariga qo'sha oladi. Boshqa tarafini oladigan bo'lsak, ota-ona ko'pincha bolaning imkoniyati cheklanganidan uyaladi. Bunday vaziyatlarda ko'pincha ota-onalar bolaga o'zim ta'lim va tarbiya beraman deb ta'lim tashkilotlariga bermaydi va odamlarning ko'ziga ko'rsatmaydi, bola o'zi bilan o'zi qolib ketishi natijasida sezilarli darajada yomon oqibatlar kuzatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga imkoniyati cheklangan bola kelganida uni guruh muhitiga moslashtirish tarbiyachi uchun juda muhim va murakkab ish. Bunda tarbiyachi, albatta, psixolog bilan hamkorlikda bolaning aynan nimadan qiynalishi va nimalarga qiziqishini kuzatish orqali bilib olishi kerak. Bunda ota-ona hamkorligi ham tarbiyachi va psixolog hamkorligiga birlashgan holatda bo'ladi.

Tarbiyachi ota-onalar bilan tez-tez uchrashuvlar uyushtirib, munozara, test, so'rovnomalar o'tkazib tursa, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ota-onalar ishtirokida olib boriladigan har bir mashg'ulot bola uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu esa ota-onaga farzandining nimaga qodir ekanini anglashda yaqindan yordam beradi. Bolaning tengdoshlari qatoridan ajralib qolmayotganini, ta'lim olayotganini tushunib etadi. Bolaning o'zi ko'rmagan xususiyatlarini anglashida hamkorlik qay darajada muhim ekanligini his qiladi va farzandi oldida uning kelajagiga zamin yaratib berish mas'uliyati yanada oshadi.

Ta'lim muassasalarida ota-onalar va tarbiyachilar bilan o'tkaziladigan har bir munozara bolalarning ijtimoiylashuviga, maktab bosqichiga yengil qadam qo'yishida hamda sog'lom muhit yaratishga imkon beradi. Uchrashuvlar maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisi, guruh tarbiyachisi va tarbiyalanuvchilari hamda ularning ota-onalari ishtirokida o'tkazilishi bola rivojlanishida to'g'ri tashxis qo'yishga yordamlashadi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, nuqsonli bolani tarbiyalash boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlash, deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki, maxsus yordamga muhtoj bola o'qish jarayonida har tomonlama rivojlansin. Ushbu fikrga ko'ra imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalashda pedagoglar uchun keng targ'ibot ishlarini olib borish, jumladan qabul qilingan qaror, farmoyishlarni o'z o'rnida ularga yetkazish va mutaxassislar bilan muntazam ravishda hamkorlik ishlarini amalga oshirishi lozim.

Yuqorida o'rganganlarimiz asosida erta yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'lim muhitini yaratish biz uchun katta yutuqlar beradi. Inklyuziv muhitning foydali tarablari shundaki, tarbiyachi, mutaxassis va ota-onalar birgalikda ishlashadi, shunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim

tizimini o'z vaqtida bilib olish va tengdoshlaridan ajralib qolish muammosi bo'lmaydi. Bola barcha o'quv dasturlari va tadbirlarga kirish huquqiga ega bo'ladi hamda o'zi ham ishtirok etadi.

Qo'llab-quvvatlash orqali bola tengdoshlari qatorida yutuqlarga erishadi, ijtimoiylashadi. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida guruhlarda inklyuziv ta'lim muhitining yaratilishi juda katta foyda beradi. Imkoniyati cheklangan bola uchun inklyuziv ta'lim yana nimalar beradi:

- ✓ Imkoniyati cheklangan bola o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etadi;
- ✓ Dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- ✓ O'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;
- ✓ O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ✓ Sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- ✓ Yotsirash, yakkalanish kabi jihatlari yo'qoladi.

Endi inklyuziv ta'lim muhitini maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida yaratish orqali sog'lom bolalar zarar ko'rmaydimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Biz bu savolga, albatta, yo'q degan javobni qat'iy ayta olamiz.

Chunki inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv ta'lim orqali sog'lom bolalar o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar, tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi, ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish, ya'ni insonparvarlik hissi tarbiyalanadi.

Bolalarda atrofda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan pozitiv munosabat va hurmat tarbiyalanadi. Yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar va boshqalarning dardini o'zini singari qabul qiladilar.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi yaxshi samara beradi.

Hamkorlikni amaliyotga joriy etish ustida olib borilgan tajribalardan shu narsa o'z isbotini topdiki, har qanday imkoniyati cheklangan bolalarning nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab, mutaxassislariga murojaat qilib bolaning aqliy va jismoniy tarafdan sog'lom bo'lib yetishishida hamkorlik olib borilsa, albatta, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'yishda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi birdek muhim ahamiyat kasb etishi hamda uning rivojlanishi, kelajagini belgilab berishi uchun turtki bo'ladi. Shuning uchun biz vaziyatdan kelib chiqqan holda imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashimiz ularga yaratib berilgan shart-sharoitlardan foydalanishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Tadqiqotimiz natijasida biz o'rgangan muammolarimizga quyidagicha takliflar berib o'tamiz;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "farzandim uchun bir kun" loyihasini tashkillash.

Ota-ona va tarbiyachilar uchun seminar-treninglar tashkillash.

Imkoniyati cheklangan bolalarning onalariga ko'maklashish va yordam berish maqsadida mahallalararo soha mutaxassislari faoliyatini yo'lga qo'yish.

Chet el tajribalari asosida imkoniyati cheklangan bolalar uchun "Ko'ngillilar" tashkilotini tuzish va amaliyotga joriy qilish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2018. – B.6.
2. Nurmuxamedova L.SH. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped.fan.nomz.dis...avtoref. – Toshkent.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005. – B.26.
3. Ilektra Spandagou · Cathy Little · David Evans · Michelle L. Bonati "Inclusive Education in Schools and Early Childhood Settings" Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2020
4. Ajzen, I. (1991). The theory of planned behavior. *Organizational Behavior and Human Decision Processes*, 50(2), 179–211.
5. Ammah, J. O. A., & Hodge, S. R. (2006). Secondary physical education teachers' beliefs and practices in teaching students with severe disabilities: A descriptive analysis. *High School Journal*, 89(2), 40–54.
6. Arab, M. K., & Lytle, R. (2002). Kuwaiti physical educators'

- attitudes toward teaching individuals with disabilities. Chico: ICHPER - SD Journal. California State University. Avramidis, E., & Norwich, B. (2002). Teachers' attitudes towards integration/inclusion: A review of the literature. *European Journal of Special Needs Education*, 17(2), 129–147.
7. Beamer, J. A., & Yun, J. (2014). Physical educators' beliefs and self-reported behaviors toward including students with autism spectrum disorder. *Adapted Physical Activity Quarterly*, 31(4), 362–376. Blanco, G. R. (2009). Conceptual framework of inclusive education.
  8. <http://www.ombudsman.uz>. F.Eshmatova. Nogironligi bo'lgan shaxslarga teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha ishlar jadallashtirilishi lozim.
  9. Djurayeva, S. Maxsus ta'lim jarayonida pedagogi texnologiyalarning samaradorligi. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020
  10. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi qarori "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori.
  11. <https://www.samdu.uz/uz/news/> U.Bo'tayeva. Imkoniyati cheklangan shaxslar va ularning psixologiyasi. 2021
  12. Djurayeva, S. Kichik maktabgacha yoshdagi intellektida nuqsanli bo'lgan bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirish. JSPI. 2020
  13. Djurayeva, S. Ijtimoiy sherikchilik asosida imkoniyati cheklangan shaxslarga majmuaviy yordam ko'rsatish. JSPI. 2020
  14. Uzakbergenova G.B. Bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi. "Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning ro'li" mavzusidagi talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2022-yil 11-mart, 185-188 b.
  15. Abidova N.Q. Alohida yordamga muxtoj bolalarni korreksion tarbiyalashda oila hamkorligining asosiy yo'nalishlari " Uchinchi renessans davrida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning ro'li" mavzusidagi talabalarning ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 2022-yil 11-mart, 524-527 b.
  16. Shomaxmudova.R.Sh Alohida extiyojli bolalarni oilada tarbiyalash usullari, Toshkent-2016y
  17. 14. Shomaxmudova R. Sh "Maxsus va inklyuziv ta'lim" 2018-yil.



## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Mamaziyayeva Mahliyo

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil  <b>Jurnal soni:</b> 3  <b>Maqola raqami:</b> 11  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001211">https://doi.org/10.54613/001211</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b>            korpotativ boshqaruv, rahbar shaxs psixologiyasi, HR menejmenti, xodimlarni rag'batlantirish, KPI tizimi, boshqaruv usullari.</p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish usullari, mamlakatimizda soha faoliyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan tub islohotlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar, zamonaviy boshqaruv element va vositalari o'rganilib, soha faoliyatidagi muammolarni aniqlash va uni bartaraf etish usullari hamda ilg'or xorij tajribasidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari tatqiq etilgan.</p>

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi dasturida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim sifatini yanada rivojlantirish, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, 2022-2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024-2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish, maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7000 dan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish<sup>1</sup>, va bu borada yangicha boshqaruv mexanizmlarni amaliyotda qo'llash, maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, shuningdek, soha faoliyatini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalarning muhimligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini namoyon etadi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi bo'yicha 2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimida byudjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash, moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilgan.


Binobarin, uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvinii takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Shu maqsadda, 2022-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Moliya vazirligi huzurida davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>2</sup> qarorga

muvofiq 10 maydan boshlab "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini respublika miqyosida joriy qilishi ham maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi o'ziga xos talablar qo'yadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya jarayonlari va xodimlarni to'g'ri boshqarish tashkilot rahbaridan juda katta mas'uliyat talab qiladi. Shuning uchun Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlik lavozimiga maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan oliy ma'lumotga ega va 5 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lgan pedagog tayinlanadi. U maktabgacha ta'lim tashkilotida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, maktabgacha ta'lim tashkiloti kengashi faoliyatini yuritish, kadrlarning kasb va umumiy ta'lim mahoratini, madaniy darajasini muntazam o'stirib borishi, maktabgacha ta'lim tashkiloti manfaatlaridan kelib chiqib, ularni tartibli va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvinii tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>3</sup> 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish ko'zda tutilgan.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar qamrovi ko'rsatkichi dinamikasi<sup>4</sup>

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

2 Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-martdagi 129-son qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2017-yildagi PF-5198-son <https://lex.uz/docs/-3362886>

4 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi <https://stat.uz/uz/>

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarining samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talabga javob bermaydi. Maktabgacha ta'lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar yetgari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof- muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim

dasturlari tatbiq qilingan. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi.<sup>5</sup>

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Respublikamizda 2021-yil boshida jami 7753 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari (oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini inobatga olmagan holda) tashkil etilgan. Bu o'sish 4 yil davomida o'rganib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilganidek, maktabgacha ta'lim – bu ko'p tomonlama, aniq maqsadga yo'naltirilgan, bolalarni ta'limning keyingi bosqichi – maktab ta'limiga tayyorlovchi, jismoniy, ruhiy, individual va yoshga doir rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim va tarbiya berishdir.

1-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagog va xodimlarining lavozim vazifalari<sup>6</sup>

N <sup>o</sup>	Xodimning lavozimi	Lavozim vazifalari
1	<b>MTT direktori</b>	- Tashkilotning Nizom (Ustav)ga muvofiq faoliyatini tashkil etish; - tashkilot joylashgan hududda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, - tashkilotning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish;
2	<b>MTT uslubchisi</b>	- maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ-hujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish; - tashkilotning o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish;
3	<b>MTT tarbiyachisi</b>	- ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish; - bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish; - milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berishning samarali shakllari va usullarini joriy etish; - guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalarini joriy etilishini ta'minlash; - guruhlardagi faollik markazlarini bolalar yoshiga mos bo'lgan o'quv ko'rgazmali, tarqatma va didaktik materiallar orqali bolalarga zarur sharoitlarni yaratish; - tarbiyalanuvchilar sog'ligidagi o'zgarishlar to'g'risida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, tashkilot tibbiy xodimlari, ota-onalarni darhol xabardor qilish;
4	<b>MTT psixologi</b>	- tashkilot pedagog xodimlari, bolalar va ota-onalar bilan ishlash rejasida ishlarni tashkil etish; - maktabgacha yoshdagi bolalar bilan psixologik-pedagogik tashxis va korreksion ishlarni tashkil etish;
5	<b>MTT yordamchi tarbiyachisi</b>	- guruhda bolalar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, ehtiyotkorlikni ta'minlash; - maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni aqliy va jismoniy rivojlanishidan kelib chiqib, vatanga, milliy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning muomala ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan guruh va individual mashg'ulotlar, o'yinlar, bayram ertaliklari, sayr va boshqa tadbirlarni o'tkazishda tarbiyachiga ko'maklashish; - odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini talablariga rioya qilish;
6	<b>MTT til o'qituvchilari</b>	- tilni o'rganish bo'yicha tarbiyalanuvchilar uchun o'yinlar va mashqlarni rejalashtirish va tashkil etish; - til o'rgatishda didaktik materiallarni bola yoshiga mos ravishda tanlash; - bolalar bilan guruhda va individual tarzda mashg'ulotlar o'tkazish; - amalga oshirilgan ishlar bo'yicha pedagogik kengash va ota-onalar yig'ilishlarida hisobot berish; - ochiq mashg'ulot va seminarlar tashkil etish; - oilada xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha mustahkamlovchi mashqlarni o'rgatish bo'yicha ota-onalarga tavsiya va maslahatlar berish;
7	<b>MTT musiqa rahbari</b>	- tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo'lgan qobiliyatlari va ijodiy va musiqaviy faoliyatini tashkil qilishning turli shakl va ko'rinishlaridan foydalanib, ularda estetik didni shakllantirish, musiqani tinglashga o'rgatish; - tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlarini yakka va jamoa ko'rinishida rivojlantirishga ko'maklashish;
8	<b>MTT xoreografi</b>	- maktabgacha ta'lim tashkiloti rejasiga muvofiq, yosh bolalar uchun musiqa, teatr, badiiy gimnastika, xoreografiya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha seminarlar va ochiq mashg'ulotlar o'tkazishni tashkil etish; - tarbiyalanuvchilarning o'zbek milliy raqsi, xalq-sahna raqsi, balet raqsi konsepsiyasini, uning spektakldagi va ijrodagi vazifasi bilan birga o'zaro aloqada egallash, janr, xarakter, ifodaviy vositalar orqali dastlabki ko'nikmalarni o'rgatish;
9	<b>MTT jismoniy tarbiya yo'riqchisi</b>	- tarbiyalanuvchilarning jismoniy mashqlarni bajarishda tana a'zolarining harakatlarini to'g'ri rivojlantirish; - jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash; - mavjud sport maydonchalari, zallari va jihozlari holati, sanitariya me'yorlariga mosligini, ishlatilishi va saqlanishini ta'minlash; tibbiy xodimlar bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini saqlash holatini nazorat qilish;
10	<b>MTT hamshirasi</b>	- har kuni tayyor ovqat namunasini olish uchun idishlarni tayyorlaydi va davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati talablariga muvofiq namunani saqlash uchun olib qo'yadi; - namuna uchun qadoqlash holatini, uning markirovkasini kuzatib boradi. - kundalik taomlarni guruhlarga bo'yicha tarqatishda ishtirok etish; - oziq-ovqat mahsulotlarini guruhlarga ajratish jadvaliga muvofiqligini nazorat qilish, - taomnomadagi tarkibni tekshirish;
11	<b>MTT xo'jalik mudiri</b>	- maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish uchun ehtiyojlarning hisob-kitobini qilish va tashkilot rahbariga talabnoma kiritish; - bino va inshootlarining texnik holatiga va barcha moddiy boyliklarning saqlanishiga shaxsan javob berish;
12	<b>MTT bosh oshpazi</b>	- maktabgacha ta'lim tashkiloti oshxonasida ishni tashkil etadi; - taomlarni maktabgacha ta'lim tashkilotidagi taomnoma asosida tayyorlash texnologiyasiga amal qilgan holda tayyorlaydi; - tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarzda taomlarni porsiyalarga bo'ladi va tarqatadi; - kunlik taomnomani tuzishda ishtirok etadi.

5 Maktabgacha ta'lim vazirligi <https://mpe.uz/post-detail/posts/-departmental-normative-regulations/787>

6 "O'zstandart" agentligining 2021-yil 12-fevraldagi 5-1288-son qarori bilan tasdiqlangan.



Bolalarda rivojlanishi kerak bo'lgan potentsiallar mavjud. Har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, bu albatta, birbiridan farq qiladi. Bolalar faol, dinamik ishtiyoqli bo'lib, ko'rgan, eshitgan va his qilgan narsalariga nisbatan o'zlarida yuqori darajada qiziqish uyg'otadi. Ular izlanish va o'rganishni to'xtata olmayotganga o'xshaydi. Ularning ta'limiga kelsak, bolalik davridagi ta'limning tabiati va asoslarini yaxshi tushunish bevosita yoki bilvosita bolalar bilan ishlaydigan har bir kishi uchun muhimdir.

Bolalarning yetuk inson bo'lib yetishishi uchun undagi ta'lim darajasi talab qilinganidek bo'lishi zarur. Bu kabi sifatli ta'lim olish uchun bolalar boshqarilishga muhtojdirlar. Ta'limdagi shart-sharoitlar qanchalik yuqori bo'lmasin, tartib-intizom bo'lmasa bu kabi imkoniyatlardan foydalanish koeffitsiyenti pastlab ketadi. Bunday holatlar yuz bermasligi uchun tarbiyachilar va tashkilot rahbarlarini o'qitish va malaka oshirish kabi bilim investitsiyasi kiritish orqali amalga oshirilishi lozimdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqarishning barcha bo'linmalarida rejali, muntazam, ratsional hamda samarali ishlashni ta'minlovchi muhim funksiyalar belgilangan. Rejalashtirish murakkab analitik jarayon bo'lib, maktabgacha ta'lim boshqaruvining menejment faoliyatida asosiy rol o'ynaydi. Menejment so'zi boshqaruv turiga rahbarlik qilish, tartibga solish ma'nolarini anglatadi. Menejment ko'zlagan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni insonlar yoki ularning guruhlarini faoliyati hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalarini ko'rib chiqadi.

L.Fishman, "Ta'lim menejmenti - bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o'ziga xos pog'onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta'lim oluvchilar jamoasi", - degan fikrlarni aytib o'tgan.

Boshqaruv - bu tizimni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida uning sifatini ta'minlash, tartibga solish uchun ta'sir etishdir. Ilmiy boshqaruv nazariyasining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga butun dunyoga mashhur ilmiy menejment amaliyotchi va nazariyachilari F. Teylor, G. Ford, G. Emerson, A.Fayol kabilar katta hissa qo'shganlar.

Frederik Uinslou Teylor mehnat va asoschisi bo'lib, 1895-yildan boshlab mehnatni ilmiy tashkil etish bo'yicha dunyoga mashhur tadqiqotini boshladi. Uning fikriga ko'ra, "Korxonada rahbariyatining asosiy vazifasi korxonada ishlaydigan har bir ishchi uchun maksimal farovonlik bilan birga tadbirkor uchun maksimal foydani ta'minlash kerak

O'z davrida Anri Fayol "Ta'lim boshqaruvi bu - holatni ko'rish, kelajakni o'rganish", - deb ta'kidlagan edi. Bu o'rganishlar va tajribalardan kelib chiqqan holda, natijalardan ma'lumki, o'tkazilgan so'rovnomalarda, maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar va dasturlar bilan tanishish, pedagog-tarbiyachilarning ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi faoliyatini muntazam nazorat qilish, o'quv-seminarlar tashkil qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari bilan o'zaro hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ish faoliyatini o'rganish, ochiq mashg'ulotlarga kuzatish va xodimlarni rag'batlantirish, maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini takomillashtirish masalalari muhokama va tahlil qilingan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshqaruv izchillik bilan jamiyat-davlat xarakterini kasb etmoqda. U yoki bu tipdagi ta'lim muassasasini boshqarish qonuniyatlaridan foydalanish amaliyotda alohida xarakterga ega. Biroq menejmentda yo'nalganlik, tizimlilik, demokratiyaga asoslanganlik kabi umumiy xossalari, shuningdek, boshqarish maqsadida aynan bir xil boshqaruv amallarini (rejalashtirish, tashkil qilish, rahbarlik, nazorat) bajarish zarurati barcha tipdagi ta'lim muassasasi uchun umumiy sanaladi. Aynan boshqaruvda xarakterlarni integratsiyalash boshqariladigan tizimlarning yaxlitligini, bu bilan ta'lim tizimlarining tiklanishi, normal faoliyat ko'rsatishi va progressiv rivojlanishiga asosiy hissa qo'shishi nazarda tutiladi. Ta'lim muassasasi rahbari boshqaruv qonuniyatlarini aniqlab, struktura va jarayonga maqsadli ta'sir ko'rsatish uchun uning tegishli tur va metodlarini tanlaydi. Ta'lim muassasasini samarali boshqarish uchun direktor boshqaruvning

moslashish, dasturiy tartibga solish, kuzatish, o'zini-o'zi boshqarish kabi turlarini yaxshi bilishi va ularning dinamikasini ta'minlay olishi talab qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqarish modellari (tizimlari)ni tahlil qilib, ularning qator kamchiliklarini ko'rsatish mumkin:

- bu tizimlar to'lig'icha ta'lim oluvchi shaxsiga, uning rivojlanishiga qaratilmagan;
- ta'lim sifatini yaxshi nazorat qilmaydi;
- tizimlar haddan ziyod markazlashgan (direktor o'rinbosarlari va tuzilmaviy bo'linma rahbarlari darajasida mustaqillik yetishmaydi);
- pedagogik jamoa rivojlanishiga u qadar ko'maklashmaydi;
- tizimlar samarali pedagogik texnologiyalar rivojini ta'minlamaydi;
- ta'lim muassasasi ichki va tashqi muhitdagi tezkor o'zgarishlarga moslasha olmaydi.

Zamonaviy sharoitda boshqaruv qator xususiyatlari bilan tavsiflanadi: boshqaruvda mehnatni alohida elementlarga asta-sekin bo'lish, differentsiatsiyalash jarayonlari kechmoqda. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi tubdan o'zgarimoqda. Boshqaruvni desentralizatsiyalash o'zini o'zi boshqarish organlarining roli, ular rahbarlarining mustaqilligi ortib bormoqda.

Ta'limda boshqaruv deganda, boshqaruvchi va boshqariluvchi tizim o'rtasidagi rejalashtirilgan va bir maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirni tushunamiz.



2-rasm. Maktabgacha ta'lim boshqaruvida bolaga ta'lim berish mexanizmi

Tizimda tashkilotlar, boshqaruv usullarining tez o'zgarishi bilan birga, ta'lim boshqaruvining madaniyati, pedagogik jarayonlar, axborot resurslarining shakllari va miqdoriy boshqaruv hamda pedagogik jarayonlarning zamon bilan hamnafas bo'lishini ta'minlash yuqori sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlash imkoniyatlarini oshirish demakdir. Boshqaruv va boshqariladigan quyi tizimlar o'rtasidagi barqaror aloqani ta'minlash uchun boshqaruv qarorlarining amalda bajarilishi va mo'ljallangan natijalarga erishish to'g'risida ma'lumot beruvchi qaytar aloqani o'rnatish kerak.

Menejmentni ham boshqaruv faoliyati, ham boshqaruv mexanizmi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda ta'lim menejmenti fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayevlar boshqaruv o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish ekanligini ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradilar:

"Boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir". Boshqaruvchi qaysi boshqaruv shaklini qo'llashidan qat'iy nazar o'zining mustaqil dunyoqarashi, erkin fikri va quyidagilarni o'z ichiga olgan ma'naviy qiyofasi bo'lishi kerak. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarini - bu boshqaruvchi yoki uning o'rinbosarlari, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'lishidan qat'iy nazar, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak.

Zamonaviy menejment fani yetakchilik uslubini takomillashtirishga katta e'tibor qaratayotgani bejiz emas. 1940-yillarda K. Levin bizning davrimizda keng ma'lum bo'lgan boshqaruv uslublari tasnifini taklif qildi. Bu uslublar avtoritar, demokratik va liberaldir.

Avtoritar uslubga ega bo'lgan rahbar har doim qo'l ostidagilar bilan maslahatlashmasdan, o'z xohish irodasini ularga yuklamasdan va tashabbus ko'rsatish imkoniyatini bermasdan o'zi qaror qabul qiladi. Uning uchun faqat bo'ysunuvchilar bilan bunday munosabatlar ideal bo'lib, ular uning barcha qarorlarini bajarish uchun so'zsiz qabul qiladilar. Qoida tariqasida, ushbu uslub vakillari ma'muriy usullar bilan ustunlik qiladi: buyruqlar, tanbehlar, jazolar, muayyan imtiyozlardan mahrum qilish. U qo'l ostidagilarni rag'batlantirishning faqat ikkita usulini tan oladi - moddiy rag'batlantirish va ma'muriy jazo. Qattiq avtoritar uslub, odatda, yetarlicha malakaga ega bo'lmagan va bo'ysunuvchilarga ta'sir qilishning eng yaxshi usullarini bilmaydigan, shuningdek, o'zlarining afzalliklari haqida bo'rttirilgan fikrga ega bo'lgan rahbarlar tomonidan qo'llaniladi.

Demokratik (kollegial) uslubga ega bo'lgan rahbar ham o'zi qaror qabul qiladi, lekin uni qo'l ostidagilar bilan birgalikda ishlab chiqadi, ishonirish orqali ularga ta'sir qilishni afzal ko'radi. U qo'l ostidagilarga o'z vazifalarini yuklashning ma'muriy usullaridan qochadi, guruh muhokamasiga o'tadi va qaror qabul qilishda ularning faolligini rag'batlantiradi. Biroq, esda tutish kerakki, guruh qarorlarini qabul qilish mexanizmlari jamoaviy mas'uliyatsizlikka olib kelishi mumkin. Demokratik lider bo'lish juda qiyin. Muayyan vaziyatda to'g'ri ta'sir qilish usulini aniq shaxsiga muvaffaqiyatli qo'llash uchun rahbar psixologiya va boshqaruvni chuqur bilishi kerak. U yuqori hissiy barqarorlik, moslashuvchan xatti-harakatlar qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Demokratik boshqaruv uslubining samaradorligi rahbarning kommunikativ qobiliyatiga, muammoni hal qilish uchun vaqtinchalik resurslarga, bilim va tajriba uyg'unligiga bog'liq.

Liberal uslubga ega bo'lgan rahbar rivojlanish va qaror qabul qilishni to'liq (delegatlarga) bo'ysunuvchilarga ishonadi, ularga to'liq erkinlik beradi, faqat vakillik funksiyasini qoldiradi. Tashqi aloqalar bilan shug'ullanar ekan, u ichki hayot masalalarida o'z jamoasiga to'liq tayanishi mumkinligiga ishonadi. U jamoa taklif qilgan qarorni o'zini bilan to'g'ri kelmasa ham qabul qilishga tayyor. Liberal rahbar o'z qo'l ostidagilar bilan yaxshi ijodiy munosabatlar o'rnatishga intiladi.

### TADQIQOT NATIJASI

Bir qator istiqbolli maktabgacha ta'lim dasturlari va boshqaruv tizimlari bolalarning ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan. Ba'zi modellar tarbiyachilarning xatti-harakati va o'zaro ta'siri bolalarning diqqati, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini modulyatsiya qilishda muhim rol o'ynaydigan nazariyaga asoslanib, tarbiyachilar uchun strategiyalarni belgilaydi. Bir qator kichik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar va ota-onalarni ushbu strategiyalarga o'rgatish sa'y-harakatlari samarali bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, tarbiyachilar xatti-harakatlari bilan bog'liq muammolarni samaraliroq boshqaradigan guruh bolalarining faolligi yuqori ekanligi aniqlandi. Biroq, bu jarayonlar ham korrelyatsion ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, guruhdagi muhitni o'zgartirish bolalarning xatti-harakatlari va o'quv faoliyatidagi o'zgarishlarga olib keladimi yoki yo'qmi, degan savol tug'diradi. Ta'limni o'rganish asosi ushbu bog'lanishlarning mumkin bo'lgan sababini tekshirish imkoniyatini beradi.

### 2-jadval.

#### Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini rivojlantirish bo'yicha so'rovnoma<sup>1</sup>

1	Rahbaringiz maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar va dasturlar bilan o'zi va xodimlarini tanishtirib chiqadimi?
2	Rahbaringiz pedagog-tarbiyachilarning ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi faoliyatini muntazam nazorat qilib boradimi?
3	MTT da o'quv-seminarlar tashkil qilinadimi?
4	Boshqa MTTlar bilan o'zaro hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yilganmi?

Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish maqsadida Farg'ona maktabgacha ta'lim klasteri malaka oshirish kurslariga jalb qilingan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari orasida direktorlar faoliyatini o'rganish maqsadida anonimlik qoidalariga muvofiq so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnomada 50 nafar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga quyidagi savollar bilan murojaat qilindi. O'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra, ishtirokchilarning 47 nafari (94%) o'z rahbarlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi barcha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar va dasturlari bilan tanishib chiqqanligi, 3 nafari (6%) esa qisman tanish ekanligi aniqlandi.

Rahbarlarning pedagog-tarbiyachilarning ta'lim-tarbiyaviy jarayonidagi faoliyatini muntazam nazorat qilib borishi bo'yicha berilgan savolga 40 nafari (80%) ijobiy javob berishgan, 10 nafari (20%) esa nazoratning yetarli darajada emasligini belgilashgan.

So'rovnoma ishtirokchilarning 30 nafari (60%) MTTda o'quv-seminarlar tashkil qilinishini tasdiqlagan bo'lsa, 20 nafari (40%) bunday tadbirlarning amalga oshirilmasligini ma'lum qilishgan.

Boshqa MTTlar bilan o'zaro hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilganligi bo'yicha 28 nafar (56%) ishtirokchi hamkorlikni tasdiqlagan bo'lsalar, 22 nafar (44%) ishtirokchi buni rad etishdi.

Boshqaruv usuli odatda menejerning xodimlar va mehnat jamoalariga maqsadli ta'sir ko'rsatish, ularning harakatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlash usullari majmui sifatida talqin etiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu yerda usul - bu tashkilotning erishilgan darajasi bilan shartlangan, rahbardan tashqarida va mustaqil ravishda mavjud bo'lgan mutlaqo ob'yektiv tushunchadir.

Boshqarishning turli usullari va vositalarining optimal kombinatsiyasi va nisbatini tanlash analitik va psixologik ijodiy harakatdir.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlari zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, tarbiyachi-xodimlar bilan bevosita aloqasi, ichki nazoratning shaffof emasligi, tashkilotga oliy ma'lumotli kadrlarni jalb etmaganligi, hududdagi boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik va tajriba almashinuvining to'liq yo'lga qo'yilmaganligi kabi muammolar aniqlandi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirib o'tilgan qaror, farmon va fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim boshqaruv tizimi ravnaq topib, istiqbolga yuz tutgan sohaga aylanib boradi, maktabgacha ta'lim tashkilotida muammoli xatti-harakatlarni namoyon etishga moyil bo'lgan bolalar boshlang'ich maktabga o'tayotganda intizomiy choralar va maxsus xizmatlarga yo'llanmalarni talab qilishi mumkin. Biroq, bu uzoq muddatli ta'sirlarning barchasiga bolalar kiradigan boshlang'ich maktablarning sifati kabi omillar ta'sir qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvida bir qator o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud ekanligi aniqlandi. Ushbu muammolarni ijobiy hal qilish maqsadida quyidagi takliflar kiritildi:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbar, ya'ni direktor malakasini oshirib borish;
- tizimga rahbar boshqaruvi psixologiyasiga oid zamonaviy bilimlarni yo'naltirish;
- tarbiyachi va xodimlar ish faoliyatini nazorat qilish hamda rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rish;
- davlat dasturiga kiritilmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini dasturga kiritish taklifini tuman hokimiyatiga berish orqali tashkilotda zamon talabiga mos keluvchi shart-sharoitlarni yaratish;
- bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi o'quv qurollari va sport jihozlari bilan ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli kadrlarni ish faoliyatiga jalb qilish;
- -maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash.

1 Muallif ishanmasi

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. И.Марияновна, А.Анатольевна, Е.Анатольевна, Г. Владимировна "Управление дошкольной образовательной организацией в условиях реализации" фгос до: курс лекций ©скиропки про, 2021
2. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: O'zbekiston, 2017.
3. F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, "Maktabgacha pedagogika", Darslik, "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent-2019
4. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida»gi Nizom (T.: 2017).
5. «Maktabgacha ta'lim to'g'risida»gi Konsepsiya (T.: 2008; 2011).
6. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivoilanishiga qo'yiladigan davlat talablari (T.: 2018).
7. «Ilk qadam» o'quv dasturi (T.: 2018).
8. Abchuk V.A., Panfilova A.P. "Pedagogik mutaxassisliklar bo'yicha menejment", M., "Akademiya" axborot markazi, 2010-y.
9. Belaya K.Yu. Tretyakov P.I. "Maktabgacha ta'lim muassasasi: natijalarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish", M., UTs "Perspektiva", 2010,
10. Fatyushina L.I. "Maktabgacha ta'lim tizimida menejment va marketing texnologiyalari", M., 2005-y.
11. Fatyushina L.I. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini boshqarish", M., 2003-y.
12. Baikova L.A. "Maktab direktorining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari ma'lumotnomasi: Markazning maktab ma'muriyati kutubxonasi" "M.: "Pedagogik qidiruv" markazi, 1999-yil.
13. Belaya K.Yu. DOWda: "Tahlil, rejalashtirish, shakllar va usullar". - M.: TTs Sphere, 2007.
14. Vyershinina N.B., Suxanova T.I. "Bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari: ma'lumotnomalar". - Volgograd: O'qituvchi. 2008 yil.
15. Vinogradova N.A., Miklyaeva N.V. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining sifatini boshqarish". - M.: IRIS PRESS. 2006-yil.
16. Volobueva L.M. "Maktabgacha ta'lim muassasasi katta tarbiyachisining o'qituvchilar bilan ishi". - M.: TC sohasi. 2003-yil.
17. Rossiya Federatsiyasi Davlat kengashining "Rossiyaning hozirgi bosqichda ta'lim siyosati to'g'risida"gi hisoboti 2012-yil.
18. Kindyashova A.S. Vazifa yondashuvidan foydalangan holda o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish // KibyerLeninka: <http://cybyerleninka.ru/2013-yil>.
19. Miklyaeva N.V., Miklyaeva Yu.V. "Maktabgacha tarbiyachilarning kasbiy mahoratini diagnostika qilish va rivojlantirish". Asboblal to'plami. - M.: Iris - bosing. 2008-yil.



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mamaraximova Mushtariy

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 12 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001212">https://doi.org/10.54613/001212</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> O'yin faoliyati, o'yin texnologiyasi, sahnalashtirish o'yinlari, ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar, ta'limiy o'yinlar, milliy o'yinlar.</p>	<p>Maqolada o'yinning yosh xususiyatlari, o'yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlarni shakllantirish, kuzatish, taxli va tatbiq etish, ta'lim-tarbiya jarayonini o'yin orqali rivojlanish markazlarida tashkil etish, umumiy guruxlarda ta'lim jarayonini rejalashtirish, guruhlarda tashkil etiladigan rivojlantiruvchi muhitni yaratish. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yinli texnologiyalardan to'g'ri va samarali foydalanish ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimining boy tajribasini o'yinlar orqali qo'llashning o'ziga xosligi asoslab berilgan.</p>

### KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiya qilish davlat ta'lim siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. Uning asosiy yo'nalishlari davlat va hukumat, Maktabgacha ta'lim vazirligining qator hujjatlarida aks etgan. 2019-yil 16-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunda, maktabgacha ta'lim va tarbiyani bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida belgilaydi. Bu qonun, tizimda o'ziga xos bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqdi va amalda joriy etilishini ko'rsatib ta'minlovchi hujjat sifatida qabul qilindi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Bu qonunning ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarida, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, olarlarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash belgilab qo'yilgan.<sup>2</sup>

2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi tasdiqlangan edi. Bu ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) da ta'lim faoliyatini tashkil etishning eng muhim tamoyili - o'yin orqali maktabgacha

ta'lim yoshidagi bolalarni o'qitish va rivojlantirishdir. Bu dastur guruhdagi beshta faoliyat markazida olib boriladigan mashg'ulotlarni, sayrlar, mustaqil faoliyatlarni o'yin tarzida olib borilishi nazarda tutilgan.<sup>3</sup>

O'yin bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy salomatligi va farovonligida markaziy rol o'ynaydi. Tadqiqotlar hatto o'ynash imkoniyatidan mahrum bolalar keyinchalik ijtimoiy va hissiy muammolarga duch kelishi mumkinligini tasdiqladi. O'yin bu bolalar olamni qanday qabul qilishi va o'z tajribasini anglashidir. O'yin shunday ahamiyatga egaki, 2013-yilda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada o'yinlar va o'yin-kulgi bolalar salomatligi va farovonligi uchun juda muhimdir va ijodkorlik, tasavvur, o'z-o'ziga ishonch, samaradorlik va jismoniy, ijtimoiy, kognitiv va hissiy kuch va ko'nikmalarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ular ta'limning barcha jihatlariga hissa qo'shadilar; o'yinlar kundalik hayotda ishtirok etish shakli bo'lib, bolaga faqat quvonch va zavq keltirishi nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda tadqiqotchilar, pedagoglar, psixologlar va shifokorlar o'yin barcha sohalarida yosh bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun hayotiy muhim element ekanligini ishonarli darajada isbotlab berishdi. Bu BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasining 31-moddasida ham belgilangan<sup>4</sup>. Unda aytilishicha, bolalar yoshiga mos o'yinlarda ishtirok etish huquqiga ega. Bolalar o'yin kompetensiyalarini egallashlari uchun ularga vaqt, makon, materiallar hamda ota-ona yoki vasiylarning, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali tarbiyachilarning qo'llab-quvvatlashi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu sababdan o'yin alohida bolalar uchun ta'limda muvozanatni saqlashga yordam beradi, chunki bola o'z ta'limini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan darajada va jadallik bilan olib boradi. U har bir bolaning rivojlanish ehtiyojlari va manfaatlarini g'ayrioddiy tarzda inobatga oladi.

O'yinda ikki yoki undan ko'p bolalar birga qurishsa, u ijtimoiy bo'lishi mumkin. Agar bolalar qolipga amal qilmasa yoki tuzilmani qaytadan yaratsa hamda shaxsiy dizaynga ko'ra qandaydir yangilik o'ylab topsa, u ijodiy bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari, o'yinning har xil turlari va darajalarini qator ijobiy ijtimoiy va (bilish jarayonlari) kognitiv natijalar bilan bog'lovchi juda ko'p tadqiqotlar o'tkazilgan. O'yinning yosh xususiyatlari, o'yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlarni shakllantirish, kuzatish, tahlil va tatbiq etish, ta'limi-tarbiya jarayonini o'yin orqali rivojlanish markazlarida tashkil etish,

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son  
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

3 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.

4 Bola huquqlari to'g'risida konvensiya, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan.

umumiy guruhlarda ta'lim jarayoni rejalashtirish tartibi guruhlarda tashkil etiladigan rivojlantiruvchi muhit haqida ma'lumot beriladi.

O'rganishlar natijasida o'yin texnologiyasida foydalanib tarbiyachilar quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi:

✓ O'yinning yosh xususiyatlari, o'yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlar shakllantirish, kuzatish, tahlil va tatbiq etish haqida bilimga;

✓ Ta'limi-tarbiya jarayonini o'yin orqali rivojlanish markazlarida tashkil etish. Umumiy guruhlarda ta'lim jarayoni rejalashtirish tartibi, guruhlarda rivojlantiruvchi muhit tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'ladi;

✓ Moddiy-texnika bazaga ega va ilg'or tajribaga ega mutaxassislar faoliyat ko'rsatayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan faoliyat turlarini kuzatish asosida faoliyatni tahlil etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu o'yin texnologiyalari tarbiyachilar va bolalar o'rtasida ta'limiy hamkorlikni belgilab beradi.<sup>5</sup>

Ushbu tajriba mavzusining dolzarbligi shundaki, o'yin motivatsiyasi maktabgacha yoshda boshlang'ich bilim hisoblanadi va uning asosida maktabga tayyorlik shakllanadi. Asosiy masala - o'yin texnologiyalaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlantirish bo'yicha ish tizimini yaratish, bu an'anaviy va innovatsion texnologiyalarning uyg'un kombinatsiyasini ishlab chiqish. Ushbu ta'lim o'zlashtirish jarayonini osonlashtiradi va tezlashtiradi, aqliy jarayonlar va nutq bilan ishlash metodlarini shakllantiradi. O'yin texnologiyasidan foydalangan holda biz maktabgacha yoshdagi bolalarni asosiy narsani ko'rishga, olingan bilimlarni tizimlashtirishga o'rgatamiz.<sup>6</sup>

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'limning zamonaviy tushunchalarini yo'naltirish bolaning shaxsiga bo'lgan yondashuvning o'zgarishini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlarda eng keng tarqalgan narsa qoniqishga qaratilgan o'sib borayotgan shaxsning har tomonlama rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojlaridir. Olimlar bolaning shaxsini uning yaratilishiga bo'lgan ehtiyoji nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, shu ma'noda, unda faoliyat birinchi o'ringa qo'yilgan bo'lib, bolaning konversiyaga bo'lgan ehtiyoji eng to'liq namoyon bo'ladi. Bunday faoliyat-bu o'yindir, V.L. Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: "o'yin bolalar uchun dunyoni ochib beradi, ijodiy qobiliyatlarini ochib beradi shaxslar. O'yin-bu bolaning ruhiy dunyosiga kiradigan ulkan yorqin oyna, dunyo haqidagi g'oyalari va tushunchalarning hayotiy oqimi. O'yin-bu qiziqish va qiziqishning nurini yoritadigan uchqun. O'yin-bolalar birinchi marta ishtirok etadigan mustaqil faoliyat tengdoshlar bilan muloqot qilish. Ularni yagona maqsad, unga birgalikdagi sa'y-harakatlar birlashtiradi. Bolalar o'yinni o'zlari tanlaydilar uni tashkil qiladilar.

Maktabgacha bolalik-qisqa, ammo muhim shakllanish davri. Bu yillarda bola dastlabki bilimlarga ega bo'ladi, atrofdagi hayot, u o'ziga xos munosabatni shakllantira boshlaydi, unda odamlar mehnat qilish, to'g'ri xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini rivojlantiradilar, belgilar paydo bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati-bu ruhiy va jismoniy kuchlar rivojlanadigan o'yin, o'yinda uning diqqatini, xotirasini, tasavvurini, intizomini, chaqqonligini ortadi. Bundan tashqari, o'yin maktabgacha yoshdagi o'ziga xos xususiyat, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish usuli. O'yin barcha tomonlarni tashkil qiladi, bolaning shaxsiyati, uning ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar mavjud bo'lib, rivojlanishning yangi, yuqori bosqichiga o'tishni tayyorlaydi. Mashhur psixolog L.S. Vygotskiy yozishicha, rivojlanish bu o'yinning ulkan ta'lim imkoniyatlarini ochib beradi, psixologlar maktabgacha tarbiyachining etakchi faoliyati deb hisoblashadi. Bolalik dunyosi-bu o'yin dunyosidir.<sup>7</sup>

Bolaning o'yinlari his-tuyg'ularga juda boy, ko'pincha hayotda u hali mavjud emas. A.N. Leontievning fikricha, o'yin genezis<sup>8</sup>ining tubida uning kelib chiqishi hissiyotlarga ega asoslari

yotadi. Bolalar o'yinlarini o'rganish bu fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi.<sup>9</sup>

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni o'qitish va ta'lim - tarbiya berishda o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish eng aktual masalalarifdan biriga aylandi desak adashmagan bo'lamiz. O'yin bu - maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hayotining muhim va yetakchi shakli sanaladi. Unda bolalar o'z xohishiga ko'ra birlashadi, mustaqil harakatlanadi, o'z g'oya va istaklarini amalga oshiradi, dunyoni anglaydi. Mustaqil o'yin faoliyati bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, axloqiy - irodaviy fazilatlarining shakllanishi, ijodiy qirralarining ochilishiga zamin yaratadi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti pedagogik innovatsiyalar tajribasini, psixologik - pedagogik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirishni talab qiladi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal yetish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu asnodan o'yin maktabgacha yoshdagi bola shaxsini, uning axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi, o'yinda dunyoga ta'sir ko'rsatish zaruriyati amalga oshadi. Bola ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Mashhur pedagog A.S. Makarenko bolalar o'yinlarining rolini ta'riflab, bola hayotida o'yinni xuddi kattalarning ish faoliyati, xizmatining ahamiyati bilan tenglashtiradi. Bola o'yinda qandaybo'lsa, ishda ham ko'p jixatdan u shunday buladi deb hisoblaydi. Shuning uchun bulajak arbobning tarbiyasi ko'p tomondan o'yin orqali amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqot uchun foydalanilgan asosiy ma'lumotlar, O'yinlarni Venn digrammasi orqali taxlili bo'lib, olimmlarning fikrlaricha, Y. A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, A.S. Makarenko, F. Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega» - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».<sup>10</sup>

Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi.

Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A. Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalohat bergan edi. F. Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Shunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. Ushbu muammoni hal qilish yo'llaridan biri bolalar bilan o'quv ishlarini tashkil etishning texnologik yondashuvidir.

O'yinni o'rganishga katta qiziqish XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, yosh avlodni tarbiyalash dolzarb masala bo'lgan davrda, o'yin shaxsni takomillashtirishning yangi faol vositasi sifatida taniqli rus o'qituvchilari, psixologlari va shifokorlarining e'tiborini tortdi. Shunday qilib, N.G. Chernishevskiy va N. A. Dobrolyubov jismoniy tarbiya bo'yicha ilg'or qarashlari va o'yin haqidagi alohida bayonotlari bilan o'yin nazariyasiga qimmatli hissa qo'shdi. O'yinlar ular axloqiy, jismoniy va aqliy tarbiyaning samarali vositalaridan biri sifatida qaraldi. Rossiyaning eng taniqli vakili pedagog K.D. Ushinskiy o'yinlarni ta'lim vositasi deb hisobladi. O'yin qisman insonning o'ziga xos

5 "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinli texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish" o'quv-uslubiy majmua, T-2022

6 Частное дошкольное образовательное учреждение «детский сад № 93 открытого акционерного общества «российские железные дороги» (чдоу детский сад 93 оао «ржд») Автор опыта: Синько Алла Анатольевна, Должность: учитель-логопед Город Тихорецк 2019г

7 «Роль игры в жизни дошкольника» Самарина Л.Л., воспитатель, I квалификационная категория

8 [yun. genesis - kelib chiqish, yuzaga kelish] Kelib chiqish, paydo bo'lish tarixi.

9 «Роль игры в развитии детей дошкольного возраста»

10 <https://hozir.org/oyn-maktab-yoshdagi-bolalarning-etakchi-faoliyati-reja.html>

ijodidir va u izsiz o'tmaydi, lekin ma'lum darajada yordam beradi, uning shaxsiyatini shakllantiradi.<sup>11</sup>

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bolaga yangi materialni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelmasligi uchun uni qanday qilib muvaffaqiyatli o'rgatish kerak? Ushbu muammoni o'yin texnologiyalari hal qilishi mumkin. O'yinda bola tabiiy ravishda korreksion, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni hal qilib o'rganadi. Bunga o'yinning ijobiy hissiy fonlari yordam beradi.

O'yinda bolalar barcha ko'nikmalaridan foydalanuvchi nazorat qilinadigan harakat makonini yaratadilar. Maktabgacha yoshda bolalarning ijtimoiy hayoti aynan o'yinda to'liq faollashgan bo'ladi. O'yin bolalarga muloqotning turli shakllaridan mustaqil foydalanish imkonini beradi. **O'yin jarayonida bolalar orasida ikki turdagi munosabatlar shakllanadi:**

✓ *o'yin mazmuni, qoidalari bilan belgilanadigan munosabatlar;*

✓ *o'yin bo'yicha namoyon bo'ladigan haqiqiy munosabatlar (rollarning taqsimlanishi, nizodan chiqish va h.k.).* Real munosabatlar shaxsiy bo'lib, nafaqat o'yinda, balki maktabgacha tashkilotda bolaning butun yashagan davri davomida shakllanadi. Shunday qilib, haqiqiy munosabatlar asosida bolalar "jamoatchilik" (A.P. Usova) sifatlarini shakllantiradilar (yoki shakllantirmaydilar): o'ynayotgan bolalar guruhiga kirish, unda muayyan tarzda harakat qilish, sheriklar bilan munosabatlar o'rnatish, jamoatchilik fikriga bo'ysunish kerak bo'ladi.<sup>12</sup>

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy yetishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil yetish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi. Dasturlar va qo'llanmalar, xorijiy tajribalarda aynan o'yin texnologiyasi asosida olib borish eng muhim ko'rsatkichlardan biriga aylandi.

O'yin odatda erkin tanlangan, bolalarga qaratilgan va zavqli faoliyat sifatida belgilanadi. U ijtimoiy, (bilish jarayonlari) kognitiv va rivojlanish xususiyatlari va bosqichlari bo'yicha qo'shimcha tahlil qilindi va tasniflandi. Tarbiyachi o'yinda bolalar bilan hamkorlik qilishi kerak u ularga yakuniy yechimlarni berish orqali emas balki muammoni taklif qilish orqali yordam berishi kerak. Shuningdek ularga o'z imkoniyatlarini anglashga yordam berishi kerak, o'yinda sherik bo'lish o'yin orqali ta'lim bolaning psixologik (potentsialini) (lot. potentia-salohiyat)-biror vazifani hal etish va ko'zlangan maqsadga erishishda foydalaniladigan manba, imkoniyat, mablag', zaxiralari, ayrim shaxs, jamiyat, davlatning muayyan sohadagi salohiyatlarni, boshqarishni anglatadi.

**O'yinlarni olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:**

✓ ijtimoiy tartib (ota-onalar, mintaqaviy komponent);  
✓ ta'limga oid ko'rsatmalar, ta'limning maqsadlari va mazmuni (ta'lim dasturi, ustuvor yo'nalish, monitoring natijalari va boshqalar);

✓ maktabgacha yoshdagi bolalarning yutuqlarini baholashning zamonaviy yondashuvlarini konkretlashtiradi;

✓ individual va tabaqalashtirilgan vazifalarni bajarish uchun sharoit yaratishi ko'rsatib o'tilgan.

O'yin texnologiyasining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyat ko'rsatish shartlariga va bolalarning rivojlanish darajasiga qarab faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish uchun to'liq motivatsiyali asosni yaratishdir.

Aynan Maktabgacha yosh - bu shaxsning poydevori qo'yiladigan, irodasi rivojlanadigan va ijtimoiy kompetensiya shakllanadigan o'ziga xos va hal qiluvchi davr xisoblanib, Bu va boshqa muhim fazilatlar nafaqat maxsus mashg'ulotlar jarayonida, balki bolaga beradigan o'yinda ham mavjud bo'ladi bu ko'rsatkichlar izohida bola eng muhim ijtimoiy rollarni "sinab ko'rish" imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning vazifalari:

✓ Bolaning o'z faoliyati orqali bilim va ko'nikmalarni egallashga ongli ehtiyoj, motivatsiyaning yuqori darajasiga erishishi.

✓ Bolalar faoliyatini faollashtiradigan va uning samaradorligini oshiradigan vositalarni tanlash vazifalari yotadi.

**Ammo har qanday pedagogik texnologiya singari, o'yin ham quyidagi talablarga javob berishi kerak:**

✓ **Texnologik sxema** - texnologik jarayonning mantiqiy jihatdan o'zaro bog'langan funksional elementlarga bo'lingan tavsifi.

✓ **Ilmiy asos** - ta'lim maqsadlariga erishishning ma'lum ilmiy kontseptsiyasiga tayanish.

✓ **Mustahkamlik** - texnologiya mantiqiy, barcha qismlarning o'zaro bog'liqligi, butunligi bo'lishi kerak.

✓ **Boshqariladiganlik** - natijalarni to'g'rilash uchun maqsadni belgilash, o'quv jarayonini rejalashtirish, bosqichma-bosqich diagnostika, turli xil vositalar va usullarni qo'llash imkoniyati taxmin qilinadi.

✓ **Samaradorlik** - o'qitishning ma'lum standartiga erishishni kafolatlashi, natijalar bo'yicha samarali va xarajatlar bo'yicha optimal bo'lishi kerak.

✓ **Reproduktivlik** - boshqa ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi.

✓ O'rganilayotgan hodisada shaxsan ishtirok etish (motivatsiya kognitiv qiziqishlarni qondirish va ijodkorlik quvonchiga qaratilgan) o'yin texnologiyalari bolaning qabul qilishi va ishtirokini to'liq ta'minlab beradi.

Bola o'yinda o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o'yinlari o'zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O'yin o'z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta'sir ko'rsatish darajasi, buyumlarning turlari hamda kelib chiqishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

#### O'yin turlari:

**1. Harakatli o'yinlar:** bolalarda sezgirlik, ildamlik, chaqqonlik, ishora va qoidalarga amal qilish, epcillik, intilish, hamjihatlilik, o'zaro yordam berish, qayg'urish, xushchaqchaqlik, chamalash, mo'ljalga olishga o'rgatadi.

**2. Tinch o'yinlar:** bu o'yin turi bolalar harakatli o'yinlardan olgan energiyani pasaytiradi va yurak-qon tomirlarini harakatini me'yor holatiga olib keladi. Harakatli o'yinlardan keyin albatta tinch o'yin berilishi lozim. Bundan tashqari xotira va nutqlarini rivojlantirish maqsadida ayrim so'z o'yinlari ham tinch o'yinlar sifatiga kiradi.

**3. Ta'limiy o'yinlar:** Bolalarda eshitish, ko'rish, sezish a'zolari orqali turli narsa va buyumlarni xossalarini bilishga, ularni taqqoslashga, sinchiklab o'rganish, umumlashtirishga, guruhlarga ajratish, kuzatuvchanlik, zukko, bilimdon, mustaqil, dono bo'lishga, narsa va hodisalarni tahlil qila olishga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. O'z nomidan kelib chiqib ta'lim beradi.

**4. Mazmunli-qoidal o'yinlar:** ijtimoiy hayotga tayyorlaydi, muloqotga kirishishni o'rgatadi, kattalar mehnati bilan tanishtiradi, dunyoni anglaydi.

**5. Rivojlantiruvchi o'yinlar:** Bolalarning aqlini peshlaydi, o'ylashga, ijod va ixtiro qilishga o'rgatadi.

**6. Qurish-yasash o'yinlari:** Bolalarda, aqliy, axloqiy, mehnat, ijodiy va estetik tarbiya asoslarini shakllantiradi. Ularda tafakkur rivojlanadi. Kichik guruhlarda bolalar qurilish materiallarining rangi, shakli bilan tanishsalar, katta guruhlarda esa shakllarning bir-biridan farqi, qurilma qismlarining rangi, tuzilishi va bir-biriga mosligini, qayerlarda ishlatish mumkinligini biladilar, harakatlar koordinatsiya rivojlanadi.

O'z o'rnida o'yin turlarini ijodiy va qoidal o'yinlar turkumiga ajratish mumkin.

**Ijodiy o'yinlar** - bolalarning mustaqil, ijodiy, o'zlari o'ylab chiqqan o'yinlar majmuidir. Bunda bolalar o'z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradilar va u orqali tafakkurlari rivojlanadi.

Ijodiy o'yinlar quyidagi turkumlarga bo'linadi:

1. *Syujetli-rolli;*

2. *Dramalashtirilgan;*

3. *Qurilish;*

4. *Tabiat materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar.*

**Ijodiy o'yinlar.** Ijodiy o'yinlar boshqa tur o'yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. *O'yin mazmunining o'ziga xosligi.*

11 А.С. Яцковец, взгляды отечественных и зарубежных ученых на феномен игры, 190-191 с

12 "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinli texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish" o'quv-uslubiy majmua, T-2022

2. Rollarning mavjudligi.

3. Hayoliy vaziyatning mavjudligi.


**Qoidali o'yinlar.** Bu o'yin turlari qoidalar asosida bo'lganligi uchun bolalar ham o'ynaydilar ham bilim oladilar. Qoidaga asosan kerakli jihozlar oldindan tayyorlab beriladi. Masalan: "Bu qaysi faslda?" ta'limiy o'yinida savolga javob beradigan rasmi kartochkalar tanlanadi va har bir faslga taqsimlanadi. O'yin orqali bola fasllar, ularda bo'ladigan tabiat hodisalari, mehnat turlari,

kiyim-kechaklar, o'yinlar haqidagi tasavvurlari kengayadi va bilimlari oshadi.

Qoidali o'yinlar quyidagi turkumlarga bo'linadi:

1. Harakatli o'yin;
2. Didaktik o'yin;
3. Musiqiy o'yin

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, o'yin turlari va turkumlaridan foydalangan xolda olib borilishi, texnologiyalaridan to'g'ri qo'llanganligini belgilab beradi.



**1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish muammolari va echimlarining SWOT tahlili metodi.<sup>1</sup>**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning SWOT tahlilini quyidagi ko'rishimiz mumkin. Bu metodning maqsadi quyidagilardan iborat: mavjud bo'lgan nazariy va amaliy bilim, tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash natijasida mazkur muammoni yechimini topishga mo'ljallangan hamda bilimlarni mustahkamlash takrorlash, baholashga mustaqil fikrlashni hamda tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, to'rt tamonlama o'rganishni ochib beradi.

Loyiha ishining emperik qismidan olingan ilmiy farazga asoslanib biz tadqiqotimizning keying bosqichini SWOT analiz orqali batafsil ochib berishga harakat qildik.

#### **S-afzalliklari**

1. O'yin orqali barcha bolalar jamoa bo'lib qatnashadi va o'zlarini erkin tutadilar
2. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezadi;
3. Bolada emotsional yetuklik- emotsional barqarorlikda namoyon bo'ladi;
4. O'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;
5. Bola shaxsida o'ziga bo'lgan ishonchi rivojlanadi.

#### **W- kamchiliklari**

1. Tarbiyachilarda bolalarda o'yin texnologiyalaridan qanday foydalanish va uni turli yosh bosqichlarida qanday yo'l-yo'riqlar bilan olib borish haqida to'liq bilimga ega emasligi;
2. Yetakchi mutaxassislar yetishmasligi;
3. Didaktik mashg'ulotlarning soni kamligi;
4. Ota-onalar bilan hamkorlik muammosi;
5. Infratuzilma (texnik resurs) yetishmasligi.

#### **O- imkoniyatlar**

1. Maktabgacha yoshda o'yinlarga oid ko'nikmalar shakllanadi;
2. Bilish orqali dunyoqarashi rivojlanishi imkoniyatini beradi;

3. Hamkorlikda ishlash orqali ota-ona hamda tarbiyachi pedagoglar bolaning atrof-muhitga, olamni asrashni habardor bo'lishi ;


4. Bola shaxsi jamoaga, muhitga erkin adaptatsiya qilish imkonini beradi.

#### **T- tahdidlar**

1. Tarbiyachi va hamkorlikda ishlamaslik natijada bolalarda o'yin va ijtimoiylashuvning kechikishi;
2. Bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda zamonaviy metodlardan foydalana olamaslik;
3. Bolalarda ularning yoshiga va tabiatiga mos o'yinlardan foydalanmasligi;
4. Maktabgacha yoshdan boshlab bilimlarni to'liq berilmasligi maktab ta'limiga o'tishda salbiy ko'rinishlarga olib kelishi.

**"Fikriy hujum" metodi** Mazkur metod tarbiyachilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodining asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad bolalarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish tarbiyachining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida tarbiyachilarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



**2-rasm. O'yin turlarining umumiy tasnifi<sup>1</sup>**

O'yin g'oyasi - bu nima o'ynashni belgilab olish: "do'kon", "shifoxona", "uchuvchilar", "bolalar tashkiloti" va shunga o'xshashlar. O'yin mazmuniga, g'oyasiga qarab bolalarning bunday o'yinlarini bir necha o'ziga xos guruhlariga bo'linadi. Ular, o'yinlarning bunday bo'lishi albatta shartli bo'lib, bir o'yinda har xil hayotiy voqealar aks etishi ham mumkin. G'oya o'yinning mazmuni, jonli to'qimasi, uning rivojlanishini, o'yin harakatlarini, bolalar munosabatlarining har xilligi va o'zaro bog'lanishini belgilab beradi. O'yining qiziqarli bo'lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o'yinning mazmuniga bog'liq. O'yinda bola ijro etadigan rol o'yining asosiy o'zagi va tarkibiy qismidir. Bolalar o'yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi. O'yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo'lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o'yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur: o'yin mazmunini ta'lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo'lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to'g'ri va to'la bo'lishi, o'yin harakatlariga faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo'lishi kerak. Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o'yinga rahbarlik qilish, o'yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o'yinda xayrixoh va xursand bo'lishlarini ta'minlash lozim.

O'z o'rnida o'yin turlarini ijodiy va Qoidali o'yinlar turkumiga ajratish mumkin.

Ijodiy o'yinlar – bolalarning mustaqil, ijodiy, o'zlari o'ylab chiqqan o'yinlar majmuidir. Bunda bolalar o'z taassurotlari, borliq hayotdagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradilar va u orqali tafakkurlari rivojlanadi. Ijodiy o'yinlar quyidagi turkumlarga bo'linadi:

1. Syujetli-rolli;
2. Dramalashtirilgan
3. Qurilish;
4. Tabiat materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar. Ijodiy o'yinlar boshqa tur o'yinlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. O'yin mazmunining o'ziga xosligi.
2. Rollarning mavjudligi.
3. Hayoliy vaziyatning mavjudligi. O'yin mazmunining o'ziga xosligi uning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kattalarning ijtimoiy hayoti o'zining rang-barang ko'rinishlari

bilan syujetli-rolli o'yinlarning mazmuni bo'lib xizmat qilar ekan. Ular bolalar kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turi o'yin ekanligini asoslab berdilar.



**3-rasm. 1. Syujetli-rolli o'yinlar**

Syujetli-rolli o'yinlar o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Rolli o'yinlar bolalarning kuzatuvchanligi, qiziquvchanligini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi. Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi.

"Bolalar bog'chasi", "Maktab" kabi o'yinlar bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, burch hissi, jamoatchilik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Rolli o'yinlarda har bir bola o'zi olgan rolini bajaradi. Masalan, quruvchi, haydovchi, tarbiyachi, enaga, o'qituvchi kabilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar avval katta bo'lmagan guruhlarda 2-3 kishidan bo'lib o'ynaydi. Katta va tayyorlov guruhlarida esa ko'p sonli jamoalarga birlashadi. O'yinda o'rtoqlik munosabatlari shakllanadi.



**4-rasm. 2. Dramalashtirilgan o'yinlar**

Bolalar bog'chasidagi teatr faoliyati bolalar uchun eng keng tarqalgan ijod turi hisoblanadi. Bu bolalarga yaqin va tushunarli, u o'yin bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ular tabiatning katta qismini egallaydi, ularda o'z-o'zidan namoyon bo'ladi. Atrofdagi hayotdan har qanday taassurot, har bir ixtiro, bolalar harakatlar va jonli tasvirlarga aylanishni xohlashadi. Ular o'zlari xohlagan rollarni o'ynaydilar, tasvirga kiradilar, o'zlarini qiziqtirgan yoki ko'rgan narsalariga taqlid qiladilar. Axir, ular bundan juda katta hissiy zavq olishadi.<sup>2</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar bilan qurilish materiallari yordamida o'yin va mashg'ulotlar o'tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotida qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi. Bolalarning qurilish o'yinlari rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish o'yinlarida ham

<sup>1</sup> F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, N. Kayumova, M. A'zamova, Maktabgacha pedagogika. T-2019-yil

<sup>2</sup> Read more at: <https://minikar.ru/uz/money/vidy-teatrov-v-detskom-sadu-i-atributy-dlya-teatralizovannyh-igr>



bolalar tevarak-atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar. Qurilish o'yinlarining mazmunini bolalarning o'zlari yaratadilar. Bolalar ko'pincha kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, «Quruvchi ishchi» rolini bajaradilar. Mayda qurilish materiallari bilan o'ynaganda qo'lining mayda muskullari yaxshi rivojlanadi. Qurilish o'yinlarini o'ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bundan tashqari, ular o'yin jarayonida oddiy geometrik shakllarning tuzilishi bilan ham tanishadilar. Qurilish o'yinlarining tarbiyaviy ta'siri shundaki, bunda bolalar aks ettiradigan hodisa va narsalarning g'oyaviy mazmuni o'z aksini topadi.



5-rasm. 3. Qurilish o'yinari

Barlar, urug'lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o'ynaladigan "Ajoyib qo'lqopcha", "Mevalar va ildizlar", "Bu botqoqda kimning bolalari" va shu kabi o'yinlardir. Bu o'yinlar yordamida bolalar faol muloqotda bo'ladigan predmetlarning hususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlari aniqlanib boyitiladi. Predmetli o'yinlar, ayniqsa kichik va o'rtayosh guruhlarda keng qo'llaniladi. Bu o'yinlar yordamida bolalarga tabiat jismlarining o'zidan foydalanish, ularni qiyoslash hamda ularda sodir bo'ladigan ayrim tashqi belgilaridagi o'zgarishlarni qayd qilish imkonini beradi predmetli o'yinlar barcha yoshdagi guruhlarning biroz murakkablashtirgan bilimlarini kengaytirish, tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Qoidali o'yinlar. Bu o'yin turlari qoidalar asosida bo'lganligi uchun bolalar ham o'ynaydilar ham bilim oladilar. Qoidaga asosan kerakli jihozlar oldindan tayyorlab beriladi. Masalan: "Bu qaysi faslda?" ta'limiy o'yinida savolga javob beradigan rasmlar kartochkalar tanlanadi va har bir faslga taqsimlanadi. O'yin orqali bola fasllar, ularda bo'ladigan tabiat hodisalari, mehnat turlari, kiyim-kechaklar, o'yinlar haqidagi tasavvurlari kengayadi va bilimlari oshadi.

Qoidali o'yinlar o'z o'rnida quyidagi turlarga bo'linadi. Didaktik o'yinlar, Harakatli o'yinlar, Musiqiy o'yinlar



6-rasm. 1. Didaktik o'yinlar.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual ( aqliy ) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy

tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, ro'li, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'ringa ega. O'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi.<sup>3</sup>



7-rasm. 1. Harakatli o'yinlar.

Harakatli o'yinlarni to'plash va ularni hayotga tadbiiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Nafas mashqlari, yurish turlari va sakrashlar, oyoq va qorin mushaklarini, gavda va umurtqani, oyoq va tovon bo'g'inlari mushaklarini tarbiyalashga qaratilgan mashqlar, chaqqonlik va jasurlik hamda muvozanat sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, quvnoq bolalarning harakatli o'yinlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakat turlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. O'rgatishning ushbu bosqichida harakat malakalari va ko'nikmalari ko'lamining kengayishi, jismoniy fazilatlar (tezlik, chidamlilik, tezkorlik va boshqalar) ning rivojlanishi bilan bog'liq holda ham mashqlarni yaxlit, ham harakat texnikasi elementlarini alohida-alohida muvaffaqiyatliroq o'zlashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Besh-olti yoshli bolalarda o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni ongli tushunib yetish, vaziyatni baholash, o'z harakatlarini boshqara bilishga muayyan tayyorgarlik bo'ladi, shuning uchun, og'zaki ko'rsatma berish va tushuntirish yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faoliyatida mustahkam bilim va ko'nikma shakllantirish mumkin bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun yaratilgan ta'lim-tarbiya dasturi, Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talbalariga muvofiq barcha guruhda bolalar yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqishga o'rganib, uni takomillashtirib boradilar, sport o'yinlari: bastketbol, futbol, sport elementlari va hokazolarni egallaydilar.<sup>4</sup>



8-rasm. Musiqiy o'yinlar.

3 <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-280190-1.html?page=2>

4 <https://infourok.ru/maktabgacha-ta-limda-harakatli-o-yinlar-5206699-.html>

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayoni mutlaqo bolaning musiqiy rivojlanish dasturini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ushbu dastur turli yosh guruhlari uchun sezilarli darajada farq qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanish dasturiga o'yinlar, mashq qilish, raqs va qo'shiq aytish kiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar: ritm, musiqiy va auditoriya. Ovozni balandligi, davomiyligi va miqdori bilan farqlashni o'rganing. Musiqiy asboblarga haqida g'oyalar oling. O'yin shakli va hissiy hissi bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va ko'p quvonchli va quvnoq daqiqalar beradi.<sup>5</sup>

*O'yinlar o'z o'rnida keltirib o'tilgan turkumlarga bo'linadi va bu tasniflar orqali izohlanadi.*

Tarbiyalanuvchilarga ta'limiy-tarbiya jarayoni o'yin orqali rivojlanish markazlarida tashkil etish mavzusidagi ma'ruza yuzasidan ularning bilim va tushunchalarini aniqlash uchun kartochkadagi savollar tarqatiladi va tinglovchilarga berilgan savollarni aynan o'zi faoliyat ko'rsatayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillariga bog'lab, misollar keltirib javob berishlari taklif etiladi.

### TADQIQOT NATIJASI

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'yin texnologiyasini olib borishda maktabgacha ta'lim tashkilotining (MTT) ning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rni juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- ✓ o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- ✓ o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;
- ✓ o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

✓ o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;

✓ o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasi ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqotlarda kuzatilishicha, agar o'yin rivojlantiruvchi, ijtimoiy va bilish jarayonlari (kognitiv) afzalliklarga ega bo'lsa, maktabgacha yoshdagi guruhlarda o'yinni tashkil etish va pedagogning roli uchun qanday xulosalar mavjud? Agar bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'ynasa, "akademik" ko'nikma va bilimlarni qanday o'rganadi? O'yin bolalar rivojlanishida katta ahamiyatga ega ekanligi va shu kabi savollarga javob bo'ladi, bular quyidagicha:

✓ bolaning ijobiy ijtimoiylashuviga ko'maklashadi. O'yinda (improvizatsiya) Improvizatsiya<sup>6</sup> (lot. Improvises - kutilmagan, bexosdan) oldindan tayyorgarliksiz, ijro davomida ijod etish, vaziyatlarni o'ylab topish va shu tariqa atrof-olam haqida yanada ko'proq ma'lumotlarni olsa bo'ladigan jarayon;

✓ ruhiy (psixik) jarayonlarni shakllantiradi: xotira, diqqat, tasavvur, nutq va h.k.;

✓ bolalarga quvonch bag'ishlaydi, turli hissiyot va kechinmalarni uyg'otadi, bolalar uchun atrofimizdagi voqealarni anglash va ijodiy aks ettirishning qiziq va qulay shakli hisoblanadi;


✓ ijtimoiy xulq-atvorning dastlabki ko'nikmalarini egallashga imkon beradi;

✓ boshqa bolalar bilan muloqotda bo'lish, ular bilan turli munosabatlarga kirishish, umumiy o'yin rejalarini amalga oshirish uchun kelishish va birlashish, o'yindagi sheriklarining manfaatlarini hisobga olish;

bolalarga jamiyatdagi o'z o'rnini tushunish va o'ziga bo'lgan ishonchsizlikni kamaytirishga yordam beradi. Demak, o'yin texnologiyalaridan foydalanishda to'g'ri yo'naltirilgan javoblar shu usullar bilan olib boriladi va kerakli natijalarga erishiladi. Oxirida natijalarda berilishi kerak.

### 1-diagramma

#### Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin texnologiyasidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish (foizda)



O'yin texnologiyalaridan sport o'yinlarining yozgi sog'lomlashtirish oyi tajriba-sinov ob'ekti qilib olindi. Tadqiqot 1oy davomida ikki guruh ishtirokida amalga oshirildi. Bular nazorat va tadqiqot guruhlari. Tadqiqot davomida ikki guruhda ham 7 tadan 14 ta tarbiyalanuvchi ishtirok etdi. Tadqiqot mashqlarini o'z tarkibiga kiritmagan an'anaviy (BO'SM dasturi asosida) va shu mashqlar bilan qo'llaniladigan mashg'ulotlar samaradorligi ikki guruhda ham tadqiqotdan oldin va tadqiqot yakunida tekshirish o'tkazish asosida aniqlanadi. Quyidagi o'yinlar bilan shug'ullanishni boshlagan 3-7 yoshli o'g'il va qiz bolalarda, 10 metrga yugurish, 20 metrga yugurish, archasimon yugurish, joydan turib va yugurib kelib gorizontol sakrashlar. Dastlabki o'rgatish bosqichida 3-7 yoshli bolalar jismoniy sifatlarni maxsus mashqlar yordamida samarali o'zlashtirish imkoniyati.


O'quv mashg'ulotlari jarayonida umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni hamda texnik-taktik malakalarning shakllanishi samaradorligini nazorat qilish yuqori malakali sportchilar tayyorlash borasida muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, ushbu nazoratning mavqeyi sport tayyorgarligining dastlabki o'rgatish bosqichida juda kattadir. Chunki, sport bilan endigina shug'ullanishni boshlagan bolalar o'zlarining funksional va jismoniy jihatlardan aham katta nagruzkalarga tayyor bo'lmaydi. Shuning uchun qo'llanilayotgan jismoniy va texnik-taktik mashqlar shu bolalarning imkoniyatiga qarab me'yorlangan bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, fiziologiya qonuniyatlaridan ma'lumki, agar ushbu mashqlar yuklamasi (nagruzkasi) hajmi, shiddati, murakkabligi jihatlari haddan tashqari yuqori bo'lsa, yosh organizm bu nagruzkaga bardosh bera olmaydi. Natijada charchash, zo'riqish va hattoki kasallik holatlari ro'y berishi mumkin. Agar bordiyu yuklamalar hajmi va shiddati juda kam bo'lsa. Unda taraqqiyot, ya'ni rivojlanish bo'lmashligi ehtimoldan holi emas. Demak, o'quv-mashg'ulot jarayonida doimiy va muntazam pedagogik nazorat tashkil qilinishi kerak. Shu bilan bir qatorda amaldagi o'quv-mashg'ulot dasturi o'z tarkibiga aksariyat an'anaviy-standart mashqlarni kiritgan.

5 <https://minikar.ru/uz/moda-i-krasota/formy-muzykalnogo-vospitaniya-v-detskom-sadu/>

6 O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Bunday mashqlar, ko'pincha bolalarni psixologik nazardan tezkroq charchatadi. Bolalarda mashg'ulotlarga nisbatan qiziqish so'nadi. Binobarin, mashg'ulotlarda maxsus mashqlarni qo'llash kutilgan samarani berishi tahmin qilinadi. Aynan shu masalani isbotlash maqsadida biz dastlabki o'rgatish bosqichida shug'ullanayotgan 3-7 yoshli voleybolchi bolalarda pedagogik tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqot ikki guruh nazorat va tadqiqot guruhlari ishtirokida 1 oy muddat davomida amalga oshirildi.



**9-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-ona hamkorligi tahlili natijasi (foizda)**

Nazorat guruhi amaldagi dastur asosida mashg'ulotlarda qatnashdilar.

3,5,7,9, jadvallarda (5,6,7,8,9 jadval) nazorat guruhida shug'ullangan yosh bolalarning tadqiqot boshlanishdan avvalgi va keyingi aniqlangan maxsus jismoniy sifatlarning shaxsiy ko'rsatkichlari darajasi qayd etilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tadqiqotdan avval tekshirilgan nazorat guruhi a'zolarining maxsus jismoniy sifatlari tadqiqot guruhi a'zolarining ko'rsatkichidan deyarli farq qilmagan. (2,3,6,7 jadval).

Sport o'yinlari bu harakatli o'yinlar uch davomida o'tkaziladigan yozgi sog'lomlashtirish oyining eng qizqarli va sog'lomlashtiruvchi o'yinlaridandir. Tadqiqot yakunida esa ushbu ko'rsatkichlarni farqini yaqqol ko'rish kuzatilgan. Yosh bolalarning tadqiqot oxirida olingan natijalari. (Tadqiqot guruhi va nazorat guruhi). Dastlabki, hamda 1 oylik mashg'ulotlardan so'nggi ko'rsatkichlarini havola etilgan.

**1-jadval.**

**6-7 yoshli bolalarda tezkorlik ko'rsatkichlarining dastlabki natijalari tadqiqot guruh.**

Nº	F.I.Sh.	10 m.ga yugurish	20 m.ga yugurish	Archasimo n yugurish.
1	Qosimov A	5,9	9,5	28,7
2	Normatov k	5,8	9,4	29,5
3	Maxamatov X	6,0	9,8	29,3
4	Bobojonov O	5,8	9,5	29,4
5	Jumaboyev M	5,9	10,1	30,0
6	Ismonov S	6,1	10,0	28,5
7	Abdullayev B	6,2	10,3	28,4
Σ		41,7	68,6	203,8
X		6,0	9,8	29,1

Siz faoliyat yuritayotgan MTTda tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligi yo'lga qo'yilganmi? degan savolimizga 95.3% kishi ha deb, 3.5% kishi yo'q deb, 1.2% kishi bilmayman deb javob berdi. MTTda tarbiyachi va ota-onalarning hamkorligini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki kichik yoshdagi bolalarni atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini

shakllantirishda ota-onaning roli beqiyos. Shu maqsadida MTT tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorligi uzviy bo'lishi kerak.

**2-jadval.**

**6-7 yoshli bolalarda tezkorlik ko'rsatkichlarini dastlabki nazorat natijalari (nazorat guruhi), n=7**

Nº	F.I.Sh.	Yoshi	Turgan joyida (sm)	Yugurib kelib (sm)
1	Qosimov A	3	20	32
2	Normatov k	4	21	32
3	Maxamatov X	5	20	30
4	Bobojonov O	6	23	35
5	Jumaboyev M	7	20	30
6	Ismonov S	7	22	31
7	Abdullayev B	7	20	30
Σ			146	220
X			20,9	30

Bola o'z o'yinlarida o'zlashtirgan hatti-harakatlarni taqlid asosida namoyish

qiladi. O'yinning turlari ko'p. O'yin turlari ichida ijodiy o'yin turi bola uchun qulay va qiziqarlidir. Mashhur pedagog va psixologlardan D.B.Elkonin, D.V. Mendjeritskiy, P.E.Samorukova va boshqalarning fikricha, syujetli-rolli o'yinlar kattalarning ijtimoiy hayotidagi rangbarang xatti-harakatlari, ko'rinishlari - bolalar o'yinlarining asosiy mazmuni bo'lib xizmat qilib, kattalar ijtimoiy hayotining namunasini oladigan faoliyat turidir.

O'yinlar texnologiyasida syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilish quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

1 - bosqich. Bolalarning qiziqishlarini, ulardagi syujetli o'yinlar rivojlanishi darajasini o'rganishning asosiy vositasi quyidagilar: - bolalar o'yinlarini kuzatish, - o'yin rivojining asosiy yo'nalishlari, o'yin mavzusi, o'yin mazmuni, bola o'yin faoliyatining rivoji, o'yinda o'zaro munosabatlarning rivojlanishi bo'yicha tavsifnoma tuzish; - o'yinga rahbarlik maqsadini aniqlash.

2 - bosqich. Kattalarning o'yin mavzui va mazmuniga ta'sir etishi: - o'yin mavzui bo'yicha sayohat va maqsadli sayrlar; - suhbatlar; - badiiy asarlar va hikoyalar o'qib berish; - illyustrativ rasmlar ko'rsatish; - mavzu bo'yicha turli mashg'ulotlar; - tasviriy faoliyat mashg'ulotlari

3 - bosqich. o'yinga tayyorgarlik (o'yin o'ynash uchun maxsus joy, o'yinchoqlar va o'yin materiallari); - tayyor o'yinchoqlarni tanlash; - qo'lda yasalgan o'yinchoqlar. Bunda bolalarning mustaqil shug'ullanishlari uchun o'yin zonasini tashkil etish.

4 - bosqich. Bolalarni o'ynashga o'rgatish (o'yin jarayoni va boshqa narsalarni o'yinda aks ettirish): - o'yinchoq va uning o'rnini bosuvchi buyumlar ta'sirini o'rganish; - o'yinda xayoliy tasavvurlarni aks ettirishga o'rgatish; - o'yinda so'zlardan foydalanishga o'rgatish; - o'yinda harakatlarni hisobga olish malakalarini shakllantirish; - so'z va harakat; - harakat va o'yin materiali, - so'z, harakat va o'yin materiali o'yinning tili xisoblanadi.

5 - bosqich. o'yinda ahloqiy munosabatlarga ta'sir etish, bolalar jamoasi, xulq-atvor, madaniyat, o'yin faoliyatida o'yin madaniyatini shakllantirish: - ma'lum o'yin mavzuiga nisbatan bolalarning his-tuyg'ularini uyg'otish; - bolalarga o'yinni avvaldan rejalashtirish elementlarini o'rgatish; - o'yinda rol va o'yinchoqlarni oqilona tag'simlashga o'rgatish; - tengdoshlari bilan ahil o'ynay olish madaniyatini tarbiyalash;

- ahil jamoani shakllantirish: mustaqil o'ynash va o'yinni oxiriga yetkazish, o'yin jarayonidagi kelishmovchilik, bahslarni oqilona hal eta olish malakalarini tarbiyalash; - kattalarning o'yinga ta'sir etishi - maslahat berishi, tushunchalarini to'ldirish, o'yinga

to'lag'onli yordam berish; - bolalarning o'yin faoliyatlarini, ahloqiy munosabatlarni baholash.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

O'yinlar texnologiyasida syujet - o'yin faoliyatida asosiy komponent bo'lib, u personajni, hayotiy vaziyatni, harakat va personajlar munosabatini o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoa o'yini bo'lib hisoblansada, yakka holda o'ynalmaydi, degan fikrni keltirib chig'armasligi kerak. Syujetli-rolli o'yinlar bolaning aqliy, ahloqiy, jismoniy rivojlanishlarida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bola ehtiyoji va malakasi tarbiyalanib, shakllanib boradi.

Bolalarni o'yinlar orqali ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda ularning o'ynayotgan o'yinchoqlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi prezidentimiz jonkuyarlik bilan shunday degan edi: "... har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni beqiyos ekani ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda 6 qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi." [4, 43-b.]

Bu fikr bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan o'yinchoqlarni ham tanlashga e'tiborni qaratishimiz lozimligini yana bir bor isbotlaydi. Xulosa: Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda o'yinli mashg'ulotlarni tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki o'yin bolalarning kelajakdagi o'quv va mehnat faoliyati, kishilarga, atrof tabiiy muhitga munosabatining qay darajada

shakllanib borishini belgilaydigan eng asosiy texnologiya hisoblanadi. O'yin faoliyati asosida bolaning bilish faoliyati rivojlanadi, u ijodiy, mustaqil fikrlashga o'rganadi, qobiliyatlari shakllanadi va albatta uzluksiz ta'lim tizimidagi yaratilgan shart-sharoitlar asosida o'qib, o'rganib, istiqbolda el-yurtga nafi tegadigan inson bo'lib voyaga yetadi.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki**, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, psixologik, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi.

**Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:**

- Bolalar bilan tez-tez ijodiy o'yinlarni tashkil qilish;
- Ijodiy o'yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish;
- Bola bilan hamkorlikda o'ynash va so'ralgan savollarga javob berish;
- Bolani kuzatuvchan bo'lishga va o'rtoqlari fikrini eshita olishga o'rgatish;
- Zamonaviy interfaol o'yinlardan foydalanish;
- O'z xatosini tan olishni o'rgatish lozim;
- Bolaning qiziqishlarini bilish hamda fikrlarini hurmat qilish;
- O'yin texnologiyalari bolalar bog'chasining o'quv va tarbiyaviy ishining barcha jihatlarini va uning asosiy vazifalarini hal qilish bilan chambarchas bog'liq. Ular pedagogik jarayonni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatli muammolarni hal qilish orqali uning sifatini oshirishga qaratilgan. Buning yordamida o'yin texnologiyalari bolalar bog'chasida ta'lim sifatini tartibga solish mexanizmlaridan biri bo'lib chiqadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari» T.: 2018.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi-T-2018
3. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika" darslik T.: "Fan va texnologiya", 2012
4. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.// "Xalq so'zi" gazetasi 2018 yil 8 dekabr
6. Nishonova Z.T, Alimova G.K. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi"2005
7. Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Qodirova, M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (3).
9. Qodirova, M. (2021). 6-7 yoshli bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlardan foydalanish. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании
10. Quronov.M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz. .T. "Ma'naviyat", 2014, 22-bet
11. Л.С.Выготский. Игра и её роль в психическом развитии ребёнка. — Стенограмма лекции, прочитанной в 1933 г. в ЛГПИ им. А.И. Герцена. Дата обращения: 12 мая 2013. Архивировано 12 мая 2013 года.
12. Кураев Г.А., Пожарская Е.Н. Лекция 6. Дошкольный возраст (ОТ 3 ДО 7 ЛЕТ). — Возрастная психология: Курс лекций. Дата обращения: 12 мая 2013.
13. Овсянникова, М. П. Значение игры для дошкольников / М. П. Овсянникова, А. А. Кутняк, И. Н. Балакина. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. - 2017.-№9(143).-С.347-350.-URL: <https://moluch.ru/archive/143/40177/> (дата обращения: 28.06.2022).



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOG-XODIMLARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Mamasoliyeva Muhayyoxon

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 13 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001213">https://doi.org/10.54613/001213</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, ta'lim integratsiyasi, perseptiv qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, konstruktiv qobiliyat, gnostik qobiliyat, didaktika.</p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari tahlil etilib, tarbiyachi-xodimlarning kasbiy kompetensiyasidagi mavjud kamchilik va muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog-xodimning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga egaligi, ularning faoliyatiga zarur bo'lgan samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari tadqiq etilgan.</p>

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va yangilash tarbiyachi pedagoglarning o'z ustida ishlashi, bilim, ko'nikma, malakalarini muntazam oshirib borish yo'lida ham o'ziga xos talablarni belgilab beradi. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va pedagoglarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish, faolligini oshirish hamda innovatsion jarayonlarga qiziqishi va ilmiy izlanish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisdagi Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi yo'nalishlar belgilab berilgan:

- sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish;
- pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.<sup>2</sup>

Bugungi kunga qadar kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyachilarning kompetentligini rivojlantirish borasida yetarlicha tadqiqot ishlarining olib borilmaganligi ham dolzarb masaladir. Chunki ta'lim muassasalarida tarbiyachining kasbiy kompetentligi rivojlantirilsa, ularning innovatsion kompetentligi tarkib topsa, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kompetentlikni shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari o'rgatib borilsa, tarbiyachi faoliyatining keyingi bosqichlarida bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash bilan bog'liq masalalar biroz bartaraf etilgan bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni tadqiq qilish masalalari bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Mazkur mualliflar kasbiy faoliyatni layoqatlilik, ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda olib boranda tarbiyachining kasbiy -

individual hodisa sifatidagi pedagogik madaniyatini tavsiflaydi, degan fikrni olg'a surganlar<sup>3</sup>. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning o'z faoliyatini amalga oshirishiga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi<sup>4</sup>.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy ishlarida «kompetentlik» degan tushuncha keyingi paytlarda keng qo'llanilmoqda. Ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuv xorijiy adabiyotlarda o'tgan asrning 60-yillarida shakllana boshlagan edi.

G'arb mamlakatlarida shakllangan an'anaga muvofiq mutaxassisning kasbiy malakasi uning kompetentligi, ta'lim tizimi esa - bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'chanadi. Xorijiy mamlakatlarda an'anaga muvofiq ishchining bilim va malakalarining o'ziga xos xususiyati hisoblangan mutaxassislik (malakaviy) standartlari ishlab chiqiladi.

Pedagogikada kompetentli yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta'lim jarayonlarida mavjud bo'lib, ular bosqichma-bosqich shakllangan. «Mahorat», «malaka» va «salohiyat» masalalari, [shu bilan birgalikda](#), bir qator faoliyatning birikuvi M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, V.V.Krayevskiy, G.P.Shyedrovidskiy, V.V.Davidov va boshqa pedagogika sohasi olimlarining ilmiy asarlari asosini tashkil etgan. D.L.Tompson, D.Pristinlar: «Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo'lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig'indisidir», deb ta'kidlaydilar. I.V.Grishina kasbiy kompetensiyaga shaxsning o'z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi, deb baho beradi va quyidagicha ta'riflaydi:

- «Faoliyatga bo'lgan munosabat, unga zarurat va qiziqish, intilishlar, qadriyat faoliyatidan maqsad, o'zining ijtimoiy o'rnini tasavvur qilish;
- shaxsiy o'ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqei, kasbiy bilim, mahorat va ko'nikmalar, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berish;
- shu asosda o'zining kasbiy jihatdan shakllanishi va o'sishini boshqara bilish demakdir.»<sup>5</sup>

Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar respublikamiz

1 N.B.Parmanova. The technology of the development of educators based on competent approach. Journal of innovations in pedagogy and psychology, 2020, special issue 2, pp. 346-350  
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son  
3 Suleymanova Ra'no Dusbekovna Kasbiy kompetentlikni shakllantirish <https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>

4 I.T.Mamasaidov Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda metodik keyslarda foydalanishni o'rni Analytical Journal of Education and Development Special Issue | 2022 "Challenges and Solutions of Modern Linguistics"  
5 Suleymanova Ra'no Dusbekovna Kasbiy kompetentlikni shakllantirish <https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>

olimlaridan: N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, R.D Jo'raev, F.Zakirova, Sh.Qurbonov, N.Muslimov, B.Ma'murov, Sh.Mardonov, Q.Olimovlar tomonidan olib borilgan.<sup>6</sup>

Tadqiqotchi D.Ermakov kompetentlikni quyidagi qator belgilar bilan xarakterlanadigan yaxlit shaxsiy ta'lim berish imkoniyati sifatida baxolaydi:

- bilimlar operativligi va mobilligi, har bir aniq vaziyatni uning turli jihatlarini hisobga olgan holda qo'llash va birlashtirish qobiliyati;

- kommunikativlik qobiliyati, faoliyat doirasida boshqa shaxslar bilan mustahkam aloqani yo'lga qo'ya olishi;

- o'zining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish qobiliyati, muayyan faoliyatga oid bo'lgan yangi qirralarni o'zlashtirishga intilish.

Keltirilgan qobiliyat, sifat va fazilatlarining mavjudligi shaxsning pedagog sifatida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata olish mezonini darajasida ekanligi ta'kidlanadi.<sup>7</sup>

Jumladan, M.A.Choshanov "Komponentlik - bu nafaqat bilimlarga ega bo'lish, balki ushbu bilimlarni muntazam rivojlantirib borish, aniq vaziyatlarda qo'llay olishga intilish, ya'ni, operativ va mobil bilimlarga ega bo'lish, tanqidiy fikrlash, qulay samarali qaror qabul qilish hamda yolg'onnini rad etish qobiliyatiga ega bo'lishdir, deb ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

Masalan, E.A.Texanova bo'lajak pedagogning kasbiy kompetentligini tahlil qilar ekan uning bilimi, kasbiy va hayotiy tajribasi, qiziqishlaridan foydalangan holda kasbiy pedagogik faoliyatda uchraydigan real vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qila olish qobiliyatini ochib beradi.<sup>9</sup>

N.Muslimov o'z ilmiy izlanishlarida oliy ta'limni mazmunan modernizatsiyalashda asosiy vazifa sifatida ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, talaba yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.<sup>10</sup>

B.Xodjaev esa ta'limni modernizatsiyalash - bu davlatning ta'lim sohasidagi siyosati asosini tashkil etib, ijtimoiy va umumxalq vazifasi sifatida u yaxlit ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlariga o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilishidir. Modernizatsiya jarayoni davlat va jamiyat, ta'lim oluvchilar va tarbiyachilar, ot-onalar hamda keng jamoatchilik qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi, deb izohlaydi<sup>11</sup>.

P.Lutfullaev o'zining ilmiy izlanishlarida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari xususida to'xtalar ekan, globallashuvni oliy ta'limda to'xtovsiz o'zgarish va rivojlanishning mahsuli sifatida ta'kidlaydi. Darhaqiqat, mazkur yondashuvlar o'z mohiyati va ta'sir doirasiga ko'ra oliy ta'lim tizimidagi akademik va tashkiliy strategiyalarni sifat menejmenti nuqtai nazaridan takomillashtirish, ta'limga kompetentli yondashuvni rivojlantirish, shuningdek kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimida sifat va raqobatbardoshlikni oshirishga, innovatsion menejmentni joriy etishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, kasbiy kompetentlik tushunchasi odatda muayyan faoliyat doirasida aniq muammolarni hal etish va vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va

malakalar, shuningdek zaruriy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi ijtimoiy-kasbiy mavqeni xarakterlaydi<sup>12</sup>, - deb aytib o'tadi.

K.J.Risqulovning fikriga ko'ra, "Kompetensiya" u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa - shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir.

Kompetentlikning asosiy mezonini samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi<sup>13</sup>.

Ilxamova I.N. ijtimoiy-madaniy kompetensiya xalqaro tilshunoslik, ijtimoiy-lingvistik va madaniyatshunoslik kompetensiyalarini o'z ichiga oladi, - deb hisoblaydi. Nazariy jihatidan, kompetensiya - bu ma'lum bir sohada samarali ishlash uchun zarur bo'lgan va o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan shaxsning turli layoqatlari va xususiyatlarining yig'indisidir<sup>14</sup>, deb fikr bildirgan.

I.P.Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san'atning bir qismi sifatida ta'riflab, shunday yozadi: Pedagogik mahorat deganda tarbiyachining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbi malaka va ko'nikmalarini mukammal egallashi<sup>15</sup>, o'z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo'lishi, o'z fikr-mulohazasiga ishonchi va qat'iy irodasi tushuniladi<sup>16</sup>, - deb ta'kidlagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan [foydalanishni yaxshi bilishi](#), hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

A.K.Markova eng ko'p tarbiyachi mehnatining kasbiy kompetentligi asoslarini qidirgan pedagog olim. A.K.Markova fikri bo'yicha, tarbiyachi o'z faoliyatini yetarlicha yuqori hamda talabalarni o'qitish va tarbiyalashni yuqori darajada amalga oshirsa, tarbiyachining mehnati kompetentlikka aylanadi. Ushbu asoslar bilan birga tarbiyachining kasbiy kompetentligini to'rtga bo'lib o'rganadi: maxsus yoki faoliyatli kasbiy kompetentlik - bu faoliyatni yuqori kasbiy darajada olib borishidir. Maxsus kasbiy kompetentlik nafaqat maxsus bilimlardan, balki bu bilimlarni amalga oshirishdan iborat.<sup>16</sup>

**Ijtimoiy kompetentlik** - bu qo'shimcha faoliyat olib borish, hamkorlikda bajarish yo'llarini bilish;

**Shaxsiy kompetentlik** - o'zini rivojlantirish va ko'rsatish yo'llarini bilish (mutaxassis o'zining faoliyatini rejalashtirish, mustaqil qaror qilish, ma'lumotlar bilan o'z ustida ishlash).

**Individual kompetentlik** - bu o'zini boshqarish yo'llarini bilish, kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik va kasbiy yangiliklar yaratish. Shu bilan birga tarbiyachining bilimlari yangiliklar bilan boyigan bo'lishi, psixologik va pedagogik fazilatlar yuqori darajada bo'lishi lozim. Kasbiy kompetensiya tuzilishi va mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat.

6 Azizxodjaeva N.N. "Педагогик технологиялар ва педагогик махорат". - Т: 2003. -104 б.; Бегимкулов У.Ш. "Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти". Пед. фан. док. ... дисс. -Т.: 2007. - 305 б.; Джураев Р.Х.

7 Ермаков Д. Компетентность в решении проблем. // Народное образование, №9/2005. -С. 89

8 Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. -С.218.

9 Дружилов С.А. Профессиональная компетентность и профессионализм педагога: психологический подход. // Сибирь. Философия. Образование. Научно-публицистический альманах: Со РАО, ИПК, Новокузнецк, 2005. -С.90.

10 Муслимов Н.А. ва бошқалар. "Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси". / Монография. - Т.: "Фан ва технология" нашриёти, 2013.

11 4 Ходжаев Б. "Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тадрижий тафаккурни ривожлантиришнинг модернизациялашган дидактик таъминоти". Пед. фан. док. ... дисс. - Т.: 2016. - 169 б

12 Лутфуллаев П. "Хорижий олий таълим муассасаларида сифат ва рақобатбардорликни таъминлаш йўллари": Пед. фан.бўйича фалсафа доктори(PhD) ... дисс. автореф. - Т.: 2018. - 22 б.

13 Рискулова К. Ж. "Булажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими". Пед.ф.д. (DSc) дисс. автор. — Тошкент: 2017. — Б. 14

14 Илхамова И. Н. "Нофилологик таълим йўналишидаги талабаларнинг ижтимоий-маданий компетентлиги контекстида нутқ кўникмаларини такомиллаштириш". Пед.ф.д. (PhD) дисс. автор. -Тошкент: 2019. — Б. 10

15 А. Холіқов педагогик маҳорат 0 'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 - "Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'alishi"ning talabalari (o4quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma Jfe 396-19) Toshkent «Iqtisod-moliya» 2011

16 Suleymanova Ra'no Dusbekovna "Kasbiy kompetentlikni shakllantirish" <https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>

**Kasbiy kompetensiya – bu bilim**, mahorat va tajriba uzviyligi bo'lib, loyihalash mutaxassis faoliyatini ro'yobga chiqaruvchi omil hisoblanadi. Turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan kasbiy kompetensiya muammolari to'g'risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi. Ayniqsa, kasb ta'limi tarbiyachilari uchun bu o'ta muhim jihat sanaladi hamda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasida ijodkorlik masalasiga alohida urg'u beriladi. Ijodiy dunyoqarash va qo'rqmay ijodiy faoliyat ko'rsatish, hatto u turmush masalalari bo'lsa ham; «bola» va uning mashg'ulotlari erkin tarzda takomillashib borishini chin dildan istashi va uni tashkil etish maqsadi talabning o'sishi va har tomonlama rivojlanishi uchun shaxsiy mas'ullik ana shular jumlasidandir<sup>17</sup>.

Kompetentlilik – bu ko'pgina ijtimoiy sohalarga va ijtimoiy yo'nalishlarga tegishli bo'lgan muammoli vazifalarni bajarilishidagi o'zlashtirilgan usullar, hayotiy muammolarning hal etilishidagi shaxsning butun tajribasidir. Kompetentlilikni insonning faoliyatiga jalb etilganlik darajasi sifatida belgilash mumkin. Shu sababdan, tarbiyachi pedagogik faoliyatining samarasi ko'p jihatdan unda kasbiy mahorat va kompetentlikning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi. Muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun har bir tarbiyachi kasbiy mahorat va kompetentlikka ega bo'lishi zarur.



1- rasm. Kasbiy kompetentlikning to'rt jihati<sup>18</sup>

Adabiyotlar tahlilini o'rganib, quyidagilarni keltirishimiz mumkin: kasbiy kompetentlik 4 jihadni o'z ichiga oladi<sup>19</sup> (1-rasm).

“**Mahorat**” so'zi, eng avvalo, o'z kasbining ustasi, omilkor, o'z ishini biladigan degan ma'noni anglatadi. Kasbiy mahorat esa ta'lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta'limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi sifatida tushuniladi.

**Bilim** - kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma'lumotlarimiz bilim darajasiga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqelikka mutanosibli; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim. Uchta shart birgalikda mavjud ma'lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. **Shaxsiyat** – bu individual farqlarni o'z ichiga olgan va shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiladigan o'zini tutish va fikrlash usullarining to'plamidir. Unga munosabat, boshqalar bilan aloqa qilish usullari, ko'nikmalar, odatlar va fikrlash usullari kiradi.

• Bu tajriba va xatti-harakatlar oqimini birlashtiradigan dinamik tashkilot yoki jarayonlar to'plami haqida.


• Boshqalar buni o'z-o'zini anglash (shaxs o'zini qanday belgilaydi) yoki shaxsning kimligini anglash bilan bog'liq holda belgilaydi.

• Fikrlash va o'zini tutishning o'ziga xos xususiyati; odatlar, qarashlar va atrof-muhitga moslashishning o'ziga xos shakli.

Pedagogik tajriba tushunchasi negizida kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o'zlashtirilgan bilim, orttirilgan ko'nikma va malaka majmui tushuniladi. Har bir o'qituvchi pedagogik tajriba to'plashda quyidagi yo'llardan foydalanadi.

Pedagogning kasbiy xislatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsadni belgilay olish, maqsadga erishish vosita va yo'llarini aniqlash, tahlil eta olish, sabotlilik, o'zining kasbiy pedagogik saviyasini doimiy oshirib borishga intilish kabilar. Ta'lim oluvchilarning muhim insoniy fazilatlarini sifatida insoniylik, g'amxo'rlik, mehr-shafqatlilik, halollik, haqqoniylik, adolatlilik, boshqalarga nisbatan hurmat, ma'naviy yetuklik o'z hissiyatini boshqara olish, tanishuvga, yangilikka intilish, ziyolilik va boshqalar.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, quyidagi to'rtta komponent pedagogik mahoratning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi:



2-rasm. Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlar<sup>20</sup>

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

Ta'limda yangi tadqiqot yo'nalishi bo'lgan kompetentli yondashuvning paydo bo'lishi hamda xorijiy pedagogik va metodik manbalarda «kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalari 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida paydo bo'ldi va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga keng kirib bordi.


Avvalambor, shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ta'limning kompetensiyaga yo'naltirilishi, hozirgi qaralayotgan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga ancha oldin asos solingan va “insonning bilimlariga asoslangan, ijtimoiy-kasbiy hayoti faoliyatida belgilangan shaxsiy va intellektual tajribasi” sifatida talqin etilmoqda.

17 “Maktabgacha ta'limda ijodiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari” <http://www.hozir.org/tasviriyy-faoliyatga-organish-metodikasi-va-nazariyasi-kirish.html?page=4>

18 <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkiloti-tarbiya-chisining-kasbiy-kompetentligi>

19 Line, M. "Creating Caring Qualified Early Childhood Teachers: An Exploration of The Relationship Between Teacher Efficacy And Learner-Centeredness Among Early Childhood Professionals In Arkansas". Published by ProQuest (2016)

20 Muallif ishlanmasi




3- rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

#### TADQIQOT NATIJALARI


Tadqiqotimizda so'rovnomma usuli orqali bir qator savollar respondentlarga yo'llangan. So'rovnomma usulidan kutilgan natija maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda qaysi usullardan foydalanishni belgilash va ularning mahoratlarini oshirish uchun nima ishlar qilish zarurligiga ilmiy yechimlar berishdan iborat.

Demak, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar o'zlaridagi mavjud bilim va tajribalarini baholagan holda professional kasbiy kompetensiyalari darajalarini qoniqarli tarzda baholashlari ma'lum bo'ldi.




4-rasm. Pedagog tarbiyachilarning professional kasbiy kompetensiya darajasi<sup>1</sup>

U esa, o'z navbatida kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan kurslar, treninglarni joriy etish, muntazam tarzda tashkillashtirishni taqozo etadi.



5-rasm. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi<sup>2</sup>

Mazkur javoblar natijalaridan ko'rinadiki, axborot texnologiyalarini faoliyatiga joriy etgan holda mashg'ulotlarning olib borilishi nisbatan amaliyotiga qo'llamaydigan va ba'zan qo'llaydigan mutaxassis tarbiyachilarga qaraganda kam ekanligi, sohadagi texnik vositalarning yetishmasligi, to'liq ta'minlanmaganligi va texnik vositalar bilan ishlash uquvi ham yetarlicha o'zlashtirilmaganligi kabi sabablar bilan bog'liqligi aniqlandi. Zamonaviy ta'lim va tarbiyada texnik vositalarsiz mukammal bilim berish imkoni cheklanib qoladi, shu bois har bir tarbiyachi faoliyatini malakali va yuqori saviyada tashkillashtirish



uchun axborot kommunikatsiya va multimedia vositalarini keng qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi (5 rasm).

6-rasm. MTTlar faoliyatida xorij tajribalaridan foydalanish va qo'llash imkoniyatlari holati<sup>3</sup>

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi xorijiy tajribalarni qo'llagan holda innovatsiyalarga asoslanilgan mashg'ulotlarning olib borilishi ham yetarlicha emas. Bu boradagi mavjud muammolarning hal etilishida soha mutaxassislarining tajriba almashinuv va onlayn seminar-treninglar, maxsus kurslar, xalqaro miqyosdagi konferensiyalarda ishtirokini ta'minlash orqali xorijiy tajribalarni amaliy qo'llash tajribalarini shakllantirish va mahalliy sharoitga, milliy qadriyatlariga moslashtirilgan holda qo'llashlarini ta'minlashga erishish zarurati tug'ilayotganligini ko'rsatmoqda.

O'zaro hamkorlik memorandumlarini tuzish orqali ham boy tajribaga ega bo'lgan davlatlar tajribalarini o'rganish, kuzatish va eng samarali imkoniyatlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga qo'llashning yo'lga qo'yilishi ham manfaatli imkoniyatlardan sanaladi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar bilan


1 Muallif so'rovnomma natijasi

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi




birgalikdagi sohaga oid ijtimoiy va amaliy loyihalarda ishtirok etish ham bu sohaga xorij tajribasi joriy qilinishiga juda yaxshi imkoniyat yaratib beradi.



**7-rasm. Tashkilot rahbari bilan muloqot qay darajada ekanligi bo'yicha o'tkazilgan<sup>4</sup>**

Mazkur natijalarga ko'ra ish faoliyati davomida metodist yoki mudiralar bilan muloqotda bo'lish, faoliyatini birgalikda tashkillashtirish masalasiga aksariyat xodimlar e'tibor qaratishlari qayd etilgan. Bunday tarzda hamkorlikdagi faoliyatning tashkillashtirilishi faoliyat davomidagi kamchiliklarning o'z vaqtida hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.



**8-rasm. Seminarlarda ishtirok etish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomani natijasi<sup>5</sup>**

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, seminar treninglarda faol ishtirok etilishi kam sonli ko'rsatkichda ifodalangan bo'lib, aynan bu masala hal etilishi muhim sanaladi. Chunki pedagog xodimlarning bilim va malakasini rivojlantirishda seminar treninglar muhim ahamiyatga ega.


Sizingcha maktabgacha ta'lim tashkilotingizda faoliyatingiz uchun shart-sharoitlar yetarli? Mazkur javobdan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shart-sharoitlar yetarlicha yaratilmagan, texnik, uslubiy, moddiy sharoitlarda muammo borligi faoliyatni samarali tashkillashtirishga salbiy ta'sir etayotganligi achinarli holat. Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi shart-sharoitlarning talab darajasida yaratilishi, undagi qulayliklar bolalar bilan ishlash, qiziqtirish va har tomonlama ijodiy yondashish imkoniyatini yaratib beradi (8-rasm).

Ushbu so'rovnomamizni 80 nafardan ziyod tarbiyachilar ishtirokida online va offline tarzida amalga oshirdik va ularning 70 % dan yuqorisi o'zlarini rivojlantirish kerakligini va buning uchun ularga imkoniyatlar va shart-sharoitlar yetarli emasligini o'rgandik. Tadqiqotimiz davomida shuni bildikki, savollar turlicha bo'lgani bilan muammo bir xil, ko'p insonlarda javoblar asosan bir xillikni ko'rsatdi.

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi



Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, ta'lim sifati ko'p jihatdan tarbiyachilarning kasbiy va uslubiy-pedagogik kompetensiyasi darajasiga, ularning mehnati kasbiy va moddiy rag'batlantirilishiga, rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishlariga bog'liq, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

**9-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida<sup>6</sup>**

Maktabgacha talim tashkilotini yanada takomillashtirish uchun biz odamlar o'rtasidagi muammolarni bilishimiz zarur.

#### TADQIQOT MUHOKAMASI

Pedagoglik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, ulkan natijalarga erishadi, o'z ishinat natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor hisoblanadi. Har bir ishga qobiliyatli, iste'dodli insondagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Rahbarlik odobi va uning axloqiy jihatlari doir O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mana bu fikrlari g'oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki fuqaro o'rtasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyatda qaror topadigan ma'naviy-ruhiy, siyosiy-axloqiy muhitni ham yaratadi. Haqiqiy rahbar odamlarning ko'ngliga yo'l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da'vat etadi»<sup>7</sup> Bundan ko'rinib turibdiki, har bir inson kim bo'lishidan qat'i nazar avvalo insoniyatini yo'qotmasligini aytib o'tadi.

Ta'limda sifatga erishish boshqa barcha sohalarida ham sifatni ta'minlay oladigan omil hisoblanadi. Sifat atamasini aniqlashda ko'pincha to'siqlarga duch kelinadi. Ya'ni, Aristotel ta'riflab bo'lmaydigan oltita atama borligini, shu jumladan sifat tushunchasini aytdi. Biroq, hozir biz boshqacha fikrdamiz. Ya'ni, sifat atama sifatida nisbiy ma'noga ega – u mulk, xususiyat, fazilat, qadriyat, yaxshi xususiyatni anglatadi. Sifatli ta'lim, degan savolga javob berish uchun "ta'lim" faoliyati egalarning harakati natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarni baholash orqali erishish mumkin. Ushbu faoliyatning<sup>8</sup> tashuvchisi tarbiyachi va talabalardir. Ya'ni, tarbiyachi va o'quvchilarning o'z faoliyati natijasida va o'quvchi shaxsida sodir bo'ladigan o'zgarishlar izlanishi va ta'limdagi yutuqlar sifatini belgilab berishi kerak bo'lgan sohadir. Sifat - bu sodir bo'ladigan narsa. Sifatli ta'lim - foydalanuvchilarning ta'lim (rivojlanish) ehtiyojlarini qondiradigan yoki foydalanuvchilarga moslashtirilgan ta'lim. Bunga ko'plab omillar ta'sir qiladi: muhit, an'analar, o'quv jarayonini amalga oshirish shartlari, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi. Ta'lim sifati asosan quyidagilarga qaratiladi:

- kirish sharoitlari - resurslar,
- maqsadlar,
- tarbiyachining sifati,
- o'quvchilarning xususiyatlari,
- sifatli maktablar, sifatli dasturlar,
- o'qitish sifati natijalarga erishish bilan bevosita bog'liq.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg tarbiyachining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib,

<sup>7</sup> I.A.Karimov. "Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". T.O'zbekiston 1999 y. 77 bet

<sup>8</sup> Snezana Jovanova, Mitkovska Dijana Hristovska. Contemporary teacher and core competences for lifelong learning.

shunday degan edi: *“Tarbiyachi muntazam ravishda fan bilan shug’ullanmog’i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o’xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday tarbiyachidan hech qanday natija kutib bo’lmaydi.*

“Tarbiyachining o’rni uning faoliyatining barcha sohalarida birinchi o’rinda turadi. Bu o’zgarishlar bilimning roli, o’qitish vazifalari va o’qitishning bevosita omillari nisbati haqidagi yangi tushunchalar, yangi bilimlarning ta’siri bilan bog’liq. O’quv jarayonining tabiati haqidagi ilmiy bilimlar, bolaning tabiati haqidagi psixologik bilimlarning ta’siri, ta’lim texnologiyasi, o’quv jihozlari va jihozlarining o’rni, o’qitishda turli xil vositalarni qo’llash, avtomashinada sinfdan tashqari ishlarni rivojlantirish. Maktabgacha ta’limning madaniy rolini ijtimoiy muhitda qo’llash”. Tarbiyachi fan va kasbdagi yangi kashfiyotlar, jamiyatdagi o’zgarishlarni kuzatib borishi kerak;

- ta’limning maqsad va vazifalarini rejalashtirish;
- amalga oshirish bilan maksimal darajada shug’ullanish;
- o’quv jarayonini amalga oshirishning barcha bosqichlarida o’quv materiallaridan optimal foydalanish;
- o’quvchilarning ta’lim va motivatsiyasiga ko’proq e’tibor berish;
- o’qitishda muloqot sifati uchun ko’proq mas’uliyat;
- ta’limga AKTni jalb qilish;
- o’z amaliyotida tadqiqotlarga ko’proq jalb qilish va natijada buni rag’batlantirish;
- asosiy e’tibor ta’limning tegishli darajasini tugatgandan so’ng berilishi lozim;
- intellektual mustaqillik va isbotlangan tanqidiy ishtirok;
- ota-onalarga va boshqa manfaatdor tomonlarga o’quvchilarning muvaffaqiyati va rivojlanishi to’g’risida hisobot berish;
- ta’lim amaliyoti va taraqqiyotini rag’batlantirishda tanlov, o’zgarishlar va ustuvorliklarga olib keladigan ma’lumotlarni taqdim etish uchun tadqiqot va boshqa asosli dalillarni qo’llash qobiliyati;
- bolalarga yordam ko’rsatish va ular bilan hamkorlikda tajriba orttirish bilan shug’ullanadigan boshqa tarbiyachilar va boshqa kasbdagi hamkasblar;
- para-professional va idoralar uchun kasbiy rivojlanish;
- kasbiy rivojlanish sifatida tegishli xatti-harakatlar;
- Maktabgacha ta’lim tomonidan talab qilinadigan ma’muriy vazifalarni bajarish.<sup>9</sup>

Pedagogik-psixologiyada tarbiyachi qobiliyatining cheklangan turlari yo’q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko’payib va o’zgarib turishi mumkin.<sup>10</sup> Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o’zgarmas irsiyat” nasldan – naslga o’tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko’rsatilgan:

Pedagog mahoratini oshirish uchun tavsiyalar olimlar tomonidan quyidagicha berilgan va biz ham o’rinli hisoblaymiz:

1. Mustaqil o’qib-o’rganish (pedagogika fanida ro’y berayotgan eng so’nggi yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari<sup>11</sup>, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg’or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g’oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Tajribali ustoz tarbiyachilar faoliyatini o’rganish (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va

iqtsodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali tarbiyachilar faoliyatini o’rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg’ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. Tarbiyachi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko’nikmalarni oshirib borish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o’qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalarida o’z tajribalarini oshirish, kasbi bo’yicha eng so’nggi ma’lumotlarni o’rganish<sup>12</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi zamon ta’limining eng muhim muammosi – maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va ta’lim sifatini yanada takomillashtirish hisoblanadi. Biz pedagoglarning mahoratini oshirishda nimalar to’siq bo’lyapti va kamchilik va muammolar qanday ekanligini tarbiyachilar o’rtasida so’rovnoma usuli, taqqoslash va xorij tajribasi orqali o’rgandik. Yuqoridagi natijalarimizdan shuni ko’rishimiz mumkinki, pedagogik mahorat integratsiyalashgan jarayondir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’limning davlat standartlarini amalga oshirishga qaratilgan hisoblanadi. Bu quyidagi xulosalar berishimizga asos bo’ldi:

Tadqiqotimiz natijasida juda ko’p muammolarni o’rgandik va muammoli vaziyatlarga quyidagicha javob va takliflar bermoqchimiz:

- AKT va chet tilini o’rganish uchun majburiy kurslar tashkil qilinishi kerak;
- oliy toifali pedagoglar bilan o’rta maxsus pedagoglarning oylik maoshini taqsimlash, ya’ni oliy toifali yuqoriroq maosh olishi, o’rta maxsus esa kamroq maosh olishi kerak;
- MTT xodimlarining komponentligini oshirishga qaratilgan xalqaro va Respublika miqyosidagi treninglarda ishtirok etib, sertifikatlar olishi, amaliy tajribani o’z faoliyatiga tatbiq etishini ochiq mashg’ulotlar orqali ko’rsatib borishini joriy qilish lozim;
- turli seminar treninglar, online va offline kurslar tashkil qilish kerak
- Uslubiy qo’llanmalar, metodik manbalar bo’yicha qulay adabiyotlar yaratish lozim;
- malaka oshirish kurslariga jalb qilish kerak;
- Har bir MTTda resurs bazalari yetarli darajada bo’lishi kerak;
- MTT xodimlari o’rtasida kitobxonlik tanlovini tashkil qilish kerak;
- MTT onlayn tarzda munozara klublarini joriy qilish kerak;
- respublikaning eng zo’r MTT tarbiyalanuvchisi ko’rik-tanlovini joriy etish;

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz kerakki, hozirgi kunda MTTda faoliyat yuritayotgan xodimlarning kasbiy kompetensiyasi o’rta darajada bo’lib, bu ko’rsatkich bugungi kun avlodi tarbiyalanuvchilari uchun qoniqarli emas. Yangi avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalash uchun tarbiyachilardagi kasbiy kompetensiyani yuqori darajada rivojlantirish, ularga motivatsiyalar berish, yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

9 O’qituvchining pedagogik faoliyatini tahlil qilish va introspeksiya qilish. Yosh o’qituvchi maktabi ishini tahlil qilish O’qituvchining turli sohalaridagi faoliyatini tahlil qilish turlari <https://goaravetisyan.ru/uz/analiz-i-samoanaliz-pedagogicheskoj-deyatelnosti-uchitelya-analiz>

10 Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo’llari <http://hozir.org/qodiriy-nomli-jizzax-davlat-pedagogika-instituti.html?page=26>

11 [Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo’llari](http://www.hozir.org/pedagogik-qobiliyatni-shakllantirish-yollari-reja.html?page=4) <http://www.hozir.org/pedagogik-qobiliyatni-shakllantirish-yollari-reja.html?page=4>

12 Bilim, ko’nikma va malaka (bkm)larida bo’shliqlari bo’lgan o’quvchilar bilan ishlashda o’qituvchining pedagogik mahorati <http://hozir.org/4-mavzu-bilim-konikma-va-malaka-bkmlarida-boshliqlari-bolgan-o.html>

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.B.Parmanova. The technology of the development of educators based on competent approach. Journal of innovations in pedagogy and psychology, 2020, special issue 2, pp. 346-350
2. I.A.Karimov. "Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". T.O'zbekiston 1999 y. 77 bet Snezana Jovanova-Mitkovska<sup>2</sup> Dijana Hristovska<sup>1</sup> Contemporary teacher and core competences for lifelong learning
3. Xoliqov.O "pedagogik mahorat" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 - "Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishining talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma Jfe 396-19) Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011
4. Snezana Jovanova-Mitkovskaa Dijana Hristovska Contemporary teacher and core competences for lifelong learning
5. "Tarbiyachining pedagogik faoliyatini tahlil qilish va introspeksiya qilish. Yosh tarbiyachi maktabi ishini tahlil qilish, tarbiyachining turli sohalaridagi faoliyatini tahlil qilish turlari <https://goaravetisyan.ru/uz/analiz-i-samoanaliz-pedagogicheskoj-deyatelnosti-uchitelya-analiz/>
6. Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti "Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari" <http://hozir.org/qodiriy-nomli-jizzax-davlat-pedagogika-instituti.html?page=26>
7. "Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari" <http://www.hozir.org/pedagogik-qobiliyatni-shakllantirish-yollari-reja.html?page=4>
8. "Bilim, ko'nikma va malaka (bkm)larida boshliqlari bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda tarbiyachining pedagogik mahorati".
9. Azizходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик махорат. - Т: 2003. -104 б.;
10. Бегимкулов У.Ш. "Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти". Пед. фан. док. ... дисс. -Т.: 2007. - 305 б.; Джўраев Р.Х.
11. Муслимов Н.А. ва бошқалар. "Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси". / Монография. – Т.: "Фан ва технология" нашриёти, 2013.
12. Suleymanova Ra'no Dusbekovna. "Kasbiy kompetentlikni shakllantirish".
13. Ходжаев Б. «Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тадрижий тафаккурни ривожлантиришнинг модернизациялашган дидактик таъминоти: Пед. фан. док. ... дисс. – Т.: 2016. – 169 б
14. Лутфуллаев П. «Хорижий олий таълим муассасаларида сифат ва рақобатбардошликни таъминлаш йўллари»: Пед. фанл. буйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Т.: 2018. – 22 б.
15. Рискулова К. Ж. «Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими». Пед.ф.д. (DSc) дисс. автор. — Тошкент: 2017. — Б. 14
16. Илхамова И. Н. «Нофилологик таълим йўналишидаги талабаларнинг ижтимоий-маданий компетентлиги контекстида нутқ кўникмаларини такомиллаштириш». Пед.ф.д. (PhD) дисс. автор. - Тошкент: 2019. — Б. 10
17. «Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish».- Toshkent, TDPU nashriyoti.O'quv qo'llanma. 2019.
18. R. Suleymanova. Ko'rsatilgan manba.
19. «Maktabgacha ta'limda ijodiy faoliyatning o'ziga xususiyatlari» <http://www.hozir.org/tasviriy-faoliyatga-orgatish-metodikasi-va-nazariyasi-kirish.html?page=4>
20. Line, M. "Creating Caring Qualified Early Childhood Teachers: An Exploration Of The Relationship Between Teacher Efficacy And Learner-Centeredness Among Early Childhood Professionals In Arkansas". Published by ProQuest(2016)
21. Ермаков Д. Компетентность в решении проблем. // Народное образование, №9/2005. -С. 89.
22. Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. - С.218.
23. Дружиллов С.А. Профессиональная компетентность и профессионализм педагога: психологический подход. // Сибирь. Философия. Образование. Научно-публицистический альманах: Со РАО, ИПК, Новокузнецк, 2005. -С.90.
24. <http://hozir.org/4-mavzu-bilim-konikma-va-malaka-bkmlarida-boshliqlari-bolgan-o.html>
25. <https://azkurs.org/kasbiy-kompetentlikni-shakllantirish.html>



## RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDAGI FAOLIYAT ORQALI BOLALARNING NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH

Mansurova Madinaxon

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 14 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001214">https://doi.org/10.54613/001214</a></p>	<p>Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotidagi rivojlantiruvchi markazlarda bolalar nutqini takomillashtirish, xususan maktabgacha o'rta va katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish usullari va amaliyotidagi o'zgarishlar samaradorligi yoritilgan. Nutq o'stirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan mashqlar, pedagoglarning kasbiy mahorati bolalarning bog'lanishli nutqini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsata olishi pedagogik va psixologik tadqiqotlar tahlillari orqali yoritib berilgan. Jumladan, maktabgacha o'rta va katta yoshli guruh tarbiyalanuvchilari ega bo'lishi lozim bo'lgan ko'nikmalarga urg'u berilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR</b></p> <p>rivojlantiruvchi markaz, nutqni rivojlantirish, tinglab tushunish, so'zlash, interfaol usul, til, san'at, syujetli-rolli o'yin.</p>	

### KIRISH

"Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturida MTNing maqsad va vazifalari quyidagicha belgilangan:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari asosida hamda MTM davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
  - maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
  - bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
  - bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish<sup>1</sup>.
- Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sifatli ta'limiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan:

1. "Ilk qadam" dasturini ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiiq etish, dasturning to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab olindi.
2. "Ilk qadam" dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim tashkilotining ishchi o'quv dasturi tashkilot pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladigan va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadigan qilib belgilandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi (nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar).
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi (qurish yasash va matematika mashg'ulotlari).
3. San'at markazi (rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami).
4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz (guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar).
5. Ilim-fan va tabiat markazi (tabiat, atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari).

Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o'rin kasb etadi, chunki bola markazlarda erkin faoliyat olib boradi.

Tarbiyachi esa ularga yordamchi sanaladi. Bu esa bolalar nutqi, erkin fikrlashi, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanib, rivojlantiruvchi markazlarda undan umumli foydalanilmoqda. Bunday mashg'ulotlar orqali bola o'rgatilgan bilim, ko'nikmalarni xotirasida tez va mustahkam saqlaydi.

Biz ilmiy ishimizda rivojlantiruvchi markazlar faoliyati orqali kichik yoshli bolalarning nutqi takomillashtirilishiga alohida e'tiborni qaratdik. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bilimlarni berish shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonetik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlar rivojlanib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga ta'lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi "Nutq o'stirish mashg'ulotlari", desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, nutq o'stirish orqali nafaqat bolaning so'z boyligi oshiriladi, balki uning muloqot qobiliyati rivojlantiriladi, undagi bilish jarayonlari, shu jumladan, tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'lib hisoblanadi<sup>2</sup>.

Ushinskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini tavsiflar ekan, uning ayrim xususiyatlarini, masalan: tovushning tushunarsizligi, lug'at boyligining yetarli emasligi, o'zaro bog'liqlikning yo'qligini alohida ta'kidlagan.

U bolalar bilan mashg'ulot o'tkazishning turli shakllarini taklif qilgan:

- bolalar hayotidan hikoyalar;
- bolaga narsalarning xususiyatlarini ko'rishda, 6 yoshga kelib esa narsalar juftligini bir-biriga taqqoslash, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni topishda yordam beruvchi mashqlar;
- suratlar asosida hikoya qilish, bu bolalarga savollarga javob berish, so'ngra esa ravon, tushunarli va erkin hikoya qilib berishni o'rgatadi;
- bolalarni o'qish va yozishga tayyorlovchi amaliy mashqlar<sup>3</sup>.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng asosiy vazifalaridan biri bu "maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ona tilida nutq o'stirish ishlarini yo'lga qo'yish"<sup>4</sup>dir.

Konsepsiyada aytilishicha, ona tilini o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yori rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida,

1 Ilk qadam". Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018  
2 D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.

3 Yuqoridagi manba.  
4 Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.

oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishning mavjud shart-sharoitlari, kamchiliklari o'rganilgan hamda 2030-yilgacha bu jarayonda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining shakllanishida, birinchi navbatda oilaning, ota-onaning hamda uni o'rab turgan muhitning o'rni va ahamiyati katta. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqqa Murojaatnomasida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etishda beshta xalqa ichida maktabgacha ta'lim, beshta ustun ichida esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari va ota-onalarning hamkorlikdagi muhim mas'uliyatli vazifalariga to'xtalib o'tgan edi. Shu bilan birga I.V. Grosheva, L.G. Evstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B. Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djenpeisova, M.R. Isxakovalar ham bu mavzu yuzasidan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturini ishlab chiqishgan. Bu dasturda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarining har biriga alohida ilmiy-uslubiy yondashilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Bolalar bog'lanishli nutqini o'stirish.
2. Bolalar lug'atini boyitish.

3. Nutqning grammatik tomonini tarbiyalash, so'zlarning gapda o'zaro birikishi va gap hosil qilish uchun zarur bo'lgan turli grammatik shakllar, qo'shimchalardan foydalanishni o'rgatish.

4. Nutqning tovush tomonini tarbiyalash, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, ovoz-ohangni tushunish, nutqiy nafas olishni to'g'ri bajarishni shakllantirish.

5. Maktabgacha ta'limda bolalarning nutqni tushunish, tinglash malakalarini shakllantirish, kattalarga nutq orqali murojaat qilish, dialogik va monologik nutqini o'stirish, hikoya tuzishga o'rgatish.

6. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish, ertak, hikoyalarni o'rganish, kitobga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, asar mazmunini tushunish, obrazlar xususiyati, nutqini ajrata bilishga o'rgatish.

Shunday ekan, rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda bolalar nutqini rivojlantirish har qaysi pedagog faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi kerak.

Muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Hozirgi zamon nutq tadqiqotchilariga tizimli yondashuv xos bo'lib, yaxlit tizim sifatida mavjud bo'ladigan tashqi va ichki munosabatlarning ko'pligi hodisalarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Nutq yaxlit faoliyat va nonutqiy harakatga qo'shilgan nutqiy harakat kabi til orqali bog'langan tarixan shakllangan muloqot shakli sifatida ko'rib chiqiladi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, I.A.Zimnyaya).

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta'limning nazariyasi hamda amaliyoti uchun dolzarb va ahamiyatli hisoblanadi. Nazariy va amaliy ishlar shundan dalolat bermoqdaki, nutqiy faoliyat motivatsiyasini boyitish bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi ishlarining samaradorligini oshiradi (F.A.Soxin, E.M.Strunina, A.M.Borodich, M.R.Lvov va boshq.).

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar, balki sifat

jihtdan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir".

K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o'qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o'qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o'zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini falsafiy, o'z-o'zini rivojlantirish va o'qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o'z fikrlarini bildiradi.

Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan. Natijada bolalar nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro'y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi.

A.A.Leontev L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish – bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqgacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar. Verbalgacha bo'lgan davr (bola hayotining dastlabki davri) yoki tayyorlov bosqichining psixologik va psixolingivistik tahlili aynan ushbu davrda nutqning muhim omillari shakllanadi, degan xulosaga kelish imkonini beradi. M.I.Lisinning qayd etishicha, bola o'z hayotining birinchi yilida atrofdagi kattalar bilan muloqot shaklini ikki marta o'zgartiradi.

Birinchi shakl – yaqin kattalar bilan vaziyatli-shaxsli muloqot (2-oylarga kelib). Birinchi yarim yillik oxirida ushlabni o'rganib olgan bola kattalar bilan muloqotning nisbatan murakkab bo'lgan o'zga darajasiga o'tadi. Bu vaziyatli-amaliy muloqotdir.

Nutqning vujudga kelish bosqichi (bir yoshdan boshlab keyinga yoshning yarmigacha) bolaning atrofdagi kishilar bilan muloqotining ikki bosqichi – verbalgacha bo'lgan va verbal bosqichlar o'rtasidagi o'tkinchi pog'ona sifatida xizmat qiladi.

Mazkur bosqichning asosiy mazmunini quyidagi ikki voqea tashkil qiladi: atrofdagi kattalar nutqini tushunish vujudga keladi va dastlabki verballashuvlar paydo bo'ladi. Har ikkala voqea ham bir-biri bilan nafaqat vaqt bo'yicha, balki mohiyatiga ko'ra ham uzviy bog'liqdir. Ular kattalar bola oldiga qo'yadigan yagona kommunikativ vazifani hal qilishning ikkita yagona usulidir. Bolalarning passiv nutqni o'zlashtirib olishlari va ularning dastlabki so'zni aytishlari hal qiluvchi darajada quyidagi uch jihatga, ya'ni birgalikdagi harakat chog'idagi aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo'lgan kommunikativ omilga bog'liq bo'ladi.

Shunday holatlarning oldini olishda rivojlantiruvchi markazlardagi faoliyat orqali nutq o'stirish katta ahamiyatga ega. Bu esa ilmiy maqola mavzusining hozirgi kundagi dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, "...bola ikki-uch yilda shuncha narsani oson va tez o'rganib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan astoydil o'qigan taqdirda ham uning yarmini o'zlashtira olmaydi".

Ilk yoshdagi bolalar nutqini o'rganishga E.I.Tixeeva, M.M.Kolsova, N.M.Askarina, G.M.Lyamina, M.I.Lisina va boshqa ko'plab taniqli olimlar, pedagoglar va metodistlar sezilarli hissa qo'shishgan.

V.I.Loginova, Y.U.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, E.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atni o'zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko'rsatilgan: atrofdagi alam

lug'atini (so'z boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lug'atni til birligi sifatida o'zlashtirish. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig'ida ham, til mantig'i borasida ham so'z ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.YAdeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining so'z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o'rganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e'tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O'zbekiston Respublikasida o'tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta'lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o'qitish zarurligi masalasini ko'tarib chiqdi. U tomonidan o'tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958-60 yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o'zbek bolalariga ruscha og'zaki nutqni o'rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan. XX asrning 70-yillarida A.V.Nikolskayaning ilmiy rahbarligi ostida E.M.Razbayeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda o'qilgan asarlar asosida kattalar mehnatiga hurmatni tarbiyalash bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. S.O.G'ozieva tomonidan (E.M.Razbayevaning ilmiy rahbarligi ostida) maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'zbek xalq og'zaki ijodidan (xalq ertaklari, o'yinlar) foydalanish asosida atrofda qilarga adolatli munosabatda bo'lishni shakllantirish masalalari tadqiq qilindi.

1979-yildan boshlab to bugungi kungacha maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tilini o'qitish muammosi O'zbekiston olimlarining tadqiqot ob'yekti hisoblanadi (F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumasheva, D.Abdurahimova, L.R.Mirjalilova, N.Sh.Nurmuhammedova va boshq.).

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rinlidir, zero fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik – o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni o'stirish va rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

MTMda ish jarayonlarini kuzatar ekanmiz, tarbiyachilarning rivojlanish markazlaridagi mashg'ulotlar orqali tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasiga alohida e'tibor qaratdik.

Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirishga tilni tushunish va undan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish sifatida qaraladi. Ayniqsa, fonetik eshitish va talaffuz, so'z boyligini rivojlantirish, so'zlarning tarkibini bilish, grammatik kategoriyalar va muloqot qobiliyatlarini shakllantirish intensiv tashkil etiladigan mashg'ulotlar natijasida amalga oshiriladi. Tilni o'zlashtirish aqliy rivojlanishning muhim shartidir, chunki ontogeneza bolaning tajribalari umumlashtiriladi va nutq shaklida, birinchi navbatda, so'zlarning ma'nolarida aks etadi.

So'z boyligini o'z vaqtida rivojlantirish maktabga tayyorlashning muhim omillaridan biridir. So'z boyligi yetarli bo'lmagan bolalar o'z fikrlarini ifodalash va bilimlar o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, so'z boyligi keng o'quvchilar arifmetik masalalarni yaxshiroq yechishadi, o'qish ko'nikmalarini, grammatikani oson o'zlashtiradilar.

Tarbiyachi-pedagoglarning bolalar yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, mashg'ulot tashkil qilishlari eng yaxshi samara

berishi ilmiy tadqiqot ishlarida ifodalab berilgan. Jumladan, bolada "2-3 yoshga kelib, o'zgarlar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez beriladi. Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi<sup>5</sup>".

3-4 yoshli bolalarda "O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi<sup>6</sup>". Ko'rinib turibdiki, bolaning yoshi ulg'aygani sayin undagi harakat faollashib boradi va bu xususiyatlar yosh guruhlariga mo'ljallangan ta'lim dasturlarida o'z ifodasini topgan.

4-5 yoshli bolada "asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi<sup>7</sup>". Demak, bunday bolalarni o'z vaqtida to'g'ri ovqatlantirish, belgilangan paytda uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir.

5-6 yoshga yetganda bola "miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralari ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarda so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojarini to'la qondirishi kerak". Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bola hayotining yettinchi yilida "undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi<sup>8</sup>".

"Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va "Ilk qadam" o'quv dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O'quv dasturida maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Shu bilan birga rivojlantiruvchi muhit mazmuni sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- maktabgacha ta'lim muassasasining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim;
- muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim. Albatta maktabgacha ta'limni ham shakllan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi innovatsiyalar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola

5 Qodirova F.R., Toshpulatova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika". Darslik. Toshkent "Tafakkur" nashriyoti, 2019., -688 b.  
6 Yuqoridagi manba.

7 Qodirova F.R., Toshpulatova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika". Darslik. Toshkent "Tafakkur" nashriyoti, 2019., 131-bet.  
8 Yuqoridagi manba.

tarbiyasi, uning ta'lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari guruhlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishiga, mustahkamlashga va nutq o'stirishga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Dastur asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;
- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni hal eta olish;
- ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon etish;

• odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-olam to'g'risida g'amxo'rlik qilish<sup>9</sup>. Yuqorida aytilganlarni amalga oshirishda tarbiyalanuvchilarning nutqiy kompetensiyalari talab darajasida rivojlanishi, o'z fikrini sodda va lo'nda ifodalay olishi kerak.

Rivojlanish markazlarida bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar muhim o'rin egallaydi. Buning uchun pedagoglar markazlarni mashg'ulotlar uchun jihozlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Quyida rivojlanish markazlaridagi tarbiyachi va bolalar ishtirokidagi o'quv mashg'ulotlarining ularning nutqini takomillashtirishdagi ahamiyatini katta guruhlar misolida ko'rib chiqamiz.

#### **1. Til va nutq markazi. (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)**

Til va nutq markazida kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu(syujet)larni o'ylab topish va ijro etish, hikoyalar eshitish taklif etiladi.

Biz Qo'qon shahar va Rishton tumanidagi 6 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lib, rivojlanish markazlaridagi dars mashg'ulotlari bilan yaqindan tanishdik. Asosiy e'tiborni bolalar nutqiy kompetensiyalarining shakllantirilishi, ya'ni bunda bolalarning yangi so'zlarni o'zlashtirishi, rasmlarga qarab gapira olishi, savollarga javob berishi, tinglab tushinishi, o'z nutqida ot, sifat, son, fe'l kabi so'zlarni qo'llay olishlariga qaratdik. Masalan:

#### **Mavzu: "Ona Vatan" mavzusidagi rasmlar asosida suhbat (Rishton tumanidagi "Shodlik" MTM).**

Maqsad: O'zi yashab turgan Vatani – shahari, ko'chasi, mahallasi haqida ma'lumotga ega va nomlay oladi. Do'sti bilan hech qanday to'siqsiz muloqotga kirisha oladi. Nutq rivojlanadi, rasmlarni bir-biridan farqlaydi, o'z fikrini bayon etadi, rasmdagi voqeani tahlil qila oladi. Ko'rganlarini xotirasida saqlab qoldiradi va so'zlab bera oladi.

Kerakli jihozlar: Mavzu asosida suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rasmlarni tomosha qilish.
2. Rasmlarga qarab ularni bir-biridan farqlash.
3. Rasmdagi voqea-hodisani ongida tahlil qilish.
4. Do'sti bilan suhbatga kirishish.
5. "Ona Vatan" mavzusida egallagan bilimlarini so'zlash.
6. Do'stining fikrlarini tinglash.
7. Do'stining fikrlarini tahlil qilish.

1. Qo'shimcha: Vatan to'g'risida she'r yod olish.

Alohida e'tibor qaratiladi: Rasmlarning tahlil qilinishiga, hikoyada voqea-hodisalarning ketma-ketligi to'g'ri tuzilganligiga.

#### **Mavzu: "Mening oilam" ertagi surati ustida hikoya tuzish**

Maqsad: Og'zaki nutq rivojlanadi, faol suhbatga kirishadi, oila a'zolari haqida gapirib bera oladi, hikoya qilib berish jarayonida o'z nutqiga e'tiborli bo'ladi.

- Kerakli jihozlar: Oilaviy albom, suratlar.
- Faoliyatning borishi:
- Mavzu bilan tanishtirish.
- Rasmlarni tomosha qilish.
- Rasmlarga qarab qisqa hikoya tuzish.
- Voqea-hodisani tahlil qilish.
- Fikrlarini jamlash.
- Mustaqil hikoya tuzish va do'sti bilan o'rtoqlashish.
- Qo'shimcha: "Oila" o'yini, oila haqida maqollarni yod oldirish.

Alohida e'tibor qaratiladi: Mustaqil hikoya tuzish malakasi shakllanganligi, rasmdagi barcha elementlarni e'tibordan chetga qoldirmaganligi.

Mashg'ulotlarni kuzatar ekanmiz, bu markaz faoliyati orqali bolalar nutqiy kompetensiyalarining rivojlantirilishi aniq maqsadlar asosida amalga oshirilayotganining guvohi bo'ldik.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar ishtirokida savol-so'rovnoma o'tkazdik.

Respondentlar markaz faoliyati va bolalar nutqini takomillashtirish bo'yicha ilgari surilgan fikrga munosabat bildirdilar.

#### **2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi. (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)**

Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalar, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni hal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin.

#### **Mavzu: Kuchukcha uchun uycha yasaymiz**

Maqsad: Bolalarda jonivorlarga bo'lgan mehrni oshirish. Ular uycha qurishni o'rganadi, qurish-yasash jamlamasining katta va kichik hajmlarini ajrata oladi, to'g'ri tartibda joylashtiradi.

Kerakli jihozlar: qurish-yasash jamlanmasi, turli konstruktorlar va namuna.

Faoliyatning borishi:

- mavzuga mos rasmlarni o'rganish;
- uycha qurishni rejalashtirish;
- kerakli jihozni tanlash;
- faoliyatni boshlash;
- tayyor bo'lgan ishni tahlil qilish va nomlash.

Qo'shimcha: Kuchukcha to'g'risida topishmoqlar topish.

Ijodiy ish yuzasidan bolalarni rag'batlantirish. Alohida e'tibor qaratiladi: Mayda qo'l motorikasining rivojlanganligi, buklash jarayonida mo'ljal olish malakasi, matematik hisob olishiga.

#### **Mavzu: Do'stim uchun samolyot yasayman**

Maqsad: Samolyot haqida tushunchaga ega bo'ladi. Lego, mozaika va shakllardan to'g'ri foydalana oladi, samolyot yasaydi, mayda qo'l motorikasi rivojlanadi.

Kerakli jihozlar: Samolyot rasmi, lego, mozaikalar.

Faoliyatning borishi:

1. Samolyot haqida bolalar fikrini eshittish.

9 Mirjalolova L.R. va boshqalar. "Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuv moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua". Toshkent, 2018. 147 b.

2. Namuna ishini kuzatish.
  3. Qurish uchun kerakli jihozlarni tanlash.
  4. Samolyot qurish, qurish jarayonida o'rtloqlari bilan fikr almashish.
  5. Ijodiy ishning mustahkamligini tekshirish.
  6. Bolalar ishlarini baholash.
- Qo'shimcha: Do'stlik haqida maqollar va samolyot haqida topishmoqlar yod oldirish.

Alohida e'tibor qaratiladi: Samolyot qurish jarayonida kerakli jihozlardan foydalana olayotganiga, do'stlari bilan birga hamkorlikda ishlashiga, ijodiy ishini baholashda do'stlarining fikrini bilishga.

Ushbu markazdagi mashg'ulotlar bolalar nutqini takomillashtirishga qanday hissa qo'shayotganini 15 nafar bolani kuzatish asosida aniqladik. Kuzatishlarimiz uchun quyidagi mezonlarni asos qilib oldik:

- Bolalarning yangi so'zlarni o'rganish darajasi.
- Ot so'zlardan foydalanishi.
- Sifat so'zlardan foydalanishi.
- Son so'zlardan foydalanishi.
- Fe'l so'zlardan foydalanishi.
- Tinglab tushunish darajasi.
- O'z fikrini bayon qila olish darajasi.

#### **San'at markazi (Rasm, applikasiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari)**

Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san'at markazida bir bola qog'oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog'ozdan qaychi bilan o'zi o'ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar markazida bir bola to'rtta yog'och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo'lakli karton qog'ozli tasvirni tuzishni ma'qul ko'radi. Tarbiyachi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so'ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu topshiriqlarni bajarishda bolaga to'g'ridan to'g'ri yordam beradi. Bunday yo'l tutish tufayli bola yaxshi sur'atda o'sib-ulg'ayishi mumkin.

#### **Non haqida albom ishlash (kichik guruhda ishlash) (Rishton tuman "Shodlik" MTM)**

Maqsad: Non haqida bilish, non va non mahsulotining rasmini chizish. Yangi shaklda jamoa bo'lib ishlashni o'rganish, albom tayyorlash va uni birgalikda bezatish.

Jihozlar va materiallar: Rangli qog'oz, karton qog'oz, bo'yoq cho'tkalar, rangli qalamlar, qaychi, yelim va yig'ma rasmlar.

Faoliyatning olib borilishi:

1. Ishni rejalashtirish. Vazifalarni bo'lib berish (kimdir chizadi, kimdir qirqib applikasiya ishini bajaradi).
2. Ishning bajarilishi.
3. Umumiy ishlarni albomga yopishtirish.
4. Kirish qismini bezatish.

Qo'shimcha qism: Non haqida albom ko'rgazmasini tashkil qilish.

E'tiborga molik jihati: sanitariya va gigiyena talablariga rioya qilish; do'st mehnatini qadrlash, tasavvurni rivojlantirish, nutq va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish.

#### **Jamoat ishi: applikasiya: transport turlari**

Maqsad: mayda qo'l motorikasi, tasavvurni rivojlantirish, estetik bezatish, jamoa bilan ishlashni bilish. O'zining ijodini chiroyli bezatadi.

Jihoz va materiallar: rangli kartonlar, qog'oz, yelim, stepler, ramkalar.

Faoliyatning olib borilishi:

1. "Transport" mavzusida rasmlarni ko'zdan kechirish.
2. Tasviriy san'at faoliyati noan'anaviy texnikasi bilan tanishish.
3. Rasm tanlash.
4. Bolalar bilan mavzu asosida applikasiya ishini bajarish.
5. Tayyor rasmlarni muhokama qilish va rag'batlantirish.

Qo'shimcha qism: tarbiyachi bolalarga applikasiyani bezatishi, mavzuga oid she'r yoki qo'shiq kuylashni taklif qilishi, ko'rgazma tashkil etishi mumkin.

E'tiborga molik jihati:

1. Tartibli va gigiyenik talablarga mos ishlashga o'rgatish.
2. Tasavvuri va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish.
3. Hayot xavfsizligi saboqlari.

#### **Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidal o'yinlar).**

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahna ko'rinishlarini o'ynashga xohish-istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Bular bolalarda atrofda nimalar sodir bo'layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi. Bu markaz bolajonlarning eng sevimli markazlaridan biri hisoblanadi, chunki bolajonlar bunda ertaklar tinglab, ertakdagi qahramonlarga taqlid qilib, uning rolini bajaradilar. Kimdir Kenja botir, kimdir Zumrad rolini, yana kimdir quvnoq quyoncha rolini bajarishni istaydilar.

#### **"Avtobus"**

Maqsad: Avtobuslar turar joylari haqida tushuntirib beradi, avtobus turar joydagi ishchi-xodimlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Jamoat joylarida o'zini tuta oladi. Transport vositalarining xavfli ekanligini tushunadi. Transport turlarini farqlaydi. Kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish malakasiga ega bo'ladi.

Jihoz va materiallar: haydovchi kiyimi, salon va o'rindiqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Bolalar orasida rollarni taqsimlash.
2. Bolalar bilan sayrga borish joyini rejalashtirish va haydovchilar bilan uchrashish.
3. "Avtobusda ketayapmiz", sahnasini o'ynash.
4. Sahnalashtirilgan o'yin haqida suhbat.

Qo'shimcha qism: Tarbiyachi bolalar bilan avtobus chiptalarini chizib, ular orasida chiptachi, yo'lovchi orasidagi farqni aniqlaydi.

E'tiborga molik jihati:

1. Bolalarning haydovchi bilan muloqotga kirisha olishi.
2. Mantiqiy fikrlash qobiliyati.
3. Hayot xavfsizligi qoidalarini o'rganishi.

#### **Shifokorlar bizning yordamchilarimiz. "Kimdir kasal bo'lsa"**

Maqsad: Shifokor kasbi bilan tanishish. Ayrim tibbiyot uskunalar nima uchun ishlatilishi to'g'risida tushunchaga ega (harorat o'lchagich, shprits, stetoskop va h.k.)

Jihoz va materiallar: shifokor uchun kerakli bo'lgan bolalar to'plami, shifokor to'plami, qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Rollarni mustaqil ravishda taqsimlaydi (shifokor, ona qizi bilan va h.k.)
2. O'zi o'ylab topgan ssenariyni sahnalashtiradi.
3. Mazkur mavzu bo'yicha rollar bilan almashadi va yangi syujetni sahnalashtiradi.

Nimaga e'tibor berish lozim: o'yin davomida bolalarning o'zaro munosabati; o'yin ishtirokchilariga emotsional munosabat; faol bo'lmagan bolalarning o'yindagi ishtiroki.

San'at markazi va syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz faoliyatini kuzatish orqali asosiy e'tiborni mashg'ulot olib boruvchi pedagoglarning dars jarayonidagi ta'lim samaradorligini oshiruvchi usullardan qay darajada foydalanayotganliklariga qaratdik va quyidagi mezonlar asosida qiyosiy tahlil qildik:

- Tarbiyachining interfaol usullarni bilish darajasi.
- Darsda didaktik materiallarni qo'llay olish mahorati.
- Bolalarning tinglab, tushunishlariga e'tibor berishi.
- Tarbiyalanuvchilar tomonidan nafaol lug'atni faol lug'atga aylantirish jarayoni.
- Savol-javobdan foydalanish mahorati.



### Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrof-olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari) (Rishton tumanidagi "Nilufar" nomli MTM)

Ilm-fan va tabiat markazida boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va bo'laklarga ajratishi mumkin bo'lgan narsalar bo'lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Ushbu markazda bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko'chadan topilgan narsalar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun foydalaniladi. Buni xonadagi markazda yoki tabiat bag'rida o'tkazsa ham bo'laveradi. Yana bu markazda tarbiyachi tajribalar o'tkazishi ham mumkin. Masalan: "Kamalakni qog'ozda aks ettiramiz". Buning uchun bir martalik qog'oz va rangli qalamlar kerak bo'ladi.

#### "Olovning xususiyatlari"

Maqsad: Olovning foydasi va xavfliligini biladi. Olov bilan ishlash jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rganadi.

Jihoz va materiallar: "Olov foydali - olov xavfli" mavzusida suyuqlik rasmlar. "Olovda nima yonadi" didaktik o'yini.

Faoliyatning borishi:

1. Olovning tashqi ko'rinishini rasmlarda ko'rish va tasvirlab berish (rang, hajmi v.b.)
2. Kartochkalar bilan ishlash: yonayapti - yonmayapti.
3. Bajartilgan ishni tushuntirib berish.
4. "Yonayotgan olov" tasvirini pazllarda yig'ish.

Qo'shimcha: kislorodsiz rasmlarda tajribadagi kislorodsiz olovni o'chirishni kuzatadilar.

Nimaga ahamiyat berish lozim:

Tajriba o'tkaza olish; qoidani biladi va unga amal qiladi; hayot xavfsizligi saboqlari.

#### "Suvning xususiyatlari"

Maqsad: suvning ajoyib xususiyatlari bilan tanish. Suvdan foydalanishni biladi. Suv bilan tajriba o'tkazadi. O't o'chiruvchilar faoliyatida suvning ahamiyati bilan tanishadi.

Jihoz va materiallar: suv, qum, sham, gugurtlar, mavzu bo'yicha illyustratsiyalar.

Faoliyatning borishi:


1. Yong'indan yordamchi sifatida suvning xususiyatlari bilan tanishish;
2. Tarbiyachi bilan ish; olovni o'chirish (yongan shamni suv yordamida o'chirish).
3. Xulosa chiqariladi.

Qo'shimcha: kislorodsiz rasmlarda tajribadagi kislorodsiz olovni o'chirishni kuzatadilar.

Nimaga ahamiyat berish lozim: tajriba o'tkaza olish; qoidani biladi va unga amal qiladi; hayot xavfsizligi saboqlari, faol bo'lmagan bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, emotsional holati, hayot xavfsizligi asoslari.

Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida: "Men bolalar "Alifbe"ni ochib, birinchi so'zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob - tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim", deb ta'kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ilm-fan va tabiat markazidagi mashg'ulotlarda asosiy e'tibor bolalarni atrof-olam, tabiatdagi hodisalarning mohiyatini anglab yetishlariga qaratilganining guvohi bo'ldik. Bolalarning lug'at boyligi ham o'rganilayotgan mavzu doirasida oshib boradi.



1-rasm. 5, 6 yoshli bolalar nutqiy kompetensiyasi

#### TADVIQOT NATIJASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan rivojlanish markazlarida bolalar nutqini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalarini keltirib o'tamiz.

Asosiy e'tiborni bolalar nutqiy kompetensiyalarining shakllantirilishiga qaratdik, ya'ni bunda bolalarning yangi so'zlarni o'zlashtirishi, rasmga qarab gapira olishi, savollarga javob berishi, tinglab tushunishi, o'z nutqida ot, sifat, son, fe'l kabi so'zlarni qo'llay olishlariga qaratdik.

#### 2-jadval

#### Savol-javoblar tahlili

T/r	Savollar	Ha	Yo'q	Ba'zida
1	Bolalar nutqini rivojlantirish yangi so'zlar hisobiga amalga oshadimi?	55 (91 %)	0 (0 %)	5 (8 %)
2	Nutqni takomillashtirishda ota-onalarning yordami kerakmi?	30 (50 %)	11 (18 %)	19 (31 %)
3	Nutqni rivojlantirishga yordam beradigan ko'rgazmali qurollar yetarli?	25 (42 %)	30 (50 %)	5 (8 %)
4	Til imkoniyatlarini o'rgatishda tarbiyachiga kreativlik kerakmi?	42 (70 %)	8 (13 %)	10 (16 %)
5	Mashg'ulotlarda bolalarni faollashtiruvchi metodlardan foydalanishmi?	52 (86 %)	5 (8 %)	3 (5 %)

So'rovnoma ishtirok etgan respondentlarning barchasi ya'ni 60 nafari ham maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyachilari bo'lib, ular ixtiyoriy ravishda savollarga javob berdilar. Bolalar nutqini rivojlantirish yangi so'zlar hisobiga amalga oshadimi?, degan savolga respondentlarning 55 nafari - 91 % i "ha", 0 nafari "yo'q", 5 nafari - 8 % i esa "ba'zida" degan javobni berdilar.

Nutqni takomillashtirishda ota-onalarning yordami kerakmi?, degan savolga respondentlarning 30 nafari - 50% i "ha", 11 nafari - 18 % i "yo'q", 19 nafari - 31 % i "ba'zida" degan javobni berdilar.

Nutqni rivojlantirishga yordam beradigan ko'rgazmali qurollar yetarli? degan savolga ishtirokchilarning 25 nafari - 42 % i "ha", 30 nafari - 50 % i "yo'q", 8 nafari - 8 % i "ba'zida" degan javobni berdilar,

Til imkoniyatlarini o'rgatishda tarbiyachiga kreativlik kerakmi?, degan savolga respondentlarning 42 nafari - 70 % i "ha", 8 nafari - 13 % i "yo'q", 10 nafari - 16 % i esa "ba'zida" deb javob berdilar.

Mashg'ulotlarda bolalarni faollashtiruvchi metodlardan foydalanishmi? degan savolga respondentlarning 52 nafari - 86 % i "ha", 5 nafari - 8 % i "yo'q", 3 nafari - 5 % i esa "ba'zida" degan javobni berib, o'zlarining bolalarga og'zaki ijod namunalari o'rgatishdagi faoliyati yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumot berib o'tdilar.

Tahlildan shu narsa ko'rinib turibdiki, mashg'ulotlarini interaktiv yuqori saviyada tashkil qilayotgan tarbiyachilar bilan bir qatorda o'z ustida ishlashi lozim bo'lgan tarbiyachilar ham bor.

**3. Qiyosiy tahlil natijalari.** San'at markazi va syujetli-rolli o'yinlar va dramalashirilgan markazlarda olib borilayotgan

mashg'ulotlarni kuzatib, belgilangan mezonlar asosida tarbiyachilar faoliyatini qiyosiy tahlil qildik.

**3-jadval**

**Kasbiy kompetensiya tahlili**

T/r	Tahlil qilish mezonlari	Tahlilga olingan tarbiyachilar	Qo'yilgan baho				
			A'lo	Yaxshi	O'ta	Qoniqarli	Qoniqarsiz
1	Tarbiyachining interfaol usullarni bilish darajasi	55	20	15	13	2	-
2	Darsda didaktik materiallarni qo'llay olish mahorati	40	12	18	7	3	-
3	Bolalarning tinglab tushinishlariga e'tibor berishi	50	16	17	10	7	-
4	Tarbiyalanuvchilar tomonidan nafaol lug'atni faol lug'atga aylantirish jarayoni	35	5	12	13	5	-
5	Savol-javobdan foydalanish mahorati	60	25	30	5	-	-

Xulosa qilib aytganda, bolalar nutqini takomillashtirishda rivojlanish markazlarida olib borilayotgan mashg'ulotlar samaradorligi oshishi kerak. Chunki samarali mashg'ulot orqali bola o'rgatilgan bilimlarni xotirasida tez va mustahkam saqlaydi. Shuningdek, bu mashg'ulotlar orqali bolalarning har bir kuni, har bir soati qiziqarli va maroqli o'tadi. Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirib, har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash, tarbiyachi-pedagoglarning ustuvor vazifalaridan biridir.

**TADQIQOT MUHOKAMASI**

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi<sup>1</sup>.

Pedagoglarning vazifasi - bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirish hamda ularni kuzatishdan iborat.

Bolalar fonologik xabardorlikka ega bo'lganda so'zlarni tashkil etuvchi aniq tovushlarni eshitganda ko'proq muvaffaqiyatli o'qiydilar.

Fonologik xabardorlik quyidagi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi:

- So'zlar ichida aniq tovushlarni eshitish.
- So'zlarni fonemalarga ajratish.
- Alohida fonemalarni mazmunli so'zlarga aralashtirish.
- Qo'fiyalangan so'zlarni aniqlash<sup>2</sup>.

Bolaning rivojlanishi va yosh xususiyatlariga mos nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarning fikrlarini biz ham qo'llab-quvvatlagan holda bugungi kun talablari darajasida aniq maqsadlarga qaratilgan ishlarni amalga oshirish muhimligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Rivojlanish markazlarida turli sohalarini o'rganish, mashg'ulotlarda zamonaviy usullarni qo'llash, birinchi navbatda,

nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Ularning lug'ati kundan kunga yangi tushunchalar, so'zlar bilan boyitib boriladi. Nutqning grammatik tuzilishi, nutq madaniyati shakllantirilib, dialogik va monologik nutq takomillashtiriladi.

MTT tarbiyachilari kichik yoshli bolalarni o'z ona tilida ravon gapira olish, nutqiy vaziyatlarda til imkoniyatlaridan foydalana olish darajalarini oshirishda mashg'ulotlarda zamonaviy usullarni qo'llash ham juda yaxshi samara berishini kuzatdik va tahlil qildik.

Tarbiyachilar faoliyatida yutuqlar bilan bir qator kamchiliklar borligi ma'lum bo'ldi. Biz ularning faoliyatini kuzatishda odatdagi ish faoliyatidan chetga chiqmaslikka harakat qildik. Bu jarayonda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

1. Tarbiyachining nutqiy kompetensiyasi va ona tili boyligidan unumli foydalanishi.
2. Tarbiyachilarning interaktiv metodlardan foydalana olishi.
3. Mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi va o'tishi.
4. Kreativ fikrlay olishi va muammoli vaziyatlardan tafakkur yordamida chiqa olishi.
5. Mashg'ulotlarning ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda muntazam va izchil olib borilishi.
6. Bolalarni turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlay olish mahorati.

Bolalar nutqini rivojlantirishda tarbiyachilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar sifatida quyidagilarni sanab o'tamiz:

1. MTTlarning uslubiy-metodik ta'minoti zamonaviy talablar darajasida emas. Bu esa ayrim tarbiyachilarning dars mashg'ulotlarini olib borishda eski, an'anaviy usullardan foydalanishiga olib kelmoqda.
2. MTT tarbiyachilarining axborot texnologiyalari bo'yicha malakalarini oshirish. Bu esa texnik tomondan mashg'ulot sifati oshishiga xizmat qiladi.
3. Mashg'ulotlarni rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlikning buzilishi.
4. Mashg'ulotlarni rang-barang va har xilligini ta'minlay olmaslik. Bu esa dars jarayonida bolalarning chalg'ishiga va qo'yilayotgan materiallarning o'zlashtirilmasligiga olib keladi.

Nutqni rivojlantirish nafaqat bolani atrof-olam bilan tanishtirish, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. "...Tilni egallash jarayoni - bu faqat shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu, eng avvalo tarbiyadir. Qalbni tarbiyalash, aqlni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy qiyofasining eng nozik qirralariga chidam bilan ishlov berishdir 3" (K.D.Ushinskiy). Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashqi ta'sirlar bilan belgilanishi,

1 <https://lex.uz/ru/docs/-/5179335>

2 M. Teresa, Mc. Devitt, Jeanne Ellis Ormord. Child development and education. Pearson; 7 edition February 7, 2019, 800 pages.

3 "Science and Education" Scientific Journal April 2021 / Volume 2 Issue 4

ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, "o'z-o'zidan harakatga kelishi" bilan tavsiflanishini tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chiqishni talab qiladi.

K.D.Ushinskiyning fikricha, bolaga ta'lim va tarbiya berishda tilning qimmatli dastlab ijtimoiy hodisaning chuqur xalqchilligi bilan, uning milliy xarakteri bilan belgilanadi. U „tilda chuqur ma'noli ko'pdan ko'p falsafiy fikrlar, chinakam nafis his-tuyg'ular, nihoyatda to'g'ri, ko'rkam did, fikrni bir yerga to'plab, zo'r diqqat bilan qilingan mehnat izlari, tabiat hodisalari va ulardagi eng nozik rang-barangliklarni g'oyat darajada ziyraklik bilan his etish, kuzatuvchanlik, zo'r mantiqiylik... bor“, deb ta'riflaydi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga (so'zlashishga) o'rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola normal holatda rivojlanadi, ya'ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi.

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatdiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha muhim jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vaqtda, ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy-talimiy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini rivojlantirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmuni faqat ona tili orqali singdiriladi. „Ona tili, - deb ta'kidlagan edi K.D. Ushinskiy, - har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o'tadi va unga qaytadi“.

Kuzatuvlarimizga asoslanib, maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rta va katta guruhlarida tarbiyachi bolalar

nutqini rivojlantirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

- Bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish.

- Nutqning grammatik tomonini shakllantirish.
- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash.
- So'zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish.
- Hikoya qilishga (monolog nutq) o'rgatish.
- Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.

Ishni tayyorlashda olib borilgan kuzatuvlar, o'tkazilgan so'rovnomalar, solishtirma tahlillar asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun bir qator tavsiyaviy xarakterdagi quyidagi fikrlarni keltirib o'tmoqchimiz:

- Bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so'zlarni buzmasdan, to'g'ri aytish, bolalarga talaffuzi qiyin bo'lgan va nisbatan uzun so'zlarni aytishni mashq qildirish va buning uchun o'yin uslubidan foydalanishlari zarur.

- Bolalar kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so'zlovchining yuzini va uning qo'l harakatlarini ko'rishlari, uning gaplarini tushunishlari va to'g'ri javob berishlari darkor.

- Bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o'rgatish, bolalarni ona tilining boyliklarini egallashga jalb qilish kerak.

- O'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga bir tizim sifatida qarash kerak.

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini ta'limning interfaol usullari haqida uslubiy ko'rsatmalar bilan ta'minlash kerak.

- Tarbiyachilarning axborot texnologiyalari bilan ishlashlari samaradorligini kuchaytirish kerak.

Shunday qilib, rivojlantirish markazlarida bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha har bir ish jarayoni bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu borada yuqorida bayon etilgan fikr va xulosalarning har biri o'zining talimiy va tarbiyaviy jihatiga ega. Nutqni rivojlantirish jarayonida shaxsning axloqiy sifatleri shakllantiriladi, aqliy va estetik tarbiyaning muhim vazifalari hal etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. Teresa, Mc. Devitt, Jeanne Ellis Ormord. Child development and education. Pearson; 7 edition February 7, 2019, 800 pages.
2. D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi". (Darslik). – T.: "Barkamol fayz media", 2018, – 432 b.
3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari, Toshkent, 2018-yil.
4. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.
5. Mirjalolova L.R. va boshqalar. "Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuv moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua". Toshkent, 2018. 147 b.
6. "Ilk qadam". Maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi. Toshkent-2018.
7. Qodirova F.R., Toshpulatova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent "Tafakkur" nashriyoti, 2019., -688 b.
8. "Science and Education" Scientific Journal April 2021 / Volume 2 Issue 4
9. Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. Darslik. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2008-yil. 304 b.
10. Ushinskiy K.D. Tanlangan asarlar. O'quvpeddavnashr. T., 1959. 398 - bet.

4 Shodiyeva Q. "Nutq o'stirish uslubiyoti". Darslik. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2008-yil. 304 b.



## MAKTABGACHA 6-7 YOSHLI BOLALARNI ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Rustamova Madinaxon

Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-may 2022-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-may 2022-yil <b>Jurnal soni:</b> 3 <b>Maqola raqami:</b> 15 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/001215">https://doi.org/10.54613/001215</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR</b> Elementar matematika, maktabgacha ta'lim, matematik tasavvur, geometrik shakllar, didaktik o'yinlar</p>	<p>Maqolada maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish ta'limining asosiy didaktik tamoyillari va o'yinlar, bolalarda miqdoriy tasavvurlarni rivojlantirish, predmetlar miqdorini idrok qilish, matematik fikrlashni rivojlantirish va o'qitishni tashkil etish shakllari, esda saqlab qolish va taqqoslashning o'ziga xos xususiyatlari tahlili o'rganilgan. Sanash faoliyatining rivojlanishdagi bosqichlari, vaqtni idrok etish, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar, oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan metodik ishlarni rejalashtirish kabi masalalar ochib berilgan.</p>

### KIRISH

Ta'lim-tarbiya va ilm-fan taraqqiyoti har qanday mamlakatning ertangi kunini, istiqbolini belgilab beruvchi asosiy ustundir. Shu bois yurtimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, barcha sa'y-harakatlar ta'lim sifati hamda natijadorligini ta'minlashga qaratilganligi bilan yanada ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimining ilk poydevori qo'yiladigan maktabgacha ta'lim sohasini yangi pog'onaga olib chiqish, bolalarning iqtidori hamda salohiyatini ilk yoshlardanoq to'g'ri yo'naltirish borasida juda ko'p tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda va bu sa'y-harakatlar bolalar ta'lim-tarbiyasida o'zining ijobiy natijasini bermoqda.

Jumladan, Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil topishi, Prezidentimizning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2707-sonli qarori<sup>1</sup>, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>2</sup>, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifati oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"<sup>3</sup> kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimidagi ishlar sifati va samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish masalasi ilmiy asoslangan metodik tizimga ega. Ularning asosiy elementlari maqsad, mazmun, metodlar, ishni tashkil etish shakli va usullari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bular orasidagi asosiy maqsad tasavvurni shakllantirishga qaratiladi. Matematik tushunchalarni shakllantirish - inson ijodiy faoliyatining butun qismi maqsadli amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Uning maqsadi - bolalarga faqat matematikani o'rgatishgina emas, balki ularni hayotga tayyorlash, mustaqil fikrlash, o'zlarining hayotdagi o'rinlarini topa olishlariga yordam berishdan iborat. Ilk matematik tushunchalarga ega bo'lish kelgusida bolalarning juda ko'p

fanlarni qiyinchiliksiz o'rganishlariga yo'l ochadi, hisob-kitobni o'rgatibgina qolmay, ularni fikrlash, miya imkoniyatlarini ishga solish, tafakkur qilishga undaydi. Masala va misollar kichik to'siq hisoblanib, matematika kelajakda to'siqlarni yengib o'tishga yordam beradi, tartibga, to'g'ri va noto'g'ri ajratishga o'rgatadi.

Bolalarda elementar matematik tushunchalarni shakllantirish muammosini to'g'ri hal qilish bu jarayon mohiyatini to'la anglab tushunishni talab qiladi. Jarayon mohiyatini anglash, uning asosini tashkil etuvchi tayanch tushunchalarni sharhlash kerak bo'ladi. O'rganilayotgan muammoning mohiyatini yoritishda bolalarda qiziqish asosiy o'l o'ynaydi<sup>4</sup>. Qiziqish aqliy rivojlanish uchun maxsus yaratilgan hamda o'zining yechimi uchun topqirlikni talab qiladi. Buning barchasi taqqoslash, tahlil qilish, analiz, sintez kabi fikrlash jarayonlarining rivojlanishiga imkon beradi.

Qiziqish bu - insonning o'ziga xos psixologik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyatni tashkil etish va o'rganishga qaratilgan. Kognitiv qiziqish - bu o'rganishga jalb qilish, bolalarning tafakkurini kengaytirish, ishtiyoq bilan ishlash vositasi hisoblanadi. Predmet yoki hodisaning mohiyatini o'rganish, anglash yoki bilishga bo'lgan qiziqishning shakllanishi ham psixologik hodisa va ayni paytda ta'lim samarasi sifatida ko'rinadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Qiziqish bolalarning ehtiyojlari, shuningdek, ularni muayyan harakat yoki faoliyatni tashkil etishga undovchi motivlar asosida shakllanadi. Matematik materialga qiziqish har bir masala, mantiqiy mashqlarga o'yinli elementlar kiritish asosida shakllantiriladi. Qiziqarli materialning turlicligi uni tizimlashtirish uchun asos beradi. Eng qiziqarli matematik material Z.A.Mixaylova tomonidan taklif qilingan<sup>5</sup>, uni uchta asosiy guruha ajratadi: o'yin-kulgi, matematik masalalar va o'yinlar, rivojlantiruvchi mashqlar. Bundan ko'rinib turibdiki, bolalarda matematik tasavvurlar rivojlanishida keltirilgan materiallar ahamiyatli hisoblanadi.

L.S.Vigotskiy fikrlashni rivojlantirish muammosini o'rganib, dastlab matematik tushunchalarni shakllantirishni ilgari suradi. Bunda u bolalarda matematik tushunchalarni

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi 2707-sonli qarori  
2 O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - <https://lex.uz/docs/-3923110>  
3 "Xalq so'zi" gazetasi. <https://xs.uz/uz/post/o'zbekiston-respublikasi-maktabgacha-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasi-amalda>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori sonli  
5 Михайлова З.А. Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста / З.А. Михайлова [и др.]. - СПб.: Детство-Пресс, 2008. - 384 с.

shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni topish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikrlaridan so'ng psixolog va didaktlarning ko'pchiligi o'rgatish;

- rivojlanish manbai, tarbiyachilarning bilimi va bilishi;
- ularning rivojlanishi uchun muhim shartlardan biridir, deb hisoblaydilar.

Bunda o'qitish jarayonida tasavvur hosil qilishni ko'zda tutish muhimdir, ya'ni tarbiyachilarning egallagan matematik tushunchalarning rivojlanish darajasini e'tiborga olish va ularni keyingi yengilroq maydonga siljitish kerak. Ushbu maydonni aniqlash uchun L.S.Vigotskiy ikki ko'rsatkichdan foydalanishni tavsiya etadi:

- 1) bolaning yangi bilimlarni kattalar yordamida egallashi;
- 2) boladagi o'zlashtirilgan bilimlarni, masalalarni mustaqil yechishda qo'llash, tatbiq etish qobiliyati.<sup>6</sup>

Bundan tashqari bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasiga Yu.M.Kolyagin, Yu.I.Kulyutin, L.M.Fridman, psixologlar, pedagoglar, uslubchilar K.Dunker, J.Piajelarning o'z asarlari va mashhur tadqiqotlari katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

E.I.Tixeva o'zining pedagogik faoliyatida bolalarda matematik tasavvurlar asoslarini shakllantirishga katta ahamiyat bergan. U mashg'ulot mazmunini aniqladi, uslubiy tavsiyalar va maxsus vizual (didaktik) materiallarni ishlab chiqdi. Ulardan tarbiyalanuvchilarning mashg'ulot jarayonida foydalanishni tavsiya etadi.<sup>7</sup>

Z. I. Kalmakovaning fikricha, bolada matematik tushunchalarni shakllantirishning eng ishonchli ko'rsatkichi - uning ta'limiyliigi, ya'ni bolaning bilimlarni o'zlashtirishining umumiy qoidalarida, deb hisoblaydi.

Matematik tushunchalarni shakllantirishda S.I.Shvartsburd quyidagi komponentlarni ajratadi:

- a) keng qamrovli tasvirlashni rivojlantirish;
- b) asosiy tanlay bilish, abstrakt fikrlashni bilish;
- d) aniq holatdan savolni matematik ifodalashga olishni bilish;
- e) tahlil qilishni, aniq holatlarga bo'lishni bilish;
- f) ilmiy xulosalarni aniq materialda ishlashini bilish;
- g) matematik masalani yechishda sabr qilishni bilish, deduktiv fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- h) yangi savollarni berish (qo'yish)ni bilish.<sup>8</sup>

Demak, ilk rivojlanayotgan elementar matematik qobiliyatlar shunday insoniy fazilatlar orqali ifodalanadiki, ular matematika ilmida yuqori ijodiy faoliyat ko'rsatishga imkon yaratadi. Tarbiyalanuvchilarda elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda bolaga individual yondashish alohida ahamiyatga egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachilar ko'pincha guruh bilan frontal ish olib boradi. Frontal ish uslubi o'z yutuqlari bilan birga kamchiliklarga ham egadir. Har bir tarbiyalanuvchining mashg'ulot jarayonlari, shu jumladan, matematik tushunchalarni o'zlashtirish darajalari, berilgan topshiriqlarni bajarish imkoniyatlari turli xil bo'ladi. Frontal yondashish bolalarda axborotlarni to'liq e'tiborga olishga imkoniyat yaratmaydi, chunki har bir tarbiyalanuvchi turli bilim qiziqishlariga, qobiliyatlarga va layoqatga egadir.

Shuningdek, bugungi kunda ta'limda kompyuterlardan foydalanish oddiy holat bo'lib qoldi. Kompyuterning axborotlarni grafik tasvir, video, tovush, multimedialar, elektron ta'lim resurslar, nutq ko'rinishida aks ettirishi hamda ma'lumotlarni qayta ishlash bolalar uchun faoliyatning yangi vositasini yaratishga imkon beradi, bu o'z navbatida amaldagi o'yinlar va o'yinchoqlardan keskin farq qiladi.<sup>9</sup> Innovatsion kompyuter texnologiyalarini joriy etish, avvalo, maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilar ta'limiy o'yin faoliyatlari sifatini yaxshilaydi, yangi bilim va ko'nikmalarni o'rganishda bolalar

motivatsiyasini oshiradi hamda o'zlashtirish jarayonlarini tezlashtiradi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Didaktik o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim o'rin tutadi. Keyingi ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qanchalik yaxshi va o'z vaqtida tayyorlanishiga bog'liq.

Chunki, matematika ta'limning keyingi bosqichlaridagi asosiy fanlardan biridir. Matematika o'ziga xos rivojlanish ta'siriga ega bo'lib, uni o'rganish xotira, nutq, tasavvur, his-tuyg'ularni rivojlantirishga yordam beradi, shaxsning matonatini, sabr-toqatini, ijodiy salohiyatini shakllantiradi. Misol tariqasida Deniosh mantiqiy blok o'yinlari bilan tanishtirishimiz mumkin.

Mantiqiy bloklarni venger matematigi va psixologi Zoltan Deniosh ixtiro qilgan. Deniosh bloklari bilan o'yinlar, vizual asosda, bolalarni ob'yektlarning shakli, rangi va o'lchamlari, matematik tasvirlar va informatika asoslari bilan tanishtiradi.

Deniosh bloklarini sotib olish, bolalarda mantiqiy va analitik fikrlashni (tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish), ijodiy qobiliyatlarni, shuningdek, idrok, xotira, e'tibor va tasavvurni rivojlantirishni xohlaydigan ota-onalar uchundir. Deniosh bloklari bilan o'ynab, bola turli xil muhim harakatlarni amalga oshiradi (o'zlarining xususiyatlariga ko'ra guruhlar, berilgan algoritimga muvofiq qatorlarni ajratadi). Deniosh mantiqiy bloklari 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalarga mo'ljallangan.

Bolalar uchun o'quv materiallariga ixtisoslashgan deyarli har qanday do'konda sotib olinadigan Deniosh bloklari 48 geometrik shakllar to'plamidir:

- a) to'rtta shakl (doiralalar, uchburchaklar, kvadratlalar, to'rtburchaklar);
  - b) uchta rang (qizil, ko'k va sariq raqamlar);
  - c) ikkita o'lcham (katta va kichik raqamlar);
  - d) ikki xil qalinlikdagi (qalin va ingichka raqamlar).
- Denioshning fikriga ko'ra, blok to'plamida bir xil raqamlar mavjud emas. Har bir geometrik shakl to'rt xususiyat bilan tavsiflanadi: shakli, rangi, o'lchami, qalinligi.

#### Deniosh mantiqiy bloklari bilan tanishish

Deniosh bloklari to'plamini sotib olish va bolaga to'liq foydalanishga berish kifoya qilmaydi. Avval bolani blok bilan tanishtirishingiz kerak. Bolaning oldiga to'plamni qo'ying va unga shakllarni o'rganish, teginish, qalamlarda ushlab turish va ular bilan o'ynash imkoniyatini bering. Birozdan keyin siz quyidagi vazifalarni taklif qilishingiz mumkin:

- Barcha raqamlarni belgilangan rang bilan bir xil rangda toping (masalan, sariq rasmi ko'rsating). Keyin siz boladan uchburchak shakldagi barcha bloklarni (yoki barcha katta raqamlarni va boshqalarni) ko'rsatishini so'ratingiz mumkin;
- kichiktoydan ayiqqa barcha ko'k shakllarni, to'q sariq va qizil shakllarni sichqonchaga berishlarini so'rang; keyin shunga o'xshash tarzda raqamlarning o'lchamlari, shakli, qalinligi bo'yicha guruhlang;
- boladan har qanday shaklning rangi, shakli, o'lchami, qalinligi bo'yicha aniqlashini so'rang.

Deniosh bloklari yordamida jumboqli o'yinlar va mashqlar:

1. Boladan oldin eslash kerak bo'lgan bir nechta raqamlar qo'yiladi, keyin raqamlardan biri yo'qoladi yoki yangisi bilan almashtiriladi yohud ikkita raqam o'zgartiriladi. Bola o'zgarishlarni sezishi kerak.

6 Jumayev.M.E., "Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi".

7 Э.И.Тихева.Характеристика методики формирования элементарных математических представлений у детей дошкольного возраста как науки и учебной дисциплины

8 Jumayev.M.E., "Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi".

9 Глушкова Е., Леонова Л. Компьютер в детском саду // Дошкольное воспитание. - М.: Просвещение, 2010. - №10. - С. 44-49.

2. Barcha raqamlar sumkaga solinadi. Boladan dumaloq bloklarga (barchasi katta yoki barchasi qalin) tegishini so'rang.

3. Barcha raqamlar yana sumkaga solinadi. Bola haykalchani sumkadan oladi va uni bir yoki bir nechta belgilarga ko'ra tavsiflaydi. Yoki sumkadan olib tashlamasdan shakli, o'lchami yoki qalinligini chiqaradi.

4. Uch shaklni tekislang. Bolada qaysi biri ortiqcha va qaysi tamoyil (rangi, shakli, o'lchami yoki qalinligi) bo'yicha taxmin qilish kerak.

5. Bolaning oldiga biron bir raqamni qo'ying va undan rangi (hajmi, shakli, qalinligi) o'xshash bo'lmagan barcha raqamlarni topishini so'rang.

6. Bolaning oldiga biron-bir figurani qo'ying va unga ranglarini bir xil, ammo shakli bir xil yoki bir xil emas, lekin rangi bir xil emasligini topishni taklif qiling.

Bir qatorda Denioshning uchta bloki, ikkinchisida – to'rtta blok. Boladan ko'proq bloklar borligini va ularni qanday qilib tenglashtirishni so'rang.

1. Har qanday raqamlarni 5-6 qatorga qo'ying. Shakllarning pastki qatorini tuzish kerak, shunda ustki qatorning har bir raqami ostida har xil shakl (rang, o'lcham) bo'ladi.

2. Biz to'qqiz hujayradan iborat jadvalni taklif qilamiz, unda raqamlar ko'rsatilgan. Bolada yetishmayotgan bloklarni olish kerak.

3. Domino o'yinida bo'laklar ishtirokchilar o'rtasida teng taqsimlanadi. Har bir o'yinchi navbatma-navbat o'z harakatlarini amalga oshiradi. Agar parcha bo'lmasa, harakat o'tkazib yuboriladi. Avval barcha bloklarni qo'ygani kishi g'alaba qozonadi. Siz turli xil yo'llar bilan yurishingiz mumkin: turli xil rangdagi (shakl, o'lcham) raqamlar.

4. Bolaga Deniosh bloklari chizilgan diagramma-rasmga binoan yotqizish taklif etiladi, masalan, qizil katta doira chizilgan, undan keyin ko'k kichkina uchburchak va boshqalar.

5. Denioshning mantiqiy bloklaridan siz ob'ektlarning planar tasvirlarini yaratishingiz mumkin: mashina, bug' lokomotivi, uy, minora.

6. Onasi qutiga faqat turtburchaklar bloklarini olib tashlaydi va bola qizg'ish rangga ega, keyin onasi faqat ingichka raqamlarni, bola esa katta va hokazolarni olib tashlaydi.


Ona va bola o'rtasida shakllarni taqsimlash kerak, shunda onaning har tomonga aylanishi va bolaning sariqlari bo'lishi kerak. Bloklar ikkita xalqa yoki arqon bilan belgilangan doiralarga yig'iladi. Ammo sariq doirani qanday ajratish kerak? Ikki doira chorrahasida bo'lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematikani o'rgatishni didaktik o'yinlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ulardan foydalanish materialni idrok etishga yaxshi yordam beradi va shuning uchun bola kognitiv jarayonda faol ishtirok etadi. Didaktik o'yin qat'iyatlilikni, jiddiy munosabatni, fikrlashni talab qiladi.

O'yin bolani rivojlantirishning tabiiy usulidir. Faqat o'yinda bola o'zining ijodiy qobiliyatlarini osongina ochib beradi, yangi ko'nikma va bilimlarni o'zlashtiradi, ephillik, kuzatuvchanlik, tasavvur, xotirani rivojlantiradi, bebaho muloqot tajribasini o'zlashtirgan holda fikrlash, tahlil qilish, qiyinchiliklarni yengishni o'rganadi. Bolalarning kognitiv qobiliyatlari, aql-zakovati rivojlanadi, nutqiy muloqot madaniyati ko'nikmalarini singdiradi, atrof-muhitga estetik va axloqiy munosabatni yaxshilaydi.<sup>10</sup>

Maktabgacha tayyorlov yoshdagi tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalarining tarkib topishi bo'yicha 10 gacha ichida sanash, ajratib sanash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Bolalarga har xil usullarda sanash, adashib ketmaslik, sanashni qaysi buyumdan boshlagani va qaysi buyumda tugatganini

yodidan chiqarmaslik, bir buyumni ikki marta sanamaslik va boshqa qonuniyatlar o'rgatilib, tushuntirib boriladi. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarga sonlarning teskari tartibi va sanash o'rgatib boriladi. Dastlab bolalarga bunday mashqlar ko'rgazmali materiallarda amalga oshiriladi.



**2-rasm. Bolalar matematik tasavvurini shakllantirishda matematik tushunchalarining tarkibiy elementlari (ilk qadam davlat dasturi)<sup>11</sup>**

Mashqlar, albatta, uncha katta bo'lmagan sonlardan boshlanadi va asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Tarbiyalanuvchilarda keyinchalik ko'rgazmali materiallarsiz sanash ko'nikmalari hosil qilinadi.<sup>12</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarda narsalarning kattaligi va shakli haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirish bilan batafsil tanishamiz. Maktabga tayyorlov guruhida o'quv yili boshida bolalarda buyumlarning uzunligi, kengligi, balandligini aniqlash ko'nikmasi mustahkamlanadi. Shundan keyin ular shartli o'lchovlar yordamida buyumlarning uzunligi, kengligi va balandligini o'lchash hamda taqqoslashga o'rgatiladi. Bolalarga, avvalo, o'lchashning ma'nosi va ahamiyatini tushuntirish, o'lchash usullarini ko'rsatish, amal qilish lozim bo'lgan qoidalarni aytish kerak. Mashg'ulotlarni sochiluvchi jismlarning hajmlarini o'lchashdan boshlash maqsadga muvofiq. Bunday mashg'ulot jarayonlarining afzalligi shundan iboratki, sochiluvchi jismlarni o'lchash jarayoni masofalarni o'lchashga nisbatan qiziqarliroqdir. Bundan tashqari sochiluvchi jismlar hajmini o'lchash suyuqlik hajmini o'lchashga qaraganda kam mashaqqatlidir.<sup>13</sup>

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarda elementar matematik tasavvurlar va geometrik shakllar haqidagi tushunchalar ancha shakllangan va rivojlangan bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar maktabga borgunlariga qadar quyidagi geometrik shakllarni bilishlari kerak bo'ladi: to'g'ri to'rtburchak, doira, uchburchak, to'rtburchak, shar, oval, kub, slindr, kvadrat. Tarbiyalanuvchilar yuqorida keltirilgan shakllarning fazoviy holati, qanday joylashishi, o'lchamlaridan qat'iy nazar ko'rib turgan narsa buyumlar orasidan shakllarni farqlay olishi kerak bo'ladi. Mashg'ulotlar jarayonida shu maqsadlarni ko'zlagan holatda har xil qiziqarli o'yinlar o'rgatiladi va tushuntirib boriladi. Ular elementar matematik bilimlarga

10 Kalendarova.Z.K. «Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning zamonaviy nazariyasi va metodikasi» nomli elektron ta'lim resursi. O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi patenti. № DGU 10102. 01.12.2020. Venger matematigi va psixologi Zoltan Denioshning "Deniosh bloklari 48 geometrik shakllar to'plami".

11 Ilk qadam davlat dasturi 2022-y.

12 Kalendarova Z.K. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki matematik tasavvurlarni shakllantirish" // Pedagogika. – Toshkent, 2019. -№3.

13 Bikbaeva N.U., Ibragimova.Z.I., Qosimova X.I. maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish. – t.: o'qituvchi, 1995 y

tarbiyalanuvchilardagi qiziqishni kuchaytiradi hamda aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarda vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda vaqtni aniq idrok qilish, vaqtga nisbatan mo'ljal olishning aynan bir xilligi katta ahamiyatga ega. Inson hayotida bunday qobiliyat o'z vaqtdan samarali foydalanish, atrofdagilarning vaqtga nisbatan tejamkor bo'lishini ta'minlaydi.<sup>14</sup> Biz vaqtdan unumli foydalanishimiz, uni aniq idrok qila olishimiz, kun tartibimiz va butun oilaviy turmush tarzimizni tashkil qilishda muhim ahamiyatga egadir. M.I.Vasileva bolalarni hammasi bo'lib bittagina vaqt o'lchov birligi – daqiqga bilan tanishtiradi. Shunisi juda qimmatliki, bolalarda vaqtni his etish, ularni daqiqga bilan tanishtirish asosida rivojlantirish tadqiqotlarsiz, jonli pedagogik jarayon sharoitlarida amalga

oshiriladi.<sup>15</sup> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida vaqt bo'yicha mo'ljal olish bolalarda tor didaktik maqsadlarga emas, balki bu jarayonlar bola shaxsini kamol toptirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

### TADQIQOT NATIJASI

“SWOT tahlil” metodi. Metodning maqsadi quyidagilardan iborat: mavjud bo'lgan nazariy va amaliy bilim, tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash natijasida mazkur muammoning yechimini topishga mo'ljallangan. Bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, nostandart tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Matematik o'yinlarni tashkil etish”ning SWOT tahlilini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

### Matematik o'yinlarni tashkil etishning SWOT tahlili

<b>S</b>	Matematik o'yinlarni pedagogik faoliyatda hamda bolalarning ta'limiy jarayonida qo'llashning kuchli tomonlari.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bolalarni mantiqiy hamda mustaqil fikrlashga undaydi.</li> <li>2. Tezkor bo'lishga chorlaydi.</li> <li>3. Har xil muammoli vaziyatlardan chiqish.</li> <li>4. Aqliy qobiliyatlar shakllanishi.</li> <li>5. Boshqa fanlarni ham yaxshi o'zlashtiradi.</li> <li>6. Qiziqishning kuchayishi.</li> <li>7. Pedagogik faoliyatda mashg'ulotlar samarali hamda qiziq bo'lishi.</li> <li>8. Bolalarning zerikmasligi.</li> <li>9. Tarbiyachi va bolalar o'rtasidagi muloqot yaxshilanishi.</li> <li>10. Tarbiyachi matematik bilimlarni oson tushuntira olishi.</li> </ol>
<b>W</b>	Matematik o'yinlarni pedagogik faoliyatda hamda bolalarning ta'limiy jarayonida qo'llashning zaif tomonlari.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bir xil o'yin takrorlanishidan bolalarning zerikishi.</li> <li>2. Bolalarning o'yin jarayoniga qiziqmasligi.</li> <li>3. Tarbiyachining bolalarni boshqara olmasligi.</li> <li>4. O'yinlarning bolalarga murakkablik qilishi.</li> </ol>
<b>O</b>	Matematik o'yinlarning imkoniyatlari.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Axloqiy fazilatlarining shakllanishi.</li> <li>2. Nutqiy muloqot ko'nikmalarining rivojlanishi.</li> <li>3. Ijtimoiy munosabatlarning yaxshilanishi.</li> </ol>
<b>T</b>	Matematik o'yinlarning to'siqlari	Bolalar asosan o'yin jarayonida zerikmasligi, mashg'ulotga o'yinni moslab tanlay olish murakkab ham, soddaham bo'lmisligi kerak.

Bola asta-sekin katta hayotga qadam qo'yar ekan, u har qadamida matematik ta'limga duch keladi, albatta. Nafaqat maktabgacha ta'lim tashkiloti, balki oilada ham bolaga yoshligidan matematikaga doir nazariy hamda amaliy bilimlar berib borilishi lozim. Boshlang'ich bilimlar qanchalik mustahkam bo'lsa, keyingi rivojlanish bosqichlarida bolalar qiyinchiliklarga

duch kelmaydi. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda matematik o'yinlarni qo'llash tarbiyalanuvchilarning ta'limiy jarayonlari hamda pedagogik faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

### Elementar matematik o'yin turlarining qiyosiy tahlili

O'yinlarning nomi	Afzalliklari	Kamchiligi
Miqdoriy munosabatlarni mustahkamlashga doir o'yinlar	Miqdoriy munosabatlarni mustahkamlash imkonini beradi	Bolalarda miqdoriy munosabatlarni mustahkamlashga ko'p vaqt ajratishni talab etadi
Predmetlar miqdor haqidagi tushunchalarni aniqlashtirishga doir o'yinlar	Predmetlar soni haqidagi tushunchalarni aniqlashtirish imkoniyatini yaratadi	Bolalarda predmetlarning soni va miqdori haqidagi tushunchalarni aniqlashtirish boshqa bir syujetga nisbatan qo'llanishiga yaroqsiz
Geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish	Geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish bo'yicha vazifalarini belgilab olish imkonini beradi	Geometrik shakllar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish xususiyatini belgilab olish uchun qo'llab bo'lmaydi

Matematik o'yinlarning imkoniyatlari juda keng hisoblanib, mashg'ulotlarning qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi. Mashg'ulot jarayonlari qanchalik mazmunli o'tishi pedagogning mahoratiga bog'liq. Pedagog, albatta, maktabgacha ta'lim

tashkilotida bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, mashg'ulot mavzusiga oid bo'lgan materiallarni to'g'ri tanlay bilishi kerak. Matematik o'yinlar, albatta, bolani mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash, miyasini charxlashga undaydi, shuning uchun


14 N.U.Bikbaeva., Z.I.Ibragimova., X.I.Qosimova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish. – t.: o'qituvchi, 1995 y

15 N.U.Bikbaeva., Z.I.Ibragimova., X.I.Qosimova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish. – T.: O'qituvchi, 1995 y

o'yinlarni tanlashda murakkab va soddaligiga katta ahamiyat berish lozim.

Agar bu jarayonlarga ahamiyat qaratilmasa, SWOT tahlilida ko'rinib turgan matematik o'yinlarning pedagogik faoliyatda hamda bolalarning ta'limiy jarayonidagi zaif tomonlari va to'siqlarga duch kelamiz.

Har bir narsaning afzalligi hamda kamchiligi bo'lgani singari elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda o'yinlarning afzalligi va kamchiligi qiyosiy tahlilini yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayonini tashkil etishda tarbiyachi har bir o'yin turlarini tanlashda bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olishi, mashg'ulot turiga mos ravishda tanlay bilishi kerak. Aks holda tarbiyalanuvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlari so'nishi hamda har xil muammoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin.



**1-rasm. "Juftini top", "Raqamni tasvirlab ber", "Yo'qolgan buyumni top", "Farqini top" o'yinlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazish natijasi<sup>1</sup>**

"Raqamni tasvirlab ber o'yini" esa - bu o'yin ham bolalarni befarq qoldirmadi, aksincha, bilimlarini mustahkamlashga turtki bo'ldi. Qolgan bolalarning qiziqishlari va istaklariga binoan "Yo'qolgan buyumni top", "Farqini top" o'yinlari ham o'ynaldi. Chunki har bir bolaning qiziqishlarini inobatga olish biz tarbiyachilarning burchimizdir.


Tadqiqotlarimiz mobaynida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida mashg'ulotlarni o'zlashtirish jarayonlari hafta kunlariga mos ravishda sinchkovlik bilan kuzatildi. Har mashg'ulot jarayonlarida bolalarning bilimlari mustahkamlanib, yanada oshib bordi.

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish muammosini o'rganish edi. Bunga erishish uchun biz tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik adabiyotlarni, maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish xususiyatlarini ko'rib chiqdik va tahlil qildik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda elementar matematikaga doir didaktik o'yinlar bo'yicha kuzatish va tadqiqotlarimizdan quyidagi natijalar kelib chiqdi. Bunda tarbiyalanuvchilar orasida eng ko'p tanlangan qiziqarli didaktik o'yin bu "Juftini top o'yini" bo'ldi. Bu o'yin bolalarda katta qiziqish uyg'otdi va geometrik shakllarni farqlash bo'yicha yaxshi natijalarga erishildi.

Bolaning namoyon bo'lgan qobiliyatini inobatga olish nafaqat ularni rivojlantirish uchun, balki uning iste'dodini tegishli oqimga yo'naltirish uchun ham zarur. Tadqiqotlarimiz shuni

ko'rsatdiki, o'yinlar va interaktiv usullar bolalarning matematik qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi, matematikada keng mo'ljal olish va matematik taassurotlar zahirasining to'planishiga sharoit yaratadi, "Ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga asos yaratadi.



**2-rasm. Geometrik shakllarni farqlash mashg'uloti bo'yicha tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirish darajasi<sup>2</sup>**

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning elementar matematik faolligi turli-tuman sharoitlarda: mashg'ulotlar jarayoni, teatrlashtirilgan faoliyat, qurish-yasash va konstruksiyalash markazlari o'yinlari, har bir faoliyat markazlarida o'stirildi. Bolalarning namoyon bo'lgan kuchli va zaif tomonlarini bilish nafaqat tarbiyachi balki ota-onalar tahlili uchun muhimdir. Biz tarbiyachilar ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishda mashg'ulot jarayonlarini matematik o'yinlar bilan boyitishimiz va yosh guruhlarga to'g'ri qo'llay olishimiz zarur.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berdik:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishning mavjud holatini o'rganish, ularning o'quv dasturlari tarkibi va mazmunini tahlil qilib chiqish asosida bolalarni maktabga tayyorlashning uzviy ketma-ketligi ishlab chiqildi va shu asosda ularga oid o'quv jarayonini tashkil qiluvchi shart-sharoitlar aniqlandi.

2. Bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishning optimal variantining tarkibiy qismlari: bolalarni maktabga tayyorlash strukturasi davlat taraqqiyoti bilan mos holda hamda bolalarni maktabga tayyorlashning metodika, metodik usul va mazmuni, pedagog-tarbiyachilar malakasini oshirish, o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish kabilari aniqlandi.

3. Bolalarga faoliyat jarayonida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning o'quv-metodik ta'minoti yaratildi hamda didaktik imkoniyatlari va afzalliklari, yo'llari va bosqichlari, usullari, bu jarayonda bajariladigan vazifalar aniqlandi.

4. Mashg'ulot jarayoniga kiritilayotgan metodika, metodik usullar, texnologiyalar va vositalar uning samaradorligi hamda sifatiga ijobiy ta'sir qildi, bolalar o'z fikrini erkin ifoda qilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Bunda pedagog-tarbiyachining vazifasi faqatgina

1 Kalendarova Z.K. "Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning turli o'yinlar yordamida matematik rivojlanish tahlili" // "Boshlang'ich ta'limni kompetensiyaviy tashkil etish: nazariya va amaliyot"

mavzudagi onlayn xalqaro ilmiy - amaliy anjuman materiallari. - Nukus, 2020. 28-aprel.

2 Tadqiqot davomida muallifning chizmasi



o'qitish, o'rgatish bo'lmasdan bolalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishdan iborat bo'lishi aniqlandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2707-sonli Qarori. 2016-yil, 29-dekabr.
3. Михайлова З.А. "Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста" / З.А. Михайлова [и др.]. - СПб.: Детство-Пресс, 2008. - 384 с.
4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Evstafeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. Toshkent, 2018-yil
5. Rahmonqulova Z. "Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirish". Metodik qo'llanma. - T., 2007
6. Sh.Shodmonova. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi". - T.: Fan va texnologiya, 2008
7. Bikbaeva N.U. "Bolalar bog'chasida matematika mashg'ulotlarini rivojlantirish". -T., 1998.
8. Asqarova Dilorom Qurbonovna. "Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi". Metodik qo'llanma.- Namangan., 2020.
9. M.E.Jumayev. "Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi". - T., 2007.
10. Бикбаева.Н.У., Ибрагимова.З.И., Қосимова.Х.И., "Мактабгача тарбия ёшидаги болаларда элементар математик тасавурларни шакллантириш". - Т.: Ўқитувчи, 1995-й.
11. Михайлова А., Носова Э. Д., Столяр А. А., Полякова М. Н., Вербенец А. М. "Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста". - Издательство «Детство-пресс». Санкт-петербург, 2008.
12. Э.И.Тихева.Характеристика методики формирования элементарных математических представлений у детей дошкольного возраста как науки и учебной дисциплины
13. <https://xs.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-maktabgacha-talim-tizimini-2030-jilgacha-rivozhlantirish-kontseptsiyasi-amalda>
14. Календарова З.К. "Мактабгача ёшдаги болаларда дастлабки математик тасавурларни шакллантириш" // Педагогика. – Тошкент, 2019. -№3.
15. Календарова З.К. «Мактабгача таълим ёшидаги болаларда математик тасавурларни шакллантиришнинг замонавий назарияси ва методикаси» номли электрон таълим ресурси. Ўзбекистон Республикаси Интеллектуал мулк Агентлиги патенти. – Тошкент, 2020.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI  
OLIY ATTESTATSIYA  
KOMISSIYASI

100047, Toshkent sh., Y. G'ulomov ko'chasi, 70  
Tel.: (71) 233-28-83, Fax: (71) 233-06-47  
e-mail: info@oak.uz www.oak.uz



SUPREME ATTESTATION  
COMMISSION  
AT THE CABINET OF MINISTERS  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

70, Y. G'ulomov str., Tashkent, 100047  
Tel.: (71) 233-28-83, Fax: (71) 233-06-47  
e-mail: info@oak.uz www.oak.uz

Javob qaytarganda iltis № ko'rsatilsin  
When you answer show this №

№01-02(89)G x 12 v 2 2022 y.

**Кўкон университети  
ректорига**

Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Сизнинг 2022 йил 14 апрелдаги 01/700-сонли мурожаатингизга жавобан **иктисодиёт фанлари** бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари юзасидан диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига **“Кўкон университети хабарномаси/Вестник Кокандского университети/Kokand University Herald”** илмий электрон журнали киритилганлигини маълум қилади.

Асс: Кўкон университетининг мурожаати (14.04.2022 й., №01/700); ОАК Иқтисодиёт фанлари бўйича экспертиза хатини (11.08.2022 й., №8); ОАК Тартиб-қоида комиссиясининг қарори (10.08.2022 й., №8/9а); ОАК Раёсатининг қарори (12.08.2022 й., №321/6).

**Бош илмий котиб**

**А.Шермухамедов**

**QO‘QON UNIVERSITETI  
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY  
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО  
УНИВЕРСИТЕТА**

3/2022

ISBN: 2181-1695

Bosishga ruxsat etildi 2022-yil 26-may.  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8 «Libre Franklin, Montserrat» garniturasini.  
Shartli bosma tabog‘i 5. Adadi 20 nusxa.  
Buyurtma rakami № 0102. Baxosi shartnoma asosida.  
“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” bosmaxonasida  
chop etildi.